B.S. MAMATOV

# PENSIYA JAMG‘ARMASI FAOLIYATI

TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

B. S. MAMATOV

# PENSIYA JAMG‘ARMASI FAOLIYATI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT–2017

**UO'K: 364-061.1(075)**
**KBK: 65.27ya7**
**M-23**

**B.S.Mamatov. Pensiya jamg'armasi faoliyati. O'quv qo'llanma.–T.: «Barkamol fayz media», 2017, 280 bet.**

**ISBN 978-9943-5142-8-7**

O'quv qo'llanma "Pensiya jamg'armasi faoliyati" fani dasturi asosida yozilgan bo'lib, unda "Pensiya jamg'armasi faoliyati" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, pensiyaning mazmun-mohiyati va xususiyatlari, Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilishi, asosiy vazifalari va funksiyalari, Pensiya jamg'armasining zarurligi, ahamiyati va fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish tizimidagi o'rni, Pensiya jamg'armasi faoliyatining huquqiy-me'yoriy asoslari, Pensiya jamg'armasi faoliyatini boshqarish, budjetini tuzish, tasdiqlash va ijro etish, Pensiya jamg'armasi daromadlari va uning mablag'laridan foydalanish, Pensiya jamg'armasi faoliyati nazorati, Pensiya jamg'armasi faoliyatida axborot ta'minoti hamda Pensiya jamg'armasi taraqqiyoti istiqbollariga oid masalalar yoritilgan.

Kitob talabalar, magistrantlar, katta ilmiy xodim va mustaqil izlanuvchilar, iqtisodiyo'nalishdagioliyo'quvyurtlarining pedagog-xodimlari, mamlakatning pensiya tizimida faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotchi-mutaxassislar va pensiya muammolari bilan qiziquvchi barcha o'quvchilarga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**
**B.A.Begalov** – *iqtisod fanlari doktori, professor*

***Taqrizchilar:***

**A.V.Vaxabov**– *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, "Makroiqtisodiyot" kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor;*

**M.D.Ziyadullayev** – *O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi direktorining birinchi o'rinbosari;*

**D.Yu.Xo'jamqulov**–*Toshkent moliya instituti "Baholash ishi va investitsiyalar" kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.*

**ISBN 978-9943-5142-8-7**

© «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017.

## SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017– 2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi boshqa ijtimoiy ustuvorliklar bilan birgalikda, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishdagi asosiy vazifalarni belgilab beradi. Ushbu vazifalar qatorida “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi” talablariga muvofiq darsliklar va o‘quv-metodik adabiyotlar yaratish, tarjima qilish va nashr etish ishlari alohida muhim o‘rin egallaydi.

Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 20-aprel PQ-2909-sonli Qarori bilan belgilab berilgan “Yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta’lim muassasalarining ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv, o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish” borasidagi dasturiy ko‘rsatmalarni amalga oshirish maqsadida Toshkent moliya instituti “Pensiya ishi” kafedrasi dotsent B.Mamatov tomonidan fuqarolarning pensiya ta’minotini tashkil qilish nazariyasi va amaliyotini o‘zida aks ettirgan xorijiy adabiyotlarning tarjimasiga asoslangan “Pensiya jamg‘armasi faoliyati” nomli o‘quv qo‘llanma tayyorlangan.

Bugungi kunda mutlaqo yangi talablar asosida yaratilayotgan o‘quv adabiyotlari talabalarning mustaqil ishlanishini faollashtirish, olingan bilimlarni boyitish va mustahkamlash, yangi kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Ana shunday talablar asosida tayyorlangan “Pensiya jamg‘armasi faoliyati” nomli o‘quv qo‘llanmada “Pensiya jamg‘armasi faoliyati” fani dasturiga muvofiq holda, pensiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy voqelik sifatidagi mohi-

yati va ahamiyati, Pensiya jamg‘armasining asosiy vazifalari, zarurligi, ahamiyati, Pensiya jamg‘armasi faoliyatining tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy asoslariga oid masalalar yoritilgan.

O‘quv qo‘llanmaning bir qator mavzulari xorijiy davlatlarda pensiya munosabatlarini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan xorijiy adabiyotlardagi materiallarning ingliz tilidan tarjimasi asosida keltirilgan.

O‘quv qo‘llanma pensiya ta’minoti borasidagi zamonaviy fan asoslarini o‘rganish va Pensiya jamg‘armasi faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi, deb ishonch bildiramiz.

O‘quv qo‘llanma talabalar, magistrantlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar, iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarining pedagog-xodimlari, pensiya tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan amaliyotchi-mutaxassislar va pensiya masalalari bilan qiziquvchi barcha o‘quvchilarga mo‘ljallangan.

***Toshkent Moliya instituti***
***rektori, iqtisod fanlari doktori,***
***professor N.Xaydarov.***

# KIRISH

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi ijtimoiy soha tizimida yangi sahifa ochdi. Bozor munosabatlariga o‘tish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholining ijtimoiy ta’minotini aniq manzilli va maqsadli ijtimoiy himoya qilish tizimi barpo etildi. Pensiya jamg‘armasi, ijtimoiy nafaqalar, pensiyalar va nafaqalar indeksatsiyasi kabi tushunchalar va tuzilmalar amal qila boshladi. Alohida bir fuqaroga, fuqarolar toifalariga boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlar yaratib berish orqali ularning to‘laqonli hayot kechirishini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui shakllantirildi. Pirovardida, O‘zbekiston dunyoning eng baxtli davlatlari ro‘yxatida 47-o‘rinda joylashdi, undan keyingi pog‘onalardan esa Italiya (48), Rossiya (49) va Yaponiya (51) kabi davlatlar joy oldi[1].

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: “Barcha islohotlarning – iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi – insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iboratdir”[2]. Ushbu vazifaning ijobiy hal etilishi, aynan, ijtimoiy sohalar taraqqiyotiga bevosita bog‘liqdir.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining muhim bir yo‘nalishi sifatida qabul qilinishi[3] sohaning davlat ijtimoiy siyosatida dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi[4].

---

[1] BMT buyurtmasiga ko‘ra “Sustainable Development Solutions Network” tashkiloti tomonidan Xalqaro baxt kuni – 20-martga atab tayyorlangan baxt bo‘yicha Jahon hisoboti.

[2] Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – T.: “O‘zbekiston”, 1995. – B.119.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

[4] Begalov B.A. Pensiya tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan




O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida: “Soliq-budjet siyosatiga qat’iy amal qilish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish... – ushbu eng muhim vazifalarni amalga oshirish, avvalo, Moliya vazirligi va shaxsan vazirning faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi”[5], deb ta’kidlanganligi g‘oyatda ahamiyatlidir. Albatta, davlatning ijtimoiy majburiyatlarining bajarilishi, o‘z navbatida, budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan to‘lanadigan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni ham qamrab oladi. Bunda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning aniq hisob-kitob qilinishi, o‘z vaqtida to‘liq hajmda to‘lanishi Pensiya jamg‘armasining samarali faoliyat ko‘rsatishiga bog‘liqdir.

Jahon amaliyotida pensiya fondlari har bir davlatning eng muhim moliyaviy institutlaridan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyat ko‘rsatishi ijtimoiy farovonlikning darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, pensiya tizimi har qanday davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, har yili u orqali yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning ma’lum bir qismi qayta taqsimlanadi. Bu ko‘rsatkich Italiyada 14,2 foizni, Fransiyada 13,3 foizni, Germaniyada 12,3 foizni, Shvetsiyada 11,3 foizni, AQSHda 6,3 foizni, Buyuk Britaniyada 6,4 foizni, Kanadada 6 foizni, Yaponiyada 5,7 foizni va Rossiyada 6,5

---

samarali foydalanish yo‘llari. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezislar to‘plami. 2017-yil 14-mart. – T.: “IQTISOD MOLIYA”, 2017. – B. 3.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi: Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.

foizni tashkil qiladi[6]. Shu boisdan ham so‘nggi yillarda jahon mamlakatlarida davlat tomondan pensiya ta’minoti va pensiya fondlari faoliyati taraqqiyotiga, ularning barqaror faoliyatini ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘quv qo‘llanmaning 1-bobida pensiyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari, Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilishi, asosiy vazifalari va funksiyalari, shakllanish tarixi, pensiya ta’minotini mablag‘ bilan ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyati ifodalangan.

O‘quv qo‘llanmaning 2–4-boblarida Pensiya jamg‘armasi faoliyatining huquqiy-me’yoriy asoslarini, pensiyalarni tayinlash va to‘lash munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni, pensiya qonunchiligidagi so‘nggi o‘zgarishlarni, Pensiya jamg‘armasi faoliyatini boshqarish, budjetini tuzish, tasdiqlash va ijro etish jarayonlarini o‘quvchilar e’tiboriga yetkazishga harakat qilingan.

5–6-boblarda Pensiya jamg‘armasi daromadlarining mazmuni, manbalari, tarkibi va tuzilishi, yagona ijtimoiy to‘lov, sug‘urta badallari, majburiy ajratmalar va boshqa daromadlar, Pensiya jamg‘armasi daromadlari barqarorligini ta’minlash masalalari, xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari daromadlarining shakllanish manbalari, shuningdek, Pensiya jamg‘armasi xarajatlarining mazmuni va tarkibi, Pensiya jamg‘armasidan amalga oshiriladigan pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar hamda xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari mablag‘laridan foydalanish masalalari bayon qilingan.

O‘quv qo‘llanmaning 7-bobida Pensiya jamg‘armasi faoliyati nazoratining mazmuni, vazifalari va ahamiyati, turlari, Pensiya jamg‘armasi faoliyatini nazorat qilishda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Hisob palatasi, Nazorat-taftish bosh boshqarmasining asosiy vazifalari va funksiyalari aks ettirilgan.

Pensiya jamg‘armasi faoliyatida axborot ta’minotining o‘rni va ahamiyati, avtomatlashtirilgan PK “Pensiya” dasturi, uning mazmuni, maqsadi, vazifalari va ishlash mexanizmi, “SMS-Pensiya” interaktiv xizmatlari o‘quv qo‘llanmaning 8-bobida bayon qilingan.

---

[6] Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К°», 2009. – С. 7.

Va nihoyat, pensiya ta'minotining xorij tajribalari va xususiyatlari, O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining uzoq muddatli istiqbolda barqaror amalga oshirilishini ta'minlash masalasi o'quv qo'llanmaning 9-bobida o'z aksini topgan.

Har bir bobning oxirida o'ziga xos tarzda bahs-munozara va nazorat uchun keltirilgan savollar tegishli mavzularni chuqur, o'zlashtirishda takrorlash va tekshirish orqali uni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

# 1-bob. "PENSIYA JAMG'ARMASI FAOLIYATI" FANIGA KIRISH

## 1.1. Fanning maqsadi va vazifalari, pensiyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari




O'zbekistonda aholini kuchli ijtimoiy himoyalash iqtisodiy taraqqiyotning "O'zbek modeli"da besh asosiy tamoyilning biri sifatida e'tirof etilgan va fuqarolarni ijtimoiy himoyalash tizimida zarur chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish lozimligiga alohida urg'u berilgan. Bunda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga iqtisodiy madad berish orqali fuqarolarning moddiy holatini yaxshilash, bozor islohotlarini ijtimoiy larzalarsiz amalga oshirish, pensionerlar va nogironligi bo'lganlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoyalash asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar milliy pensiya tizimining ahamiyati yanada ortib borishiga xizmat ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan sohaning bo'lg'usi mutaxassislari davlat pensiya ta'minoti tizimi bo'yicha zarur bilim, tasavvur, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari talab etiladi. Bunda ularning "Pensiya jamg'armasi faoliyati" fanini puxta o'rganishi muhim ahamiyat kasb etadi.

"Pensiya jamg'armasi faoliyati" fanining predmetini Pensiya jamg'armasi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan huquqiy, tashkiliy, moliyaviy va iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi. Fanning asosiy maqsadi – talabalarda Pensiya jamg'armasi faoliyati yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish va chuqurlashtirishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, fanning vazifasi – uni o'rganuvchilarga:

– pensiyaning nazariy asoslarini va xususiyatlarini;

– Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilishi, asosiy vazifalari va funksiyalarini hamda Pensiya jamg'armasi faoliyatining huquqiy-me'yoriy asoslarini;

– Pensiya jamg'armasi faoliyatini boshqarishning tashkiliy asoslarini;

– Pensiya jamg'armasi budjetini tuzish, tasdiqlash va ijro etish jarayonlarini;

– Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari tarkibini;

– Pensiya jamg'armasi faoliyati nazoratini;

– Pensiya jamg'armasi faoliyatida axborot ta'minotini;

– Pensiya jamg'armasi taraqqiyoti istiqbollarini o'rgatishdan iborat.

"Pensiya jamgarmasi faoliyati" – ixtisoslik fani hisoblanadi va talabalar o'quv rejada rejalashtirilgan "Iqtisodiyot nazariyasi", "Moliya", "Soliqlar va soliqqa tortish" kabi fanlar bo'yicha ham bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

"Pensiya" atamasi bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning har kunlik qo'llaniladigan, ajralmas tushunchalaridan biriga aylangan. Pensiya bilan bog'liq munosabatlar ushbu iqtisodiy atamaning mazmun-mohiyati, kelib chiqishi, ahamiyati, u haqida turli vaqtlar va davlatlarda iqtisodchi olimlar, mutaxassislar tomonidan turlicha qarashlar, talqin-ta'riflarni o'rganishga bo'lgan qiziqish va intilishlarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan va ko'rsatmoqda. Pensiya atamasi lotincha "*pensio*" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "*to'lov*" ma'nosini anglatadi. Pensiyalar ijtimoiy ta'minotning muhim ko'rinishi hisoblanib, amaldagi qonunchiligimizga ko'ra "pensiya – uni olish huquqi qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironligi bo'lgan yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi"[7] sifatida ta'riflanadi.



O'zbekiston iqtisodchi-olimlaridan T.Malikov fikricha: "pensiya – qarilik, nogironlik, xizmat qilgan yillari uchun va boquvchisini yo'qotganda fuqarolarni moddiy jihatdan ta'minlash uchun pul summalarining kafolatlan-

[7] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-sonli Qarorining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 2-bandi, 2-xatboshi.

gan har oylik to'lovi"[8]. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda "Ishlovchilarning pensiya jamg'armasiga to'lovlari, iqtisodiy nuqtayi nazardan ular ish haqining bir qismidir. U ishchi kuchining qiymatiga kiradi, ammo institutsional muayyan kechiktirilgan muhlatda amalga oshiriladi, bu ishlovchilarning Pensiya jamg'armasiga qo'ygan va qaytarilishi lozim bo'lgan o'ziga xos maqsadli ulushi, omonatidir"[9] deya ta'riflangan.

Pensiyaning mohiyati bo'yicha iqtisodiy adabiyotlarda quyidagi ta'riflar ham mavjud: "Pensiya – belgilangan (pensiya) yoshiga yetganida, nogironlik yuz berganda, boquvchisi yo'qotilganda, shuningdek, belgilangan muddat xizmat qilgani uchun va davlat oldida alohida xizmatlari uchun fuqarolarning davlat yoki sobiq xodimlarning sobiq ish beruvchilari tomonidan muntazam pul daromadlari bilan ta'minlanishi"[10]. "Pensiya – sug'urtalangan shaxsga uning yo'qotilgan muayyan daromad miqdorini belgilab turuvchi darajasining kompensatsiyasidir"[11]. Pensiya ta'minoti davlatning muhim ijtimoiy kafolatlari hisoblanib, mehnatga layoqatsiz fuqarolar manfaatlarini ifodalaydi[12].



AQSHning Arizona universiteti professori J.Peng tadqiqotlarida pensiya ta'minotiga oid qarashlar bayon etilgan bo'lib, u ishlovchilarning mehnat faoliyatidan keyingi moliyaviy barqarorligining keskinlashuvini hamda pensiya ta'minotining dolzarb masalalarini ko'tarib chiqadi. J.Peng pensiyani fuqarolarning qarilikdagi moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim daromad manbai ekanligini e'tirof etib, mazkur tizimda hozirdagi mavjud muammolarni va istiqboldagi o'zgarishlarni

[8] Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: "Noshir", 2012. – B. 676.

[9] Allayarov Sh., Toshmuxamedova D. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – B. 232.

[10] Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. Darslik. – T.: "infoCom.UZ" MChJ nashriyoti, 2010. – B. 367.

[11] Umurzakov B.X. Pensiya badali soliq to'lovlaridan nima bilan farqlanadi?. – T.: "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 1-son, 2011. – B. 5.

[12] Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К°», 2009. – С. 7.

tadqiq etadi. Pensiya ta'minotiga ta'sir etuvchi omillar sifatida esa quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: hozirgi yosh avlodning pensiyaga chiqish istiqboli; AQSH va butun dunyoda aholining umrguzaronligi; ijtimoiy va tibbiy sug'urtaga oid milliy dasturlar uchun moliyaviy resurslarning taqchilligi; xususiy tarmoqdagi ishchi-xodimlar uchun an'anaviy pensiya ta'minotining yo'qolib borayotganligi; davlat sektoridagi ishchi-xodimlar uchun pensiyalar taqdim etish bahosining oshishi; tibbiyot xarajatlarining yuqori darajada o'sishi.



AQSHda ishlovchilarning pensiyaga chiqqandan keyingi moddiy ta'minoti, odatda, uch manba: ijtimoiy ta'minot, ish beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan pensiyalar, shuningdek, shaxsiy omonatlardan iborat bo'ladi. Ushbu uch manba birgalikda fuqarolarning qarilikda moddiy xavfsizligini *ta'minlab berishi lozim bo'ladi*[13]. Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda ham pensiya "to'lov" ma'nosida ifodalanib, ijtimoiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan talqin etiladi.

Umuman olganda, fuqarolarga davlat yoki boshqa subyektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va, odatda, umrbod to'lanadigan to'lovlarga pensiya deyiladi va ijtimoiy ta'minotning muhim shakli hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, pensiyaning ijtimoiy-iqtisodiy tavsifini quyidagicha izohlash mumkin:(1.1 rasm)

Pensiya tizimining asosiy iqtisodiy funksiyasi – jamiyat a'zolarining iqtisodiy munosabatlarida mehnatga layoqatlilar va mehnatga layoqatsizlar, keksa va yosh avlod hamda ayollar va erkaklar o'rtasidagi mavjud iqtisodiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etishdir. Pensiya ta'minotining bu iqtisodiy funksiyasi muayyan xususiyatga ega bo'lib, unda jamiyatda moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchilar va mehnatga layoqatsizlarning iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirishdan iborat.

[13] Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 2-5.




*1.1-rasm. Pensiyaning ijtimoiy-iqtisodiy tavsifi.*

Demak, yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar asosida "pensiya" atamasini quyidagicha tushunish mumkin: fuqarolarning qonunchilikda belgilangan keksalik yoshiga yetganida, nogironligi bo'lganligi tufayli mehnat faoliyatini yo'qotganida, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda qonunchilikda belgilangan shartlar va me'yorlar asosida beriladigan har oylik to'lovlarga pensiya deyiladi. Pensiya ta'minoti esa ushbu to'lovlarni maxsus Pensiya jamg'armalari mablag'lari hisobidan fuqarolarga *to'lanishining ta'minlanishidir.*

## 1.2. Pensiya jamg'armasining shakllanish tarixi va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimidagi o'rni

Rejali iqtisodiyot sharoitlarida pensiya ta'minoti tizimi davlat ijtimoiy ta'minotining tarkibiy qismi hisoblangan bo'lib, nafaqat, pensiya ta'minoti yoki moddiy yordam, balki ijtimoiy, tibbiy, sanatoriy va kurort xizmatlari, mehnatga layoqatsiz hamda keksalarni ta'minlash kabi har xil shakllarni qamrab olgan edi. Pensiya ta'minoti davlat budjetidan, ya'ni umumiy soliq tushumlari hisobiga moliyalashtirilgan edi. Bunda alohida institut ko'rinishidagi Pensiya jamg'armasini tashkil qilishga zarurat tug'ilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 14-yanvardagi 9-sonli qaroriga asosan Pensiya fondining O'zbekiston jumhuriyat bo'limi tashkil etilgan[14]. Ijtimoiy ta'minot tizimida davlat

[14] http://pfru.uz/uz/articles/5/. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 4-avgustdagi 391-sonli "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ijtimoiy sug'urta jamg'armasining

kafolatlarini amalga oshirish hamda ijtimoiy sug'urta mablag'larining to'g'ri va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashining 1993-yil 4-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ijtimoiy sug'urta jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi 391-sonli Qaroriga muvofiq, sobiq Ittifoq Pensiya fondining O'zbekiston Respublika bo'limi negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etilgan. Unga O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi tizimidan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha, farzand tug'ilganda, dafn etishga beriladigan nafaqalarni to'lashga yo'naltiriladigan davlat ijtimoiy sug'urta mablag'lari berilgan.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, pensiya ta'minoti uchun majburiy badallarning to'liq kelib tushishi hamda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha pensiya va nafaqalarni to'lashga xarajatlarni o'z vaqtida moliyaviy ta'minlash uchun ijtimoiy ta'minot organlarining mas'uliyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 27-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzurida Pensiya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi[15] 459-sonli Qarori qabul qilindi. Unga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi negizida O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi va ijtimoiy ta'minot mahalliy organlari qoshida tegishli hududiy bo'linmalari va bo'limlari bo'lgan Pensiya jamg'armasi tashkil etilgan. Ushbu jamg'arma zimmasiga bir qator vazifalar yuklatilgan hamda uning faoliyat yo'nalishlari belgilab berilgan: davlat ijtimoiy sug'urtasiga badallar va ajratmalarni yig'ish va jamlash; ijtimoiy sug'urta bo'yicha pensiya va nafaqalarni belgilangan miqdorlarda to'lash xarajatlarini mablag' bilan ta'minlash;

tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan.

[15] Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-noyabrdagi 444-sonli "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

mablag'lardan belgilangan maqsadda foydalanishni nazorat etish; pensionerlar, nogironligi bo'lgan aholining boshqa toifalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir davlat dasturlarini mablag' bilan ta'minlashda shartnoma asosida ishtirok etish; pensiya ta'minoti bilan bog'liq muammolar bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish kabilar shular jumlasidandir.

Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini ko'paytirish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[16] 444-sonli Qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, 2001-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan to'lanadigan nafaqalarni o'z vaqtida hisoblash va to'lash funksiyalari yuklatildi.

Ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to'lashga yo'naltiriladigan mablag'larning maqsadli va aniq sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek, Pensiya jamg'armasini samarali boshqarishni tashkil etish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktabrdagi "Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 490-sonli qaroriga[17] asosan, 2005-yil 1-yanvardan boshlab Pen-

---

[16] Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktyabrdagi "Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 490-sonli Qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan.

[17] Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 24-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ba'zilarini

siya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasiga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari fuqarolarning pensiya ta'minoti va tibbiy-mehnat ekspertizasi (TME) masalalarining butun kompleksi uchun mas'ul bo'lgan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimiga kiruvchi funksiyalar hamda tegishli tuzilmalarni topshirish hisobiga tashkil etildi.

Iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda, jumladan, AQSHda pensiya fondlarining davlat tomonidan boshqarilishi pensiyaga chiqish davlat dasturlari ijrosiga mas'ul shaxslar bilan barcha asosiy masalalarning bazaviy va tizimli muhokama qilinishini ta'minlaydi. Ularda ham pensiya tizimining shakllanish tarixi chuqur o'rganiladi, bunda pensiya sug'urtasi va tarkibi, moliyaviy hisobotlar, pensiya jamg'armasi aktivlarini investitsion boshqarish masalalariga alohida e'tibor beriladi[18].



Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda hozirgi pensiya tizimining shakllanishini to'rt bosqichga bo'lish mumkin (1-ilova).

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bu – aholining kam ta'minlangan, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz qismini pul mablag'lari bilan ta'minlovchi mustaqil moliyaviy organ. Ushbu jamg'arma: pensiya va bolalar nafaqasini to'lash hamda ularni moliyalashtirishni amalga

o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" 52-sonli (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2009-yil 30-dekabrdagi PF-4161-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2009-yil 30-dekabrdagi PQ-1251-sonli hamda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2009-yil 30-dekabrdagi PQ-1252-son qarorlari)"gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

[18] Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 29-35.

oshirish uchun markazlashtirilgan holda pul mablag'larini jamlash; respublika va mahalliy darajadagi strategik rejalarni, ayniqsa, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni moliyalashtirishda faol qatnashish; o'z-o'zini moliyalashtirish prinsiplari va tijorat faoliyati asosida fond mablag'lari miqdorini oshirish kabi vazifalarni bajaradi. Bundan tashqari, Pensiya jamg'armasi davlat ijtimoiy sug'urta badallari stavkalarini belgilashda, nafaqa ta'minoti va ijtimoiy rejalarni ishlab chiqish bo'yicha takliflarni tayyorlashda bevosita qatnashadi, shuningdek, sug'urta badallarining o'z vaqtida to'liq kelib tushishi va ularning to'g'ri sarflanishi ustidan nazoratni ta'minlaydi.

Pensiya jamg'armasining asosiy tamoyili "avlodlar birdamligi" hisoblanadi. Chunki, inson hamma vaqt birdek kuch-g'ayratli bo'lmaydi. Mohiyatan olib qaralganda, inson yoshlik vaqtlaridan boshlab keksalikdagi farovonlikni ta'minlash maqsadida Pensiya jamg'armasi ixtiyoriga pul o'tkazib boradi va ma'lum vaqt o'tgandan so'ng o'zi jamg'argan mablag' hisobidan pensiya oladi.



Davlat tomonidan kafolatlangan pensiyalar bozor iqtisodiyotiga o'tishda mamlakat aholisini kuchli ijtimoiy himoya qilish prinsipiga tayangan holda hamda milliy valutaning inflatsiya darajasini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmonlariga asosan keyingi 10 yil mobaynida har kalendar yilda kamida ikki marta ma'lum miqdorlarda indeksatsiya qilib borilmoqda.

Mamlakatimizda YaIMning barqarorligi, iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning yuqori o'sish sur'atlari, davlat budjetining profitsit bilan ijro etilishi, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash tizimini moliyalashtirishga qulay sharoit yaratmoqda. Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega bo'lgan Jahon iqtisodiy forumi reytingiga ko'ra, O'zbekiston 2014–2015-yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016–2017-yillarda iqtisodiy o'sish prognozlari bo'yicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgani, albatta, barchamizga mamnuniyat bag'ishlaydi. Bundan tashqari, 2015-yilda mamlakatimiz BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga a'zo davlatlarning

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'lgan 14 ta davlatdan biri sifatida"[19] tan olingan.



Ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholini kafolatli himoya qilish davlatning eng muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi hisoblanib, har bir mamlakat ijtimoiy himoya tizimining miqdor va sifat ko'rsatkichlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining darajasidan dalolat beradi. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 25-moddasida "Har bir inson ... ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega"[20] ekanligi ko'rsatilgan. Bu huquqlar aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi tomonidan ta'minlanadi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi uchta asosiy shaklda amalga oshiriladi:

- ijtimoiy ta'minot;
- ijtimoiy sug'urta;
- ijtimoiy yordam.

Shu bilan bir qatorda, aholining ijtimoiy muhofaza qilishning davlat va nodavlat shakllari amal qiladi, farqlanadi (2-ilova).

Fuqarolar ayrim toifalarini davlat budjeti hamda budjetdan tashqari maxsus fondlar mablag'lari hisobidan moddiy ta'minlashga yo'naltirilgan davlatning ijtimoiy yordam ko'rsatish shakliga ijtimoiy ta'minot deyiladi. Fuqarolarga bunday yordam davlat tomonidan ijtimoiy

---

[19] O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi: Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir.

[20] Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. – T.: "Adolat", 2004. – B. 35.

jihatdan muhim deb e'tirof etilgan hollarda ko'rsatiladi. Ana shu yordamdan aholining nochor qatlamlari ahvollarini jamiyatning boshqa a'zolari bilan imkoniyat darajasida tenglashtirish maqsadi ko'zlanadi.

Ijtimoiy sug'urta – davlat tomonidan belgilab qo'yilgan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan, davlat maqsadli, budjetdan tashqari ijtimoiy sug'urta fondlari, shuningdek, boshqa jamoaviy va xususiy sug'urta fondlari mablag'lari hisobiga keksa yoshdagi, mehnatga layoqatsiz fuqarolarni moddiy ta'minlash, qo'llab-quvvatlash tizimi.

Davlat ijtimoiy yordami mehnatga layoqatsizligi, ishsizligi, daromad manbai mavjud bo'lmaganligi sababli mustaqil ravishda o'zini moddiy ta'minlay olmagan shaxslarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam hisoblanadi. Bu yordam turining hajmi shaxs daromadi yoki aholining umumiy turmush darajasi bilan bog'liq bo'lmaydi.

Ijtimoiy yordam doirasidagi nafaqa va yordam pullari faqat amaldagi qonunchilikda belgilab qo'yilgan aholi toifalariga beriladi. Mazkur himoya institutining asosiy jihati – bu aholining kam ta'minlangan guruhlariga (bolalikdan nogiron, katta yoshda nogironligi bo'lgan shaxslar, pensiya olish uchun zarur sug'urta maqomiga ega bo'lmagan fuqarolarga) davlatning ijtimoiy-shartnomasiz yordam ko'rsatishi.

Aholining ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand subyektlariga quyidagilar kiradi:

1. Pensionerlar, aholining bu guruhi pul ta'minoti huquqiga ega fuqarolar bo'lib, ularning bu huquqi tegishli qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Muayyan yoshga yetgan fuqarolar pensiyaga chiqish huquqiga egalar. Nogironlikning tegishli guruhi belgilangan shaxslar, oila boquvchisining qaramog'idagi mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari, shuningdek, boquvchisidan ajralgan bolalar (14 yoshgacha bo'lgan bolalar) parvarishi bilan mashg'ul shaxslar, uzoq vaqt muayyan kasbiy faoliyatni bajarib kelgan xodimlarning ayrim toifasi, ichki ishlar idoralarida harbiy xizmatni o'taganlar, ularning oila a'zolari ham aholining pensiya ta'minoti huquqiga ega toifasiga kiradi. Shu bilan birga, aholining bu toifasiga korxona, muassasa, tashkilotda ishlayotgan pensiya oluvchi fuqarolar ham kiradi. Ishlayotgan pensionerlarga yoshga doir pensiyalar 50,0 foiz miqdorida naqd shaklda to'lanadi;

2. Nogironligi bo‘lgan, aholining bu toifasiga jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi, yashash faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxslar kiradi. Bu toifadagi shaxslar hayot faoliyatini cheklashga olib kelgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qilib qo‘ygan jarohat yoki nuqsonlar, kasalliklar bo‘yicha aniqlanadi. Organizm funksiyasining buzilish darajasiga bog‘liq holda va hayot faoliyati cheklanganligiga ko‘ra birinchi va ikkinchi guruh nogironligi belgilanadi. Nogironligi bo‘lgan bolalar jismoniy yoki aqliy, sezgi nuqsonlari borligi tufayli hayot faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslardir. 16 yoshgacha bo‘lgan bolalarni nogiron deb topish tibbiy maslahat komissiya (TMK) lari tomonidan, 16 yoshdan 18 yoshgacha esa – tibbiy-mehnat ekspert komissiya (TMEK) lari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

3. Kam ta’minlangan oilalar, ular daromadlari tirikchilik uchun eng kam miqdordan yuqori bo‘lmagan oilalardir. Kam ta’minlanganlik chegarasi mutaxassislar tomonidan me’yoriy iste’mol savatchasi miqdoridan kelib chiqib belgilanadi. Hozirgi vaqtda yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga o‘tilishi munosabati bilan bu chegarani belgilash ancha murakkab masala hisoblanadi. Kam ta’minlangan oilalarga ko‘p bolali, boquvchisini yo‘qotgan, nafaqa oluvchi oilalar kiradi;

4. Ishsizlar, aholining bu toifasiga ishsiz va daromad topish manbai bo‘lmagan mehnatga layoqatli fuqarolar kiradi. Bu toifadagi fuqarolar aholining ish bilan bandligi xizmatida ishsiz sifatida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tishlari talab qilinadi.

Aholining ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand subyektlariga, shuningdek, quyidagilar ham kiradi: homilador va yosh bolalarga qarash bilan bandligi tufayli ishlamayotgan ayollar; kasalligi tufayli vaqtincha ishlamayotgan fuqarolar; o‘quvchi yoshlar; mehnatga layoqatsiz shaxslarning parvarishi bilan band bo‘lgan, ishlamayotgan mehnatga layoqatli fuqarolar.

Fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish tizimida Pensiya jamg‘armasining o‘rni shundaki, bunda davlat tomonidan kafolatlangan pensiya ta’minoti tizimida boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, daromadlarga mo‘ljallangan majburiy badal, yig‘im va ajratmalarni to‘liq yig‘i-

lishini ta'minlash, shuningdek, aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish uchun moliyalashtirish chora-tadbirlarini o'z vaqtida va to'liqligicha ta'minlashga erishish hisoblanadi. Pensiya jamg'armasi ijtimoiy ta'minot tizimining xalqimizga xos noyob tizimi bo'lib, xalq farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni amalga oshirishda mustahkam tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to'liq hajmda to'lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4161-sonli Farmoniga muvofiq Pensiya jamg'armasi vazifalari O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining[21] fuqarolar pensiya ta'minoti va TME uchun mas'ul ayrim bo'linmalarining funksiyalarini topshirish hisobidan kengaytirildi.

Xulosa qilib aytganda, Pensiya jamg'armasi fuqarolarning keksaygan chog'ida yoki nogironlik tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotganda, shuningdek, o'z boquvchisini yo'qotgan hollarda, davlat tomonidan kafolatgan ijtimoiy ta'minot olishini ro'yobga chiqarish vositasidir. Uning yordamida ijtimoiy adolat qoidalarini amalga oshirish,

[21] Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi Mehnat vazirligiga aylantirildi. Endi nogironlar, urush qatnashchilari, faxriylar, yolg'iz qariyalar va aholining boshqa zaif qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy ko'mak ko'rsatish bo'yicha, shuningdek, imkoniyati cheklangan shaxslarga kasbiy ta'lim berishni tashkil qilish va inklyuziv kasbiy ta'lim bo'yicha vazifalar Sog'liqni saqlash vazirligiga yuklangan. Ehtiyojmand oila va fuqarolarga ijtimoiy nafaqa va moddiy ko'mak belgilash va to'lash ustidan nazorat bo'yicha vazifalar esa Moliya vazirligiga topshirilgan. Shuningdek, "Muruvvat" va "Saxovat" uylari, Nogironlarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi, hududiy nogironlar reabilitatsiya markazlari, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriya va pansionatlar, Toshkent va Farg'onadagi imkoniyati cheklangan shaxslar uchun respublika ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari, shuningdek, poytaxtdagi 2-sonli huquqshunoslik kolleji Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligidan Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufiga o'tkazilgan.

aholining eng nochor qatlamlari – keksa va qariyalar, nogironligi bo'lganlar, yetim-yesirlar, o'quvchi-yoshlarning davlat tomonidan ijtimoiy muhofazaga bo'lgan kafolatli huquqlari ta'minlanadi. Shuningdek, Pensiya jamg'armasi fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil qilish, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash, pensiya hamda boshqa to'lovlar miqdorini qonunchilikda belgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilishni ta'minlashga mas'ul muhim davlat organidir.

### 1.3. Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilishi, asosiy vazifalari va funksiyalari

Pensiya jamg'armasining hozirgi kundagi tashkiliy tuzilmasi shakllanguncha bir necha marotaba tashkiliy-huquqiy o'zgarishlar amalga oshirilgan va 2010-yildan boshlab Pensiya jamg'armasi idoraviy jihatdan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tarkibiga kiritilgan. Pensiya jamg'armasi o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziriga, Jamg'armaning Kuzatuv kengashi raisiga hisob beradi. Pensiya jamg'armasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, boshqa huquqiy-meyoriy hujjatlarga, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizomga[22] amal qiladi.



Pensiya jamg'armasi o'z ishlarini davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi. Pensiya jamg'armasi tizimiga: Jamg'armaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari; Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari; respublika tibbiy-ij-

[22] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-sonli Qarori asosida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizom.

timoiy ekspertiza inspeksiyasi (TMEI); bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari (TMEX) kiradi. Jamg'arma ijro etuvchi apparatining, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi (TIEI), TMEX ta'minoti respublika budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Pensiya jamg'armasi hamda uning hududiy bo'limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisob raqamlariga, O'zbekiston Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, tegishli muhr va shtamplarga ega bo'ladi.

Pensiya jamg'armasini boshqarishning yuqori organi bo'lib, Pensiya jamg'armasining Kuzatuv kengashi hisoblanadi, uning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Pensiya jamg'armasi Kuzatuv kengashining tarkibi[23] 2010-yil 1-yanvardan tasdiqlangan va amalga kiritilgan. Kuzatuv kengashining qarori uning majlisda qatnashgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Pensiya jamg'armasining Kuzatuv kengashi vakolatlarini 1.2-rasm orqali ifodalaymiz.

Pensiya jamg'armasining respublika TMEI respublikada TME sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linma hisoblanadi. Inspeksiyaning moddiy-texnika ta'minoti ajratilgan mablag'lar doirasida davlat budjeti mablag'lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Inspeksiya yuridik shaxs hisoblanadi va mustaqil balansga, yuridik manzilga, bankda hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasvirlangan va o'z nomi yozilgan muhrga, boshqa muhrlar va shtamplarga ega.



Pensiya jamg'armasi davlat moliya tizimining tarkibiy qismini tashkil etadi va bevosita davlatning ijtimoiy funksiya va majburiyatlaridan kelib chiqadi.

[23] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1252-sonli Qarori.




**1.2-rasm. Pensiya jamg‘armasining Kuzatuv kengashi vakolatlari.**

Chunki davlatning ijtimoiy siyosati tadbirlarini, ijtimoiy va pensiya ta'minotini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda Pensiya jamg'armasi asosiy o'rinni egallaydi. Bugungi kunda respublika bo'yicha Pensiya jamg'armasining 14 ta hududiy boshqarmalari, 196 ta tuman (shahar) bo'limlari, 108 ta hududiy va ixtisoslashtirilgan TMEKlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Respublikamiz bo'yicha jami 3 millionga yaqin pensionerlar va ijtimoiy nafaqa oluvchilar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4161-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda pensiya ta'minoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida 2010-yil 1-yanvardan boshlab Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasi (3-ilova), Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparatining tuzilmasi (4-ilova), Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmalarining va tuman (shahar) bo'limlarining namunaviy tuzilmalari o'zgartirildi.

Pensiya jamg'armasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– qonunda belgilangan tartibda fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni tayinlash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarining qayta hisoblab chiqilishini ta'minlash;

– pensiyalar va boshqa to'lovlarni to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil etish, ular bo'yicha hisob va hisobotni yuritish;

– tizimli asosda pensiyalar tayinlash va ularni qayta hisoblashning doimiy tahlilini o'tkazish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan qat'iy maqsadli foydalanilishini ta'minlash;

– mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni da'volar bo'yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish;

– "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi "b" bandiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lashga xarajatlarni qoplash uchun mablag'larni yuridik shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish;

– TMEX xizmatlari faoliyatini tashkil etish.

Pensiya jamg'armasi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq qator funksiyalarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradi:

**Pensiya jamg'armasining daromadlari bo'yicha:**

- Pensiya jamg'armasi mablag'lari bo'yicha majburiy to'lovlar, badallardan mablag'larni hamda boshqa to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi hisob raqamiga jamlaydi hamda pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarga xarajatlarni moliyalashtirishni ta'minlaydi;
- har yili manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Pensiya jamg'armasi daromadlari tushumlar prognozini ishlab chiqadi;
- davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining barqarorligini ta'minlash va uni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining o'rtacha va uzoq muddatli prognozlarini tayyorlaydi;
- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Qonunining 15-moddasiga muvofiq mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan regress da'volar bo'yicha belgilangan tartibda undirib oladi;
- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston qonunining 12-moddasi "b" bandiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lashga sarflangan mablag'larni yuridik shaxslardan regress da'volar bo'yicha belgilangan tartibda undiradi;
- badallar va boshqa to'lovlar tushishi hisobini olib boradi, shuningdek, yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning hamda dehqon xo'jaliklari a'zolarining mehnat daftarchalarini tegishli tartibda yuritadi va saqlaydi.

**Pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash hamda qayta hisoblab chiqish bo'yicha:**

- pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va qayta hisoblab chiqish uchun zarur bo'lgan taqdimnomalar, arizalar va boshqa hujjatlarni qabul qiladi, ularni qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiradi;
- pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash uchun yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tayyorlaydi, ko'rib chiqadi va tekshiradi;
- Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlarida pensiyalar tayinlash bo'yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etadi;
- zarur tarzda rasmiylashtirgan hujjatlarga muvofiq va pensiyalar tayinlash bo'yicha komissiyalar qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalarni tayinlaydi va ularni qayta hisoblab chiqadi;
- pensionerlarning pensiya ishlarini va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning ishlarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi, pensionerlarga pensiya guvohnomalari beradi;
- pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar tayinlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;
- tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklari a'zolari tomonidan taqdim etilgan pensiyalar, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar olish huquqini beradigan hujjatlarning ishonchliligini tekshiradi.

**Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarga xarajatlarni amalga oshirish bo'yicha:**

➢ pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni hisoblab chiqish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradi, ishlamaydigan pensionerlarga aloqa tashkilotlari va banklar orqali, ishlaydigan pensionerlarga esa – tashkilotlar orqali pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to'lash yuzasidan topshiriqlarni rasmiylashtiradi va beradi;

➢ aloqa tashkilotlari, banklar tomonidan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarning o'z vaqtida va to'g'ri etkazib berilishi hamda to'lanishi yuzasidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshiradi;

➢ yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarga, shuningdek, dehqon xo'jaliklari a'zolariga – ular tomonidan ijtimoiy sug'urta bo'yicha badallar to'langan taqdirda, chaqaloq tug'ilganda beriladigan nafaqalar hamda dafn marosimi nafaqalarini hisoblaydi va to'laydi;

➢ tashkilotlarning ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lov, Chernobil halokati oqibatida zarar ko'rgan fuqarolarga kompensatsiya to'lovlarini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlarga xarajatlarini moliyalashtiradi.

**Fuqarolarning pensiya ta'minoti bilan bog'liq boshqa masalalar bo'yicha:**

➢ ommaviy axborot vositalari yordamida aholini pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha xabardor qiladi;

➢ tayinlangan shaxsiy pensiyalar to'lanishini tashkil etadi;

➢ imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlar ro'yxatlarini qo'llash masalalari bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, imtiyozli pensiyalarni takomillashtirish va tartibga solish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

➢ jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladi;

➢ AT "Xalq banki"ning bo'linmalarida pensiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishi monitoringini olib boradi;

➢ qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi, pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha zamonaviy nazariy ishlanmalarni va xorijiy tajribani o'rganadi;

➢ Pensiya jamg'armasining mablag'larini oluvchilar, pensiyalar hamda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash to'g'risidagi axborotni ishlab chiqishda qatnashadi va avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlashni joriy etadi;

➢ pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

➢ Pensiya jamg'armasi vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha qonun hujjatlarini qo'llash amaliyotini umumlashtiradi;

➢ pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tadbirlarini amalga oshiradi.

**Pensiya jamg'armasining vakolatiga kiradigan boshqa masalalar bo'yicha:**

- respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, bosh, tumanlararo, tuman, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- Pensiya jamg'armasi vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha e'tiroz-da'vo ishlari olib borilishini tashkil etadi va amalga oshiradi.

Pensiya jamg'armasi o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega: Pensiya jamg'armasi vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha axborotni davlat organlari va boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish; o'z vakolatlari doirasida Pensiya jamg'armasining vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan idoraviy huquqiy-me'yoriy hujjatlarni va metodik hujjatlarni ishlab chiqish; majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar miqdorlarini belgilash, shuningdek, pensiya ta'minotiga tegishli bo'lgan boshqa masalalar bo'yicha takliflar kiritish; Pensiya jamg'armasi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq 2010-yilning 1-yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda[24]. Bu esa, o'z navbatida, Pensiya jamg'armasi zimmasiga qo'shimcha ravishda quyidagi asosiy vazifalar va funksiyalarni yuklaydi:

– fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil qilish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalar hamda boshqa to'lovlarning miqdorlari qayta hisoblab chiqilishini ta'minlash;

[24] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4161-sonli Farmoni. www.lex.uz.

– pensiyalar hamda boshqa to‘lovlarni to‘liq hajmda moliyalashtirish va to‘lanishini tashkil qilish, ular bo‘yicha hisob va hisobotni yuritish;

– pensiyalar tayinlanishi va qayta hisoblab chiqilishini tizimli asosda doimiy tahlil qilish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta’minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan qat’iyan maqsadli foydalanilishini ta’minlash;

– mehnat mayibligi yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik bo‘yicha tayinlangan pensiyalarni to‘lashga mablag‘larni da’volar bo‘yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil qilish;

– TMEX faoliyatini tashkil etish.

Pensiya jamg‘armasi mamlakat hududida istiqomat qiluvchi fuqarolar uchun pensiya ta’minotini barqaror amalga oshirish maqsadida moliyaviy resurslarni jamlash va taqsimlash bilan shug‘ullanuvchi davlatning maqsadli jamg‘armasidir. Uning faoliyatining samarali yo‘lga qo‘yilishi mamlakatimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan huquqiy-demokratik jamiyatni barpo etishdagi davlat islohotlarining ijrosini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## 1.4. Pensiya jamg‘armasining konsolidatsiyalashgan budjet tarkibida tutgan o‘rni

Budjet (ingl. *budjet* – hamyon, mablag‘) belgilangan muddat uchun ishlab chiqilgan, me’yorlashtirilgan hamda qonuniy ravishda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar yig‘indisini ifodalaydi hamda davlatning oldida turgan maqsad va vazifalarini moliyaviy ta’minlashga mo‘ljallangan pul mablag‘lari fondini shakllantirish va xarajat qilish shaklini aks ettiradi. O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan “Budjet kodeksi”ga muvofiq[25], O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalarining budjetlari va O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari kiritilgan.

---

[25] O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 52-I-son) 46-modda. 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan. www.lex.uz.

O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo‘yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda budjet tizimi budjetlarining (budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari bundan mustasno) barcha tushumlari va xarajatlarini hamda O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larini, ular o‘rtasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish uchun tuziladi.

Davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta’minlash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasi davlat budjetining mohiyatini ifodalaydi. Uning samarali faoliyat ko‘rsatishi iqtisodiy o‘sishning sifatiga va ijtimoiy farovonlikning darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Davlat budjetining barqarorligi mamlakat iqtisodiyoti va eng avvalo, uning ijtimoiy sohasi holatini xarakterlaydigan eng muhim ko‘rsatkichlardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti YaIM va milliy daromadning taqsimlanishi jarayonida davlatning jamiyat oldidagi vazifalarini bajarishi uchun maqsadli ravishda shakllantirilgan markazlashtirilgan pul fondi bo‘lib, mamlakatda yashovchi barcha aholining moliyaviy manfaatlarini o‘zida ifoda etadi.

Rivojlagan mamlakatlarda kuzatilayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning mavjudligiga qaramasdan, mamlakatimizda kuzatilayotgan barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarining ta’minlanishida izchil olib borilayotgan budjet-soliq siyosatining ahamiyati g‘oyat yuksakdir. Buni o‘z navbatida keyingi yillarda kuzatilayotgan budjet profitsiti, rejalashtirilgan davlat budjeti daromad ko‘rsatkichlarining orttirib bajarilayotgani, davlat budjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi yanada rivojlantirilishi natijasida budjet xarajatlarining manzilli va maqsadli sarflanayotgani bilan izohlash mumkin.

Global jahon iqtisodiyotidagi jiddiy muammolar hamda ularning dunyodagi ko‘plab mamlakatlar qatorida bizning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham ko‘rsatayotgan salbiy ta’siriga qaramasdan, 2016-yilda yuqori va barqaror o‘sish sur’atlari saqlanib, makroiqtisodiy barqarorlik va mutanosiblik ta’minlangani o‘ziga xos ijobiy ko‘rsatkich bo‘ldi. Xususan, 2016-yil yakunlari bo‘yicha YaIM 7,8 foizga o‘sdi. Davlat

budjeti YaIMga nisbatan 0,1 foiz miqdorida profitsit bilan ijro etildi. Inflyatsiya darajasi prognoz parametrlaridan oshmadi va 5,7 foizni tashkil etdi[26]. Davlat budjeti sohasidagi bunday natijalarni qo'lga kiritish-da mamlakatimiz iqtisodiyotini bosqichma-bosqich isloh etish va erkinlashtirish, ilgari davlat zimmasida bo'lgan bir qancha vazifalarni xususiy sektorga o'tkazish orqali davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirish, yangi sanoat yo'nalishlarining rivojlantirilishi hamda xususiy sektor moliyaviy holatining mustahkamlanishi, shuningdek, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushining ortishi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Budjet tizimi barcha darajadagi budjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari va budjet tashkilot[27]larining budjetdan tashqari jamg'armalari, budjet tizimi budjetlarini tuzish va tashkil etish prinsiplari, ular o'rtasida budjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar yig'indisini o'zida ifodalaydi. Turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini ifodalaydigan, budjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, budjetlar hamda budjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlar majmuiga budjet tizimi deyiladi. Soddaroq tarzda bayon etilganda, budjet tizimi deyilganda mamlakatdagi mavjud budjetlar to'plami (majmui) tushuniladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari budjet tizimi budjetlarini ifodalaydi. Davlat maqsadli jamg'armalari tarkibidagi Pensiya jamg'armasi fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti, ijtimoiy nafaqalar to'lash, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan majburiy to'lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag'larni jamlaydi. Pensiya jamg'armasi davlat maqsadli jamg'armalaridan biri bo'lib,

[26] http://uza.uz internet sayti ma'lumotlari.

[27] O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobiga ta'minlanadigan davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra, belgilangan tartibda tashkil etilgan notijorat tashkiloti.

o‘zining hajmi va iste’molchilarni qamrab olish ko‘lami hamda ijtimoiy ahamiyati bo‘yicha davlat budjetidan keyingi o‘rinni egallaydi.

**Bahs-munozara va nazorat uchun savollar**

- “Pensiya jamg‘armasi faoliyati” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat.
- “Pensiya” tushunchasining mazmun-mohiyatiga berilgan turli ta’riflarni izohlab bering.
- Pensiyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
- Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi qanday shakllarda amalga oshiriladi?
- Ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy sug‘urta va davlat ijtimoiy yordami deganda nimani tushunasiz?
- Aholining ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand subyektlariga qanday guruhlar kiradi?
- Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilishini tasvirlab bering?
- Pensiya jamg‘armasining asosiy vazifalari va funksiyalarini aytib bering?
- Pensiya jamg‘armaning Kuzatuv kengashi vakolatlariga nimalar kiradi?
- Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi nima bilan shug‘ullanadi?
- Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi apparati vazifalari nimalardan iborat?
- Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi apparatining tuzilmasini ifodalab bering?
- Pensiya jamg‘armasi o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun qanday huquqlarga ega?
- O‘zbekistonda hozirgi pensiya tizimining shakllanishini nechta bosqichga bo‘lib, o‘rganish mumkin va uning huquqiy asoslarini bilasizmi?
- Pensiya jamg‘armasining shakllanish bosqichlarini izohlab bering?

## 2-bob. PENSIYA JAMG‘ARMASI FAOLIYATINING HUQUQIY-ME’YORIY ASOSLARI

### 2.1. Pensiya jamg‘armasi faoliyatining huquqiy asoslari



Pensiya jamg‘armasi o‘z faoliyatini tashkil etish va pensiyaga oid munosabatlarni tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik hujjatlari va zarur hollarda xorijiy mamlakatlar bilan tuzilgan davlatlararo bitimlar hamda xalqaro huquqiy hujjatlarga amal qiladi. Pensiya jamg‘armasi o‘zining ish faoliyatida asosan quyidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartib va qoidalarga asosan ish yuritadi:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari va qonun osti hujjatlari.



1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida: *"Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas"*, deb ko‘rsatilgan.



Amaldagi Soliq kodeksi: Pensiya jamg‘armasiga undiriladigan majburiy to‘lovlar va ajratmalarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda Pensiya jamg‘armasiga to‘lash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi; yagona ijtimoiy to‘lovni va sug‘urta

badallarini hisoblab chiqarish hamda to‘lash tartibini; Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob-kitoblarini taqdim etish va ularni to‘lash tartibini; Pensiya jamg‘armasiga to‘langan majburiy to‘lovlar va ajratmalar bo‘yicha taqdim etiladigan hisobotlarning muddatlari va tartibini belgilaydi.



O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi” deb nomlangan XVI bobda fuqarolarning pensiya ta’minoti va ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha huquqlari, shuningdek, davlat ijtiomiy sug‘urtasi bo‘yicha beriladigan nafaqalar, davlat pensiyalari, ularning turlari aks ettirilgan. Mehnat Kodeksiga ko‘ra:

– yoshga doir pensiya sug‘urta qilingan xodimlarga umumiy asoslarda: erkaklar 60 yoshga to‘lgan bo‘lib, umumiy mehnat staji 25 yildan kam bo‘lmagan taqdirda, ayollar 55 yoshga to‘lgan bo‘lib, umumiy mehnat staji 20 yildan kam bo‘lmagan taqdirda tayinlanadi;

– nogironlik pensiyasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan, sug‘urta qilingan xodimlarga: mehnatda mayib bo‘lganligi yoki kasb kasalligiga chalinganligi tufayli – mehnat faoliyatining muddatidan qat’i nazar; boshqa sabablar tufayli – muddati sug‘urta qilingan xodimning nogironlik ro‘y bergan vaqtdagi yoshiga bog‘liq tegishli umumiy mehnat stajiga ega bo‘lgan taqdirda tayinlanadi;

– boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi mehnatda mayib bo‘lish yoki kasb kasalligi tufayli vafot etgan boquvchining mehnatga qobiliyatsiz oila a’zolariga, uning mehnat faoliyatining muddatidan qat’i nazar tayinlanadi, agar u boshqa sabablar natijasida vafot etgan bo‘lsa, shunga muvofiq keladigan umumiy mehnat stajiga qarab tayinlanadi,



bunday mehnat stajining muddati sug‘urta qilingan xodimning vafot etgan kuniga qadar bo‘lgan yoshiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi Pensiya jamg‘armasining budjetini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qi-

lish va budjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi va budjet tizimi budjetlari bilan o‘zaro munosabatlari tartibini belgilaydi. Shuningdek, Budjet kodeksining 37-moddasida Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan majburiy to‘lovlar, badallar, shuningdek, boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlashi hamda Pensiya jamg‘armasining yuqori boshqaruv organi Jamg‘armaning Kuzatuv kengashi ekanligi ko‘rsatilgan. Pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlari tarkibi aks ettirilgan.

Pensiya jamg‘armasi faoliyati O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrdagi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1252-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 252-sonli Qarori va boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 28-dekabrdagi “Ulug‘ Vatan urushi yillarida harbiy majburiyatlarini bajargan yoki mamlakat ichkarisida ishlagan shaxslarga pensiyalarni to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi PF-1334-sonli Farmoniga muvofiq Ulug‘ Vatan urushi yillarida harbiy majburiyatlarini bajargan yoki mamlakat ichkarisida ishlagan, hozirda ham ishlab turgan pensionerlarga 1996-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida pensiyalar to‘liq miqdorda to‘lanadigan bo‘ldi.

Fuqarolar yig‘inlari, mahallalar raislari va kotiblarining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini, mas’uliyatlarini yanada oshirish va ularni ijtimoiy himoya qilish hamda qo‘llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 23-apreldagi “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini qo‘llab-quvvatlash

to‘g‘risida” PF-1990-sonli Farmoniga ko‘ra, fuqarolar yig‘inlari, mahallalar raislari va kotiblarining maoshlari ish haqi to‘lashning yagona tarif setkasi bo‘yicha 1998-yilning 1-mayidan boshlab ikki razryadga oshirildi. Maoshlarni to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar mahalliy budjet hisobidan qoplanishi belgilab berildi. Katta hayotiy tajribaga va aholi o‘rtasida alohida obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan kishilarni ijtimoiy faoliyatga keng jalb etish maqsadida 1998-yilning 1-mayidan boshlab fuqarolar yig‘inlari va mahallalarning nafaqadagi raislariga nafaqalar to‘la miqdorda to‘lab kelinmoqda. Nafaqalarni to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar Pensiya jamg‘armasi hisobidan qoplanmoqda.

Pensiya ta’minoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1252-sonli Qaroriga ko‘ra, 2010-yilning 1-yanvaridan boshlab Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi va amalga kiritildi.

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarida diniy ma’rifat va ma’naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi lavozimlarida ishlovchi ayollarni ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish, bu ishga boy hayotiy tajribaga ega bo‘lgan obro‘li, eng malakali va faol xotin-qizlarni jalb etish maqsadida 2004-yilning 1-dekabridan boshlab fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarida diniy ma’rifat va ma’naviy-ahloqiy tarbiya bo‘yicha maslahatchi lavozimlarida ishlovchi pensioner ayollarga yoshga oid pensiyalar to‘liq miqdorda to‘lanishi belgilab berildi[28]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarni ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-sonli Qaroriga asosan shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida qoramol boqish bilan band bo‘lgan shaxslar,

[28] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 7-dekabrdagi “Fuqarolarning o‘zini-o’zi boshqarish organlarida diniy ma’rifat va ma’naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi lavozimlarida ishlovchi ayollarni ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3521-sonli Farmoni.

o‘zlari yetishtirgan chorvachilik mahsulotlaridan qanday foydalanishidan qat’i nazar, ish bilan ta’minlangan aholi toifasiga kiritildi va “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq pensiya bilan ta’minlanish huquqiga ega bo‘ladilar. Shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaligida qoramol o‘stirish bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarga pensiyalar tayinlashda mehnat staji ular tomonidan Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari bir yilda eng kam oylik ish haqining kamida to‘rt yarim baravari miqdorida to‘langan taqdirda hisoblab chiqiladi.



Aholi daromadlari va farovonligi yaxshilash bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan siyosatni amalga oshirishni davom ettirish, keksalar va boshqa pensionerlarga g‘amxo‘rlikni kuchaytirish, ularning pensiyalari miqdorini oshirish, shuningdek, pensiya ta’minoti tizimini izchillik bilan takomillashtirib borish maqsadida 2007-yilning 1-oktabridan pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish haqining maksimal miqdori eng kam ish haqi miqdorining yetti baravaridan sakkiz baravarigacha miqdorga oshirildi[29].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 252-sonli Qarori asosida “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi, “Pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish haqini ish haqining yakka tartibdagi koeffitsiyentlarini qo‘llagan holda qayta hisoblab chiqish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomlar tasdiqlandi va 2011-yil 1-oktabrdan boshlab amalga kiritildi. Unda fuqarolarga pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni taqdim etish, ish stajini hisoblab chiqish va tasdiqlash, pensiyani hisoblash, tayinlash, qayta hisoblab chiqish, to‘lash, pensiyalarni bir turidan boshqa turiga o‘tkazish, nafaqaga oid hujjatlar yig‘ma jildini hisobga olish va saqlash tartibi belgilangan.

---

[29] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 17-sentabrdagi “Pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3921-sonli Farmoni, 1-bandi.

Keksalarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, yoshi ulug' insonlar, ayniqsa, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylariga ijtimoiy, pensiya ta'minoti va tibbiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, oila va jamiyatda, yoshlarni o'zbek xalqining ko'p asrlik qadriyat va an'analari ruhida tarbiyalashda keksalarning o'rnini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18-fevraldagi "Keksalarni e'zozlash yili davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-2302-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu dastur asosida Pensiya jamg'armasiga ham ma'lum vazifalar yuklatildi: 100 yoshga to'lgan pensionerlarga yetarlicha e'tibor ko'rsatishni kuchaytirish va ularni moddiy qo'llab-quvvatlash; pensionerlarni ijtimoiy muhofaza qilish; keksalar uchun pensiya tayinlashning eng qulay tizimini joriy etish. Bunday tizim Pensiya jamg'armasining amaldagi axborot tizimi negizida pensiya tayinlash jarayonida ishtirok etuvchi davlat organlari o'rtasida ma'lumotlarni elektron tarzida ayirboshlashning integratsiyalashgan tizimini yaratish hamda 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti veteranlariga eng qulay turmush sharoitlarini yaratish hamda ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

## 2.2. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning mazmuni, tarkibi va ijtimoiy ta'minot munosabatlarini tartibga solishdagi ahamiyati

1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni Pensiya jamg'armasidan tayinlanuvchi davlat pensiyalari va ularga oid quyidagi munosabatlarni tartibga soladi:

- davlat pensiya ta'minotiga oid umumiy qoidalar;
- davlat pensiyalarining turlari;
- pensiyalar va o'rtacha ish haqi miqdorlarini hisoblab chiqarish tartibi;
- ish stajini hisoblab chiqarish va mehnat stajiga qo'shiluvchi mehnat faoliyati turlari;
- pensiyalarni tayinlash tartibi;
- pensiyalarni hisoblash va qayta hisoblash tartiblari;
- pensiyalarni to'lash tartiblarini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta’minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to‘lash tartibini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta’minlanish huquqiga egadirlar.

Shuni ham ta’kidlash joizki, respublika hududidan tashqarida yashab turgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta’minlash O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda pensiya olish huquqiga egadirlar. Ish stajiga ega bo‘lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu Qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta’minlanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi[30].

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra davlat pensiyalarining turlari quyidagi 2.1-rasmda tasvirlangan.

Qonunning ikkinchi bobi yoshga doir pensiyalarga oid bo‘lib, unda yoshga doir pensiyalar quyidagicha tasniflangan:

- umumiy belgilangan tartibdagi yoshga doir pensiya;
- ish staji to‘liq bo‘lmagan paytdagi pensiya;
- imtiyozli shartlarda tayinlanuvchi yoshga doir pensiyalar;
- muddatidan oldin tayinlanuvchi yoshga doir pensiyalar.



Ish staji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi pensiyalar esa xodim belgilangan pensiya yoshiga yetganda va xodim davlat tomonidan ijtimoiy sug‘urtalangan holda bajargan yoki unga tenglashtirilgan mehnat faoliyatida

[30] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan “Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

yetti yildan kam bo'lmagan davr mehnat qilgan bo'lsa, bor stajga mutanosib ravishda tayinlanadi.




**2.1-rasm. Davlat pensiyalarining turlari.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro'yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari va urush nogironlari, bolalikdan nogironligi bo'lgan farzandlarning onalari, liliputlar va pakanalar imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Imtiyozli ravishda tayinlanuvchi pensiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

– yoshidan qat'i nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-sonli ro'yxati;

– umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 2-sonli ro'yxati;

– umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar va ko'rsatkichlarning 3-sonli ro'yxati;

– umumiy belgilangan yoshni bir yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqi;

– umumiy belgilangan pensiya yoshini 15 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga gipofizar mittilik kasaliga chalinganlar (liliputlar) va gavda tuzilishida mutanosiblik buzilgan pakanalar: erkaklar – ish staji kamida 20 yil bo'lganda; ayollar – ish staji kamida 15 yil bo'lganda ega bo'ladilar.

Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslar: erkaklar – 58 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda; ayollar – 53 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Yoshidan qat'i nazar, quyidagilar imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar: a) kon sanoatidagi yetakchi kasb egalari bo'lgan xodimlar – basharti, ular ana shu ishlarda kamida 20 yil ishlagan bo'lsalar; b) bevosita yerosti va ochiq kon ishlarida (shu jumladan, kon-qutqaruv qismlarining shaxsiy tarkibi) ko'mir, ma'danlar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda, shaxtalar va konlar qurilishida to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar – basharti, ular ana shu ishlarda kamida 25 yil ishlagan bo'lsalar; d) uchuvchilar va



uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar, ular xizmat qilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, belgilangan xizmat muddatini ana shu lavozimlarda erkaklar kamida 25 yil va ayollar kamida 20 yil ado etganlari taqdirda (yuqorida qayd etib o'tilgan xodimlar salomatligiga (kasalligiga) ko'ra uchish ishlaridan bo'shatilgan taqdirda, belgilangan xizmat muddatini – erkaklar kamida 20 yil va ayollar kamida 15 yil ado etgan bo'lsalar); e) teatrlar va boshqa teatr-tomosha korxonalari artistlarining ayrim toifalari; f) sportchilarning ayrim toifalari.

Oxirgi ish joyidan qat'i nazar, quyidagilar belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar: yerosti ishlarida, mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar: erkaklar – ish staji kamida 20 yil bo'lib, bundan kamida 10 yili ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda; ayollar – ish staji kamida 15 yil bo'lib, bundan kamida 7 yilu 6 oyi ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda.

Oxirgi ish joyidan qat'i nazar, quyidagilar belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar: a) urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar; b) mehnat sharoiti zararli va og'ir ishlarda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar: erkaklar – ish staji kamida 25 yil bo'lib, bundan kamida 12 yilu 6 oyi ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda; ayollar – ish staji kamida 20 yil bo'lib, bundan kamida 10 yili ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda.



Ma'lumki, nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi.

Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek, nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to'g'risidagi Nizom asosida ishlovchi TMEK tomonidan aniqlana-

di. Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi. 20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyasidan umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyasiga o'tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagi yoshga qarab aniqlanadi. Pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.



Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Marhumning qaramog'ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag' manbaidan mahrum bo'lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Quyidagilar oilaning mehnatga qobiliyatsiz a'zolari hi-soblanadilar: a) bolalar, aka-ukalar, opa-singillar va nabiralar 16 yoshga to'lmagan bo'lsa yoki 16 yoshdan katta bo'lsa ham 16 yoshga to'lmasdan nogiron bo'lib qolgan bo'lsalar. Bunda aka-ukalar, opa-singillar va nabiralarning mehnatga qobiliyatli ota-onasi bo'lmasa; b) ota, ona, o'gay ota, o'gay ona, xotin, er, basharti, ular pensiya yoshiga to'lgan yoki nogiron bo'lsalar; d) yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat'i nazar, ota va onadan biri yoki er (xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralarini, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta'tilda bo'lish huquqini beradigan yoshga to'lgunga qadar boqish bilan mashg'ul bo'lsa va ishlamasa; e) buva va buvi – agar qonunga muvofiq ularni boqishi shart bo'lgan kishilar bo'lmasa.

O'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga egadirlar. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'lgan voyaga yetmagan farzandlar, ular farzand-

likka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar. O‘gay o‘g‘il va qiz, agar ular ota-onalaridan aliment olmagan bo‘lsalar, haqiqiy farzandlar singari pensiya olish huquqiga egadirlar. O‘gay ota va o‘gay ona, agar vafot etgan o‘gay o‘g‘ilni (qizni) 18 yoshga to‘lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan yoki boqqan bo‘lsalar, haqiqiy ota va ona singari pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar.



Mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan boquvchining oilasiga, shuningdek, marhum pensionerning oilasiga pensiya boquvchining ish stajidan qat’i nazar tayinlanadi. Basharti, boquvchi vafot etgan kunga qadar unga nogironlik pensiyasi tayinlanishi uchun zarur ish stajiga ega bo‘lgan bo‘lsa, umumiy kasallik yoki ish bilan bog‘liq bo‘lmagan mayiblanish oqibatida vafot etgan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlanadi. Boshqa mamlakatlardan ko‘chib kelgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining oilalariga, basharti, boquvchi O‘zbekiston Respublikasida ishlamagan bo‘lsa, pensiyalar quyidagi hollarda tayinlanadi: a) boshqa mamlakatlarda boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini olgan oilalarga – boquvchisining ish stajidan qat’i nazar; b) pensiya olmagan oilalarga – basharti, boquvchi ishlash to‘xtatilgan kunga qadar tegishli stajga ega bo‘lgan bo‘lsa, mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan taqdirda esa – boquvchining ish stajidan qat’i nazar tayinlanadi.

Umumiy kasallik oqibatida vafot etgan hamda nogironlik pensiyasini tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo‘lmagan boquvchisini yo‘qotgan oila a’zolariga pensiya boquvchining bor stajiga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Ta’kidlash joizki, pensiya miqdori ish stajining muddatiga bog‘liq bo‘lib, quyidagilardan tarkib topadi: pensiyaning tayanch miqdoridan; ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan; pensiyaga qo‘shiladigan ustama haqlardan. Pensiyalarning quyidagi tayanch miqdorlari belgilanadi:

– yoshga doir pensiya uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin ras-

miy belgilangan yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 100 foizi miqdorida;

– I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 100 foizi miqdorida;

– oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 50 foizi miqdorida;

– ota-onasidan judo bo'lgan (chin yetim) bolalarga yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 100 foizi miqdorida.

Pensiya tayinlashda talab etiladiganidan ortiqcha ish stajining har bir to'liq yil uchun pensiyalarning tayanch miqdorlari quyidagicha oshiriladi:

– yoshga doir pensiyalar – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

– I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

– boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari oilaning mehnatga qobiliyatsiz har bir a'zosi uchun – boquvchining o'rtacha oylik ish haqining 0,5 foizi miqdorida oshiriladi. Otasidan ham, onasidan ham judo bo'lgan (chin yetim) bolalarga tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini oshirish ota va ona ish haqlarining umumiy miqdoridan kelib chiqib, eng kam oylik ish haqining sakkiz barobari miqdori doirasida amalga oshiriladi.

Pensiyalarga ustama haqlar quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

– I guruh urush nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 150 foizi;

– II guruh urush nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 125 foizi;

– ko'zi ojizlik bo'yicha I guruh nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 100 foizi;

– I guruh nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 75 foizi;

– II guruh yolg'iz nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 50 foizi;

– urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga – eng kam oylik ish haqining 50 foizi;

– 1941–1945-yillardagi urush davrida mamlakat ichkarisida ishlagan va harbiy majburiyatni bajargan shaxslarga – eng kam oylik ish haqining – 30 foizi;

– vafoti harbiy xizmat yoki ichki ishlar organlaridagi xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalariga va yangi (qayta) nikohdan o'tmagan beva xotinlariga (beva erlariga) – eng kam oylik ish haqining 30 foizi;

– O'zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari bo'lgan shaxslarga – xizmatlariga qarab – eng kam oylik ish haqining 100 foizidan 150 foizigacha;

– yoshidan qat'i nazar imtiyozli pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan artistlarga – eng kam oylik ish haqining 75 foizi;

– teatr-konsert tashkilotlari artistlari va badiiy xodimlariga, teatr va musiqa san'ati ijodiy xodimlar tayyorlovchi o'quv muassasalarining professor-o'qituvchilari va konsertmeysterlariga, Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ro'yxatga ko'ra – eng kam oylik ish haqining – 50 foizi.

Pensiyani hisoblab chiqarish uchun, ishdagi mavjud tanaffuslardan qat'i nazar, oxirgi o'n yillik mehnat faoliyati davomidagi istalgan ketma-ket besh yildagi (pensiya so'rab murojaat etgan kishining tanlovi bo'yicha) ish haqi olinadi. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqi o'tgan yillardagi ish haqlarini pensiya tayinlanadigan kundagi ish haqi darajasiga keltirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda qayta hisoblanadi. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmish kalendar oylar uchun qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda pensiya so'rab murojaat etgan kishining xohishiga ko'ra, ishga qabul qilish yoki mehnat shartnomasini bekor qilish munosabati bilan ish kunlari soni to'liq bo'lmagan oylar to'liq ishlangan kalendar oylar sifatida hisobga olinadi. Pensiya so'rab murojaat etgan

kishi besh yildan kam ishlagan hollarda pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi ishlangan kalendar oylar uchun qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini shu oylar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Mavsumiy ishlarda band bo'lgan xodimlarga pensiyalar tayinlashda pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi, ishdagi mavjud tanaffuslardan qat'i nazar, mehnat faoliyatining oxirgi o'n yili davomidagi istalgan ketma-ket besh mavsumdagi (pensiya so'rab murojaat etgan kishining tanlovi bo'yicha) qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Pensiya jamg'armasi bo'limi pensiya tayinlash uchun taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish to'g'risida qaror chiqargan hollarda, tekshirish tamom bo'lish muddatidan qat'i nazar, pensiya tayinlash uchun dastlab murojaat qilingan sana pensiya tayinlash uchun murojaat qilingan sana hisoblanadi.

Yoshga doir pensiya tayinlash uchun murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagilar ilova qilinishi kerak:



– ish stajini, shu jumladan, maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat;

– ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

– ariza beruvchining jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi (2005-yil 1-yanvardan keyin).

Bundan tashqari, zarur hollarda, quyidagilar taqdim etiladi: a) tegishli organ tomonidan berilgan harbiy xizmatni, partizan otryadlari va qo'shilmalarda bo'lganlikni, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilganlikni tasdiqlaydigan ma'lumotnoma; b) tegishli organ tomonidan berilgan, idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, harbiylashtirilgan soqchilikdagi, maxsus aloqa organlari va kon-qutqaruv qismlaridagi xizmatni tasdiqlaydigan ma'lumotnoma; d) band bo'lgan shaxsga O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan berilgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta

badallari to‘langanligini tasdiqlaydigan ma’lumotnoma; e) O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining davolash-profilaktika muassasasi tibbiy-maslahat komissiyasi (TMK) tomonidan berilgan ariza beruvchining bolasi 16 yoshgacha nogiron bola deb e’tirof etilishini tasdiqlaydigan tibbiyot xulosasi yoki TMEK tomonidan berilgan parvarish ostidagi shaxs I guruh nogironi deb tan olinishini tasdiqlaydigan nogironlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomaning tegishli qismi; f) davolash-profilaktika muassasasining xulosasi asosida fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan o‘zgalarning parvarishiga muhtoj bo‘lgan 80 yoshga to‘lgan keksalarga qarab turilgan vaqtni tasdiqlaydigan ma’lumotnoma; g) oliy ta’lim muassasalarida (shu jumladan, o‘qish harbiy xizmatga tenglashtiriladigan harbiy ta’lim muassasalarida, shuningdek, partiya maktablarida), aspiranturada (stajyorlar-tadqiqotchilar-izlanuvchilar institutida), doktoranturada (katta ilmiy xodimlar – izlanuvchilar institutida) va klinik ordinaturada kunduzgi o‘qishni, shu jumladan, chet elda o‘qishni tasdiqlaydigan diplom yoki ma’lumotnoma; h) bolani parvarish qilish bo‘yicha ta’til berilganligi va ta’tildan qaytilganligi to‘g‘risidagi buyruqlarning nusxalari ilova qilingan holda ayol kishi bola tug‘ilgandan boshlab, u uch yoshga to‘lgungacha bo‘lgan davrda mehnat munosabatlarida bo‘lgan tashkilot (tashkilotlar) tomonidan berilgan bola uch yoshga to‘lgunga qadar uni parvarish qilish vaqtini tasdiqlaydigan ma’lumotnoma; i) ofitserlar tarkibidan bo‘lgan shaxslar, praporshchiklar, michmanlar va muddatdan tashqari xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilarning xotinlari, ularni ishga joylashtirish imkoniyati bo‘lmagan joylarda erlari bilan yashagan vaqtni tasdiqlaydigan ma’lumotnoma; j) ariza beruvchi urush qatnashchisi yoki unga tenglashtirilgan shaxs hisoblanishini tasdiqlaydigan hujjat; k) davolash-profilaktika muassasasining ariza beruvchi gipofizar nanizm bemori (liliput) yoxud disproporsional pakana ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi; l) familiya, ism, ota ismi o‘zgartirilganligi to‘g‘risidagi hujjat; m) TMEKning nogironlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomasining tegishli qismi – mehnatda yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida I va II guruh nogironi bo‘lgan vaqt stajga hisoblanadigan hollarda; n) fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan nogiron bola 8 yoshga to‘lgunga qadar uni par-

varish qilish vaqtini tasdiqlaydigan ma'lumotnoma, shuningdek, bola 8 yoshgacha nogiron bola deb e'tirof etilishini tasdiqlaydigan TMK tomonidan berilgan tibbiyot xulosasi yoki TMK tomonidan berilgan nogironlikni belgilash uchun asos hisoblanadigan kasallik bo'yicha davolash-profilaktika muassasasida hisobda turganlik to'g'risidagi ma'lumotnoma; o) oqlov hukmi yoki ish to'xtatilganligi to'g'risida sudning ajrimi (qarori) yoki prokuror (tergovchi)ning ish to'xtatilganligi to'g'risidagi qarori, shuningdek, oldini olish chorasi sifatida shaxsni tergov izolatoriyada (turmada) qamoqda saqlash, qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish shaklida jazoni o'tash davri to'g'risida tergov organlari yoki ichki ishlar organlarining ma'lumotnomasi, shuningdek, reabilitatsiya to'g'risidagi hujjatlar (sud organlari, prokuratura organlari, surishtiruv va tergov organlarining oqlov hukmi chiqarilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi yoki reabilitatsiya qiluvchi asoslar bo'yicha jinoyat ishi to'xtatilganligi to'g'risidagi qarori (ajrimi); p) tegishli muassasaning shaxsni ishsiz deb e'tirof etish to'g'risidagi taqdimnomasi.

Nogironlik pensiyasini tayinlashni so'rab murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi kerak: ish stajini, shu jumladan, maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat; ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma; ariza beruvchining jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi; baxtsiz hodisa va sog'liqning ishlab chiqarishda boshqa shikastlanishi to'g'risidagi hujjat yoki agar nogironlik mehnatda mayiblanish oqibatida sodir bo'lgan bo'lsa – boshqa rasmiy hujjat. Bundan tashqari, zarur hollarda, quyidagilar taqdim etiladi: fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan ariza beruvchining yashash joyi bo'yicha bir o'zi yashashi (ro'yxatdan o'tkazilganligi) to'g'risidagi ma'lumotnoma.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini tayinlashni so'rab murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi kerak: pensiya tayinlanayotgan shaxsning yoshini tasdiqlovchi tug'ilganlik haqidagi guvohnoma yoki pasport; oila a'zosining vafot etgan boquvchi bilan qarindoshlik munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlar (nikoh to'g'risidagi guvohnoma, nikoh bekor qilinganligi to'g'risidagi guvohnoma, u bo'lmagan taqdirda – fuqarolik holati dalolatnomalaridagi

yozuvdan ko‘chirma, vakolatli tashkilotlarning yoki xorijiy davlatlar mansabdor shaxslarining ma’lumotnomasi); boquvchining vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnoma yoki uning bedarak yo‘qolganligi to‘g‘risida sudning qarori; vafot etgan boquvchining ish stajini, shu jumladan, maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat; vafot etgan boquvchining jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi; vafot etgan boquvchining ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma.

Bundan tashqari, zarur hollarda, quyidagilar taqdim etiladi: fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organining vafot etgan boquvchining qaramog‘idagi oila a’zolari tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi; ta’lim muassasasining vafot etgan boquvchining oila a’zolari 16–18 yoshdagi o‘quvchilar hisoblanishi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi; fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organining vafot etgan boquvchining ota-onalari, turmush o‘rtog‘i, buvasi, buvisi, akasi (ukasi) yoki opasi (singlisi) vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralariga, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta’tilda bo‘lish huquqini beradigan yoshga to‘lgunga qadar boqish bilan bandligini va ishlamayotganligini tasdiqlovchi ma’lumotnomasi; baxtsiz hodisa va sog‘liqning ishlab chiqarishda boshqa shikastlanishi to‘g‘risidagi hujjat yoki agar boquvchining vafoti mehnatda mayiblanish oqibatida sodir bo‘lgan bo‘lsa – boshqa rasmiy hujjat. Boquvchi-pensioner vafot etgan taqdirda ushbu bandda ko‘rsatilgan zarur hujjatlar taqdim etilishi kerak, vafot etganning pensiyaga oid hujjatlar yig‘ma jildida mavjud bo‘lgan hujjatlar bundan mustasno.

Pensiya ishini rasmiylashtirishning barcha hollarida oila har bir a’zosining pensiyaga bo‘lgan huquqini tasdiqlaydigan barcha hujjatlar tikib qo‘yiladi. Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini olish huquqini aniqlashda vafot etgan boquvchi oilasining nogironlikning 3-guruhiga ega bo‘lgan a’zolari vafot etgan boquvchi oilasining mehnatga layoqatsiz a’zolari jumlasiga kiritilmaydi. Agar vafot etganning bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nevaralari parvarishi bilan ular ikki yoshga to‘lgungacha band bo‘lgan oila a’zolaridan biri pensiya turlaridan bittasini oluvchi bo‘lsa, u holda uning xohishi bo‘yicha faqat pensiyaning bitta turi tayinlanadi.

Boquvchisining vafotidan keyin tug'ilgan bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi ushbu pensiyaga huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab, pensiya tayinlash uchun birinchi marta murojaat qilinganda, boquvchi vafot etgan kundan boshlab 6 oydan kechikmay tayinlanadi. Qolgan holatlarda pensiya murojaat qilingan kundan boshlab tayinlanadi.

***Masalan:*** boquvchi vafot etgandan (2010-yil 10-iyun) keyin tug'ilgan bolaning (2010-yil 6-avgust) boquvchisini yo'qotganlik pensiyasiga huquqi tug'ilgan kunidan boshlab paydo bo'ladi. Tegishli ravishda, boquvchining vafotidan keyin tug'ilgan bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini tayinlashni so'rab 2010-yil 10-dekabrga (murojaat qilishning oxirgi kuni 2010-yil-9 dekabr) qadar murojaat etilganda pensiya 2010-yil 6-avgustdan tayinlanadi.

Agar oilaning alohida yashaydigan a'zosining pensiyaga bo'lgan huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar oilaning boshqa a'zolariga pensiya tayinlash to'g'risida qaror chiqarilganidan keyin tushsa, u holda alohida yashaydigan oila a'zosiga pensiya ulushi ajratilgan holda oilaning barcha a'zolariga pensiya tayinlash to'g'risida yangidan qaror qabul qilinadi. Oilaning ko'rsatib o'tilgan a'zosining tushgan hujjatlari amaldagi pensiya ishiga qo'shib qo'yiladi, pensiya ulushini ajratish to'g'risidagi qaror nusxasi esa uning yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limiga yuboriladi. Pensiya jamg'armasi bo'limi pensiya ulushini ajratish uchun asos bo'lgan barcha zarur hujjatlarning nusxalari bilan birga pensiya ulushini oluvchiga mustaqil pensiyaga oid hujjatlar yig'ma jildini rasmiylashtirishi kerak.

Ulushli pensiyani to'laydigan Pensiya jamg'armasi bo'limi pensiya ulushini ajratgan Pensiya jamg'armasi bo'limiga pensiya miqdorini qayta ko'rib chiqish yoki uni to'lashni to'xtatish zarurligiga olib kelgan boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha ulushli pensiya oluvchi oilaning tarkibida yuz bergan barcha o'zgarishlar to'g'risida xabar qilishi shart. Pensiya ulushini to'lash to'xtatilgan taqdirda hujjatlar pensiya to'lash davom etayotgan Pensiya jamg'armasi bo'limiga yuboriladi.

To'liq bo'lmagan ish staji sharoitida pensiya:

— yoshga doir pensiya "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 35-bandi "a", "b", "v", va "g" kichik

bandlarida nazarda tutilgan kamida 7 yil ish staji mavjud bo'lganda pensiya tayinlash uchun yetarli ish stajiga ega bo'lmagan shaxsga;

– nogironlik pensiyasi – pensiya tayinlash uchun yetarli ish stajiga ega bo'lmagan umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruhlar nogironlariga (shu jumladan, bolalikdan nogironlarga);

– boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi – umumiy kasallik oqibatida vafot etgan va nogironlik pensiyasini tayinlash uchun yetarli ish stajiga ega bo'lmagan boquvchisini yo'qotgan oila a'zolariga tayinlanadi.

Staj to'liq bo'lmagandagi pensiya miqdori qonunda belgilangan miqdorlardan past bo'lishi mumkin emas. Staj to'liq bo'lmagan holda pensiya olgan vafot etgan pensionerning oila a'zolariga pensiya vafot etgan boquvchiga pensiya undan kelib chiqib, tayinlangan ish stajiga mutanosib ravishda tayinlanadi. To'liq bo'lmagan ish staji holatida pensiya quyidagi tarzda mavjud stajga mutanosib ravishda hisoblab chiqiladi: dastlab tegishli to'liq pensiya aniqlanadi; ushbu pensiya talab etiladigan ish staji oylari soniga bo'linadi, olingan summa amaldagi ish staji oylari soniga ko'paytiriladi.

## 2.3. Pensiyalarni tayinlash va to'lash munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar



Ma'lumki, davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-sonli Qarori va unga ilova qilingan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom hisoblanadi.



Pensiya tayinlash va to'lash, shuningdek, fuqarolarning pensiya ta'minoti bilan bog'liq boshqa masalalarni ko'rib chiqish "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq Pensiya jamg'armasining tuman (shahar)

bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur Nizom asosida pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni taqdim etish tartibi, pensiyalar tayinlash uchun ish stajini hisoblab chiqish va tasdiqlash tartibi, pensiyani hisoblash tartibi, pensiya tayinlash tartibi, pensiyalarni bir turidan boshqa turiga o‘tkazish tartibi, pensiyani qayta hisoblab chiqish tartibi, pensiyalarni to‘lash tartibi, pensiyaga oid hujjatlar yig‘ma jildini hisobga olish va saqlash tartibi amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-maydagi “Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 250-sonli Qaroriga muvofiq talab qilinadigan umumiy va maxsus ish staji bo‘lganda yoshidan qat’i nazar, pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-ro‘yxati; talab qilinadigan umumiy va maxsus ish staji bo‘lganda umumiy belgilangan yoshdan 10 yil oldin pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning 2-ro‘yxati; talab qilinadigan umumiy va maxsus ish staji bo‘lganda umumiy belgilangan yoshdan 5 yil oldin pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning 3-ro‘yxati tasdiqlandi. Ularning to‘liq tarkibi va mazmuni 2.2-paragrafda keltirilgan.

“Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 1-ilovasiga ko‘ra “Urush qatnashchilariga tenglashtiriladigan shaxslar ro‘yxati”, 2-ilovasiga ko‘ra “Urush nogironlariga tenglashtiriladigan shaxslar ro‘yxati”, 3-ilovasida “Patologoanatomiya muassasalari va sud-tibbiyot ekspertizasi muassasalarining pensiya tayinlash vaqtida mehnat staji bir yarim baravar ko‘paytiriladigan tibbiyot xodimlari ayrim toifalarining ro‘yxati”, 4-ilovasida “Uchuvchilar va sinovchi uchuvchilar tarkibiga kiruvchi xodimlarga pensiya tayinlash uchun belgilangan ish stajini hisoblash Tartibi”, 5-ilovasida “To‘liq bir mavsum ishlash pensiya tayinlash uchun bir yil mehnat stajiga o‘tadigan mavsumiy ishlar va sanoatning mavsumiy tarmoqlari ro‘yxati”, 6-ilovasida “Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lash davri to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar namunasi”, 7-ilovasida “Harakatda-

gi armiya tarkibida harbiy xizmat davri to‘g‘risidagi ma’lumotnoma namunasi”, 8-ilovasida “Ichki ishlar organlarida xizmat qilgan davr to‘g‘risidagi ma’lumotnoma namunasi”, 9–10-ilovalarda “Harbiy xizmatchi xotinining ishga joylashish imkoniyati bo‘lmagan joylarda eri bilan yashagan davri to‘g‘risidagi ma’lumotnoma namunasi”, 11-ilovasida “Imtiyozli pensiya ta’minotiga bo‘lgan huquqni aniqlashtiruvchi ma’lumotnoma namunasi”, 12-ilovasida “Ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma namunasi”, 13-ilovasida “Ish haqi to‘g‘risidagi arxiv ma’lumotnomasining namunasi” hamda 14-ilovasida “Mehnatga layoqatsiz fuqarolarni to‘liq davlat ta’minotidagi shaxslar toifasiga kiritish shartlari” tasdiqlangan.

Chet elda ishlagan shaxslar va ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan sug‘urta badallarini to‘lashning yagona mexanizmini tashkil etish orqali pensiya qonunchiligini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 22-fevraldagi 46-sonli Qarori[31] bilan “Chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lash tartibini, shuningdek, ularning pensiyasini hisoblash uchun olinadigan ish stajini va ish haqi miqdorini hisobga olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga va “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq chet elda ishlayotgan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lash tartibini, shuningdek, ular tomonidan Pensiya jamg‘armasiga to‘langan sug‘urta badallarini, davlat pensiyalarini hisoblash uchun olinadigan ish stajini va ish haqi miqdorini hisobga olish tartibini belgilaydi.

[31] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 22-fevraldagi “Chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lash tartibini, shuningdek ularning pensiyani hisoblash uchun olinadigan ish stajini va ish haqi miqdorini hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 46-sonli Qarori.

Amaldagi pensiya qonunchiligini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 22-fevraldagi 46-sonli qaror bilan tasdiqlangan Nizom chet elda yollangan holda ishlovchi shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yollangan xodimlar, dehqon xo‘jaligi boshlig‘i, dehqon xo‘jaligi a’zosi, oilaviy tadbirkorlik subyekti oilasi a’zosi, soliq agenti hisoblanmagan ish beruvchidan daromad oluvchi xodim va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarda qoramol boqish va yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo‘lgan jismoniy shaxslarning Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallarini to‘lash tartibi hamda pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish staji va ish haqi miqdorini hisoblab chiqish tartibini belgilaydi. Chet elda yollangan holda ishlovchi shaxs (vakolatli organdan ruxsatnoma olgan holda ishlovchi shaxs) Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallarini ixtiyoriy ravishda, biroq belgilangan eng kam oylik ish haqining bir barobaridan kam bo‘lmagan miqdorda to‘laydilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-avgustdagi “Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-4822-sonli Farmoniga ko‘ra 2016-yilning 1-oktabridan boshlab budjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar hamda nafaqalar miqdori o‘rta hisobda 1,15 baravar oshirildi. 2016-yilning 1-oktabridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida eng kam:



- ish haqi – oyiga 149775 so‘m;
- yoshga doir pensiyalar – oyiga 292940 so‘m;
- bolalikdan nogironlarga beriladigan nafaqa – oyiga 292940 so‘m;
- zarur ish stajiga ega bo‘lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa oyiga 179755 so‘m miqdorida belgilandi.

Umuman olganda, istiqlol bergan imkoniyatlar va Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan huquqlar tufayli mamlakatimiz pensiya ta’minoti tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar natijasida,



eng avvalo, inson manfaatlarini aks ettirgan ko‘plab o‘zgarish va yangiliklarga qo‘l urildi. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonuniga kiritilayotgan o‘zgartish va qo‘shimchalar fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish imkonini berdi.

Xulosa qilib aytganda, Pensiya jamg‘armasi faoliyatiga doir qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlar: davlat pensiya ta’minoti tizimidagi qonunchilik bazasini va me’yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish; pensiya tizimini takomillashtirish va davlat organlari hamda ularning joylardagi boshqarmalari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish; Pensiya jamg‘armasi daromadlari bazasini mustahkamlash; pensiya va ijtimoiy nafaqa to‘lovlarini o‘z vaqtida ta’minlash; Pensiya jamg‘armasi tarkibiy bo‘linmalarining moddiy-texnik bazasining sifatini va jihozlanganlilik darajasini yaxshilash hamda davlat pensiya tizimidagi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish imkonini beradi. Shuningdek, pensiya va ijtimoiy nafaqalarning to‘g‘ri, asosli va qonun doirasida tayinlanishiga va fuqarolarning ijtimoiy barqarorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bunday g‘amxo‘rlik va imtiyozlar davlatimizning pensionerlar ijtimoiy himoyasiga doimiy e’tiborining yaqqol ifodasidir.

### Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

- O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimini tartibga solishga qaratilgan qaysi huquqiy-me’yoriy hujjatlarni bilasiz?
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida fuqarolar ijtimoiy ta’minotiga oid qanday huquqlari belgilab qo‘yilgan?
- 1941–1945-yillarda harbiy majburiyatlarini bajargan yoki mamlakat ichkarisida ishlagan, hozirda ham ishlab turgan pensionerlarga qanday imtiyozlar berilgan?
- Yadro poligonlarida va boshqa yadroviy-radiatsiya obyektlarida harbiy xizmatni o‘tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qanday imtiyozlar mavjud?

- 2012-yil 12-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2012–2016-yillarga mo‘ljallangan davlat pensiya tizimini barqaror rivojlantirish, qulay ijtimoiy muhitni shakllantirish orqali fuqarolarni davlat tomonidan kafolatlangan pensiyalar bilan ta’minlash shart-sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar kompleks rejasida nimalar ko‘zda tutilgan?
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 252-sonli Qarorining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
- Pensiya tayinlash uchun qanday hujjatlar zarur bo‘ladi?
- “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunning mazmuni, tarkibi, ijtimoiy ta’minot munosabatlarini tartibga solishdagi ahamiyatini izohlab bering.
- Nogironlik pensiyasini tushuntirib bering.
- “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Nizomning mazmun-mohiyatini izohlab bering?
- “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra davlat pensiyalarining qanday turlari mavjud?
- Yoshga doir pensiya olish huquqi qachondan yuzaga keladi?
- Yoshidan qat’i nazar qanday kasb egalari imtiyozli pensiya olish huquqiga ega?
- Nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaysi guruh nogironlariga beriladi?
- Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi deb nimaga aytiladi?
- Kimlar boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo‘ladilar va qanday hollarda?
- Umumiy kasallik oqibatida vafot etgan hamda nogironlik pensiyasini tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo‘lmagan boquvchisini yo‘qotgan oila a’zolariga pensiya qanday tayinlanadi?
- Pensiya miqdoriga qaysi omillar ta’sir ko‘rsatadi?
- Pensiyalarning tayanch miqdorlari deganda nimani tushunasiz?

- Pensiyalarga ustama haqlar qanday tartibda va miqdorlarda belgilanadi?
- Mavsumiy ishlarda band bo'lgan xodimlarga pensiyalar tayinlash tartibini tushuntirib bering.
- Nogironlik pensiyasini tayinlashni so'rab murojaat qilgan shaxsning arizasiga qanday hujjatlar ilova qilinadi?
- Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini tayinlashni so'rab murojaat qilgan shaxsning arizasiga qaysi hujjatlar ilova qilinadi?
- Fuqarolarga to'liq bo'lmagan ish staji sharoitida pensiya qanday tayinlanadi?
- Fuqarolarning pensiya guvohnomasi deganda nimani tushunasiz?
- Tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi faoliyatini izohlab bering.
- Pensiya miqdori o'zgarishiga yoki pensiya to'lash to'xtatilishiga sabab bo'ladigan holatlarga izoh bering.
- O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti to'g'risidagi xalqaro shartnomalarning maqsad va vazifalarini ifodalab bering.
- Pensiya ta'minoti tizimidagi qonunchilikning so'nggi o'zgarishlari bo'yicha nimalarni bilasiz?

## 3-bob. PENSIYA JAMG'ARMASI FAOLIYATINI BOSHQARISH

### 3.1. Pensiya jamg'armasini boshqarish to'g'risida tushuncha: boshqarish subyektlari, asosiy vazifalari



Boshqarish (iqtisodiyotda) – xo'jalik obyektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga solish va yo'naltirish jarayoni; subyektlar, idoralar tomonidan kishilar va iqtisodiy obyektlarga ongli maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishni bildiradi, ularning faoliyatini yo'naltirish va ko'zlangan natijalarga erishish maqsadlarida amalga oshiriladi[32]. Boshqarish tarkibiy jihatdan korxona, firma, kompaniya, birlashma va boshqa miqyosida, hududiy jihatdan esa tuman, shahar, viloyat, davlat miqyosida bo'ladi.



Boshqarish ishini davlatning boshqaruv organlari yoki boshqaruvchilar (menejerlar) amalga oshiradi. Pensiya jamg'armasi faoliyatini boshqarish aniq maqsadlarga erishishga qaratilgan va bu maqsadlar o'zida demografik omillar va bu boradagi muammolarni ham qamrab oladi.



Demografiyaning umumiy qabul qilingan ta'rifi ushbu tushunchani aholining takror barpo bo'lishi to'g'risidagi fan sifatida talqin etadi va bu unga asos qilib olinadi. Demografik omillar aholining soni va uning ijtimoiy-demografik guruhlari alohida tarkibiy qismlari dinamikasining avlodlar almashinuvining darajasi bilan o'zaro bog'liqligini anglatadi. 1990-yilda dunyoda 60 yoshdan oshgan kishilar soni 500 million nafarni tashkil qilgan bo'lsa, tibbiyot sohasining taraqqiyoti va shu kabilar natijasida 2030-yilga ke-

[32] O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: "O'ME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 2-tom. – B. 185-186.

lib, bu ko‘rsatkich 1,4 milliard nafarni tashkil qilishi mumkin. Jahon bankining prognozlariga ko‘ra O‘zbekiston aholisi 2050-yilga borib 39 millionga yetishi kutilmoqda. Mamlakatdagi o‘rtacha umr davomiyligi ko‘rsatkichi 68 yoshdan 72 yoshga oshadi va 65 yoshdan katta bo‘lgan iqtisodiy faol aholi ulushi 4,4 foizdan 13,4 foizga yetishi mumkin (3.1-jadval).

*3.1-jadval*

**O‘zbekiston demografik ko‘rsatkichlari prognozi (2010–2050)[33]**

| Ko‘rsatkichlar | 2015 -yil | 2020 -yil | 2025 -yil | 2030 -yil | 2035 -yil | 2040 -yil | 2045 -yil | 2050 -yil |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Aholi soni (mln. kishi) | 30,2 | 32,4 | 34,3 | 35,8 | 36,9 | 37,9 | 38,7 | 39,4 |
| Tug‘ilish koeffitsiyenti (1 ayolga to‘g‘ri keladigan tug‘ilish soni) | 2,2 | 2,1 | 2,0 | 1,9 | 1,9 | 1,8 | 1,8 | 1,8 |
| Umr davomiyligi (umumiy) | 68,5 | 69,0 | 69,6 | 70,1 | 70,7 | 71,2 | 71,7 | 72,2 |
| Umr davomiyligi (erkaklar) | 65,2 | 65,7 | 66,1 | 66,6 | 67,1 | 67,6 | 68,0 | 68,5 |
| Umr davomiyligi (ayollar) | 71,9 | 72,6 | 73,2 | 73,8 | 74,4 | 75,0 | 75,5 | 76,1 |
| 65 va undan katta yoshdagi aholi soni (foizda) | 4,4 | 5,1 | 6,6 | 8,2 | 9,4 | 10,5 | 11,7 | 13,4 |

O‘zbekistonda ushbu nisbatga yashirin iqtisodiyotda band bo‘lganlar sonining ortishi, bandlik sohasidagi holat, mehnat migratsiyasi oqimi va demografik vaziyat jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda bog‘liqlik koeffitsiyenti 2000–2014-yillarda yaxshilanib bordi, jumladan, ushbu ko‘rsatkich 2000-yilda 1:2,8 bo‘lgan bo‘lsa, 2015-yilga kelib 1:4,0 ni tashkil etdi. Band bo‘lgan aholi tarkibida bor yo‘g‘i 8,2 million kishi – 65,5% kishi Pensiya jamg‘armasiga majburiy jamg‘ariladigan to‘lovlarni to‘lashini nazarda tutadigan bo‘lsak, real nisbat

[33] Vaxabov A.V. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to‘plami. 2017-yil 14-mart. – T.: “IQTISOD MOLIYA”, 2017. – B. 15.

1:2,6 teng bo'ladi. Biroq yaqin besh yillikda ikkinchi jahon urushidan keyingi qulay demografik vaziyat tufayli tug'ilganlarning pensiyaga chiqish yoshiga yetishi va 2016-yildan boshlab avval imtiyozlari bekor qilingan shaxslarning pensiyani rasmiylashtirishi tufayli odatdagi har yili pensiyaga chiquvchi shaxslarga (150 ming) nisbatan ko'p (270 ming) kishilarning murojaat qilishi kutilmoqda. Bu esa bog'liqlik koeffitsiyentini kritik nuqtaga yaqinlashtiradi. Pensiya jamg'armasi mablag'larining pensiya to'lash uchun yetishmasligiga yashirin iqtisodiyotning mavjudligi ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.



Aholining umrguzaronligi, ya'ni umr davomiyligi turi iqtisodiy muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan taraqqiy etgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va uning samaradorligini saqlab qolgan holda ushbu tizimni qanday tashkil etish va boshqarish asosiy masala hisoblanadi. Shuningdek, ushbu masalada qabul qilingan siyosiy va moliyaviy qarorlar va uning Pensiya jamg'armasini rivojlantirishdagi oqibati moliyaviy tizim tuzilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi[34]. Rivojlangan mamlakatlar pensiya fondlari professional darajada boshqaruv tajribalariga ega. Taraqqiy etgan davlatlarda pensiya fondlari va ularning aktivlari yirik institutsional investorlar ichida muhim o'rin egallaydi.





Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyo bo'yicha Pensiya jamg'armalari aktivlari (90 foizi) uchta yirik taraqqiy etgan davlatlar qo'lida to'plangan. Bular Qo'shma shtatlar (75 foiz), Qo'shma qirollik (11 foiz) va Yaponiya (8 foiz) davlatlari hisoblanadi. Mazkur davlatlarda Pensiya jamg'armalari mablag'larini investitsiyalash taraqqiy etgan bo'lib, bu qisqa va uzoq

[34] E.Philip Davis. Pension Funds: Retirement-Income Security and Capital Markets: An International Perspective. Print ISBN-13: 9780198293040. Published to Oxford Scholarship Online: March 2012. – P. 2-3.

muddatli investitsiya qo'yilmalari hisobiga Pensiya jamg'armasi aktivlarini oshirib boradi[35].

Pensiya jamg'armasi aktivlarini xorijiy emitentlar qimmatli qog'ozlariga joylashtirish pensiya jamg'armasi portfelining asosini tashkil qiladi. Pensiya jamg'armasi portfelini diversifikatsiya qilish, ya'ni mablag'larni turli sohalarga investitsiyalash Pensiya jamg'armasi daromadlarini oshirish imkonini beradi. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda Pensiya jamg'armalari mablag'larini investitsiyalash hali uncha taraqqiy etmagan, yirik davlat pensiya fondlari o'z mablag'larini qimmatli qog'ozlarga yo'naltirmayapti. Bundan tashqari, Pensiya jamg'armasi mablag'larining qimmatli qog'ozlai bozoriga joyllashtirilgan miqdori Pensiya jamg'armasi aktivlarining 1 foizini tashkil qilishi mumkin[36].



O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqarishning yuqori organi Pensiya jamg'armasining Kuzatuv kengashi hisoblanadi. Pensiya jamg'armasi Kuzatuv kengashining majlislari yil choragida kamida bir marta o'tkaziladi. Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparati Kuzatuv kengashining ishchi organi hisoblanadi. Majlisni Kuzatuv kengashi raisi, u bo'lmaganda esa – raisning o'rinbosari o'tkazadi. Kuzatuv kengashi majlisi, agar unda kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashsa, huquqiy vakolatli bo'ladi (kvorumga ega bo'ladi).

Kuzatuv kengashining qarori uning majlisda qatnashgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Davlat pensiya ta'minoti tizimi doirasida moliyaviy resurslarning taqsimlanish va qayta taqsimlanish jarayoni har doim ma'lum maqsad-

[35] IMF Working Paper. International Capital Markets. Pension Funds and Emerging Markets. Prepared by Jorge A. Chan-Lau. 2004. International Monetary Fund.

[36] IMF Working Paper. International Capital Markets. Pension Funds and Emerging Markets. Prepared by Jorge A. Chan-Lau. 2004. International Monetary Fund.

larga erishishga qaratilgan bo‘lib, u o‘ziga xos tarzda tartibga solish va rag‘batlantirish tamoyillari asosida boshqarib boriladi.

Ma’lumki, har qanday tizimida boshqaruv bo‘lgani kabi, pensiya ta’minotini boshqarishda ham boshqarish obyektlari va subyektlari mavjud bo‘ladi. Davlat pensiya ta’minotini boshqarish obyektlari bo‘lib, turli moliyaviy munosabatlar hisoblanadi. Masalan, budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar va boshqa pul jamg‘armalarini tashkil qilish va ishlatish bilan bog‘liq munosabatlar boshqarish obyektlaridir. Bu moliyaviy munosabatlarni boshqarishga xizmat qiluvchi tashkiliy tuzilmalar (moliya organlari, soliq idoralari, korxonalardagi moliyaviy xizmatlar va bo‘limlar) esa moliyani boshqarish subyektlaridir. Davlat pensiya ta’minotini boshqarish quyidagilarni o‘z ichiga oladi (3.1-rasm).




**3.1-rasm. Davlat pensiya ta’minotini boshqarish.**

Moliyaviy munosabatlarning har bir sohasi va har bir bo‘g‘inida boshqarish subyektlari bu munosabatlarga ta’sir etishning o‘ziga xos maxsus usullaridan foydalanadilar. Shu bilan birga, bu usullar ma’lum umumiylikka ega bo‘lgan funksional elementlardan iborat, bular: rejalashtirish, operativ boshqaruv va nazorat (3.2-rasm).




**3.2-rasm. Davlat pensiya ta’minotini boshqarish elementlari.**

Pensiya jamg'armasi pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlarini va boshqa to'lovlarni tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to'lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek, TMEXlari faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo'yicha asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini belgilaydi. Davlat pensiya ta'minoti tizimini boshqarish organlari quyidagi rasmda ifodalangan.




**3.3-rasm. Davlat pensiya ta'minoti tizimini boshqarish organlari.**

Pensiya jamg'armasi o'z ishlarini davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi. Ushbu jamg'arma quyi tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– Jamg'armaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari;

– Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari;

– respublika TMEI;

– bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan TMEXlari kiradi.

## 3.2. Pensiya jamg‘armasining Kuzatuv kengashi – Pensiya jamg‘armasini boshqarishning yuqori organi sifatida

Kuzatuv kengashi – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini boshqarishning yuqori organidir. Pensiya jamg‘armasi Kuzatuv kengashining tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1252-sonli qarorining 5-ilovasiga muvofiq 2010-yil 1-yanvaridan tasdiqlangan va amalga kiritilgan.

Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparati tuzilmasi, uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlarining namunaviy tuzilmalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari bilan tasdiqlanadi. Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparatiga Pensiya jamg‘armasi Kuzatuv kengashining taqdimnomasi bo‘yicha, belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadigan ijro etuvchi direktor boshchilik qiladi. Ijro etuvchi direktor Pensiya jamg‘armasiga yuklangan vazifalarning bajarilishi va o‘z funksiyalarining amalga oshirilishi uchun shaxsan javob beradi.



Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi direktorining birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosari Pensiya jamg‘armasi Kuzatuv kengashining taqdimnomasi bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadi. Pensiya jamg‘armasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari boshliqlari Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi direktorining taqdimnomasiga binoan Pensiya jamg‘armasi Kuzatuvchi kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar. Respublika TIEI boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri qarori bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi. Respublika TIEI boshlig‘ining o‘rinbosari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar

va Toshkent shahar bosh TMEKlari raislari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi direktori taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri qarori bilan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar. Pensiya jamg'armasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari boshliqlarining o'rinbosarlari, Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy boshqarmalari boshliqlarining taqdimnomasi bo'yicha Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi. Tumanlararo, tuman (shahar) va ixtisoslashtirilgan TMEKlari rahbarlari respublika TIEI boshlig'ining taqdimnomasi bo'yicha Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi. Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparati, uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari yagona markazlashtirilgan tizimni tashkil etadi hamda quyi boshliqlarning yuqori boshliqlarga hamda Pensiya jamg'armasi Kuzatuv kengashining raisiga bo'ysunishi va hisob berishi asosida ishlaydi.

Jamg'armaning ijro etuvchi direktori: Pensiya jamg'armasi faoliyatiga rahbarlik qiladi; o'z vakolatlari doirasida ijro etuvchi direktorning o'rinbosarlari hamda hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) bo'limlari rahbarlari, shuningdek, respublika TIEI va TMEXlari rahbarlari o'rtasida lavozim vazifalarini taqsimlaydi; o'z vakolatlari doirasida hududiy boshqarmalar va tuman (shahar) bo'limlari rahbarlari, respublika TIEI va TMEXlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar, yo'riqnomalar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi; belgilangan mehnatga haq to'lash fondi va xodimlarning soni doirasida ijro etuvchi apparatning shtatlar jadvaliga o'zgartirishlar kiritadi va uni tasdiqlaydi, Pensiya jamg'armasining tarkibiy boshqarmalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi; Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparati xodimlarini, Pensiya jamg'armasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalarining boshliqlari o'rinbosarlarini, Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari boshliqlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi; TMEXlari faoliyatiga rahbarlik qiladi; O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni

saqlash vazirligi Moliya vazirligiga TMEKni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish bo'yicha takliflar kiritadi; pul mablag'lari va moddiy boyliklarning buxgalteriya hisobi yuritilishini, statistika va buxgalteriya hisobotlari tuzilishini va belgilangan tartibda taqdim etilishini tashkil qiladi; Pensiya jamg'armasining vaqtincha bo'sh mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga va boshqa moliyaviy vositalarga joylashtiradi; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar va vakolatlarni amalga oshiradi.

Pensiya jamg'armasi o'z xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasini quyidagi manbalar hisobiga shakllantiradi: "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga pensiyalar to'lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'larning 15 foizi; majburiy ajratmalar, badallar va Pensiya jamg'armasiga boshqa to'lovlarning o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun hisoblangan jarimalar, penyalar summasining 5 foizi.

### 3.3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Pensiya jamg'armasini boshqarishdagi ishtiroki, vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi[37] respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O'zbekiston Respublikasining moliyaviy, narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika budjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta'minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydi. Moliya va-

[37] Moliya vazirligi yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasvirlangan va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tasdiqlaydigan Vazir boshchilik qiladi.

zirligi respublika budjetining ham daromadlari, ham xarajatlari bo'yicha ijro etilishi uchun moliyaviy resurslarni umumrespublika ehtiyojlariga safarbar etish ishlarini tashkil etish uchun javob beradi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari boshqarmalari va bo'limlari, davlat sug'urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston Res-publikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi. Moliya vazirligi o'z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri yoki o'zi tashkil etadigan organlar orqali muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi. Moliya vazirligi tizimiga kiruvchi organlarni boshqarish jarayonida Vazirlik O'zbekiston Respublikasining moliyaviy va narx-navo siyosatini amalga oshirishning birligini ta'minlaydi.

Bir vaqtning o'zida fuqarolarning pensiya ta'minoti sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta'minlash hamda Pensiya jamg'armasi tomonidan unga yuklangan vazifalar va funksiyalarning, ayniqsa, pensiyalarni va boshqa tegishli to'lovlarni tayinlash va to'lashning belgilangan qoidalarini qo'llash yuzasidan bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Moliya vazirligining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash manbalarini aniqlash va mablag' bilan ta'minlash Moliya vazirligining funksiyasiga taalluqlidir. Budjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil qilish, shu jumladan, Pensiya jamg'armasini tashkil qilish ham Moliya vazirligining mutlaq huquqi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larining maqsadli ishlatilishi yuzasidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi nazorat-taftish boshqarmalarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Ushbu boshqarmaning muhim vazifalaridan biri pensiyalar va nafaqalarning to'g'ri

tayinlanishi, hisoblanishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda TMEKlarining faoliyatini nazorat qilishdan iborat.

Nazorat-taftish bosh boshqarmasi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi nazorat-taftish boshqarmalarining pensiya bilan bog‘liq funksiyalariga quyidagilar taalluqli:

– ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam to‘lovlari uchun kam ta’minlangan oilalarga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi yuzasidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish;

– davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining maqsadli sarflanishi yuzasidan tekshirishlar o‘tkazish;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi va uning hududiy bo‘linmalarida pensiya va nafaqalarning to‘g‘ri tayinlanishi, hisoblanishi va to‘lanishini, shuningdek, fuqarolarning pensiya yig‘majildlaridagi dastlabki hujjatlarning to‘liqligi va ishonchliligi yuzasidan tekshirishlarni amalga oshirish;

– barcha tashkilotlar tomonidan ishlayotgan pensionerlarga pensiya va nafaqalarning to‘g‘ri hisoblanishi va to‘lanishi yuzasidan tekshirishlarni amalga oshirish;

– fuqarolarga pensiya va nafaqalarning O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki hamda uning filiallari tomonidan o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishi yuzasidan tizimli nazoratni olib borish;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan amalga oshirilgan boshqa xarajatlarning to‘g‘riligini tekshirish;

– TMEKlari xizmati faoliyatini nazorat qilish;

– o‘tkazilgan tibbiy-ekspert tekshirishlarning to‘g‘riligi va asoslanganligini, shu jumladan davolash-profilaktika muassasalari tomonidan berilgan dastlabki tibbiy hujjatlarning to‘liqligi va ishonchliligini tekshirish;

– TMEKlari tomonidan berilgan ko‘rikdan o‘tkazish dalolatnomalarini va xulosalarni, zarurat bo‘lganda, mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda qayta ekspertizadan o‘tkazish;

– TMEKlari faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimi mutaxassislarini jalb etgan holda doimiy ravishda tekshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

– fuqarolarning pensiya ta’minoti sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

– budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta’minlash;

– budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi o‘z zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni, xususan, pensiyalar hamda boshqa tegishli to‘lovlarni tayinlash va to‘lashda o‘rnatilgan qoidalarning qo‘llanish qismida ularning bajarilishini muvofiqlashtirish va nazoratni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarma zimmasiga: yangi tayinlangan pensiya va nafaqalarning hisoblab chiqilishi, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar qo‘llanilishi to‘g‘riligini, shu jumladan, fuqarolarning pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildida birlamchi hujjatlarning to‘liqligi va ishonarliligini tekshirish yo‘li bilan yoppasiga tekshiruvlarni amalga oshirish; mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar tomonidan ishlovchi pensionerlarga pensiyalar hamda nafaqalarning hisoblab yozilishi va to‘lanishi to‘g‘riligini reja asosida tekshirib turish; fuqarolarga pensiya va nafaqalar, shu jumladan, bank va pochta muassasalari tomonidan o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishining tizimli monitoringini olib borish, qoidabuzarliklar aniqlanganda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko‘rish; TMEKlari tomonidan berilgan tekshiruv hujjatlari va xulosalarni, zarurat tug‘ilganda, mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda takroriy ekspertizalarni o‘tkazish yuzasidan qo‘shimcha vazifalar ham yuklatilgan.

### 3.4. Pensiya jamg‘armasi faoliyatini tartibga solish va boshqarishda davlat siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari



Pensiya ta’minoti aholini ijtimoiy himoyalash tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biridir, chunki u deyarli barcha fuqarolarning hayotiy manfaatlari bilan bog‘liqdirki, fuqa-

rolar mehnat qobiliyatlarini yo'qotganlarida shu tizim orqali ijtimoiy himoya qilinadilar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda davlat pensiya ta'minotining tashkiliy jihatdan ikki shakli mavjud bo'lib, ularning birinchisi – fuqarolarning birdamlashgan davlat pensiya ta'minoti tizimi, ikkinchisi – fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi hisoblanadi.

O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda pensiya ta'minotining yangi tizimi paydo bo'ldi. Pensiya ta'minoti tizimining huquqiy asosini yaratilishida Hukumatimiz tomonidan qator qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Fuqarolarning birdamlashgan davlat pensiya ta'minoti tizimi, ya'ni hozirgi vaqtda Pensiya jamg'armasi mustaqillik yillari mobaynida bosqichma-bosqich rivojlantirib borildi va besh bosqichda amalga oshirildi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan 2009-yil 30-dekabrda qabul qilingan "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ushbu mexanizm samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. Mazkur hujjatda pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan jamg'armalardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladigan qator yangiliklarni joriy etish belgilangan. Ushbu Farmonga ko'ra, 2010-yilning 1-yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish viloyatlar, shaharlar va tumanlarda tashkil etiladigan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ayni paytda hujjatda Pensiya jamg'armasi zimmasiga qo'shimcha vazifalar ham yuklangan. Yangi tuzilma fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalar hamda boshqa to'lovlarning miqdori qayta hisoblab chiqilishini ta'minlaydi. Mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik bo'yicha tayinlangan pensiyalarga doir munosabatlarni amalga oshiradi. Pensiya ta'minoti tizimiga kiritilgan bunday

yangilik fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash samaradorligini oshirish, TMEX faoliyatini tashkil etish imkonini beradi. Zotan, fuqarolarga pensiya tayinlashning amaldagi tizimini takomillashtirish, mavjud ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Mamlakat iqtisodiy salohiyati va odamlar ijtimoiy muhofazasi bilan bog'liq ushbu masalada belgilangan qonun-qoidalarga qat'iy amal qilinishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tomonidan yangi tayinlangan pensiya va nafaqalarning hisoblab chiqilishi, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilishi to'g'riligini, shu jumladan, fuqarolarning pensiyaga oid hujjatlar yig'ma jildida birlamchi hujjatlarning to'liqligi va ishonarliligini tekshirish yo'li bilan yoppasiga tekshiruvlar amalga oshiriladi. Ishlovchi pensionerlarga mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar tomonidan pensiyalar hamda nafaqalarning hisoblab yozilishi va to'lanishi to'g'riligini reja asosida tekshiradi.

O'zbekistonda pensiya tizimini tartibga solish va boshqarish ikki tizimni nazarda tutadi:

– *davlat pensiya ta'minoti tizimi* – fuqarolarning qonunchilikda belgilangan keksalik yoshiga yetganida, nogironlik tufayli mehnat layoqatini yo'qotganida, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda pensiya ko'rinishida moddiy ta'minot berish maqsadiga ega bo'lgan iqtisodiy institutlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar yig'indisi;

– *fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi* – fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varag'laridagi jamg'armalardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul jamg'armalari bilan ta'minlash maqsadiga ega bo'lgan iqtisodiy institutlar va huquqiy-me'yoriy hujjatlar yig'indisidan iborat.

Pensiya jamg'armasi faoliyatini tartibga solish va boshqarishda davlat siyosatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri 2010-yil 1-yanvardan Pensiya jamg'armasi tashkil etilgan vaqtdan boshlab normativ-huquqiy baza takomillashdi, moddiy texnika baza mustahkamlandi, kadrlar salohiyati oshirildi va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etilgan bo'lsa, ikkinchisi, davlat

pensionerlar uchun o‘ta qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Jumladan, ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash tizimini tubdan takomillashtirish, pensionerlar, talabalar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari huquq va qonuniy manfaatlari himoyasini so‘zsiz ta’minlash va ular uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida 2017-yil 2-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2753-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur qaror mamlakatimiz hududlarida ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar to‘lashdagi mavjud ahvolni tanqidiy tahlil qilish natijasida qabul qilingan bo‘lib, 2017-yil fevral oyidan boshlab:




– birinchidan, barcha turdagi pensiyalarni to‘lash hech qanday cheklovlarsiz to‘liq hajmda naqd shaklda amalga oshirilishi;

– ikkinchidan, 58 tog‘li va olis tumanlarda joylashgan budjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi to‘lash, shuningdek, ushbu tumanlar aholisiga ijtimoiy to‘lovlar ham hech qanday cheklovlarsiz to‘liq hajmda naqd shaklda amalga oshirilishi;

– uchinchidan, oliy o‘quv yurtlari talabalariga stipendiya to‘lash 50 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda naqd shaklda amalga oshirilishi belgilangan.



Fikrimizcha, ushbu qaror ijrosini ta’minlash ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar hamda ularga tenglashtirilgan to‘lovlarni amalga oshirish bilan bog‘liq vaziyatni tubdan yaxshilash va fuqarolarning o‘z pul mablag‘larini o‘zlariga qulay shaklda olish bo‘yicha qonuniy huquqlarini to‘la ta’minlashga xizmat qiladi.

Pensiya jamg‘armasi pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlarini va boshqa to‘lovlarni tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to‘lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo‘naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek, TMEXlari faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo‘yicha asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini belgilaydi.

Pensiya jamg‘armasi o‘z ishlarini davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

### 3.5. Xorijiy mamlakatlarda pensiya tizimini boshqarish va tartibga solish




Ma’lumki, Yevropa mamlakatlarida pensiya ta’minoti tizimini tartibga solish va rivojlantirish bo‘yicha qator qonunlar qabul qilingan. Jumladan, Avstriyada “Pensiyalar to‘g‘risida”gi va “Pensiya fondlari to‘g‘risida”gi, Buyuk Britaniyada “Pensiyalar to‘g‘risida”gi (2004-yil), Belgiyada, Fransiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Ispaniya va Kiprda “Institutions for Occupational Retirement Provision” (IORP), ya’ni “Mehnat muassasalarida pensiya tartibi to‘g‘risida”gi qonun, Daniyada “Pensiya fondlari to‘g‘risida”gi qonun, Germaniyada “Pensiya kompaniyalari to‘g‘risida”gi qonun amal qiladi, Gretsiyada pensiya tizimi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan nazorat qilinadi va maxsus pensiya fondlari faoliyat ko‘rsatadi, Irlandiyada “Pensiya to‘g‘risida”gi qonun (1990-yil), Italiyada “Pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonun (2005-yil), Litvada “Pensiya tizimi islohotlari to‘g‘risida”gi (2002-yil), “Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘g‘risida”gi (2006-yil), “Ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan pensiya” (1999-yil), “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi (1991-yil) qonunlar, Shveysariyada “Maxsus pensiya sxemalari to‘g‘risida”gi qonun, Buyuk Britaniyada “Pensiya to‘g‘risida”gi qonun (1995-yil)lar bilan tartibga solinadi va rivojlantiriladi[38].



[38] Pan-European Pensions Guide. Requirements for the operation of cross-border pension arrangements. A Ius Laboris publication. Produced by the Pensions International Practice Group. 2nd Edition. Printed: July 2011.

Shuni alohida qayd etish joizki, 2014-yil 27-martda Yevropa komissiyasi pensiya fondlari to'g'risida yangi qonunchilik hujjatlarini qabul qildi[39]. Bu hujjat "Institutions for Occupational Retirement Provision" (IORP), ya'ni "Mehnat muassasalarida pensiya tartibi to'g'risida"gi qonundir. Ushbu qonun hujjatlari pensiya fondlari shaffofligini va mazkur fondlarni boshqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirildi.

XIX asrning ikkinchi yarmigacha pensiyani jamiyatning ma'lum bir qismigina olgan va aksariyat hollarda unga muhtoj bo'lmaganlarga pensiyalar taqdim etilgan. 1883–1884-yillarga kelib, shikastlangan va xasta kishilar uchun Germaniyada moliyaviy yordam ko'rsatila boshlandi. 1889-yili esa Otto Fon Bismark ijtimoiy qonuniga binoan qarilik va mehnatga layoqatsizlik sug'urta hisobi yo'lga qo'yildi. Qarilik pensiya dasturi ishchilarga solingan soliqlar asosida moliyalashtirildi va bu tizimdan 70 yoshga kirgan ishchilar har yili foydalanishlari mumkin edi. 70 yosh 1916-yilga kelib 65 yoshga tushirilgan. Keyinchalik shu tizim asosida Yevropaning boshqa yetakchi mamlakatlari pensiya tizimini tatbiq qila boshladilar: Daniya (1891-yil), Buyuk Britaniya (1908-yil), Fransiya (1910-yil), Shvetsiya (1913-yil), Italiya (1919-yil), Niderlandiya (1919-yil). Yangi Zellandiya 1898-yili pensiya berishni boshladi, Avstraliya esa pensiyalarni 1908-yildan Buyuk Britaniya bilan bir vaqtda taqdim eta boshladi.




Shimoliy Amerika mintaqasida esa, xususan, Kanadada 1927-yili o'zining "Old age pension" (Qarilik pensiyasi) joriy etilgan bo'lsa, AQSH davlat pensiyalari o'z faoliyatini turli xil va'dalar ustiga qurdi hamda asosan, revolyutsiya yoki fuqaro urushi qatnashchilariga taqdim eta boshladi. Ular vaqt sayin kengaydi va XIX asr oxiriga kelib, mahalliy va davlat tomonidan taqdim etila boshlandi.

Federal fuqaro pensiyasi fuqaro xizmati nafaqa tizimi ostida 1920-yildan taqdim etila boshlandi va jamg'arma qarilik, mehnatga layoqatsizlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi bilan 1987-yili federal ishchilar nafaqa tizimi tashkil topgunicha

[39] http://ec.europa.eu/finance/pensions/iorp/index_en.htm. sayti ma'lumotlari.

ta'minlagan. Shunday bo'lsada, "Amerikan Ekspress" kredit uyushmasi 1875-yili o'zining ishchilariga pensiya to'lay boshlagan.

Pensiya dasturlari II Jahon urushi davrida, ya'ni maoshlarning muzlatib qo'yishlari sababli ishchilarning Pensiya jamg'armasiga ajratma ajratishlari qiyinlashgan vaqtda keng tarqala boshlandi. Hozirgi kunga kelib esa AQSHda belgilangan daromadli dasturlar sinishi kuzatilmoqda: Shimoliy Marian Orollari Nafaqa fondi 2012-yil aprel oyida bankrotlik holatidan 268,4 million AQSH dollari aktivi va 911,0 million AQSH dollari miqdoridagi majburiyat bilan chiqdi. Dastur investitsiyalanishi juda ham past bo'lgan va shakllanish jarayoni ham kelajakdagi xarajatlarni qoplay olmagan.

Lotin Amerikasida e'tiborga sazovor tajriba Chilida o'tkazilgan bo'lib, u G'arbiy yarimsharda birinchi bo'lib milliy "PAYG" tizimini qo'llagan (1924-yil) va birinchi bo'lib undan voz kechgan (1980-yil) davlatdir.

Yaponiyada pensiya ta'minoti 1942-yili joriy qilingan bo'lsada, amalda 1954-yildan ishlagan. Uning hozirgi kundagi Davlat milliy pensiya jamg'armasi Yer yuzidagi eng katta investitsiya fondi deb qayd etilgan.

200 yillik rivojlanish bosqichini bosib o'tgan pensiya tizimi 3 dasturga qarab hisoblanadi:

- belgilangan daromad dasturi;
- belgilangan ajratma dasturi;
- gibrid dastur.




Belgilangan daromadli dasturga ko'ra jamg'arma a'zosi belgilangan muddatda, belgilangan summani to'lab bersa aniq bir formula asosida qonunda ko'rsatilgan pensiya yoshidan umrining oxirigacha aniq belgilangan pensiya daromadiga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasi ham shu dastur asosida ishlaydi. Bu dastur ko'proq keng ko'lamdagi sug'urtani anglatadi. Misol sifatida quyidagi formulani ko'rishingiz mumkin:

***Pensiya miqdori= k*y (a'zo yillar soni)* o'rtacha oylik miqdori;***

Bu yerda: k – maxsus koeffitsiyent bo'lib, aktuariylar tomonidan hi-

soblab chiqiladi va bu ko‘rsatkich pensionerning pensiyasi maoshining kamida 40%ini tashkil qilishini ta’minlaydi.



Belgilangan daromadli pensiya dasturlari ichida eng ko‘p uchraydigani – bu “Dollars Times Service” hisoblanadi. Unga ko‘ra, tayinlangan pensiya kompaniyaga ishlagan yilingiz bilan proporsional o‘sib boradi. Misol uchun, shu dastur ishlaydigan muassasa har oy 125 AQSH dollari miqdorida pensiya berishini shartnomada ko‘rsatib qo‘yadi hamda 30 yillik ish staji bilan ishchi nafaqaga chiqqanida (ishdan ketganida emas) usulga ko‘ra oyiga 3750 AQSH dollari ($125*30) pensiya oladi. Agar 25 yil ishlagan bo‘lsa, mos ravishda oyiga 3125 AQSH dollari ($125*25), 20 yil bo‘lsa 2500 AQSH dollari (20*$125) pensiya oladi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt yil o‘rniga oylarni yoki boshqa vaqt o‘lchovini qo‘llashi mumkin. Bundagi muhim g‘oya shundaki, ishchi qanchalik ko‘p ishlasa, shuncha ko‘proq pensiya oladi.



Yana bir ko‘p qo‘llaniladigan dastur – “Final Average Pay” (FAP). FAP AQSHda eng ko‘p taklif qilinadigan dasturdir. Bu dastur bo‘yicha, ishchining butun mehnat davomida ishlab topgan maoshining o‘rtachasi pensiya daromadini ifodalaydi. Misol uchun, pensiya yil uchun hisoblansa va pensiya yoshi 2009-yilga to‘g‘ri kelsa, u holda 2004–2008-yillar oralig‘idagi ishlab topilgan pullar o‘rtachasi olinadi. Vaholanki, oradagi yillarda pul inflyatsiyaga uchrab, yana o‘z qadrini topgan bo‘lishi mumkin. Natijada, ko‘zda tutilmagan katta miqdordagi pensiyalar joriy qilishga to‘g‘ri keladi. Zero, bu sotib olish qobilyatiga, narxga va qiymatga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Lekin inflatsiya salbiy omilidan hisoblanayotgan yillardagi maoshlarni birinchi hisob yiliga keltirib (diskontlab), keyin pensiyani hisoblab, masalani hal qilish mumkin.

Birlashgan Qirollikda daromadlar inflatsiyaga qarshi indeksatsiyalanadi, uni Retail Price Index (RPI), ya’ni chakana narx indeksi deb atashadi va bu qonun tomonidan ro‘yxatdan o‘tgan pensiya dasturlari uchun qo‘llash majburiy qilib qo‘yilgan. Ishchining pensiya davridagi

inflatsiya pensiyaning sotib olish qobilyatini kamaytiradi. Bu samara kuchini inflatsiya darajasida pensiyani oshirish orqali qisqartirish mumkin. Bu, albatta, fuqaroga birmuncha qulayliklar yaratadi. Belgilangan ajratma dasturlarida ajratmalar har bir a'zo uchun individual tarzda yig'iladi. Ajratmalar investitsiya qilinadi (foydali yoki zararli bo'lishi mumkin) va investitsiya faoliyatidan kelgan daromadlar individual tarzda hisob raqamga jamlanadi. Pensiya davrida a'zoning hisob raqami pensiyani to'lash uchun ishlatiladi hamda yillik to'lov xizmati xarid qilinganida doimiy to'lovni ta'minlaydi. Belgilangan ajratmalar dasturlari so'nggi yillarda keng qo'llanila boshlandi. Bundan AQSH ham keng foydalanmoqda.

Belgilangan ajratma dasturida investitsiya xavfi va investitsiya foydasi tashkilotchida emas, balki mijoz, subyekt, pensionerning o'z zimmasida qoladi. Xavflar rostdan ham jiddiydir. Belgilangan ajratma dasturida ajratmalarni hisoblab chiqish oson, lekin kelajak uchun pensiya daromadini bilib olish mumkin emas. Shuning uchun ham ajratmani bilish mumkin, lekin kelajakda qancha pensiya olishingizni emas.



AQSHda belgilangan xarajat tasnifi asosida "Individual Retirement Accounts" (Shaxsiy nafaqa hisob-raqamlari) jamg'armasi ishlaydi. Bu kabi pensiya dasturlarida a'zolar investitsiya loyihasini tanlash huquqiga egalar. Bu oldindan tahlil qilinib, taklif etilgan qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish yoki olmaslik kabi tanlovlardan iborat bo'ladi. Shuning bilan birga dasturlar soliq imtiyozlarini ham taklif etadilar hamda investorlar nafaqa yoshiga yetmagunicha hisob-raqamidan mablag'larini yechib olish huquqiga ega emaslar.

Belgilangan xarajatlar dasturi asosida faoliyat yuritadigan pensiya tizimlari misoliga Birlashgan Qirollik shaxsiy pensiyalari va Ishonchli maqsadli bandlik omonatlari, Germaniyaning "Riester Rente"[40] dasturi, Avstraliyaning "Superannuation" tizimi yoki Yangi Zellandiyaning

[40] Germaniyadagi "Avlodlar birdamligi" dasturi. Unga ko'ra hozirda ishlayotgan aholi bugungi pensionerlarning pensiyasini to'laydi. Hozirda ishlayotgan aholining pensiyasi to'lovlarini esa avlod davomchilari amalga oshiradi.

"KiwiSaver" dasturini keltirish mumkin. Avstriya, Chexiya, Daniya, Gretsiya, Finlandiya, Irlandiya, Gollandiya, Sloveniya va Ispaniya davlatlari ham ushbu dasturlardan foydalanadi.

Gibrid dastur belgilangan daromad dasturi asosida aktuariylar[41] maslahati bilan ("Kvasha Lipton", birinchi bo'lib yaratgan shaxs) belgilangan ajratma ko'rinishida aniq bir hisob-raqamga to'lab boriladi. Gibrid dasturining ko'plab turlari mavjud, lekin eng ko'p tarqalgani naqd pul balansi dasturidir.

Dunyoda ko'plab fondlar naqd pul balansi dasturidan foydalanib kelmoqda. Bu butunlay ish beruvchi tomonidan moliyalashtirilib kelinayotgan belgilangan daromadli dasturdir. Bu dastur pensiyaning aniq bir hisobraqamga to'lanishi bilan belgilangan ajratma dasturini eslatsa, aktuariylar tomonidan ishchining yoshi, xizmat muddati va nafaqalarini hisobga olish orqali aniq formula asosida fondga pul ajratilishi belgilangan daromadni bildiradi. Uning afzalligi shundaki, dastur to'laligicha ish beruvchi tomonidan moliyalashtiriladi. Demak, kelajakdagi pensioner pensiya uchun pul o'tkazmaydi.

Jahon amaliyotida pensiyalar 3 ta tarkibiy qismdan iboratdir:

- davlat pensiyalari (state pensions);
- kasbiy pensiyalar (occupational pensions);
- shaxsiy pensiyalar (personal pensions).




Davlat pensiyalari – davlat tomonidan tashkil etiladi, boshqariladi va amalga oshiriladi. Davlat pensiyasi ishchi yoki xodimning mehnat qilgan yillari (qualifying years) hamda Milliy sug'urta tashkilotiga (National Insurance) to'langan badallarga asosan tayinlanadi.

Kasbiy pensiyalar – ish beruvchilar tomonidan tashkil etiladi hamda ish beruvchilar va ishlovchilar tomonidan mablag' ajratiladi.

Shaxsiy pensiyalar – shaxslar individual mablag'larini maxsus tashkil etilgan sug'urta tashkilotlariga sug'urta badallarini ixtiyoriy

[41] Aktuar hisob-kitoblarning uslubiy asosi – bu ekvivalentlik tamoyiliga amal qilish, ya'ni sug'urta to'lovlari va ajratmalari (nafaqalar) o'rtasida o'zaro muvozanatni ta'minlash. Aktuar hisob-kitoblar – matematik va statistik uslublar tizimi hisoblanib, uning yordamida sug'urta tariflari miqdori, hajmi, har bir sug'urtalanauvchining sug'urta fondini tashkil etishdagi hissasi, moliyaviy barqarorlik va sug'urta operatsiyalarining rentabelligi aniqlanadi.

ravishda to‘lab borishi orqali tashkil etiladi. Davlat tomonidan belgilangan pensiya yoshi hamda fuqaroning pensiyaga chiqish yoshi bir xil ma’noga ega emas. Pensiyaga chiqish yoshi bu ishlovchining pensiyaga chiqishga qaror qilib va shu maqsadda pensiya so‘rab murojaat qiladigan yoshi nazarda tutiladi, ammo, u davlat pensiya yoshidan past bo‘lishi mumkin emas. Ishlovchi shaxs davlat pensiya yoshiga yetishi, ammo pensiyaga chiqmay mehnat qilishni davom ettirishi mumkin va bu uning pensiya miqdorini oshishiga xizmat qiladi yoki pensiyaga chiqish yoshini kechiktirishi mumkin.

Hozirda Buyuk Britaniyada davlat pensiyasi yoshi ayollar uchun 60 yosh, erkaklar uchun 65 yosh qilib belgilangan. Ammo bu yosh 2020-yilga borib, ikkala jins vakillari uchun ham 66 yoshga yetkazish rejalashtirilgan.




Ko‘plab mamlakatlarda davlat pensiyalari ikki qismdan iborat: bazis davlat pensiyasi (basic state pension); qo‘shimcha davlat pensiyasi (additional state pension). Xususan, Buyuk Britaniyada 2011-yil dekabr oyida bazis davlat pensiyasi haftasiga 102,15 funtni tashkil etgan. Shu bilan birgalikda oz miqdorli pensiyalarni ko‘tarish uchun qo‘shimcha pensiya krediti yoki minimal daromadlar kafolati ham mavjud. Buyuk Britaniyada davlat pensiyasi olish uchun saralangan yolg‘iz pensioner uchun haftalik 132,60 funt va juftlik uchun 202,40 funt mablag‘ kafolatlanadi, shuningdek, Angliyada pensionerlar mahalliy avtobuslarda bepul yurish imtiyoziga ham egadirlar. Qayd etish joizki, O‘zbekistonda ham pensionerlar 2017-yil 15-martdan boshlab metroda bepul yurish huquqiga ega bo‘lishdi[42].

Qo‘shimcha davlat pensiyasi SERPS (State earnings-related pension scheme) yoki State second pension (S2P) nomlari bilan ma’lum. Shaxs qo‘shimcha davlat pensiyasini tark etib, uning o‘rniga birorta xususiy pensiya tizimiga a’zo bo‘lishi mumkin. Bu “Contracting out” deb nomlanadi. Ammo bazis davlat pensiyasini tark etish mumkin emas.

[42] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yi 19-martdagi “Toshkent metropolitenida pensionerlarni bepul tashish to‘g‘risida”gi 128-sonli Qarori.

Davlat pensiyasi ishlovchining ishlagan yillariga hamda staj sifatida inobatga olingan yillarga, ya'ni Milliy sug'urta fondiga sug'urta badali to'langan yillarga bog'liq bo'ladi. Pensiyaga chiquvchining ishlagan yillarining 30 yili staj sifatida hisobga olinsa, u to'liq bazis davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'ladi va boshqa staj talab qilinmaydi. Agar staj 30 yildan kam bo'lsa, bor stajga mutanosib ravishda pensiya tayinlanadi. Qo'shimcha davlat pensiyasi Milliy sug'urta fondiga sug'urta badali to'langan barcha yillarga asosan tayinlanadi, ya'ni stajga olingan 30 yil hamda qolgan yillarning barchasini qamrab oladi.

Ikki asrdan ko'proq tarixga ega bo'lgan pensiya tizimi ikki sektor tomonidan ta'minlanib kelinmoqda. Bular davlat va xususiy pensiya tizimlaridir. Jahon amaliyotida pensiya tizimini tashkil etishning ikki sof modeli mavjud bo'lib, uni quyidagi rasm orqali ifodalaymiz:

*3.2-javdal*

**Fondlashtirilmaydigan va fondlashtiriladigan pensiya tizimlari taqqoslamasi**[43]

| **Solishtirish mezonlari** | **PAYGO tizimi (avlodlar birdamligi)** | **To'liq fondlashtiriladigan (jamg'arib boriladigan)** |
|---|---|---|
| Moliyalashtirish manbasi | Joriy sug'urta badali joriy pensiya to'lovi uchun sarflanadi | Joriy sug'urta badallari shaxsiy hisob raqamlarda joriy sug'urtalanuvchining o'zi uchun jamg'ariladi |
| Demografik omil ta'siri | To'g'ridan-to'g'ri funksional tarzda ta'sir etadi | Ta'sir darajasi deyarli yo'q, zero, har kim o'zi uchun o'zi jamg'aradi |
| Maqsad | Ijtimoiy adolatni ta'minlash | Iqtisodiy samaraga erishish |

[43] www.towerswatson.com sayti ma'lumotlari.



PAYG (Pay-as-you-go) so‘zining lug‘aviy ma’nosi – “ishlayotgan ekansan, to‘lab qo‘y” ma’nosini anglatadi. Dunyoning qariyb 80 ta mamlakatida bu kabi jamg‘armalar mavjud. Misol uchun, Shimoliy Afrikadagi “Old Age Grant” va Yangi Zellandiyadagi “Superannuation” dasturini misol keltirish mumkin. Tizim qanday ishlaydi? Faraz qilaylik, T avlod pensiyaga chiqdi, uning uchun T+1 avlod pensiya to‘laydi, T+1 uchun esa T+2 va hokazo. Demak, hech qanday fond yaratilmaydi. Hech kim o‘zi uchun to‘lamaydi. Kim pensiya fondiga ajratma o‘tkazayotgan bo‘lsa, demakki, u o‘zidan oldin pensiyaga chiqqan fuqaro pensiyasi mablag‘ining manbai bo‘lib qoladi. Biroq ba’zi mamlakatlar shu tizim ostida maxsus investitsiya fondlarini yaratadilar. Misol uchun, Ispaniyadagi Ijtimoiy himoya rezervi, Fransiyadagi Pensiya rezerv fondi, Kanadaning “Canada Pension Plan” fondlari investitsiyalar orqali shakllangan bo‘lsa, AQSH Ijtimoiy himoyasi AQSH G‘azna obligatsiyalariga kiritilgan investitsiyalar hisobiga shakllangan.




To‘liq fondlashtirilgan dasturda esa, siz o‘zingiz uchun kelajakdagi pensiya manbaingizga ega bo‘lasiz, ya’ni sizning har bir ajratmangiz (uning ichida ish beruvchining ajratmasi ham qo‘shiladi) aniq bir bank yoki shu bilan shug‘ullanuvchi tashkilot hisob raqamiga kelib tushadi.



Taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy himoyaning turli institutlarini qamrab oluvchi pensiya tizimining turli modellari – davlat pensiya ta’minoti, majburiy ijtimoiy sug‘urta, shaxsiy ijtimoiy sug‘urta va boshqalar – qo‘llaniladi. Bunda “jamg‘ariladigan” va “taqsimlovchi” modellar ham bo‘lib, asosan, “kombinatsiyalashgan” model amal qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda, jumladan, AQSHda pensiya tizimini boshqarish va tartibga solishda pensiya rejalari muhim o‘rin tutadi. Davlat va mahaliy pensiya fondlari rejasining kelib chiq-

ish tarixi o‘tgan XX asrga borib taqaladi. Budjet tashkiloti xodimlarini qisman yoki to‘liq qamrab olgan davlat va mahalliy pensiya to‘lovlari hukumat ishchilari uchun ularning pensiyalarini qoplashning muhim manbasi hisoblanadi va qarilikda ularni moliyaviy ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Davlat pensiya rejalarini boshqarish XX asrning ikkinchi yarmida tobora murakkablashib bordi. Bunday murakkablashib borish quyidagi uch jihatda namoyon bo‘ladi:

1. Ko‘pchilik davlat va mahalliy pensiya rejalari pensiyalarni moliyalashtirish siyosatida “Pay-as-you-go” tizimidan (bu qayta taqsimlash pensiya tizimi bo‘lib, bunda joriy pensiya xarajatlari joriy tushumlar hisobiga qoplanadi) to‘liq aktuar moliyalashtirish tizimiga o‘tishdi.

2. Pensiya aktivlari boshqaruvi zamonaviy investitsiya menejmenti nazariyalari asosida yanada professionallashgan darajada boshqariladi. Investitsion portfellar tarkibi faqat daromadliligi belgilangan aktivlardan iborat bo‘lgan 1940-yillardagi portfeldan bugungi kunda kapital, ko‘chmas mulk, daromadliligi belgilangan aktivlar va muqobil investitsiyalardan iborat bo‘lgan yanada diversifikatsiyalashgan investitsiya portfeliga o‘zgardi. Bunday diversifikatsiya davlat va mahalliy pensiya rejalarida ko‘proq riskni yuzaga keltirsada, umumiylikda davlat va mahalliy pensiya tizimlariga ikki muhim afzallikni keltirdi. Birinchidan, bu davlat va mahalliy pensiya tizimlari uchun yuqori, uzoq muddatli investitsion qaytim va yaxshiroq moliyalashtirish darajasini keltirdi, xususan, moliyalashtirish darajasi 1950-yildagi 50 foizdan 2005-yilda 87 foizga ko‘tarildi. Ikkinchi afzallik investitsion daromad sababli davlat va mahalliy ish beruvchilar va ishlovchilarni pensiya badallari to‘lovi bo‘yicha og‘irlikni sezilarli darajada qisqartirdi. 1996 va 2005-yillar orasidagi uch yillik fond bozori pasayishlari davrini ham o‘z ichiga oluvchi o‘n yillik davrda pensiya aktivlari o‘sishida ish beruvchilar va xodimlarning jami badallari umumiy aktivlarning 3/1 qismini tashkil etgan, investitsion daromadlar esa jamida 3/2 qismni egallagan.

3. Ko‘plab davlat pensiya rejasi homiylari 2000-yillar boshidagi fond bozori inqirozi sababli moliyaviy bozorlarda pensiya badallari va hukumat operativ budjeti bo‘yicha bozor o‘zgaruvchanligi ta’sirini kamaytirish qadamlarini qo‘yishdi.

Jahon amaliyoti tajribalaridan ko‘rinadiki, pensiya ta’minoti tizimi uch tizimga ajratilgan. Buni 3.4-rasm orqali ko‘rish mumkin.




**3.4-rasm. Pensiya ta’minoti tizim[44].**

Taraqqiyot etgan mamlakatlarda pensiya tizimi islohotlari natijasida pensiya fondi aktivlari miqdori o‘sib bormoqda va bir vaqtning o‘zida ichki bozorda investitsiyalash manbalarini ta’minlamoqda[45]. Pensiya fondlariga investitsiya qilish mazkur sohada raqobatning rivojlanishiga, moliyaviy innovatsiyalarning yaratilishiga, korporativ boshqaruvning yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

### Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

- Iqtisodiyotda boshqarish deganda nimani tushunasiz?
- Pensiya jamg‘armasi faoliyatini boshqarish nimalarni ko‘zda tutadi?
- Demografiya va demografik omillar nimalarni o‘zi ichiga oladi?
- Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi kim tomonidan boshqariladi?
- Pensiya jamg‘armasining Kuzatuv kengashi vakolatlarini bilasizmi?

---

[44] Pan-European Pensions Guide. Requirements for the operation of cross-border pension arrangements. A Ius Laboris publication. Produced by the Pensions International Practice Group. 2nd Edition. Printed: July 2011.

[45] GRIPS Discussion Paper 10-17. The Role of Pension Funds in Capital Market Development. By Channarith Meng and Wade Donald Pfau. Oct 2010. National Graduate Institute for Policy Studies. Roppongi, Minato-ku, Tokyo, Japan. channarithmeng@yahoo.com.

- Davlat pensiya ta'minotini boshqarish obyektlari va subyektlarini izohlab bering?
- Davlat pensiya ta'minotini boshqarish nimalarni o'z ichiga oladi?
- Davlat pensiya ta'minotini boshqarish elementlarini ifodalab bering.
- Davlat pensiya ta'minoti tizimini boshqarish organlarining vazifalarini bilasizmi.
- Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi direktorining asosiy vazifalarini izohlab bering.
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining asosiy vazifa va funksiyalari nimalardan iborat?
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi Nazorat-taftish bosh boshqarmasi pensiya bilan bog'liq funksiyalariga nimalar taalluqli hisoblanadi?
- Jahon amaliyotida pensiya ta'minotining qanday tizimlari mavjud?
- O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi necha turga ajratiladi?
- Davlat pensiya ta'minoti tizimi deganda nimani tushunasiz?
- Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining mazmun-mohiyatini ifodalab bering.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4161-son Farmonining maqsad va vazifalarini tishuntirib bering.
- Xorijiy mamlakatlarda pensiya tizimini boshqarish va tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- Yollangan ishchilarning pensiya ta'minoti deganda nimani tushunasiz?
- Xorijiy mamlakatlarda davlat pensiya rejalari nimalarni ko'zda tutadi?
- AQSHda pensiya tizimini moliyalashtirishning xususiyatlarini aks ettiring.

# 4-bob. PENSIYA JAMG‘ARMASI BUDJETINI TUZISH, TASDIQLASH VA IJRO ETISH

## 4.1. Pensiya jamg‘armasi: budjeti loyihasini tuzish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash tartibi; daromadlari prognozlarini ishlab chiqish va xarajatlarini rejalashtirish, ularning ijrosi



Erishilgan natijalar hisobga olingan holda mamlakatni kelgusi davr uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini nazarda tutadigan moliyaviy hujjatga budjetnoma deyiladi. Budjetnoma: mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o‘tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosini; davlat budjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozini; davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari joriy yildagi ijrosining prognoz bahosini; soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihasini; davlat budjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining loyihasini; davlat qarzining holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni; soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining loyihasini o‘z ichiga oladi.



Mazkur yo‘nalishlar asosida davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarining, shu jumladan, Pensiya jamg‘armasi budjetlarining loyihalari shakllantiriladi. Budjetnoma:

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga – joriy yilning 15-sentabriga qadar kiritiladi;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga xulosa taqdim etishi uchun – joriy yilning 20-sentabriga qadar kiritiladi. O‘zbekiston Respublikasi

Hisob palatasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari, shuningdek, soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihalari bo‘yicha ikki haftalik muddatda xulosa taqdim etadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga – O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan joriy yilning 15-oktabridan kechiktirmay kiritiladi.




Pensiya jamg‘armasi budjeti loyihasini tuzish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash budjet jarayoniga taalluqli bo‘lib, bunda Pensiya jamg‘armasining budjetini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, Pensiya jamg‘armasi budjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlash jarayoni tushuniladi. Pensiya jamg‘armasi budjetini tuzish Budjet kodeksi va boshqa budjetga oid normativ hujjatlar orqali tartibga solinadi. Pensiya jamg‘armasi budjetini tuzish Pensiya jamg‘armasiga daromad manbalaridan tushumlar miqdorini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish prinsipiga tayangan holda amalga oshiriladi.

Pensiya jamg‘rmasi budjetini tuzishda budjet tasnifiga muvofiq, daromadlar ularning aniq manbalari bo‘yicha prognoz qilinadi, xarajatlar esa yo‘nalishlar bo‘yicha rejalashtiriladi. Pensiya jamg‘amasi budjetini tuzish va ijro etishda quyidagi budjet tizimi prinsiplariga amal qilinadi:

– Pensiya jamg‘armasi budjet tizimi budjetlarining tarkibiy qismi hisoblanadi va u yagonadir;

– Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq tashkil etiladi;

– Pensiya jamg‘armasi budjeti balansliligi va o‘zaro bog‘liqligi. Pensiya jamg‘armasi budjetida nazarda tutilgan xarajatlar hajmi ularning daromadlari va taqchillikni qoplash manbalari yig‘indisining hajmiga muvofiq bo‘lishi kerak. Pensiya jamg‘armasi budjetini tuzish va ijro etishda budjet mablag‘lari mazkur budjetning balansliligini ta’minlash uchun ular o‘rtasida qayta taqsimlanishi mumkin;

– Pensiya jamg‘armasi budjeti daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish;

– Pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanishning aniq yo‘naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati;

– Pensiya jamg‘armasining mustaqilligi;

– Pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanishning natijadorligi;

– kassaning yagonaligi;

– Pensiya jamg‘armasining moliyaviy faoliyatida ishtirok etuvchi mas’ullar belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi;

– Pensiya jamg‘armasi va uning moliyaviy faoliyatiga tegishli ma’lumotlaning ochiqligi. Pensiya jamg‘armasi budjetini ko‘rib chiqish hamda qabul qilish tartib-taomillarining jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligini; tasdiqlangan Pensiya jamg‘armasi budjeti to‘g‘risidagi axborotning ommaviy axborot vositalarida va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinishini (chop etilishini); Pensiya jamg‘armasi budjeti ijrosining borishi to‘g‘risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida chop etilishini, shuningdek, Pensiya jamg‘armasining rasmiy veb-saytida (www.pfru.uz) joylashtirilishi va yangilab borilishini anglatadi.



Pensiya jamg‘armasi budjeti davlat budjeti loyihasini tuzish tartibi kabi: budjet so‘rovini tuzish tartibini yuborishni; budjet so‘rovlarini hamda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlarini tayyorlash va taqdim etishni; budjet so‘rovlarini ko‘rib chiqish va jamlashni; budjetnomani ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Budjet kodeksining 84-moddasiga binoan Pensiya jamg‘armasi budjeti loyihasini tuzish uchun mas’ul organlar quyidagilardir: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi; vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, budjetlar loyihalarini tuzish, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan so‘ralgan axborot va ma’lumotlarni taqdim etishga taalluqli qismi bo‘yicha.



Pensiya jamg‘armasi mablag‘ini taqsimlovchi organlar davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining loyihalarini tuzish uchun mas’ul organlardir.

Pensiya jamg‘armasi budjeti loyihasini tuzish budjet so‘rovini yuborishdan boshlanadi. Budjet so‘rovi – kelgusi davr uchun budjetdan ajratiladigan mablag‘larni olishga bo‘lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat hisoblanadi.

Budjet so‘rovi:

– Pensiya jamg‘armasining jamg‘arma mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq faoliyatining miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oluvchi, o‘tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to‘g‘risidagi tahliliy hisobotni;

– xarajat majburiyatlarining ularni kiritish (ijro etish) uchun asos bo‘ladigan hamda moliyalashtirish manbalari va amal qilish muddatlarini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar, shartnomalar va (yoki) ularning alohida qoidalari ko‘rsatilgan restrini;

– Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturini;

– Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi bilan uzviy bog‘liq holda tuzilgan kelgusi davr uchun budjet buyurtmasini o‘z ichiga oladi.

Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchi organlar budjet so‘rovi bilan bir vaqtda daromadlarining kelgusi davr uchun prognozlarini taqdim etadi. Budjet so‘rovini tuzish tartibi Pensiya jamg‘armasini taqsimlovchi organ tomonidan belgilanadi. O‘tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to‘g‘risidagi tahliliy hisobot Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchi tomonidan tuziladi hamda Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchining faoliyatini baholash, bundan buyon uni budjet tizimi budjetlarining mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishning maqsadga muvofiqligi haqida takliflar tayyorlash uchun foydalaniladi.

O‘tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to‘g‘risidagi tahliliy hisobot Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taq-

simlovchining har bir faoliyat turi bo‘yicha o‘tgan yilda erishilgan va joriy yilda kutilayotgan natijalarining asosiy miqdor va sifat ko‘rsatkichlari haqidagi axborotni o‘z ichiga oladi. O‘tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to‘g‘risidagi tahliliy hisobot qisqa va aniq shaklda bayon etilishi hamda u mazkur faoliyat sohasida kasbiy bilimlarga ega bo‘lmagan shaxslarning uni tushunishini qiyinlashtiradigan maxsus atamalarni o‘z ichiga olmasligi kerak.

Xarajat majburiyatlarining reyestri Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlari va tadbirlarning Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan uni moliyalashtirish uchun asos bo‘lgan tegishli qonun hujjati ko‘rsatilgan ro‘yxatidir. Xarajat majburiyatlarining reyestri Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchi tomonidan o‘zlari amalga oshirayotgan xarajatlarni asoslanganligi nuqtai nazaridan tahlil qilish uchun budjet tasnifiga muvofiq tuziladi.

Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi pensiya mablag‘larini taqsimlovchi tomonidan uch yildan kam bo‘lmagan davr uchun tuziladi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– pensiya mablag‘larini taqsimlovchi faoliyatining barcha sohalari bo‘yicha rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari, maqsadlari va vazifalarini;

– maqsadlarga erishish va vazifalarni bajarishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va texnik tadbirlar majmuini;

– maqsadlarga erishish va vazifalarni bajarishni ta’minlaydigan, muddatlari va turlari bo‘yicha kelishilgan kutilayotgan natijalar ko‘rsatkichlari tizimini.

Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan belgilangan maqsad va vazifalarga asoslanadi.

Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi yuqori turuvchi organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Pensiya jamg‘armasi budjet loyihasini tayyorlash muddatlari: kelgusi moliya yili uchun Pensiya jamg‘armasi budjet loyihasi joriy

yilning 1-iyulidan kechiktirmay Moliya vazirligiga taqdim etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga joriy yilning 1-iyulidan kechiktirmay taqdim etiladi. Davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining loyihalarini tayyorlash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Pensiya jamg'armasi mablag'larini taqsimlovchi organlar tomonidan budjet loyihalari tushumlar manbalari bo'yicha daromadlar va yo'nalishlar bo'yicha xarajatlar prognozidan tarkib topadi. Pensiya jamg'armasi mablag'lari taqchillik bilan ishlab chiqishga yo'l qo'yilmaydi.




O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti belgilangan tartibda qabul qilingandan va kelgusi yilga uning asosiy parametrlari tasdiqlangandan keyin Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparati besh kun muddatda:

– O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga – mintaqalar bo'yicha kelgusi yilga Pensiya jamg'armasi daromadlarining tasdiqlangan asosiy parametrlarini;

– Pensiya jamg'armasining hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlariga – turlar va mintaqalar bo'yicha kelgusi yilga Pensiya jamg'armasi xarajatlarining tasdiqlangan asosiy parametrlarini (yo'nalishlarini) yetkazadi.

Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining tasdiqlangan ko'rsatkichlarini bajarish:

– yuridik va jismoniy shaxslardan majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar tushishining va yig'ilishining to'liqligi yuzasidan – davlat soliq xizmati organlari tomonidan;

– Pensiya jamg'armasi mablag'larini belgilangan tartibda o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirish, o'z vaqtida tayinlash, to'lash va manzilli ravishda sarflash, shuningdek, Pensiya jamg'armasi mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilish yuzasidan – Pensiya jamg'armasining hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari tomonidan ta'minlanadi.

Budjet buyurtmasi Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchisi tomonidan tuziladi. Budjet buyurtmasi budjet so‘rovini taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan taqdim etiladi. Budjet buyurtmasida o‘tgan va joriy yillar uchun hamda kelgusi uch yil uchun Pensiya jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar budjet tasnifiga muvofiq aks ettiriladi. Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchi o‘z tasarrufidagi Pensiya jamg‘armasi hududiy bo‘limlarining budjet buyurtmalari asosida jamlanma budjet buyurtmasini tuzadi.



Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchining jamlanma budjet buyurtmasi Pensiya jamg‘armasi hududiy bo‘limlarining rivojlantirish dasturi bilan uzviy bog‘liq holda tuziladi. Budjet buyurtmasida xarajatlar hajmlarini o‘tgan yillarga nisbatan ko‘paytirishga faqat asoslovchi qonun hujjati bo‘lgan taqdirda va mazkur ko‘paytirish Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturida nazarda tutilgan hollarda yo‘l qo‘yiladi.

Pensiya jamg‘armasida budjet so‘rovini tuzish tartibini yuborish quyidagicha amalga oshiriladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili 15-aprelga qadar kelgusi davr uchun budjet so‘rovini tuzish tartibini Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchilarga yuboradi va Davlat soliq qo‘mitasi, boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda idoralardan Pensiya jamg‘armasi daromad qismi bo‘yicha takliflar so‘raydi. Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchi organlar kelgusi davr uchun budjet so‘rovini tuzish tartibini olgandan so‘ng uch ish kuni ichida tegishli budjet so‘rovlarini tuzish to‘g‘risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qiladi. Pensiya jamg‘armasining budjet so‘rovini Moliya vazirligi ko‘rib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda idoralarning Davlat budjeti loyihasining daromad qismi bo‘yicha takliflarini ko‘rib chiqish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Pensiya jamg‘armasi budjet so‘rovi ko‘rib chiqilayotganda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga budjet so‘rovi olinganidan keyin o‘n ish kuni ichida quyidagilarga yozma bildirishlar yuborish huquqi beriladi:

– Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchi organlarga – amalga oshirish uchun asoslar mavjud bo‘lmagan xarajatlarni maqbullashtirish haqida Pensiya jamg‘armasi budjeti daromadlari hamda xarajatlarining prognozlari asossiz ravishda pasaytirilgan yoki oshirilgan hollarda, mazkur prognozlarga tuzatish kiritish to‘g‘risida bildirishnoma chiqaradi;

– Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchi organ esa O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yozma bildirishlarini olgandan keyin uch ish kuni ichida mazkur yozma bildirishlarda ko‘rsatilgan fikr-mulohazalarni hisobga olgan holda yangilangan budjet so‘rovlarini taqdim etishi shartligi belgilangan.

Budjet so‘rovlarini taqdim etish muddatlari quyidagicha: budjet so‘rovi Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini taqsimlovchi tomonidan davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga – joriy yilning 1-iyuligacha taqdim etiladi. Pensiya jamg‘armasi daromadlarining prognozi bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda idoralar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga va Pensiya jamg‘armasining mablag‘larini taqsimlovchi organlarga – joriy yilning 15-iyunigacha taqdim etadi.

Xullas, Pensiya jamg‘armasining kelgusi yil uchun budjet loyihasi budjet tizimi budjetlari bilan birgalikda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va moliya yili uchun mo‘ljallangan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi asosida tuziladi.

## 4.2. Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari budjeti va uni shakllantirish, pensiya rejalarini moliyalashtirish xususiyatlari

Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari budjeti va uni shakllantirish, pensiya rejalarini moliyalashtirish xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mablag‘larni jamg‘arib boriladigan pensiya hisobraqam-

lariga to‘plash sezilarli miqdorda investitsiya resurslarining to‘planishiga olib keladi. Islohotni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishi esa mablag‘larni jamg‘arma hisobraqamiga to‘plash orqali mablag‘lardan investitsion daromad topishda foydalanishidir.

Majburiy davlat pensiya fondlarini boshqarish tarkibini tartibga solishning jahon tajribasiga nazar solsak, tartibga solish quyidagi yo‘nalishda olib boriladi[46]:

– pensiya fondlarining institutsional shaklining tartibga solinishi;

– pensiya fondlarining samarali ishlashini ta’minlovchi maqsad va mezonlarni aniqlash orqali fondning moliyaviy faoliyatini tartibga solish;

– pensiya fondlarining investitsion portfellari tuzilishini tartibga solish. Mazkur yo‘nalish qabul qilingan maqsad va mezonlar bilan bog‘liq aktivlar taqsimoti tamoyilini qayta ishlashga asoslanadi.

Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlarii faoliyatini tartibga solishda ularning tashkiliy-huquqiy shakliga qarab belgilanadi. Jamg‘arish elementi mavjud bo‘lgan pensiya tizimi faoliyati ikki asosiy tamoyilga ega:

– belgilangan to‘lov tizimi (defined benefit). Bu tizim ishtirokchisi pensiya yoshiga yetganda ma’lum bir belgilangan miqdorda pensiya olishi kafolatlanadi. Bu miqdor ish bilan bandlik davri va oylik ish haqi miqdorlariga asoslangan aktuar formulalar orqali hisoblab chiqariladi;

– belgilangan badal tizimi (defined contribution). Investitsion portfel daromadliligidan kelib chiqib aniqlanadigan va pensiya tizimiga to‘langan badallar hajmiga bog‘liq holda pensiya miqdori aniqlanadi.

Davlat pensiya rejasini boshqarish masalasini muhokama etish terminologiyasi murakkab tuyulishi mumkin. Pensiya tizimlari, pensiya rejalari va pensiya fondlari tushunchalari o‘zaro bog‘liq tushunchalar sifatida foydalaniladi. Texnik ma’nosiga ko‘ra ushbu uchta termin farqli ma’nolarga egadir[47].

Pensiya rejasi bu istalgan ishtirokchilar uchun ko‘pgina imtiyozlarni beruvchi pensiya dasturlariga taalluqlidir. Kamida pensiya rejalari uch

---

[46] Хотулев Е. Мыровой опыт инвестирования средств государственных пенсионных фондов. http://www.old.rcb.ru.

[47] Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0 th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 11.




muhim belgilarga ega: ishtirokchilar kimligi, qanday va qay darajada pensiya to'lovlari taklif etilishi va ushbu imtiyozlarni moliyalashtirilishi uchun kim javobgar ekanligidir. Pensiya rejasi, shuningdek, homiy rejasiga ham ega bo'lishi lozim. Davlat sektorida pensiya rejasini tuzgan davlat tarmog'i, ya'ni davlat va mahalliy hukumat, maktab okrugi yoki maxsus tuman reja homiysi bo'ladi. Homiy hukumat har bir guruh xodimlariga turli imtiyozlar jamlanmasi bilan bir nechta pensiya rejalarini taklif etishi mumkin.

Pensiya fondi – o'zining mohiyatiga ko'ra, pensiya rejalari asosida jamlanadigan moliyaviy aktivlarni boshqarish muassasasi hisoblanadi. Pensiya fondi to'plangan moliyaviy resurslarni pensiya rejalari a'zosi manfaatlari uchun foydalanishi va ularni kapitalizatsiyasini amalga oshirishi mumkin. Har qanday pensiya fondlari aynan bir pensiya rejasiga asoslangan holda tashkil etilishi lozim.

Pensiya tizimi pensiya rejalarini boshqarish uchun homiy tomonidan tashkil etilgan mexanizmdir. Ko'p hollarda pensiya rejasini hukumat yaratadi, uni amalga oshirish va boshqarish vakolatini ma'lum bir tuzilmaga topshiradi. Bu pensiya tizimi yoki reja homiysi tomonidan tayinlangan yoxud reja a'zolari tomonidan saylangan faol va pensiyaga chiqqan vasiylar Kengashi tomonidan boshqariladi.




Kanada pensiya fondlari aktivlari kanadaliklar uchun daromad manbai hisoblansa, jahon iqtisodiyotida mazkur fondlar aktivlari investitsion kapital sifatida e'tirof etiladi. Kanada pensiya ta'minoti tizimi Kanada moliya tizimi jami kapitalining qariyb 15 foiziga egalik qiladi. Kanada pensiya ta'minoti tizimida faoliyat olib borayotgan pensiya fondlari, xususan, yirik pensiya fondlari hisoblangan katta sakkizlik pensiya fondlari mamlakat ichki iqtisodiyotida pensiya fondlari investitsion kapitalining 2/3 qismiga egalik qilib, ular 1 trln. Kanada dollaridan ziyod investitsion mablag'ga ega bo'lgan fondlar hisoblanadi[48]. Mazkur fondlarning o'rni mamlakat

[48] Kanada davlat pensiya ta'minoti tizimi va moliya tizimi rasmiy statistik ma'lumotlariga asoslanildi.

iqtisodiyotiga uzoq muddatli investitsiyalarni kiritish strategiyasini amalga oshirilishida beqiyos hisoblanib, ular investitsion bozorda ham muhim ahamiyat kasb etadilar. Katta sakkizlik fondlariga quyidagilar kiradi: the Canada Pension Plan Investment Board (CPPIB); Caisse de dépôt et placement du Québec (CDPQ); the Ontario Teachers' Pension Plan (OTPP); the British Columbia Investment Management Corporation (bcIMC); the Public Sector Pension Investment Board (PSPIB); the Alberta Investment Management Corporation (AIMCo); Ontario Municipal Employees Retirement System (OMERS) va the Healthcare of Ontario Pension Plan (HOOPP). Katta sakkizlik qatoriga kirgan ushbu fondlarning investitsion aktivlari hajmi 64 mlrd. AQSH dollaridan 265 mlrd. AQSH dollarigacha bo'lgan miqdorda shakllangan. Ushbu fondlarning barchasi dunyodagi katta pensiya fondlari 100 taligi va ularning uchtasi katta 20 talik qatoriga kiradi[49].



2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan so'ng katta sakkizlik qatoriga kirgan pensiya fondlari aktivlari hajmida 2009-yilga kelib, biroz pasayish holati kuzatildi. Mazkur holat rivojlangan mamlakatlarda vujudga kelgan ishsizlik, iqtisodiy beqarorlik va o'z o'rnida pensiya fondlariga sug'urta badallari oqimining qisqarishi bilan bir qatorda ular xarajatlarining ortib ketishi bilan ifodalanadi. Ushbu vaziyatni oldini olish maqsadida pensiya fondlari o'zlari egalik qilayotgan aktivlar ustidan yillik nazoratni o'rnatdilar. Bunga ko'ra, ular pensiya fondi daromadlari va xarajatlari, jumladan, investitsion kapitalning maqsadli yo'naltirilishini kuchli nazorat ostiga oldilar. Natijada, 2015-yil oxiriga kelib, ularning investitsion aktivlari hajmi 1,5 trln. Kanada dollariga teng bo'ldi[50].

Kanada pensiya fondlarining investitsion faoliyatiga nazar soladigan bo'lsak, ular jami aktivlarining o'rta hisobda 75 foizidan ortiq qismini investitsion dasturlarga yo'naltirishi ko'zga tashlanadi. 2015-yil-

[49] Consulting Group, "The Top 10: Investing for Canada on the World Stage," February 2016.

[50] Funds' latest annual reports and Bank of Canada calculations/ Last observations: 31 March and 31 December 2015.


Canada Pension Plan - Retirement

ning o‘zida katta sakkizlik qatoriga kirgan pensiya fondlari qariyb 77 foiz aktivini investitsion faoliyatga yo‘naltirganligini ko‘rishimiz mumkin (4.1-jadval). Bu, o‘z navbatida, mamlakatda investitsion jozibadorlikning ortishi, pensiya fondlarining qo‘shimcha daromadlari shakllanishi va qolaversa, pensiya fondlarining moliyaviy barqarorligi kafolati bo‘lib hisoblanadi.

*4.1-jadval*

**Kanada katta sakkizlik pensiya fondlari aktivlarini boshqarishi (mln. Kanada dollari hisobida, 2015-y.)**[51]

| Pensiya fondlari | Jami investitsion aktivlar | Investitsion faoliyatga yo‘naltirilgan aktivlar |
|---|---|---|
| CPPIB | 319 | 265 |
| CDPQ | 291 | 248 |
| OTPP | 263 | 168 |
| HOOPP | 147 | 64 |
| OMERS | 129 | 80 |
| bcIMC | 127 | 124 |
| PSPIB | 125 | 112 |
| AIMCo | 100 | 90 |
| **Jami** | **1,501** | **1,151** |



Pensiya fondlarining amalga oshirayotgan moliyaviy siyosatiga nazar soladigan bo‘lsak, ularning egalik qilayotgan investitsion aktivlari hajmi va ulardan foydalanish jarayonidagi mamlakatdagi boshqa moliyaviy institutlar bilan o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati namoyon bo‘ladi. Investitsion dasturlarni moliyalash-

[51] Funds’ latest annual reports and Bank of Canada calculations/ Last observations: 31 March and 31 December 2015.

tirishda Kanadadagi katta sakkizlik pensiya fondlari mamlakatdagi yirik banklar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Bu, o‘z navbatida, mamlakat moliyaviy tizimining barqarorligini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadi.



Katta sakkizlik qatoriga kirgan pensiya fondlari mamlakat miqyosida fuqarolarga nisbatan turli pensiya dasturlari xizmatlarini taklif etadilar. Shu bilan bir qatorda ular ish beruvchi va ishchi xodimlarga nisbatan turli imtiyozlarni joriy etish orqali aholi o‘rtasida pensiya sug‘urtasi badallarini to‘lashni rag‘batlantirgan tarzda katta salmoqdagi moliyaviy aktivlarga egalik qilib kelmoqdalar.




Katta sakkizlik qatoriga kirgan pensiya fondlari aholiga pensiya fondlari xizmatlarini ko‘rsatish bilan bir qatorda, yuridik shaxslarga ham moliyaviy xizmatlar ko‘rsatgan holda turli fondlar faoliyatini tashkil etish orqali ularning ham ma’lum bir darajadagi moliyaviy aktivlarini boshqarib kelmoqdalar.

Kanada pensiya ta’minoti tizimida faoliyat olib borayotgan pensiya fondlari, xususan, katta sakkizlik pensiya fondlariga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

– pensiya fondlarining iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan ichki boshqaruvning mavjudligi;

– investitsion strategiyalarning asoslanganligi, aniqliligi va pensiya fondlari aktivlarining yuqori darajadagi likvidliligi;

– investitsion sharoit, geografik hududlar va aktivlarning turlari bo‘yicha diversifikatsiyalashuvi;

– pensiya fondlarining ichki va tashqi bozordagi yuqori raqobatbardoshligi.




2007–2015-yillarda katta sakkizlik pensiya fondlarining muqobil aktivlari hisoblanmish ko‘chmas mulk, infratuzilma obyektlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 21 foizdan 29 foizga ortib, davlat aksiyalariga yo‘naltirilgan aktivlar hajmi 30 foizdan 25 foizga

qisqardi[52]. Mazkur davr mobaynida katta sakkizlik pensiya fondlari dunyo bo'yicha yirik investitsion tashkilotlar qatoriga kirdi. Bu, o'z navbatida, Kanada pensiya fondlarining moliyaviy barqarorligi, ularning xizmatlari ishonchliligi darajasining yanada ortishiga olib keladi.



Kanada pensiya fondlarining katta hajmdagi investitsion aktivlarini ko'chmas mulk, infratuzilma obyektlari va davlat miqyosidagi investitsion dasturlarga yo'naltirishiga sabab, 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy *inqirozi* hisoblanadi. Ular ushbu faoliyat orqali o'z daromadlari likvidliligi darajasining ortishiga erishdilar. So'nggi 10 yil mobaynida Kanada pensiya fondlarining o'rtacha rivojlanish ko'rsatkichi 6 foizdan kam sur'atlarda bo'lmadi. So'nggi uch yilda mazkur ko'rsatkich 8 foizni qayd etdi.



Kanada pensiya fondlari yirik banklar bilan hamkorlikda qimmatli qog'ozlar bozorida aktivlarni sotib olish, ularni qayta sotib olish faoliyatini amalga oshirib kelmoqdalar. Bu, o'z navbatida, pensiya fondlarining o'rnatilgan daromad darajasi likvidliligi oshirish dastagi bo'lib xizmat qilmoqda. 2015-yil mobaynida Kanada pensiya fondlari jami aktivlarining 15–30 foizi miqdoridagi qismini qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki ularni qayta sotib olish, investitsion dasturlarni qayta moliyalashtirish faoliyatiga yo'naltirdilar.

Kanada pensiya fondlarining moliyaviy aktivlarni boshqarish va ularni investitsion dasturlarga yo'naltirish strategiyasi to'g'ri va maqsadli tarzda amalga oshirilib kelinayotganligi sababli, yuqori rivojlanish ko'rsatkichiga erishib kelmoqdalar. Jahon amaliyotga nazar soladigan bo'lsak, so'nggi 10 yil mobaynida mazkur ko'rsatkich boshqa rivojlangan mamlakatlarda 4 foizdan ortmaganini ko'rishimiz mumkin

[52] Funds' latest annual reports and Bank of Canada calculations/ Last observations: 31 March and 31 December 2015.

bo‘ladi. Bugungi kunda Kanada pensiya fondlari uzoq muddatli investitsion dasturlarni moliyalashtirish, infratuzilma obyektlariga yirik investitsiyalar kiritish bilan shug‘ullanib kelmoqdalar.

Rivojlangan mamlakatlarda pensiya fondlari yirik investitsion institutlar qatoriga kiradi. Jumladan, AQSH pensiya fondlarining investitsion dasturlarga yo‘naltirilgan aktivlari hajmi 2014-yil oxiriga kelib 14,7 trln. Kanada dollarini tashkil etdi. Investitsion aktivlarning ortishiga sabab XX asrning oxiri va XXI asrning boshlariga kelib AQSHda xususiy pensiya fondlari faoliyati jadallik bilan rivojlana bordi. Hozirda mamlakatda 700 mingga yaqin pensiya fondlari xususiy dasturlar asosida faoliyat yuritib, mehnat bozorida band bo‘lgan ishchi kuchining qariyb 50 foiziga xizmat ko‘rsatib kelmoqda[53].




2005-yilda AQSH pensiya fondlari aktivlari hajmi YalMga nisbatan 95 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2008-yilda vujudga kelgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining pensiya fondlari faoliyatiga salbiy ta’siri natijasida 59,6 foizga tushib ketdi. 2011-yilga kelib mazkur ko‘rsatkich 71,8 foiz, 2013-yilda 83,0 foiz va 2015-yilda esa 121 foizga teng bo‘lganini kuzatishimiz mumkin (4.1-rasm). 2014-yil yakunlariga ko‘ra, AQSHda pensiya fondlarining aktivlari hajmi bo‘yicha davlat jamg‘arma fondi (Federal Retirement Thrift Saving Plan – FRThSP) 422,2 mlrd. AQSH dollari qiymatiga teng moliyaviy resurslarga ega bo‘lib, birinchi o‘rinni egaladi. Mazkur fondning aktivlari hajmi avvalgi yilga nisbatan 12,6 foizga ortgan. Ushbu fond 2009-yildan buyon AQSH pensiya fondlarining aktivlari hajmi bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda.

[53] Social Security Administration. Annual Statistical Supplement to the Social Security bulletin. Retrieved from https://www.ssa.gov/policy/docs/statcomps/supplement/2015/supplement 15.pdf // Lebedova L.F. US Pension System in XXI Century' Financial-Economic Destability Risks. USA * Canada, 2014, - № 3, – P. 22-30.




**4.1-rasm. AQSH pensiya fondlari aktivlari hajmi dinamikasi (YaIMga nisbatan foiz hisobida)[54].**

AQSHda pensiya fondlarining aktivlari hajmi bo'yicha yetakchi beshlik tarkibiga Kaliforniya shtati davlat tashkiloti xodimlari pensiya fondi (California public employees' retirement system – CalPERS), O'quv muassasalari o'qituvchi xodimlari davlat jamg'armasi (California state teachers' retirement system – CalSTRS), Nyu-York shtati pensiya fondi (New-York state common retirement fund – NYSCRF) va Nyu-York shahri pensiya ta'minoti fondlarini (New-York city retirement systems – NYCRS) kiritish mumkin (4.2-rasm). Mazkur pensiya fondlari AQSHda investitsion loyihalarda faol ishtirok etuvchi fondlar hisoblanadi.

[54] Social Security Administration. Annual Statistical Supplement to the Social Security bulletin. Retrieved from https://www.ssa.gov/policy/docs/statcomps/supplement/2015/supplement 15.pdf // Lebedova L.F. US Pension System in XXI Century' Financial-Economic Destability Risks. USA * Canada, 2014, - № 3, p. 22-30 // Wills Towers Watson and secondary sources. - P. 7.




**4.2-rasm. AQSHda aktivlar hajmi bo‘yicha yetakchi pensiya fondlari ko‘rsatkichlari, 2014-yil, mlrd. AQSH dollarida[55].**

Bugungi kunda aksariyat dunyo mamlakatlarida bo‘lgani kabi AQSHda ham global qarish muammosi kuzatilmoqda. 2015-yilda pensiya yoshidagi aholining bog‘liqlik koeffitsiyenti 19,3 ga teng bo‘lgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2030-yilga borib 27,1 ga, 2050-yilda esa 28,9 ga teng bo‘lishi kutilmoqda (4.3-rasm).




**4.3-rasm. Pensiya yoshidagi aholining bog‘liqlik koeffitsiyenti (65 va undan yuqori yoshdagilarning 15–64 yoshdagi ishchi kuchiga nisbati)[56].**

[55] Social Security Administration. Annual Statistical Supplement to the Social Security bulletin. Retrieved from https://www.ssa.gov/policy/docs/statcomps/supplement/2015/supplement 15.pdf // Lebedova L.F. US Pension System in XXI Century' Financial-Economic Destability Risks. USA * Canada, 2014, - № 3, p. 22-30 // Wills Towers Watson and secondary sources. P. 7 // Развитие пенсионного обеспечение в начале XXI века: мировые тенденции и национальные особенности. Материалы ситуационного анализа. Отв. редактор Лебедова Л.Ф. – Москва: ИСКРА, 2015. – С. 68. ma’lumotlari asosida tuzilgan.

[56] Влияние единого социального платежа на занятость и финансовые

Mazkur holatni inobatga olgan holda AQSH pensiya fondlari daromadlari hajmini 3,2 foizdan 9,4 foizgacha bo'lgan miqdorda oshirishga qaratilgan pensiya fondlarining har 10 yilga mo'ljallangan strategiyalari qabul qilinib kelinmoqda. Mazkur strategiyalarni qabul qilish va ularni amalga oshirish chora-tadbirlariga mamlakatda 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sabab bo'ldi. Mamlakatda hozirda pensiya fondlari tomonidan 2011–2020-yillarga mo'ljallangan pensiya daromadlar darajasini oshirishga qaratilgan strategiyasi amalga oshirilmoqda. Mazkur strategiyadagi chora-tadbirlar dasturlarini amalga oshirish orqali AQSH pensiya fondlari daromadlari darajasida kuzatilgan salbiy tendensiya 2012-yildan boshlab ijobiy tendensiyaga ega bo'ldi. 2012–2015-yillarda AQSH pensiya fondlarining umumiy daromadlari hajmining ortish ko'rsatkichida qayd etilgan minimal ko'rsatkich 5,3 foizga teng bo'lgan bo'lsa, uning maksimal chegarasi 13,8 foizga teng bo'ldi. Masalan, 2015-yilda birgina AQSH davlat xizmatchilari pensiya fondining daromadlari hajmi 18,4 foizga ortgan holda, ushbu fondning so'nggi uch yildagi o'rtacha daromadlarining ortishi ko'rsatkichi 10,4 foizga teng bo'ldi.[57]




Umuman olganda, AQSH pensiya ta'minoti tizimida xususiy pensiya fondlarini jadal rivojlanishi va ularga jamlangan aktivlardan foydalanish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratilganligi ushbu fondlarga investitsion dasturlardagi ishtirokini kengayishi, o'z faoliyatlarini rivojlantirish maqsadida pensiya fondlarining har biri investitsion strategiyalarini ishlab chiqishi va bu orqali pensiya fondlarining daromadlari ko'rsatkichini ortishi bilan bir qatorda,

---

показатели предприятий в Республики Узбекистан. Аналитическая записка. UNDP Uzbekistan. – Ташкент, 2015. – С. 6. ma'lumotlari asosida tuzilgan.

[57] Social Security Administration. Annual Statistical Supplement to the Social Security bulletin. Retrieved from https://www.ssa.gov/policy/docs/statcomps/supplement/2015/supplement 15.pdf // Lebedova L.F. US Pension System in XXI Century' Financial-Economic Destability Risks. USA * Canada, 2014, - № 3, p. 22-30 // Wills Towers Watson and secondary sources. P. 7 // Развитие пенсионного обеспечения в начале XXI века: мировые тенденции и национальные особенности. Материалы ситуационного анализа. Отв. редактор Лебедова Л.Ф. – Москва: ИСКРАН, 2015. – С. 68.

global aholining qarishi muammosi sharoitida ham pensiya fondlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga erishilmoqda.



Yaponiyada aholi qarishi sharoitida pensiya to'lovlari miqdorining jadal oshib borishi va past darajadagi soliq bazasi sharoitida davlat qarzining oshishi pensiya tizimini isloh etishning dolzarbligini kuchaytirmoqda. Pensiya tizimi barqarorligining "Allianz" indeksi bo'yicha Yaponiya 2016-yilda 54 mamlakat tarkibida 46-o'rinni egalladi va pensiya tizimini isloh etishi zaruriyati yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoridan joy oldi[58].

Yaponiya hukumati pensiya tizimini isloh qilishnig quyidagi yo'nalishlarini ko'rib chiqmoqda: pensiya yoshini oshirish, qoplash koeffitsiyentini kamaytirish va pensiya badallari stavkasini oshirish.

Yaponiyada Tayanch pensiya tiziniga davlat subsidiyalarini qisqartirish uchun budjet mablag'larini potentsial tejash imkoniyatlarini baholovchi maxsus islohot yo'nalishlari belgilab olindi (4.2-jadval).

*4.2-jadval*

**Tayanch pensiya tizimiga budjet xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari, YaIMga nisbatan, foizda[59]**

| Islohot yo'nalishlari | 2020-yildagi bir yillik tejash |
|---|---|
| Tayanch tizimi bo'yicha pensiyaga chiqish yoshini 67 yoshga oshirish | 0,25 |
| Badavlat pensionerlar uchun pensiya to'lovlarini kamaytirish | 0,25 |
| Pensiya to'lovlaridan olinadigan daromadlar uchun imtiyozli soliq rejimini bekor qilish | 0,25–0,33 |

[58] 2016 Pension Sustainability Index. International Pension Papers 1/2016.

[59] Pension Reforms in Japan. Kenichiro Kashiwase, Masahiro Nozaki, and Kiichi Tokuoka. IMF Working Paper.

| | |
|---|---|
| Bandlar qaramog'idagi turmush o'rtoqlaridan pensiya badallari undirish | 0,25–0,5 |
| Qoplash koeffitsiyentini 3 foiz punktgacha kamaytirish | 0,5 |
| Pensiya badallari stavkasini 1 foiz punktgacha oshirish | 0,5 |
| Pensiya badallari stavkasini 1 foiz punktgacha kamaytirish | -0,5 |



Tayanch tizim bo'yicha pensiya yoshini 2020-yilga qadar 67 yoshga oshirish davlat budjeti subsidiyalarini YaIMga nisbatan 0,25 foizgacha qisqarishiga olib keladi, deb baholanmoqda. Agar 2030-yilga qadar pensiya yoshi 69 yoshgacha oshirilsa, budjet xarajatlari YaIMga nisbatan 0,75 foizga qisqaradi.

Yaponiyada umr davomiyligi va pensiya yoshi o'rtasidagi farq boshqa davlatlarga nisbatan yuqoridir. Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi 2030-yilga borib ayollar uchun 89,4 yoshga, erkaklar uchun esa 82,4 yoshga yetishi kutilmoqda. Milliy pensiya dasturi pensionerlari uchun 2000–2030-yillar davomida agar pensiya yoshi 65 yoshda o'zgarishsiz qolsa, pensiya yoshida kutilayotgan umr davomiyligi 4 yilga ortishi kutilmoqda. Kasbiy pensiya dasturida ushbu ko'rsatkich pensiya yoshining muntazam oshirib borilishi tufayli 2030-yilgacha pasayishi, lekin 2030-yilga kelib, milliy pensiya tizimidagi ko'rsatkich bilan teng bo'lishi kutilmoqda[60]. Pensiyaga chiqish yoshini oshirish ishchi kuchining keksa ishchilar hisobiga ortishi va daromadlarning oshishi hisobiga iste'mol xarajatlari ortishi tufayli uzoq muddatli davrda iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Pensiya yoshini oshirish oliq yukining yosh va keksa avlod o'rtasida nisbatan adolatliroq taqsimlanishiga olib keladi. Ushbu islohot pensiya badallarini kamaytirish hisobiga ish beruvchilarning ishchi kuchiga bo'lgan xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi va uy xo'jaliklarining ixtiyoridagi daromadlarini oshiradi.

[60] Pension Reforms in Japan. Kenichiro Kashiwase, Masahiro Nozaki, and Yuichi Tokuoka. IMF Working Paper.

Qoplash koeffitsiyentini pasaytirish kelgusida tayanch pensiya tizimini davlat budjeti hisobidan moliyalashtirishni qisqartirishga olib kelsada, ushbu islohot keksalar qashshoqligi muammosini kuchaytirishi mumkin. 2020-yilga qadar ushbu koeffitsiyentni bosqichma-bosqich 3 foiz kamaytirish pensiya ta'minotiga budjet xarajatlarining YaIMga nisbatan 0,5 foizga kamayishiga olib keladi. Ushbu islohot soliq yukini yosh avlodga nisbatan keksa avlodga ko'proq yuklab, avlodlar o'rtasidagi daromadlar taqsimlanishi tengsizligini tartibga soladi. Biroq, pensionerlarning asosiy iste'mol talablarini zo'rg'a qoplovchi tayanch pensiya to'lovlarining joriy (bir yillik pensiya to'lovi 780 100 iena) holatida qoplash koeffitsiyentini pasaytirish keksalikdagi qashshoqlikning oldini olish imkoniyatlarini kamaytiradi. Ushbu islohot natijasida budjet mablag'larining ma'lum miqdorda tejalishi bilan birgalikda ijtimoiy himoyaga bo'lgan xarajatlar ortib ketishi ham mumkin.

Yaponiyada tayanch pensiya to'lovlarining 50 foizi budjet subsidiyalari hisobidan moliyalashtiriladi. Buning o'rniga subsidiyalar hajmini kam daromadli (kambag'al) pensionerlar uchun oshirish va aksincha daromadlari darajasi yuqori (boy) pensionerlar uchun esa kamaytirish maqsadga muvofiq. Bunday holatda davlat budjeti mablag'lari sezilarli darajada tejalishi mumkin va kam daromadli pensionerlarning o'rtacha pensiya daromadlari rejalashtirilgan darajadan ham oshishi mumkin.

Pensiya daromadlariga nisbatan imtiyozli soliq rejimini qisqartirish ham davlat budjeti mablag'larini sezilarli miqdorda tejashga olib keladi. Hozirgi vaqtda daromad solig'i hisoblashda davlat pensiya to'lovlarining sezilarli qismi soliqqa tortilmaydi. Bir yillik pensiya daromadlari 1,2 mln. ienadan oshmagan pensionerlar uchun davlat pensiya to'lovlari to'liq daromad solig'idan ozod qilingan. Shuningdek, eng boy pensionerlarning 2 foizi oladigan pensiya daromadlarining 40 foizidan daromad solig'i olinmaydi. Umumiy hisobda pensiya to'lovlaridan olinadagan daromadlarning taxminan 75 foizi soliqqa tortilmaydi.

Pensiya badallarini oshirish davlat budjeti mablag'larining ko'payishiga olib keladi. Tayanch pensiya tizimi pensiya badallarini 1 foizga oshirish badallar umumiy summasini YaIMga nisbatan 2020-yilda 0,5 foizga ortishiga olib keladi va ushbu mablag'lar pensiya tizimini budjet subsidiyalari hisobidan moliyalashtirishni kamaytirishga yordam

beradi. Pensiya badallarining yuqori bo'lishi, o'z navbatida, mehnat bozorida ishchi kuchi taklifiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda yosh avlodga nisbatan soliq yukining asossiz oshib borishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan islohotlardan ular o'rtasidagi mutanosiblik-ni ta'minlagan holda bir vaqtning o'zida foydalanish ham mumkin. Lekin ko'rsatilgan ushbu pensiya islohotlari mamlakatning iqtisodiy o'sishiga hamda keksa va yosh avlod o'rtasidagi mutanosiblikka turlicha ta'sir etishini hisobga olish zarur.

**Bahs-munozara va nazorat uchun savollar**

- Budjetnoma deb nimaga aytiladi?
- Budjetnomani ishlab chiqish tartibini izohlab bering.
- Pensiya jamg'armasining budjeti loyihasi nimani anglatadi?
- Pensiya jamg'armasi budjetini tuzish qanday qonuniy hujjatlar asosida tartibga solinadi?
- Pensiya jamg'armasi budjetini tuzish qanday prinsiplarga tayangan holda amalga oshirilidi?
- Pensiya jamg'armasining budjet loyihasi qanday tayyorlanadi?
- Pensiya jamg'armasi budjeti loyihasini tuzish uchun mas'ul organlarni sanab bering.
- Budjet so'rovi deganda nimani tushunasiz va uning Pensiya jamg'armasi budjetini tuzishga qanday daxli bor?
- Budjet so'rovi nimalarni o'zi ichiga oladi?
- Pensiya jamg'armasi budjet loyihasini tayyorlash muddatlarini tushuntirib bering.
- Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining tasdiqlangan ko'rsatkichlarini bajarish deganda nimani tushunasiz?
- Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari budjeti va uni shakllantirish to'g'risida nimalarni bilasiz?
- Kanada pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- AQSH pensiya ta'minoti tizimini izohlab bering.
- Yaponiya pensiya dasturlarining xususiyalarini ifodalab bering.
- Xorijiy mamlakatlarda pensiya rejalarini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalab bering.

# 5-bob. PENSIYA JAMG‘ARMASI DAROMADLARI

## 5.1. Pensiya jamg‘armasi daromadlari: mazmuni, manbalari, tarkibi va tuzilishi



Pensiya jamg‘armasi davlatning ijtimoiy funksiyasiga xizmat qiladi. Shu sababli Pensiya jamg‘armasi daromadlarini shakllantirish manbalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Pensiya jamg‘armasi daromadlari soliqlarga tenglashtirilgan majburiy ajratmalar hisobidan shakllantiriladi. Chunki, ushbu daromadlar fuqarolarni keksalik davrida ijtimoiy himoyalash, ularning mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to‘lanadigan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta’minlash hamda daromadlar (pensiya, nafaqa, kompensatsiya to‘lovlari va boshq.) bilan kelajakda aholi turmush darajasining pasayishidan himoyalash kabilarni ta’minlaydi.



“O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra, Pensiya jamg‘armasi daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

a) majburiy to‘lovlar va badallar:

– belgilangan miqdorlardagi yagona ijtimoiy to‘lov tushumlari;

– alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug‘urta badallari;

– fuqarolarning sug‘urta badallari;

– jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug‘urta badallari;

– majburiy ajratmalar;

b) boshqa to‘lovlar:

– “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo‘lganlarga pensiyalar to‘lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv

talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'larning 85 foizi;

– "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari;

– "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobiga o'tkaziladigan yuridik shaxslar mablag'lari;

– dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari;

– hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalar (qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta'minlash maxsus jamg'armasiga hamda Pensiya jamg'armasi xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasiga undiriladigan summalardan tashqari);

– yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoki sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilgan xodimga yetkazilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan summalar;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar, shu jumladan, davlat budjeti mablag'lari va ixtiyoriy badallar.

Majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlarni o'tkazish Pensiya jamg'armasi daromadlarining belgilangan tasniflariga muvofiq tushumlarning har bir turi bo'yicha Pensiya jamg'armasining banklardagi tegishli hisob raqamlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlash joizki, bu yerda majburiy ajratmalar va majburiy to'lovlarni farqlab olish zarur. Masalan, budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga ajratma deganda Soliq kodeksining 23-moddasiga

ko‘ra, Pensiya jamg‘armasi, respublika Yo‘l jamg‘armasi, Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armalariga majburiy ajratmalar tushuniladi. Yagona ijtimoiy to‘lov, fuqarolarning Pensiya jamg‘armasiga sug‘arta badallari, respublika Yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar, davlat boji, bojxona to‘lovlari, shuningdek, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im Soliq kodeksiga asosan boshqa majburiy to‘lovlar hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, majburiy to‘lov kengroq tushuncha bo‘lib, majburiy ajratma uning tarkibiga kiradi. Majburiy ajratmalarning to‘lovchilari umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchilar bo‘lib, boshqa majburiy to‘lov to‘lovchilaridan keskin farq qiladi. Boshqa majburiy to‘lovlar korxonaning ayrim operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan to‘lovlar bo‘lib, aynan u yoki bu operatsiyalar amalga oshirilishiga qarab ushbu to‘lovlarni to‘lash majburiyati yuzaga keladi va u soliq solishning tartibiga bog‘liq bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va davlat soliq xizmatining hududiy organlari:

– manbalar turlari bo‘yicha Pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liqligi va o‘z vaqtida to‘lanishi nazorat qilinishini;

– manbalar turlari va to‘lovchilar bo‘yicha Pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlar hisobi yuritilishini;

– yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlar to‘g‘ri hisoblanishini, shuningdek, Pensiya jamg‘armasi bilan o‘zaro hisob-kitoblarning holati tekshirilishini;

– qonun hujjatlariga muvofiq majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlarni hisoblash tartibi va to‘lash muddatlari buzilganligi uchun yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy va ma’muriy javobgarlik choralari qo‘llanilishini;

– badallarning shaxslar bo‘yicha hisobini amalga oshirish va mehnat daftarchalarini yuritish uchun har chorakda Pensiya jamg‘armasiga yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan shaxslar va dehqon xo‘jaliklari a’zolari to-

monidan to‘langan badallarning miqdorlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim etilishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparatiga: tushgan majburiy to‘lovlar, badallar va to‘lovlar to‘g‘risidagi, Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to‘lovlar turlari bo‘yicha qarzlar to‘g‘risidagi tezkor hisobotni har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunigacha; majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlarni hisoblash va to‘lash to‘g‘risidagi hisobotni yuridik shaxslar tomonidan choraklik va yillik hisobot taqdim etilgandan keyin 15 kun mobaynida taqdim etadi.



Pensiya jamg‘armasi pensiya to‘lash manbai hisoblanib, uning mablag‘lari fuqarolarning majburiy sug‘urta ajratmalari hisobiga ham shakllantiriladi. Pensiya jamg‘armasidan pensiya, nafaqa va kompensatsiyalarning o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini ta’minlash uchun uning daromad va xarajatlari muvofiqlashtirilishi zarur.

## 5.2. Yagona ijtimoiy to‘lov, sug‘urta badali, majburiy ajratmalar va boshqa daromadlar



O‘zbekiston Respublikasida yagona ijtimoiy to‘lovning soliq solish obyekti bo‘lib ish haqi tarzidagi daromadlar hisoblanadi. Ish haqi tarzidagi daromadlarga ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo‘lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq, ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to‘lanadigan barcha to‘lovlar; mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi; ilmiy daraja va faxriy unvon uchun qo‘shimcha to‘lovlar, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya to‘lovlari

va ishlanmagan vaqt uchun to‘langan to‘lovlar kiritiladi. Shuningdek, ushbu turdagi daromadlarga ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq fuqarolik-huquqiy shaklda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga yuridik shaxsning boshqaruv organi a’zolariga yuridik shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlarni ham qamrab oladi.

Yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari hamda O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lovchilar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni jalb etish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish shartnomasiga muvofiq yuridik shaxs – O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga to‘lanadigan to‘lovlar bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza chet ellik xodimlarga to‘lanadigan daromadlar summasi sifatida aniqlanadi. Ta’kidlash joizki, yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarishda Soliq kodeksining 308-moddasiga asosan imtiyozlar ham mavjud. Yoki mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha shikast yetganlik bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash uchun Soliq kodeksining 171-moddasining ikkinchi qismi 9-bandida ko‘rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan to‘lovlarga; yosh mutaxassislarga oliy o‘quv yurtini tamomlaganlaridan so‘ng ta’til vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to‘lanadigan nafaqalarga; O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining oddiy, serjant va ofitser tarkiblarida xizmatni o‘tashi munosabati bilan to‘lanadigan pul ta’minoti, pul mukofotlari va boshqa to‘lovlarga soliq imtiyozlari beriladi. Shu-ningdek, davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag‘lariga, O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadigan



ro‘yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan beriladigan grant mablag‘lariga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida berilgan grant mablag‘lari summalari ham yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblashda hisobga olinmaydi.

Umuman olganda, yagona ijtimoiy to‘lov yuridik shaxslarning mablag‘lari hisobidan har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqib, soliq agentlari tomonidan hisoblanadi. Hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lov bo‘yicha hisob-kitoblar davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa – yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Soliq to‘lovchilar yagona ijtimoiy to‘lov har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishchilar soni va ish haqi fondini kam ko‘rsatish holatlarini bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi PQ–1024-sonli qaroriga muvofiq, yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarishning eng kam miqdori joriy etildi va “Yagona ijtimoiy to‘lovning eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ishlab chiqildi. Mazkur nizomda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yagona ijtimoiy to‘lovning me’yoriy miqdorini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi belgilandi. 2015-yil 1-yanvardan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblash va to‘lash tartibi o‘zgardi[61]. Yangi tartibga muvofiq 2015-yil 1-yanvardan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar, ular soliq solishning qanday tizimini qo‘llashlaridan qat’i nazar, shuningdek, fermer xo‘jaliklari uchun YaITning, 2014-yilda amal qilgan 25 foiz o‘rniga, mehnatga haq to‘lash fondining 15 foiziga teng bo‘lgan stavkasi belgilandi.

[61] Ushbu o‘zgartirishlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 13-fevraldagi “Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi 26-sonli Qarori bilan belgilandi.

Hozirgi vaqtda xo'jalik yurituvchi subyektlar YaITni "Yagona ijtimoiy to'lovning eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom"ga[62] muvofiq uning eng kam miqdorini hisobga olgan holda hisoblaydilar va to'laydilar, ya'ni mehnat haqi tarzidagi daromadlardan belgilangan, biroq EKIHning har bir xodimga belgilangan qismidan kam bo'lmagan stavkada. YaIT hisob-kitobining bunday tartibi 2009-yil 1-yanvardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2008-yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1024-sonli Qarori bilan belgilangan. Biroq hamma soliq to'lovchilar YaITni bunday tartibda hisoblashlari kerak emas. U quyidagilarga tatbiq etilmaydi:

– 4,7% stavka bo'yicha YaIT undiriladigan ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironlar mehnatiga haq to'lash fondiga[63];

– notijorat tashkilotlari, shu jumladan, budjet tashkilotlariga;

– xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlaridan[64] kelib chiqib hisob-kitobning alohida tartibi belgilangan chakana savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish korxonalariga;

– yangi barpo etilgan kichik tadbirkorlik subyektlariga, ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan boshlab 6 oy mobaynida, ular tomonidan ko'rsatilgan davrda o'z ehtiyojlari uchun obyektlar qurilgan taqdirda esa – tugallangan obyektni qabul qilish dalolatnomasi tasdiqlangan kundan boshlab 6 oy tugagunga qadar, biroq ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab 1 yildan ko'p bo'lmagan

---

[62] Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010-yil 13-aprelda 2095-son bilan ro'yxatdan o'tkazildi.

[63] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish masalalari" nomli 328-sonli Qarori, 7-bandi.

[64] Xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlari joriy etilishini hisobga olgan holda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011-yil 23-fevralda 2200-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

muddatda. Ular YaITni uning eng kam miqdorini hisobga olgan holda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan boshlab 6 oy tugaganidan so'ng undan keyingi oydan boshlab, o'z ehtiyojlari uchun obyektlarni qurishni amalga oshiruvchilar esa tugallangan obyektni qabul qilish dalolatnomasi tasdiqlangan kundan so'ng 6 oy tugaganidan keyingi oydan yoki ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab 1 yil o'tganidan keyin to'lay boshlaydilar.

YaIT to'lovchilari YaITni Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda, tegishli yilga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan belgilanadigan stavkada hisoblaydilar, biroq: fermer xo'jaliklari uchun – har bir xodimga har oyda EKIHning kamida 50 foizi; mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun (fermer xo'jaliklaridan tashqari) – har bir xodimga har oyda EKIHning kamida 65 foizi; YaIT qolgan to'lovchilari uchun – har bir xodimga har oyda EKIHning kamida 100 foizi hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, 2015-yil 1-yanvardan boshlab kichik biznes subyektlari (fermer xo'jaliklaridan tashqari) YaITni, ilgari nazarda tutilganidek EKIHning 1 baravari emas, balki har bir xodimga kamida EKIHning 65 foizini to'lashlari kerak. Bunda shuni bilish lozimki, YaITning eng kam miqdori belgilanayotganda YaIT me'yori hisobot oyi uchun qabul qilinadi, ya'ni yil mobaynida EKIH o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. EKIH, masalan, 2017-yil 1-apreldan oshganda, YaITning eng kam miqdori to'lovchilarning har bir toifasi uchun ish haqining yangi eng kam miqdoridan kelib chiqib hisoblanadi. Shuni eslatib o'tish joizki, "Yagona ijtimoiy to'lovning eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom"[65]ning 5-bandiga muvofiq YaITning eng kam miqdori har oyda hisoblanishi kerak.

Bundan tashqari, barcha soliq to'lovchilar – mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek, fermer xo'jaliklari YaITni 15 foizlik stavkada to'lash uchun barcha davlat soliq inspeksiyalarida yangi (alohida) hisob-kitob schyotlari ochilgan.

Yagona ijtimoiy to'lov summasi belgilangan tartibga muvofiq davlat maqsadli jamg'armalari bilan O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi o'rtasida quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:

[65] Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010-yil 13-aprelda 2095-son bilan ro'yxatdan o'tkazildi.

– mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek, fermer xo‘jaliklari bo‘yicha: Pensiya jamg‘armasiga –14,8%; Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga – 0,1%; O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga – 0,1%;

– boshqa to‘lovchilar bo‘yicha: Pensiya jamg‘armasiga – 24,8%; Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga – 0,1%; O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga – 0,1%.

Pensiya jamg‘armasiga tushgan yagona ijtimoiy to‘lov O‘zbekiston Respublikasi milliy valutasida Pensiya jamg‘armasi xarajatlarini qoplash bo‘yicha summalarning to‘lanishini va yuridik shaxslarning davlat ijtimoiy sug‘urtasi xarajatlari bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish tartibini belgilaydi. Yagona ijtimoiy to‘lov stavkalari, yagona ijtimoiy to‘lovdan tushumlar taqsimot miqdorlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.



Kelgusi davrda ham fuqarolar to‘laydigan majburiy sug‘urta badalini Pensiya jamg‘armasi daromadlaridagi ulushining oshirib borilishi va har bir fuqaroning Pensiya jamg‘armasi daromadlariga qo‘shgan shaxsiy (personal) hissasidan kelib chiqib, pensiyalarning yuqori miqdori aniqlanishi maqsadga muvofiq.

Ilg‘or xorij tajribasida, xususan, rivojlangan Yevropa mamlakatlari amaliyotida Pensiya jamg‘armasi daromadlarini shakllantirishdagi ish beruvchi va ishchilar o‘rtasidagi nisbat munosabatlarda fuqarolarning ulushi 40 foizdan ortiqni tashkil etadi.

Pensiya jamg‘armasi daromadlari tarkibida sug‘urta badali ham muhim o‘rin egallaydi. Sug‘urta badali – bu mehnat bilan band ishchi kuchi narxining bir qismi bo‘lib, jamiyatning iqtisodiy jihatdan faol bo‘lgan mehnatga layoqatli a’zolari tomonidan mehnatga layoqatsizlar foydasiga beriladigan zaruriy mahsulotning umumlashtirilgan qismidir. Sug‘urta badali – ish beruvchilar tomonidan o‘z xodimlari uchun ish haqidan har oyda to‘lab boriladigan muayyan miqdordagi pul summasini ifodalaydi. Sug‘urta badali ijtimoiy ta’mi-



not tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish, fuqarolarning pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy ta'minot hamda ijtimoiy yordamlardan foydalanish huquqlarini ta'minlash maqsadlarida tashkil etilgan.

Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida doimiy ravishda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilardir.

Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek, ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi. Sug'urta badallari soliq to'lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, majburiy tartibda quyidagicha to'lanadi[66]:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda;

2) yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan – oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida;

3) yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan: yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi tomonidan – oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda; oilaning boshqa a'zolari tomonidan (o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar bundan mustasno) – oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini yiliga eng kam ish haqining to'rt yarim baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi. Bunda dehqon xo'jaligining boshlig'i sug'urta badallarini majburiy tartibda, boshqa a'zolari esa, ixtiyoriylik asosida to'laydi. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarining to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar uchun sug'urta badalining miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi

[66] O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 2007-yil 25-dekabr. 311-modda.

yoki TMEKining ma'lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyozga bo'lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan taqdirda, sug'urta badallarini qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Sug'urta badallarini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi: har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay; yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari tomonidan – hisobot yilining 1-oktabrigacha. Bunda sug'urta badallarining miqdori to'lov kuniga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan sug'urta badallarini to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.

Sug'urta badallarini to'lash majburiyati quyidagilarning: yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a'zolari uchun – oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish yuritadigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosining; yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari uchun – ushbu xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzgan yakka tartibdagi tadbirkorning zimmasiga yuklatiladi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yurituvchi yakka tadbirkorlar Pensiya jamg'armasiga sug'urta badalini o'zlari xohlagan miqdorda to'laydilar, ammo bu summa har oyda eng kam ish haqi miqdoridan kam bo'lmasligi lozim. Pensiya yoshiga yetgan yoki I-II-guruh nogironligi bo'lgan yakka tadbirkorlar Pensiya jamg'armasiga to'laydigan summa har oyda eng kam oylik ish haqining 50 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

Qayd etish joizki, yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari quyidagi to'lovlarga nisbatan hisoblanmaydi:

– mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast etganlik bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash uchun Soliq kodeksining 171-moddasi ikkinchi qismining 9-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar;

– quyidagi grant mablag'lari hisobiga olinadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar: davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatiga qarashli tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag'lari; O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan berilgan grant mablag'lari; O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida berilgan grant mablag'lari.

Yagona ijtimoiy to'lov quyidagilarga nisbatan hisoblab chiqarilmaydi:

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minotiga, pul mukofotlariga va boshqa to'lovlarga;

– sudyalar, shuningdek, prokuratura organlarining mansab darajalariga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan xodimlarining xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlariga;

– aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv xodimlari sifatida jalb qilingan chet ellik xodimlarining mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlariga.

Quyidagi 5.1-jadvalda Pensiya jamg'armasi daromadlari manbalarining so'nggi yillardagi stavka ko'rsatilgan.

*5.1-jadval*

**Pensiya jamg'armasi daromadlar manbalarining stavkasi[67], foizda**

| Ko'rsatkichlar | yillar | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 |
| Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi | 24,8 | 24,8 | 24,8 | 24,8 | 24,8 | 24,8 |
| Sug'urta badali stavkasi | 5,5 | 6,0 | 6,5 | 7,0 | 7,5 | 8,0 |
| Sotilgan mahsulotlar hajmidan ajratmalar stavkasi | 1,6 | 1,6 | 1,6 | 1,6 | 1,6 | 1,6 |

[67] www.pfri.uz. sayti ma'lumotlari.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, keyingi yillarda Pensiya jamg'armasi daromadlar manbalarining stavkalarida katta o'zgarishlar bo'lmadi. Faqat sug'urta badali stavkasining oshib borishi kuzatildi. 2016-yilning 1-yanvaridan O'zbekistonda fuqarolarning Pensiya jamg'armasiga o'tkaziladigan majburiy sug'urta badallari stavkasi 7 foizdan 7,5 foizga oshirilgan edi. 2017-yilning 1-yanvaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2699-sonli Qarori bilan fuqarolarning majburiy sug'urta badallari stavkasi 8% miqdorida belgilandi. Bunda yuridik shaxslar uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 25 foiz miqdorida saqlab qolindi.

Belgilangan stavkalar asosida olingan daromadlarning manbalari miqdori va jamiga nisbatan ulushi to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi quyidagi jadvalda Pensiya jamg'armasi daromadlari 2016-yilda 18113,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2012-yilga nisbatan 2,2 martaga ortganligini ko'rish mumkin. Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibida ish haqidan yagona ijtimoiy to'lov 2012–2016-yillarda o'rtacha 56,2 foizni tashkil qilgan. Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibida sotilgan mahsulotlar hajmidan majburiy ajratmalar esa ushbu yillarda o'rtacha 14 foizni tashkil qilgan. Xulosa qilib aytganda, Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibida ish haqidan yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha tushumlar ulushi salmoqli o'ringa ega.

Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi (5.2 jadval).

Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan: mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda; mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi. Soliq to‘lovchilar turli xil soliq solish obyektlariga ega bo‘lgan hollarda, ular soliq solish obyektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli obyektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lashi shart.

*5.2-jadval*

**Pensiya jamg‘armasi daromadlarining tarkibiy tuzilishi[68], mlrd. so‘mda**

| Ko‘rsatkichlar | 2012-yil | | 2014-yil | | 2016-yil | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | mlrd. so‘mda | jami daromadlarga nisbatan foizda | mlrd. so‘mda | jami daromadlarga nisbatan foizda | mlrd. so‘mda | jami daromadlarga nisbatan foizda |
| **Jami daromadlar** | **8065,4** | **100,0** | **13013,7** | **100,0** | **18113,3** | **100,0** |
| Yil boshida kutilayotgan qoldiq | 280,1 | 3,5 | 1067,3 | 8,2 | 2568,3 | 14,2 |
| Daromadlar | 7785,3 | 96,5 | 11946,4 | 91,8 | 15545,0 | 85,8 |
| *Shu jumladan:* | | | | | | |
| Mehnat haqi fondiga nisbatan yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar | 4799,2 | 59,5 | 7299,5 | 56,1 | 9474,0 | 52,3 |
| Fuqarolarning ish haqi fondidan majburiy sug‘urta badali | 1110,2 | 13,8 | 1877,2 | 14,4 | 3235,0 | 17,9 |
| Tovar (xizmat, ish) larning sotish hajmidan majburiy ajratmalar | 1401,5 | 17,4 | 1933,0 | 14,9 | 1527,0 | 8,4 |
| Soliqsiz tushumlar | - | - | - | - | 18,0 | 0,1 |
| Boshqa daromadlar | 474,4 | 5,9 | 836,7 | 6,4 | 1291,0 | 7,1 |

Soliq kodeksining 172-moddasida ko‘rsatilgan ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to‘lovning va sug‘urta badallarining soliq solish obyektidir.

Quyidagilar Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning to‘lovchilari bo‘lmaydi: notijorat tashkilotlar, bundan ularning tad-

[68] www.pfri.uz. sayti ma’lumotlari.

birkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno; yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslar.

Tadbirkor davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yilishi bilan bir paytda Pensiya jamg'armasiga badal to'lovchi sifatida davlat ijtimoiy sug'urtalanadigan shaxsga aylanadi. Tadbirkorning pensiya olishga bo'lgan huquqi u pensiya yoshiga to'lganda yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda boshlanadi. Tadbirkor o'zidagi mavjud imkoniyatlardan va pensiya bilan ta'minlanish va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqaning o'zi istaydigan miqdoridan kelib chiqib Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari miqdorini mustaqil ravishda belgilaydi.

Tadbirkor belgilangan tartibda tadbirkorlik faoliyatini to'xtatib turgan paytida sug'urta badallari to'lanmaydi va bu davr stajga qo'shilmaydi. Sug'urta badallari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadidan soliq to'lash uchun belgilangan muddatlarda to'lanadi. Tadbirkorlar soliq haqidagi qonunlarga muvofiq sug'urta badallari o'z vaqtida to'lanishi uchun javob beradilar. Mehnat daftarchasi tadbirkorning mehnat stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Mehnat daftarchasi tadbirkor ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlarida uning mazkur tumandagi (shahardagi) tadbirkorlik faoliyatining butun muddati mobaynida saqlanadi va yuritiladi. Agar fuqaro tadbirkorlik faoliyati boshlangunga qadar mehnat daftarchasiga ega bo'lmagan bo'lsa, Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari belgilangan tartibda mehnat daftarchasi ochadi. Tadbirkorning mehnat stajiga u Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan davrlar kiritiladi.

Pensiya va davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash uchun mehnat stajini hisoblab chiqishda, agar to'langan badallar summasi ushbu yilning barcha oylari uchun belgilangan eng kam badaldan kam bo'lmasa (to'langan penyalarni hisobga olmagan holda), stajga kalendar yil qo'shiladi.

Tadbirkorning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lanishidan qat'i nazar pensiya va davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash uchun mehnat stajiga qo'shiladi. To'liq kalendar yil mobaynida tadbirkorning asosiy

faoliyati qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash bo'lgan hollarda, agar mazkur yilda badallar kamida 9 oy mobaynida to'langan bo'lsa, stajga kalendar yil qo'shiladi. Tadbirkor sifatidagi ish faoliyati va uning davomiyligi guvohlik ko'rsatmalari bilan tasdiqlanmaydi.

Pensiya miqdorini hisoblab chiqishda hisobga olinadigan aniq bir oy uchun tadbirkorning daromadi to'langan oylik sug'urta badali summasini ish beruvchilar va xodimlar uchun sug'urta badallari ajratishning qonun hujjatlarida belgilangan jami foiziga bo'linadi va olingan natijani 100 ga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Pensiya yashash joyida, ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa esa tadbirkor Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan joyda amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tayinlanadi. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa, agar ushbu nafaqani olish huquqi tadbirkor tomonidan sug'urta badallari to'lash davrida boshlangan bo'lsa beriladi.

Dehqon xo'jaligi a'zolari (qoramol boqish va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish bilan band bo'lgan dehqon xo'jaliklari a'zolari bundan mustasno) ixtiyoriylik asosida ijtimoiy sug'urta qilinadi. Ijtimoiy sug'urtalanish xohishini bildirgan dehqon xo'jaligi a'zosi Pensiya jamg'armasiga badal to'lovchi sifatida davlat soliq xizmati organlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishi shart.

Dehqon xo'jaligi a'zosi Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan taqdirda "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq pensiya bilan ta'minlanish huquqiga ega bo'ladi. Dehqon xo'jaligi a'zosining pensiya olishga bo'lgan huquqi u pensiya yoshiga to'lganda yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda boshlanadi.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa, agar ushbu nafaqani olish huquqi dehqon xo'jaligi a'zosi tomonidan Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lash davrida boshlangan bo'lsa, beriladi. Dehqon xo'jaligi a'zosi o'zidagi mavjud imkoniyatlardan va pensiya bilan ta'minlanish va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqaning o'zi istaydigan miqdoridan kelib chiqib Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari miqdorini mustaqil ravishda belgilaydi.

Tayinlanadigan pensiya, shuningdek, ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqa miqdori Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan sug‘urta badallari miqdoriga hamda dehqon xo‘jaligi a’zosining mehnat stajiga bog‘liq bo‘ladi. Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan sug‘urta badallarining eng kam miqdori bir yilda eng kam oylik ish haqining to‘rt yarim barobaridan kam bo‘lmagan miqdorni tashkil etishi kerak. Sug‘urta badallari hisobot yilining 1-oktabriga qadar to‘lanadi. Bunda sug‘urta badallari miqdori to‘lov kuniga belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Mehnat daftarchasi dehqon xo‘jaligi a’zosining mehnat stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Yuridik shaxs bo‘lmasdan tashkil etilgan dehqon xo‘jaligi a’zosining mehnat daftarchasi dehqon xo‘jaligi a’zosi ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlarida u sug‘urta badallari to‘laydigan butun muddat mobaynida saqlanadi va yuritiladi.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda barpo etilgan dehqon xo‘jaligi a’zosining mehnat daftarchasi dehqon xo‘jaligining ixtiyoriga ko‘ra dehqon xo‘jaligi boshlig‘i tomonidan yoxud Pensiya jamg‘armasining bo‘limi tomonidan saqlanadi va yuritiladi. Yuridik shaxs tashkil etgan holda barpo etilgan dehqon xo‘jaligi a’zosining mehnat daftarchasidagi dehqon xo‘jaligi boshlig‘i tomonidan yozilgan yozuvlar Pensiya jamg‘armasining bo‘limi tomonidan tasdiqlanishi kerak. Dehqon xo‘jaligi a’zosining mehnat stajiga u Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lagan davrlar kiritiladi.

Pensiya va davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash uchun mehnat stajini hisoblab chiqishda, agar dehqon xo‘jaligi a’zosi ushbu yilda 12 oy ishlagan va kamida 9 oy badal to‘lagan bo‘lsa, stajga kalendar yil qo‘shiladi. Boshqa hollarda staj sug‘urta badallari to‘langan oylar soniga mutanosib tarzda hisobga olinadi. Dehqon xo‘jaligi a’zosining vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lanishidan qat’i nazar pensiya va davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash uchun mehnat stajiga qo‘shiladi. Dehqon xo‘jaligi a’zosi tomonidan sug‘urta badallari to‘lanishi va uning qancha davom etganligi guvohlik ko‘rsatmalari bilan tasdiqlanmaydi.

Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari, qoidaga ko‘ra, hisobot yilining 1-oktyabriga qadar naqd pul bilan yoki (Xalq banki yoki boshqa tijorat bankidagi hisob raqamlaridan) naqdsiz hisob-kitob qilish yo‘li bilan, badallar to‘lovchining yashash joyidagi Pensiya jamg‘armasi hisob raqamiga to‘lanadi.

Quyidagilarga:

– sug‘urta badallarini Pensiya jamg‘armasiga to‘liq kalendar yil uchun oldindan to‘lashga yo‘l qo‘yiladi. Bu holda ushbu kalendar yilida eng kam oylik ish haqining miqdori o‘zgarganda qo‘shimcha to‘lov amalga oshirilmaydi;

– badallar to‘lanmagan oldingi davrlar uchun bir yilda eng kam oylik ish haqining to‘rt yarim barobaridan kam bo‘lmagan summada, to‘lov kunidagi eng kam oylik ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda sug‘urta badallarini to‘lashga yo‘l qo‘yiladi.

Badallar to‘lanmagan davrlar pensiya tayinlashda mehnat stajiga qo‘shilmaydi.

Pensiya jamg‘armasiga badallar to‘lashning shaxsiy hisobi Pensiya jamg‘armasi organlari tomonidan, shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida qoramol boqish va yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo‘lgan shaxslar tomonidan Pensiya jamg‘armasiga badallar to‘langanligi to‘g‘risida davlat soliq xizmati organlari ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Chet elda ishlangan davrlar Pensiya jamg‘armasiga belgilangan sug‘urta badallari to‘langan taqdirda mehnat stajiga qo‘shib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining yollanma (bitim) asosda chet elda ishlaganligi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organlar mehnat daftarchasiga kiritgan qaydnomalarga qarab aniqlanadi. Chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga chet eldagi ishi O‘zbekiston Respublikasida ishlanganiga to‘g‘ri keladigan stajning 1/3 hissasidan oshmagan miqdorda stajga qo‘shiladi. Chet elda ishlagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqi Pensiya jamg‘armasiga to‘langan sug‘urta badallarining miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

## 5.3. Pensiya jamg‘armasi daromadlari barqarorligini ta’minlash va daromad bazasini mustahkamlashning bugungi kundagi muammolari




Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligi unga to‘lanadigan to‘lovlarning o‘z vaqtida va to‘liq miqdorda amalga oshirilishiga hamda pensiya ta’minoti boshqaruvining samarali tashkil etilishiga bog‘liqdir. Davlat pensiya fondlari barqarorligini ta’minlash makroiqtisodiy nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu borada AQSHlik olim Jun Pengning quyidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega: “...pensiya ta’minoti boshqaruvi, nafaqat, pensiya ta’minotining moliyaviy barqarorligiga, balki butun davlat sektorining moliyaviy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi, shu sababli pensiya ta’minoti boshqaruvi davlat pensiya tizimiga pensiya badalini to‘lovchi va kelgusida undan hukumat tomonidan kafolatlangan pensiya to‘lovlarini oluvchi har bir shaxsga daxldor bo‘lmog‘i lozim”[69].

Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligi, birinchidan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aholining ijtimoiy himoya tizimi barqarorligiga, ikkinchidan, Pensiya jamg‘armasiga to‘lanishi lozim bo‘lgan majburiy to‘lovlar va badallar hamda boshqa to‘lovlarga bog‘liq. Qolaversa, Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligi davlatning ijtimoiy funksiyasiga ijobiy ta’sir qiladi. Shu sababli mazkur Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalarining muntazam ravishda takomillashtirilib borilishi, tushumlarning o‘z vaqtida va to‘liq tushishini ta’minlashga erishish, Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda davlat pensiya ta’minoti Pensiya jamg‘armasidan amalga oshirilishini inobatga oladigan bo‘lsak, 2016-yilda Pensiya jamg‘armasi xarajatlarining YaIM tarkibidagi ulushi 8,2 foizni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich taraqqiy etgan mamlakatlarda, xususan, Belgiyada 10,0 foizni, Fransiyada 13,7 foizni, Germaniyada 11,3 foizni,

[69] Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0 th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 5.

Italiyada 15,4 foizni, Yaponiyada 10,2 foizni, Shvetsiyada 8,2 foizni, AQSHda 6,8 foizni, Rossiyada 9,2 foizni tashkil qilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bunda taraqqiy etgan mamlakatlarning faqat davlat pensiya ta'minoti inobatga olingan, ya'ni ushbu mamlakatlardagi xususiy pensiya fondlari xarajatlari hisobga olinmagan. Albatta, agar taraqqiy etgan mamlakatlarda xususiy pensiya fondlari xarajatlari ham hisobga olinadigan bo'lsa, bu ko'rsatkich birmuncha yuqori bo'lishi aniq. Chunki taraqqiy etgan mamlakatlarda xususiy pensiya fondlari davlat pensiya fondlari bilan parallel ravishda faoliyat yuritib, aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ham xususiy pensiya fondlarining faoliyati davlat tomonidan nazorat qilib boriladi.

Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligiga Pensiya jamg'armasiga jamlanadigan mablag'larning hajmi va ularning o'z vaqtida undirilishi hamda Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarning moliyalashtirilishi ta'sir ko'rsatadi. Pensiya jamg'armasining respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatuvchi quyidagi jadvaldagi statistik ma'lumotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2016-yilda Pensiya jamg'armasi mablag'lari 2011-yilga nisbatan 2,9 martaga ortgan (5.3-jadval).

*5.3-jadval*

**Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari va uning yalpi ichki mahsulotga nisbati**[70]

| Ko'rsatkichlar | 2011-yil (bazis) | 2012-yil | 2013-yil | 2014-yil | 2015-yil | 2016-yil |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Yalpi ichki mahsulot (nominal) mlrd. so'mda | 78764,2 | 97929,3 | 118987 | 144868 | 171369 | 221550 |
| Yalpi ichki mahsulot nominal o'sishi, %da | 100,0 | 124,3 | 151,1 | 183,9 | 217,6 | 281,3 |

[70] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdagi 1449-sonli, 2011-yil 30-dekabrdagi 1675-sonli, 2012-yil 25-dekabrdagi 1887-sonli, 2013-yil 25-dekabr 2099-sonli, 2014-yil 4-dekabrdagi 2270-sonli, 2015-yil 22-dekabrdagi 2455-sonli, 2016-yil 27-dekabrdagi 2609-sonli Qarorlari, Moliya vazirligi va Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari mlrd. so‘mda | 6176,9 | 8065,4 | 10302,1 | 13013,7 | 16557 | 18113,3 |
| Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining nominal o‘sishi, %da | 100,0 | 130,6 | 166,8 | 210,7 | 268,0 | 293,2 |
| Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining YaIM dagi ulushi, %da | 7,8 | 8,2 | 8,7 | 9,0 | 9,7 | 8,2 |

Jadvalda 2011–2016-yillarda Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining o‘sish sur’atlari mamlakat YaIMning o‘zgarishi bilan sinxron holda tahlil qilingan bo‘lib, unga ko‘ra, mazkur yillarda Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining o‘sish sur’atlari YaIMning o‘sish sur’atlaridan yuqori bo‘lgan, faqat 2016-yilda YaIMning o‘sish sur’atlari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining o‘sish sur’atlaridan ortda qolgan. Buning asosiy sababi 2011–2015-yillarda fuqarolarning ish haqidan undiriladigan sug‘urta badali stavkasi oshirib borilgan va boshqa majburiy to‘lovlar stavkasi o‘zgarmasdan saqlab qolingan hamda 2015-yildan boshlab kichik biznes subyektlari va mikrofirmalar uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkalarining 25 foizdan 15 foizga tushirilganligi bilan izohlanadi.

2012–2016-yillarda Pensiya jamg‘armasi daromad manbalaridan tushumlar miqdorlarining tarkibiy tahlili shundan dalolat beradiki, bunda Pensiya jamg‘armasining asosiy daromad manbalaridan biri yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar ekanligini ko‘rishimiz mumkin, xususan, mazkur majburiy to‘lovdan Pensiya jamg‘armasiga tushumlar Pensiya jamg‘armasining jami daromadlarining 50–60 foizini tashkil etayotganligini va uning ulushi yildan-yilga kamayish tendensiyasiga ega bo‘lib borayotganligini ko‘rish mumkin. Fuqarolardan olinadigan sug‘urta badallari esa Pensiya jamg‘armasining jami daromadlari tarkibida 2012-yildagi 13,8 foizdan 2016-yilda 17,9 foizga ortgan. Yil boshiga qoldiq esa 2016-yilda 14,1 foizni tashkil qilib, 2012-yilga nisbatan 10,7 f.p.ga ortgan (5.1-rasm).

Bunday o‘zgarishlarga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatgan:

– 2015-yildan boshlab yagona ijtimoiy to‘lov stavkalarining kichik biznes subyektlari va mikrofirmalar uchun 25 foizdan 15 foiz-

ga tushirilishi Pensiya jamg‘armasiga mazkur manbadan tushumlar miqdorining sezilarli ravishda kamayishiga olib kelgan;

– fuqarolardan undiriladigan majburiy sug‘urta badallari stavkalari oxirgi yillarda oshirilib borilishi hisobiga uning Pensiya jamg‘armasi jami daromadlaridagi ulushining ortishiga olib kelgan;

– oxirgi yillarda pensiya tizimidagi islohotlar, pensiyalarni tayinlash va to‘lash tizimining takomillashtirilishi va ijtimoiy to‘lovlarning aniq maqsadli yo‘naltirilishidagi olib borilgan chora-tadbirlar Pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish samaradorligining oshishiga olib keldi hamda Pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi ijobiy qoldiqni keltirib chiqardi.




**5.1-rasm. Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining tarkibi[71] (foizda).**

Fuqarolarning ish haqlaridan undiriladigan sug‘urta badallaridan tushumlar miqdoriga bir qancha omillar o‘zgarishi ta’sir qiladi va ularning omilli tahlilini amalga oshirish muhim amaliy ahamiyat kasb

[71] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdagi 1449-sonli, 2011-yil 30-dekabrdagi 1675-sonli, 2012-yil 25-dekabrdagi 1887-sonli, 2013-yil 25-dekabr 2099-sonli, 2014-yil 4-dekabrdagi 2270-sonli, 2015-yil 22-dekabrdagi 2455-sonli, 2016-yil 27-dekabrdagi 2609-sonli Qarorlari, Moliya vazirligi va Davlat statistika qo’mitasining statistik ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

etib, ko‘plab makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga asoslanadi. Bu omillar jumlasiga: mamlakatdagi ish bilan band bo‘lganlar soni va uning o‘zgarishi, fuqarolarning ish haqi miqdorlari va uning o‘zgarishi, inflatsiya sur’atlari kabi omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Biroq majburiy sug‘urta badali stavkalarining o‘zgarishi eng katta ta’sir doirasiga ega. Chunki majburiy sug‘urta badali pensiyaga chiquvchilardan undirilishi va badal to‘lovchiga pensiya olish huquqini berishi sababli ham Pensiya jamg‘armasi daromadlarida uning salmog‘i asosiy ulushni tashkil etishi zarur. Mazkur majburiy badaldan tushumlar Pensiya jamg‘armasi daromadlari o‘zgarishiga qanday bog‘lanishda ekanligini aniqlash maqsadida korrelatsion tahlil usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ya’ni ikki ko‘rsatkich – sug‘urta badalidan tushumlar (*X*) va Pensiya jamg‘armasi daromadlari (*Y*) o‘rtasidagi korrelatsiya koeffitsiyenti deb, ushbu miqdorlar chegirmalari ko‘paytmasi natijasini shu miqdorlar o‘rtacha kvadratli chegirmalari ko‘paytmasi nisbatiga aytiladi. Quyidagi formula orqali *X* va *Y* belgilari orasidagi bog‘lanishni va uning kuchini aniqlaymiz[72]:

$$R_{xy} = \sum (X_i - \overline{X})(Y_i - \overline{Y}) / \sqrt{\sum (X_i - X)^2 \sum (Y_i - Y)^2}$$

*5.4-jadval*

**2012–2017-yillarda sug‘urta badali tushumlari miqdori va** Pensiya jamg‘armasi daromadlari[73], **mlrd. so‘mda**

| Yillar | Sug‘urta badalidan tushumlar miqdori – X | Pensiya jamg‘armasi daromadlari – Y |
|---|---|---|
| 2012 | 1110,2 | 8065,4 |
| 2013 | 1482,7 | 10302,1 |

[72] Zokirova M.Sh., Abdug‘afforov A.A. Iqtisodiy modellashtirish amaliyoti. – T.: “O‘zbekiston”, 1999. – B. 9.

[73] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi 1675-sonli, 2012-yil 25-dekabrdagi 1887-sonli, 2013-yil 25-dekabr 2099-sonli, 2014-yi 14-dekabrdagi 2270-sonli, 2015-yil 22-dekabrdagi 2455-sonli, 2016-yil 27-dekabrdagi 2609-sonli Qarorlari, Moliya vazirligi va Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

| | | |
|---|---|---|
| 2014 | 1877,2 | 13013,7 |
| 2015 | 2463,8 | 16557,0 |
| 2016 | 3235,0 | 18113,3 |
| 2017 | 3993,9 | 19505,1 |
| **Jami** | **14162,8** | **85556,60** |

Jadval ma'lumotlari va yuqoridagi formula asosida quyidagi hisob-kitob ishlarini amalga oshiramiz:

$\overline{X}$=(1010,2+1482,7+1877,2+2463,8+3235,0+3993,9)/6

Bundan $\overline{X}$=2360,47

$\overline{Y}$ = (8065,4+10302,1+13013,7+16557,0+18113,3+1905,1)/6

Bundan $\overline{Y}$ = 14259,43

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida quyidagicha natijalarga ega bo'lamiz:

*5.5-jadval*

**Fuqarolarning ish haqidan sug'urta badallari va**
Pensiya jamg'armasi daromadlari omillarining korrelatsion tahlili

| **Yillar** | $X_i-\overline{X}$ | $Y_i-\overline{Y}$ | $(X_i-\overline{X})*(Y_i-\overline{Y})$ | $(X_i-\overline{X})^2$ | $(Y_i-\overline{Y})^2$ |
|---|---|---|---|---|---|
| 2012 | -1250,3 | -6194,0 | 7744209,9 | 1563175,1 | 38366007,6 |
| 2013 | -877,8 | -3957,3 | 3473625,6 | 770480,2 | 15660460,7 |
| 2014 | -483,3 | -1245,7 | 602023,9 | 233549,9 | 1551843,2 |
| 2015 | 103,3 | 2297,6 | 237407,9 | 10677,1 | 5278827,9 |
| 2016 | 874,5 | 3853,9 | 3370324,9 | 764802,7 | 14852314,0 |
| 2017 | 1633,4 | 5245,7 | 8568434,7 | 2668093,6 | 27517053,7 |
| **Jami** | **0,0** | **0,0** | **23996027,0** | **6010778,5** | **103226507,2** |

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida Pensiya jamg'armasi daromadlari o'zgarishlariga sug'urta badallaridan tushumlar orasidagi bog'liqlikni ifodalovchi korrelatsiya koeffitsiyentini topamiz. Buning uchun hisoblash ishlari quyidagicha amalga oshirilgan:

$$R_{xy} = \sum (X_i - \overline{X})(Y_i - \overline{Y}) / \sqrt{\sum (X_i - X)^2 \sum (Y_i - Y)^2}$$

$$R_{xy} = 23996027{,}0 / \sqrt{6010778{,}5 * 103226507{,}2}$$

$$R_{xy} = 0{,}9633$$

Demak, korrelatsiya koeffitsiyenti 0,9633 ga teng. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, sug‘urta badali bo‘yicha tushumlar hajmi Pensiya jamg‘armasi daromadlari hajmining o‘sishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir va bu bog‘liqlik juda kuchli. Shu sababli, Pensiya jamg‘armasi daromadlari barqarorligini ta’minlashda sug‘urta badali to‘lovi bo‘yicha tushumlar miqdorini ko‘paytirish eng muhim omillardan hisoblanadi.

Biroq Pensiya jamg‘armasining kelajakda ham barqaror faoliyat yuritishini ta’minlash, uni kelgusidagi demografik va iqtisodiy o‘zgarishlarga moslagan holda takomillashtirib borish, daromad manbalaridan tushumlar miqdorini ko‘paytirish makroiqtisodiy darajadagi dolzarb masaladir. Ushbu masala, avvalo, demografik omillarga, xususan, aholining tug‘ilish darajasining pasayishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, XX asrning 50-yillaridan boshlab, O‘zbekistonda tug‘ilish darajasi keskin oshdi. 1950–1990-yillarda taxminan har bir oilaga 5–6 nafardan bola to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 1990-yillardan boshlab har bir oilaga 2–3 nafar bola to‘g‘ri kelmoqda. Mohiyat shundaki, ijtimoiy sug‘urtalashga asoslangan pensiya tizimi “avlodlar birdamligi” prinsipiga asoslanadi, ya’ni yosh avlod Pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lov va badallarni to‘lab boradi va shakllangan mablag‘ pensionerlarga pensiya sifatida to‘lanadi va bu jarayon uzluksiz davom etadi. Tug‘ilish jarayonining kamayishi esa pensiya tizimida nomunatosiblikni keltirib chiqaradi, xususan, Pensiya jamg‘armasiga badal to‘lovchilar kamayib, pensiya oluvchilar soni ko‘payadi. Aholining o‘rtacha umr davomoyligining uzayishi ham asosiy ta’sir etuvchi omillardan sanaladi. Bunda zamonaviy meditsinaning rivojlanishi va aholi turmush darajasining yaxshilanishi insonlarning umrguzaronligini oshiradi va bu pensiya to‘lash davrining uzayishiga olib keladi.

Umr davomiyligi bo‘yicha 2014-yilgi reyting AQSH Markaziy razvedka boshqarmasi (MRB) tomonidan tayyorlangan bo‘lib, u 223 mamlakatni qamrab olgan. Reytingda Monako peshqadam – bu mitti mamlakatda odamlar o‘rtacha 89,57 yil umr ko‘radi. Ikkinchi o‘rindan boshqa bir mitti mamlakat – Makao (84,48 yosh) joy olgan bo‘lsa, uchinchi o‘rin Yaponiyaga (84,46 yosh) nasib etgan. Reytingning kuchli o‘nligidan Singapur (84,38 yosh), San-Marino (83,18 yosh), Gonkong (82,78 yosh), Andorra (82,65), Shveysariya (82,39 yosh), Avstraliya (82,07 yosh) joy olgan. O‘zbekiston ushbu reytingda 125-o‘rinni egallagan. Mamlakatimizda o‘rtacha umr davomiyligi 73,4 yilni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekiston MDHga a’zo va unga yaqin bir qator mamlakatlarni – Qozog‘iston (150-o‘rin), Rossiya (151-o‘rin), Qirg‘iziston (153-o‘rin), Ukraina (156-o‘rin), Mo‘g‘uliston (158-o‘rin) va Tojikiston (166-o‘rin)ni ortda qoldirgan[74].

Aholining o‘rtacha umr davomiyligi taraqqiy etgan mamlakatlarda, jumladan, AQSHda 78,8 yoshni va pensiya chiqish yoshi ayollarda 65 yoshni va erkaklarda 66 yoshni, Germaniyada 80,6 yoshni va pensiya chiqish yoshi 65 yoshni, Fransiyada 81,6 yoshni va pensiya chiqish yoshi 60 yoshni tashkil qiladi[75]. Ozarbayjonda 71,9 yil, Belarusda 72,2 yil, Armanistonda 74,1 yil, va Gruziyada 75,7 yildan iborat. Uzoq umr ko‘rish uchun yetarli sharoitlarga ega bo‘lmagan mamlakatlar uchligidan esa faqat Afrika vakillari – Gvineya-Bisau, Janubiy Afrika Respublikasi va Chad o‘rin olgan. Bu mamlakatlarda aholi o‘rtacha 40–50 yil umr ko‘radi. Shundan kelib chiqib, taraqqiy etgan mamlakatlar tajribalariga asoslanib, O‘zbekistonda ham pensiyaga chiqish yoshini o‘zgartirish hamda xususiy pensiya fondlarini tashkil qilish va ular faoliyatini rivojlantirishning huquqiy-me’yoriy asoslarini ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir[76]:

---

[74] https://www.cia.gov. sayti ma’lumotlari.

[75] Pensions at a Glance. 2015. OECD AND G20 INDICATORS. – P. 218, 251, 256, 284, 289, 325, 343, 362.

[76] Mamatov B.S. Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining

1. O‘zbekistonda demografik omillarning chuqur tahlili asosida aholi yoshi tarkibining o‘zgarishlari bo‘yicha uzoq yillik prognozlarni ishlab chiqish va shu asosda pensiya tizimini isloh qilish strategiyasini belgilab olish zarur. Bu esa istiqbolda pensiya tizimida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nomutanosibliklarning oldini olish hamda tizimning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlash va shu orqali jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etadi.

2. Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqib:

– mamlakatimizda pensiyaga chiqish yoshini, ijtimoiy-iqtisodiy omillarni inobatga olgan holda, qadam-baqadam uzaytirib borish lozim. Bu holda turli ijtimoiy ziddiyatlarning yuzaga kelishining oldini olish uchun kech pensiyaga chiqishni rag‘batlantiruvchi omillarni ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Bunda ishchi yoki xodim ko‘proq mehnat qiladi, pensiyaga chiqishi kechiktiriladi hamda mazkur davr mobaynida Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallarini o‘tkazib boradi;

– O‘zbekistonda xususiy pensiya fondlarini tashkil etish va ular faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish zarur.

3. Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda:

– birinchidan, fuqarolarning majburiy va ixtiyoriy sug‘urta badallariga asosiy e’tiborni qaratish zarur. Ularning stavkalarini oshirib borish siyosatini davom ettirgan holda pirovardida hisoblab chiqariladigan pensiya miqdorining ishlovchining to‘lagan sug‘urta badaliga bog‘liqligini ta’minlash va shu orqali mazkur manbadan tushumlar miqdorini oshirish hamda iqtisodiy adolatni ta’minlash lozim;

– ikkinchidan, aholini pensiya tizimiga jalb etish qamrovini kengaytirish, ularni Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lanish tizimini takomillashtirib borish lozim. Bu borada mamlakatimiz va chet elda norasmiy ish bilan band bo‘lgan fuqarolarni pensiya tizimiga jalb etish zarur bo‘ladi. Buning uchun ommaviy axborot vositalari, vaqtli matbuot va televidenie orqali aholini pensiya tizimiga jalb qilish va istiqbolda undan manfaatdorligini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishi kerak.

---

dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to‘plami. 2017-yil 14-mart. – T.: “IQTISOD MOLIYA”, 2017. – B. 72-74.

4. Sug‘urta badali bo‘yicha tushumlar hajmi Pensiya jamg‘armasi daromadlari hajmining o‘sishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq va bu bog‘liqlik juda kuchli. Shuning uchun Pensiya jamg‘armasi daromadlari barqarorligini ta’minlashda sug‘urta badali to‘lovi bo‘yicha tushumlar miqdorini ko‘paytirish eng muhim omillardan sanaladi.

5. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish va uning monitoringini samarali tashkil etish zarur.

## 5.4. Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari daromadlarining shakllanish manbalari va investitsiya faoliyatidan shakllantiriladigan daromadlari




Jahon mamlakatlarida pensiya fondlari ijtimoiy jihatdan tobora kengroq ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Dunyodagi demografik vaziyat chigallashib borar ekan, pensiya fondlari bu sharoitda daromadlar va xarajatlar mutanosibligini ta’minlashi lozim bo‘ladi. Biz yuqoridagi mavzularda pensiya dasturlarini tashkil etishning ikki xil: belgilangan badal va belgilangan to‘lov usullari mavjudligini ko‘rib o‘tdik. Bu ikki usul bir-biridan tashkil etilishi va tamoyil jihatdan farq qilsa ham ular mohiyat jihatdan daromad va xarajatlarni o‘zaro mutanosiblikda olib borishga harakat qiladi. Birisi, to‘langan badalga qarab pensiya bersa, boshqasi xodimning kelajakda oladigan pensiya miqdoriga qarab badal belgilaydi.

Jahon mamlalakatlarida pensiyalarni to‘lashning ikki xil manbai farqlanadi: pensiya fondlari va davlat mablag‘lari hisobidan to‘lovlar amalga oshiriladi. Kelajakda yuz beradigan pensiya to‘lovi majburiyatlarini qoplash uchun aksariyt Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlarida mustahkam moliyaviy aktivlar to‘plangan. 2013-yilda IHTT mamalakatlari pensiya fondlarining aktivlari mazkur mamlakatlar YalMning o‘rtacha miqdorining 83 foizini tashkil etgan. IHTTning 16 mamlakatida davlat pensiyalarini to‘lash uchun davlat

pensiya zaxiralari ham tashkil etilgan. Bu mamlakatlarda davlat pensiya zaxiralari YaIMning o'rtacha 20 foizini tashkil etadi.




2013-yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, IHTT mamlakatlari pensiya fondlari moliyaviy aktivlari 24,8 trln. AQSH dollarini tashkil etgan. AQSH pensiya fondlari 13,9 trln. AQSH dollarlik moliyaviy aktivlar bilan IHTT jami pensiya fondlari aktivlarining 56,2 foizini egallaydi. Yirik pensiya fondi tizimlari aktivlari bilan boshqa IHTT mamlakatlari: Buyuk Britaniya 2,8 trln. AQSH dollarlik aktiv bilan pensiya fondi bozorining 11,3 foizini, Avstraliya 1,4 trln. AQSH dollari miqdoridagi aktivlar bilan pensiya fondi bozorining 5,8 foizini, Niderlandiya 1,3 trln. AQSH dollari miqdoridagi aktiv bilan pensiya fondi bozorining 5,4 foizini, Yaponiya 1,3 trln. AQSH dollarlik aktiv bilan pensiya fondi bozorining 5,4 foizini, Kanada 1,3 trln. AQSH dollari miqdoridagi aktiv bilan pensiya fondi bozorining 5,1 foizini egallashgan.

*5.6-jadval*

**Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlari va boshqa iqtisodiyoti yirik mamlakatlarda pensiya fondlari va davlat pensiya zaxirasi fondlari aktivlari[77], 2013-yil**

| Mamlakatlar | Pensiya fondlari | | Davlat pensiya zaxirasi | |
|---|---|---|---|---|
| | YaIMga nisbatan, foizda | mln. AQSH dollarida | YaIMga nisbatan, foizda | mln. AQSH dollarida |
| **Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo davlatlar** | | | | |
| Avstraliya | 102,2 | 1 440 898 | 6,1 | 85 597 |
| Avstriya | 5,7 | 25 173 | x | x |
| Belgiya | 5 | 27 213 | 5,1 | 27 531 |

[77] OECD Global Pension Statistics and Annual Survey of Public Pension Reserve Funds. http://dx.doi.org/10.1787/888933301280.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Kanada | 70,8 | 1 260 157 | 17,2 | 307 370 |
| Chili | 62,3 | 162 988 | 2,8 | 7 335 |
| Chexiya | 7,3 | 14 951 | x | x |
| Daniya | 42,1 | 146 700 | x | x |
| Estoniya | 9,5 | 2 443 | x | x |
| Finlandiya | 48,7 | 135 651 | 27 | 75 211 |
| Fransiya | 0,4 | 11 860 | 2,5 | 71 575 |
| Germaniya | 6,1 | 236 932 | x | x |
| Gretsiya | 0,1 | 136 | x | x |
| Vengriya | 4 | 5 506 | x | x |
| Islandiya | 141,2 | 22 986 | x | x |
| Irlandiya | 52,3 | 126 188 | x | x |
| Isroil | 50,5 | 152 679 | x | x |
| Italiya | 6 | 132 168 | x | x |
| Yaponiya | 29,2 | 1 331 231 | 26,8 | 1 223 863 |
| Koreya | 6 | 81 555 | 29,9 | 404 543 |
| Lyuksemburg | 2,1 | 1 323 | x | x |
| Meksika | 14,7 | 181 255 | 0,1 | 1 716 |
| Niderlandiya | 148,7 | 1 335 092 | x | x |
| Yangi Zellandiya | 18,8 | 33 831 | 10,4 | 20 629 |
| Norvegiya | 8,1 | 40 908 | 5,7 | 28 862 |
| Polsha | 18,2 | 100 563 | 1,1 | 5 856 |
| Portugaliya | 8,9 | 20 904 | 6,9 | 16 134 |
| Slovakiya | 9,8 | 9 926 | x | x |
| Sloveniya | 3,9 | 1 954 | x | x |
| Ispaniya | 8,8 | 127 478 | 5,1 | 74 118 |
| Shvetsiya | 9,1 | 53 767 | 28 | 164 650 |
| Shveysariya | 113,4 | 807 893 | x | x |
| Turkiya | 4,8 | 35 543 | x | x |
| Buyuk Brianiya | 99,6 | 2 810 564 | x | x |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| AQSH | 83,2 | 13 946 142 | 16,5 | 2 764 431 |
| IHTT (34 ta davlat) | 82,8 | 24 824 555 | 19,7 | 5 279 423 |
| **Boshqa yirik iqtisodiyotlar** | | | | |
| Argentina | 0 | 0 | 9,9 | 50 680 |
| Braziliya | 13,3 | 273 965 | x | x |
| Yevropa Ittifoqi (28 ta davlat) | 94,3 | 5 351 027 | .. | .. |
| Xitoy | 1 | 98 896 | .. | .. |
| Hindiston | 0,4 | 6 819 | 6,1 | 116 229 |
| Indoneziya | 1,8 | 15 058 | 1,7 | 12 303 |
| Rossiya Federatsiyasi | 5,7 | 117 180 | x | x |
| Saudiya Arabistoni | .. | .. | .. | .. |
| Janubiy Afrika | 94,8 | 306 107 | x | x |

***Eslatma***: IHTTiga a'zo bo'lgan 34 davlatdan va Yevropa Ittifoqining 28 ta vakili pensiya fondlarining mamlakat YaIMga nisbatan foizdagi salmog'i va jami pensiya fondlari aktivlarining AQSH dollaridagi ekvivalentlari.

.. – yaroqsiz;

x – nomutanosib.




2013-yilda IHTTga a'zo davlatlarning to'rttasi pensiya fondi aktivlari mamlakat YaIMdan yuqoriroq ko'rsatkichga ega bo'lgan: Niderlandiya (148,7%), Islandiya (141,2%), Shvetsariya (113,4%), Avstraliya (102,2%), bundan tashqari Buyuk Britaniya (99,6%), AQSH (83,2%) lik ko'rsatkich bilan IHTT mamlakatlarining o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqoriroq bo'lgan. Yuqorida nomi keltirilgan mamlakatlarning AQSH va Buyuk Britniyadan tashqari barchasida fondlashtirilgan pensiya tizimi amal qilgan va majburiy va yarim majburiy xususiy pensiya

fondlari mexanizmi amal qiladi. IHTT mamlakatlarining 13 ta mamlakatida pensiya fondlari aktivlari YaIMning 20 foizidan ko‘proq mablag‘ga ega. Boshqa mamlakatlar esa majburiy fondlashtirilgan pensiya tizimini yaqin yillarda joriy qilishdi. Bu borada Chili eng uzoq yillik tarixga ega va IHTT mamlakatlarining YaIMdagi o‘rtacha salmog‘idan unchalik past bo‘lmagan moliyaviy aktivlarni jamlagan (62,3%).

1990–2000-yillar oralig‘ida majburiy xususiy pensiya fondlarini joriy etgan Estoniya va Meksika kabi mamlakatlarda o‘sish ko‘rsatkichlari ancha ijobiy xarakterga ega. Ularda aktivlar muntazam o‘sib bordi va mos ravishda mamlakat YaIMning 9 va 15 foiziga teng bo‘ldi. Mazkur ko‘rsatkichlar yaqin o‘n yillar davomida qarilik daromadlarini to‘lab boruvchilarning ko‘plab qo‘shilishi va ko‘proq badallar to‘lanishi hisobiga oshib boradi.

“Pay-as-you go” tizimiga asosan moliyalashtiriladigan davlat pensiya tizimlarida birmuncha ortiqcha mablag‘lar hosil bo‘ladi. Davlat pensiya zaxirasi fondlari aholining umr ko‘rish yoshi ortib borishi hisobiga davlat xarajatlariga tushadigan og‘irlikni yengillashtirishda ba’zi davlat pensiya tizimlarining kelajakda moliyalashtirilishida asosiy rolni o‘ynashi kutiladi.

2013-yilning oxirigacha davlat pensiya zaxira fondlari aktivlari IHTTning 1-jadvalda keltirilgan 16 ta mamlakatlarida jami 5,3 trln. AQSH dollarini tashkil etgan. Tabiiyki, eng yirik zaxira 2,8 trln. AQSH dollari bilan AQSH hissasiga to‘g‘ri kelgan. Yaponiyaning Pensiya investitsion fondi 1,2 trln. AQSH dollari bilan jamida 23,2 foizni, Koreya, Kanada, Shvetsiya ham to‘plagan mablag‘lari bilan jamida mos ravishda 7,7; 5,8; 3,1 foizni tashkil etgan.

Milliy iqtisodiyotga nisbatan davlat pensiya zaxira mablag‘lari IHTT mamlakatlarida YaIMning 19,7 foizni tashkil etmoqda. Koreya milliy pensiya fondi mamlakat YaIMining 29,9 foizi, Shvetsiya 28 foizi, Yaponiya 26,8 foiziga teng miqdordagi moliyaviy resurslarni o‘zida jamlagan. Bu davrda Avstraliya, Belgiya, Chili, Yangi Zellandiya va Polshada eng past bo‘lgan.

Ba’zi mamlakatlar, xususan, Fransiya va Ispaniya ijtimoiy ta’minot taqchilligini qoplash uchun jamg‘armalarning bir qanchasini to‘xtatishni boshlaganligiga qaramay aktivlarning bunday to‘plan-



ishining ortib borishi yaqin yillarda davom etadi. Fransiya Pensiya zaxirasi fondi va Irlandiya Milliy pensiya zaxira fondi "Pay-as-you go" pensiya rejasini moliyalashtirishni o'zining vakolat doirasidan chiqargach, ular bundan buyon davlat pensiya zaxirasi fondlari hisoblanmaydi.

Jahonda davlat pensiya fondlarini moliyalashtirishning budjet va ijtimoiy sug'urta usullari farqlanadi. Budjet usulida pensiya to'lovlarini moliyalashtirish budjetga soliqlar hisobidan shakllantirilgan mablag'lardan qoplanadi. Ijtimoiy sug'urta usuli juda keng tarqalgan bo'lib, bu usulda pensiya fondi daromadlari ish beruvchilar va ishlovchilar tomonidan pensiya fondiga to'lanadigan badallar hisobiga shakllantiriladi. Hozirda barcha moliyaviy tuzilmalar qatori pensiya fondlari ham investitsiya faoliyatining asosiy ishtirokchisi hisoblanadi. Fondlar doimiy ravishda investitsiya faoliyatida ishtirok etishadi va katta miqdordagi daromadlarini investitsiya faoliyatidan qo'lga kiritishadi.

Aynan shu jihatlarni inobatga olib, pensiya fondlari daromadlarini quyidagicha tasniflash mumkin:




**5.2-rasm. Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari daromad manbalari[78].**

[78] Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0 th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 5-15.




Jahon mamlakatlarida pensiya fondlari daromadlari tizimi bir qancha iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali tahli etiladi. Jumladan, ma’lum bir pensiya fondiga ishlovchilar va ish beruvchilar tomonidan to‘lanadigan “Majburiy pensiya badallari” stavkalari. 2014-yilda majburiy ijtimoiy sug‘urta badallari stavkalari IHTTning 13 ta mamlakatida ish beruvchilar va ishlovchilar uchun xususiy sektorda o‘rtacha oylik ish haqining 24 foizi qilib belgilangan. IHTTning qolgan 21 ta a’zosi uchun esa o‘rtacha 18 foizni tashki etgan.

*5.7-jadval*

**Xorijiy mamlakatlarda 2014-yilda har bir ishlovchi uchun majburiy pensiya va ijtimoiy sug‘urta badallari stavkalari[79]**

| Mamlakatlar | Davlat | | Xususiy | | Jami |
|---|---|---|---|---|---|
| | Ishlovchi | Ish beruvchi | Ishlovchi | Ish beruvchi | |
| Avstaliya | | 9,50 | | | 9,50 |
| Belgiya | 7,50 | 8,86 | | | 16,40 |
| Kanada | 4,95 | 4,95 | | | 9,90 |
| Chili | 0,00 | | 11,20 | 1,15 | 12,30 |
| Daniya | 0,54 | 0,82 | | 12,00 | 13,40 |
| Finlandiya | 7,05 | 17,75 | | | 24,80 |
| Fransiya | 6,80 | 8,45 | 3,00 | 3,00 | 18,25 |
| Germaniya | 9,50 | 9,50 | | | 19,00 |
| Islandiya | 0,00 | 7,79 | 4,00 | 8,00 | 11,79 |
| Isroil | 3,75 | 3,75 | 5,50 | 12,00 | 13,00 |
| Italiya | 9,19 | 23,81 | | | 33,00 |

[79] OECD (various years), Taxing Wages; OECD (2013), Revenue Statistics; Social Security Administration, United States (various years), Social Security Programs throughout the World; OECD pension and tax models.http://dx.doi.org/10.1787/888933301228.

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Yaponiya | 8,74 | 8,74 | | | 17,47 |
| Koreya | 4,50 | 4,50 | | | 9,00 |
| Lyuksemburg | 8,00 | 8,00 | | | 16,00 |
| Meksika | | | 1,13 | 5,15 | 6,28 |
| Niderlandiya | 4,90 | 0,00 | 16,00 | | 20,90 |
| Yangi Zelandiya | | | 3,00 | 3,00 | 6,00 |
| Polsha | 9,76 | 9,76 | | | 19,52 |
| Shvetsiya | 7,00 | 11,40 | | 4,50 | 18,40 |
| Shvetsariya | 4,20 | 4,20 | 7,70 | 10,40 | 26,60 |
| Turkiya | 9,00 | 11,00 | | | 20,00 |

Ba'zi hollarda, pensiya badallari daromadlari turli ijtimoiy ta'minot dasturlariga taqsimlash orqali badallar stavkasi uchun bir xil proportsiyalarda hisoblab chiqariladi. Jami badal odamlarning o'zining badal to'lovlari hisobidan iborat bo'ladi. Agar ushbu uch manbaning qiymati bu yildagi nafaqalar to'lovidan yuqori bo'lsa, pensiya aktivlarining qiymati o'sib boradi. Tarkibiy jihatdan qaraganda, investitsion daromad bu vaqtda aktivlar o'sishining yanada muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

*5.8-jadval*

**Xorijiy mamlakatlarda 2014-yilda o'rtacha har bir ishchi uchun ijtimoiy sug'urta badallari va majburiy xususiy badallar stavkalari[80]**

| | Davlat | | Xususiy | | Jami |
|---|---|---|---|---|---|
| | Ishlovchi | Ish beruvchi | Ishlovchi | Ish beruvchi | |
| Avstriya | 10,25 | 12,55 | | | 22,8 |
| Chexiya | 6,5 | 21,5 | | | 28,0 |
| Estoniya | | 16,0 | 2,0 | 4,0 | 20,0 |

[80] OECD (various years), Taxing Wages; OECD (2013), Revenue Statistics; Social Security Administration, United States (various years), Social Security Programs throughout the World; OECD pension and tax models.http://dx.doi.org.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Gretsiya | 6,67 | 13,3 | | 20,0 |
| Vengriya | 18,5 | 28,5 | | 47,0 |
| Irlandiya | 4,0 | 10,75 | | 14,75 |
| Norvegiya | 8,2 | 14,1 | | 22,3 |
| Portugaliya | 6,4 | 13,8 | | 20,2 |
| Slovaiya | 7,0 | 20,0 | | 27,0 |
| Sloveniya | 15,5 | 8,85 | | 24,4 |
| Ispaniya | 4,7 | 23,6 | | 28,3 |
| Buyuk Britaniya | 9,05 | 11,9 | | 20,95 |
| AQSH | 6,2 | 6,2 | | 12,4 |

Ba'zi hollarda, pensiya badallari tushumlari turli ijtimoiy ta'minot dasturlari o'rtasida badallar stavklariga bir xil nisbatlarda taqsimlanadi. Jami badallar o'z-o'zini ish bilan ta'minlaydigan ishlovchilar uchun to'lovlarni o'z ichiga oladi.



Pensiya fondi pensiya to'lovlarini moliyalashtirish maqsadida pensiya rejasi badallari orqali shakllantiriladigan, mustaqil huquqiy tuzilma tomonidan tartibga solinadigan mablag'lar jamg'armasidir. Pensiya fondi a'zosi pensiya fondi aktivlariga nisbatan qonuniy va foydali huquqlarga yoki boshqa ba'zi shartnomaviy da'volarga ega bo'ladi.

Davlat pensiya zaxira fondlari hukumat yoki ijtimoiy ta'minot institutlari tomonidan "Pay-as-you go" mexanizmiga asosan moliyalashtiriladigan fondning amal qilmaydigan ishlovchilarning davlat pensiya tizimlarini ta'minlash maqsadida tashkil etiladigan zaxiralardir.

## Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

- Pensiya jamg‘armasi daromadlari qaysi manbalar hisobiga shakllantiriladi?
- Pensiya jamg‘armasigi to‘lanadigan majburiy to‘lovlar va badallarga nimalar kiradi?
- Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan boshqa to‘lovlar deganda qanday to‘lovlarni tushunasiz?
- Yagona ijtimoiy to‘lovning xususiyatlarini izohlab bering.
- Pensiya jamg‘armasi daromadlarini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rolini izohlab bering.
- Yagona ijtimoiy to‘lov summasi belgilangan tartibga muvofiq qanday taqsimlanadi?
- Sug‘urta badalining xususiyatlarini ifodalab bering.
- Rivojlangan Yevropa mamlakatlari amaliyotida pensiya fondlari daromadlarini shakllantirishdagi ish beruvchi va ishchilar o‘rtasidagi nisbat munosabatlarda fuqarolarning ulushi necha foizni tashkil qiladi?
- Sug‘urta badallarini to‘lash majburiyati kimlarning zimmasiga yuklatiladi?
- Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari qanday to‘lovlarga nisbatan hisoblanmaydi?
- Yagona ijtimoiy to‘lov kimlarga nisbatan hisoblab chiqarilmaydi?
- Fuqarolarning Pensiya jamg‘armasiga o‘tkaziladigan majburiy sug‘urta badallari stavkasini (so‘nggi 5 yil davomidagi) aytib bering?
- Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan sotilgan mahsulotlar hajmidan ajratmalarning xususiyatlarini izohlab bering?
- Pensiya jamg‘armasi daromadlari tarkibida manbalar ulushini ifodalab bering?
- O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida ko‘zda tutilgan majburiy to‘lovlarga nimalar kiradi?
- Yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi?
- Yagona ijtimoiy to‘lovni va sug‘urta badallarini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza sifatida nimalar belgilangan?
- Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lovchilar bo‘ilb kimlar hisoblanadi?

- Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan sug‘urta badallarining eng kam miqdori deganda nimani tushunasiz?
- Tayinlanadigan pensiya, shuningdek, ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqa miqdori qanday omillarga bog‘liq?
- Pensiya jamg‘armasiga to‘langan badallarni hisobga olish kim tomonidan amalga oshiriladi?
- Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligi deganda nimani tushunasiz?
- Pensiya jamg‘armasi daromadlarining shakllanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
- Fuqarolarning ish haqlaridan undiriladigan sug‘urta badallaridan tushumlar miqdoriga qanday omillar o‘zgarishi ta’sir qiladi?
- Aholining o‘rtacha umr davomiyligi taraqqiy etgan mamlakatlarda necha yoshni tashkil qiladi va bu holatning pensiya tizimiga ta’sirini izohlang?
- Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda nimalarga alohida e’tibor qaratish zarur, deb hisoblaysiz?
- Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari daromadlarining shakllanish manbalarini aytib bering.

# 6-bob. PENSIYA JAMG‘ARMASI MABLAG‘LARIDAN FOYDALANISH

## 6.1. Pensiya jamg‘armasi xarajatlarining mazmuni, tarkibi va tuzilishi




Jahondagi bugungi vaziyat, ya’ni global muammolarning mavjudligi, aholi sonining keskin oshib borayotgan bir paytda mamlakatimizda davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha xarajatlari ulushining ortib borayotganligi va davlat budjeti ijrosi profitsit bilan bajarilayotgani olib borilayotgan islohotlarning samarasini ifodalaydi.



Ijtimoiy soha xarajatlari, o‘z navbatida, pensiya ta’minotini ham qamrab oladi. Pensiya jamg‘armasi xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi 30-sonli Qaroriga asosan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Nizom bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining mablag‘laridan:

- ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to‘lash;
- ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to‘lash;
- davlat pensiya ta’minoti huquqiga ega bo‘lmagan qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar;
- dafn etish marosimi uchun nafaqalar;
- boshqa xarajatlar uchun foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan pensiya qonunchiligiga muvofiq, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarni moliyalashtirish Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining sarflanishini quyidagi rasm orqali ifodalaymiz.




**6.1-rasm. Pensiya jamg'arma mablag'larining sarflanishi[81].**

Ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish uchun Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari tomonidan G'aznachilikning bo'linmalarida hisob raqamlari ochiladi. Pensiya jamg'armasining hududiy boshqarmalari to'lov to'lanadigan har bir oyning 15-kunigacha ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar to'lash uchun mablag'larga bo'lgan ehtiyoj hajmini belgilaydi hamda Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparatiga buyurtmanoma taqdim etadi. Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparati Pensiya jamg'armasi xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda: joriy to'lov oyining 15-kunigacha – o'tgan oyning ehtiyoji hisob-kitobidan kelib chiqib 50 foiz miqdorida-

[81] "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizom.

gi summani; joriy to‘lov oyining 27-kunigacha – amaldagi ehtiyojning taqdim etilgan miqdoridan qolgan summani moliyalashtiradi. Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlar uchun mablag‘larni aloqa tashkilotlari va banklarning hisob raqamlariga o‘tkazadi.



Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari tashkilotlarning buyurtmanomalari bo‘yicha ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, dafn marosimi uchun nafaqalar, 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalarning ota-onalaridan biriga qo‘shimcha dam olish kunlari uchun va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlarni to‘lashga mablag‘larni moliyalashtiradi.

Pensiya jamg‘armasining hisob raqamlaridan mablag‘larni qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda o‘tkazish va vaqtincha olib qo‘yish taqiqlanadi.

Bugungi kunda Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining sarflanish yo‘nalishlarini quyidagi 6.1-jadvalda ko‘rishimiz mumkin. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2012–2016-yillar davomida Pensiya jamg‘armasi xarajatlari tizimida asosiy ulush ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to‘lovlari hissasiga to‘g‘ri kelib, uning tutgan ulushi yil sayin umumiy xarajat qismida pasayish tendensiyasiga ega. Aksincha, Pensiya jamg‘armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo‘lib, uning ulushi o‘sish tendensiyasiga ega. Agar 2012-yilda uning ulushi jami xarajatlar tarkibida 6,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yilga kelib 14,9 foizni tashkil etgan. Bu esa Hukumatimiz tomonidan davlat pensiya tizimini isloh qilish, uning mablag‘laridan samarali foydalanish tizimidagi sa’y-harakatlari natijasidir. Ortiqcha to‘langan pensiyalarning qaytarilishi, pensiyalarni hisoblash tizimining takomillashuvi natijasida Pensiya jamg‘armasi hisobida qoldiq hosil bo‘lib, keyingi yillarda pensiya tizimi dasturlarida belgilangan vazifalar doirasida sarf etilmoqda.

*6.1-jadval*

## Pensiya jamg‘armasining xarajatlari tarkibi[82]

| Ko‘rsatkichlar | 2012-yil | | 2014-yil | | 2016-yil | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | mlrd. so‘mda | jami xarajatlarga nisbatan foizda | mlrd. so‘mda | jami xarajatlarga nisbatan foizda | mlrd. so‘mda | jami xarajatlarga nisbatan foizda |
| **Xarajatlar jami** | **8065,4** | **100,0** | **13013,7** | **100,0** | **18113,3** | **100,0** |
| Ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to‘lovlari | 7246,0 | 89,8 | 11191,9 | 86,0 | 14779,6 | 81,6 |
| Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to‘lovlari | 290,9 | 3,6 | 426,6 | 3,3 | 484,3 | 2,7 |
| Keksa yoshdagilar va ishlamaydigan fuqarolar uchun nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to‘lovlar | 12,8 | 0,2 | 29,1 | 0,2 | 152,1 | 0,8 |
| Boshqa xarajatlar | 1,8 | 0,02 | 2,4 | 0,02 | 3,0 | 0,02 |
| Yil oxirida qoldiq mablag‘lar | 513,9 | 6,4 | 1363,7 | 10,5 | 2694,3 | 14,9 |



O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari “Fuqarolarning pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta’minlanish huquqiga ega. Pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar kamida 5 yil ish staji mavjud bo‘lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi. Fuqarolar pen-

[82] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabr PQ-1675-sonli, 2012-yil 25-dekabr PQ-1887-sonli, 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-sonli, 2014-yil 4-dekabrdagi PQ-2270-sonli, 2015-yil 22-dekabrdagi PQ-2455-sonli Qarorlari asosida tuzildi.

siya olish huquqi paydo bo‘lganidan so‘ng istalgan paytda pensiya tayinlashni so‘rab murojaat etishlari mumkin. Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarga ularning o‘zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi. Harbiy xizmatchilarni, shuningdek, ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarni hamda ularning oila a’zolarini pensiya bilan ta’minlash shartlari, me’yorlari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

### 6.2. Pensiya jamg‘armasi xarajatlarining guruhlanishi

Pensiya jamg‘armasi xarajatlarini uch guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:



1. Ishlayotgan va ishlamaydigan pensionerlarga to‘lanuvchi pensiyalar;
2. Ijtimoiy nafaqalar;
3. Pensiya jamg‘armasining boshqa xarajatlaridan iborat.

Birinchi guruhga daxldor xarajatlar, yuqorida ta’kidlaganimizdek, ishlayotgan va ishlamaydigan pensionerlarga to‘lanuvchi pensiyalardan tashkil topadi.

Ikkinchi guruhga daxldor xarajatlarni ijtimoiy nafaqalar tashkil qiladi. Ijtimoiy nafaqalar, o‘z navbatida, quyidagi turlarga bo‘linadi:

- bolalikdan nogironligi bo‘lganlarga nafaqalar;
- yoshga doir nafaqa;
- nogironlik nafaqasi;
- boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi;
- dafn marosimi uchun nafaqa;
- bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa;
- qo‘shimcha dam olish kuni uchun nafaqa.

*Bolalikdan nogironlarga nafaqalar.* Nafaqa olish huquqiga TMEKlari tomonidan bolalikdan I guruh nogironlari, bolalikdan II guruh nogironlari deb e’tirof etilgan 16 yoshdan katta shaxslar, shuningdek, nafaqa olish huquqini beradigan tibbiy xulosa mavjud bo‘lgan taqdirda 16 yoshgacha nogiron bolalar egadirlar. 2016-yil 1-oktabrdan

boshlab nafaqa 292940 so‘m miqdorida to‘lanadi. Nafaqani tayinlash va to‘lash arizachining yashash manzili bo‘yicha Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi. Nafaqa tayinlash to‘g‘risidagi ariza: 16 yoshdan katta bolalikdan nogiron tomonidan; muomalaga layoqatsiz deb e’tirof etilgan 16 yoshdan katta bolalikdan nogironning ota-onasi, farzandlikka oluvchisi, vasiysi yoki homiysi tomonidan; nogironligi bo‘lgan bolaning ota-onasi, farzandlikka oluvchisi, vasiysi yoki homiysi tomonidan yashash joyi bo‘yicha Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga beriladi.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi: a) 16 yoshdan katta bolalikdan nogiron tomonidan – pasportining nusxasi; b) muomalaga layotqatsiz deb e’tirof etilgan 16 yoshdan katta bolalikdan nogironning ota-onasi, farzandlikka oluvchisi, vasiysi yoki homiysi tomonidan – muomalaga layoqatsiz deb e’tirof etilgan 16 yoshdan katta bolalikdan nogironning pasporti nusxasi, ariza bergan ota-ona, farzandlikka oluvchi, vasiy yoki homiyning pasporti nusxasi; d) nogironligi bo‘lgan bola-ning ota-onasi, farzandlikka oluvchisi, vasiysi yoki homiysi tomonidan – nogiron bola tug‘ilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi, nogironligi bo‘lgan bolaning yashash joyini tasdiqlaydigan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi ma’lumotnomasi, sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan belgilangan tartibda beriladigan tibbiy xulosa, ariza bergan ota-ona, farzandlikka oluvchi, vasiy yoki homiyning pasporti nusxasi.

Farzandlikka oluvchi, vasiy yoki homiy tomonidan ariza bilan murojaat qilinganda tuman (shahar) hokimining farzandlikka olish, vasiylik yoki homiylikni belgilash to‘g‘risidagi qarorining nusxasi ham taqdim etiladi.



Pensiya jamg‘armasi bo‘limi arizaga Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tomonidan TMEKdan olingan 16 yoshdan katta bolalikdan nogironni tibbiy tekshirish dalolatnomasidan ko‘chirmani ilova qiladi. Nafaqani to‘lash quyidagi holatlarda to‘xtatiladi: 16 yoshdan katta bolalikdan nogiron yoxud 16 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bola doimiy yashash uchun O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga

chiqib ketganda; nafaqa tayinlangan shaxslar to‘liq davlat ta’minotiga o‘tkazilganda (“Mehribonlik”, “Sahovat”, “Muruvvat” uylariga va shu kabilarga); 16 yoshdan katta bolalikdan nogiron yoki 16 yoshgacha nogiron bola ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan taqdirda; 16 yoshdan katta bolalikdan nogironga “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat pensiyasining turlaridan biri tayinlanganda. 16 yoshdan katta bolalikdan nogironga “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat pensiyasining turlaridan biri tayinlanganda nafaqa to‘lash to‘xtatiladi, pensiya esa nafaqa oxirgi marta to‘langan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab to‘lanadi.

*Yoshga doir nafaqa.* Yoshga doir nafaqa: ish stajiga ega bo‘lmagan; “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 37-moddasi birinchi qismining “a”, “b”, “v” va “g” bandlarida nazarda tutilgan 5 yildan kam ish staji mavjud bo‘lib, yoshga doir pensiya tayinlash uchun yetarli ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga tayinlanadi. Ish stajiga ega bo‘lmagan shaxsga yoshga doir nafaqa mehnatga layoqatli voyaga yetgan farzandlari, qarindoshlari yoki O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta’minlashga majbur bo‘lgan boshqa shaxslar bo‘lmagan taqdirda tayinlanadi. 2016-yil 1-oktyabrdan nafaqa 179755 so‘m miqdorida to‘lanadi.

Yoshga doir nafaqa: erkaklarga – 65 yoshga yetganlarida; ayollarga – 60 yoshga yetganlarida tayinlanadi. Nafaqani tayinlash va to‘lash Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilingan bo‘lishi kerak: pasport yoki tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi; ish stajiga ega bo‘lmagan shaxsga – ariza beruvchining yashash joyidagi fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organidan berilgan ma’lumotnoma, unda ariza beruvchining barcha oila a’zolarining, shu jumladan, alohida yashaydigan voyaga yetgan mehnatga layoqatli a’zolari (yoki ularning yo‘qligi), ularning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug‘ilgan yillari, qarindoshlik darajasi, ariza beruvchi oilasi har bir a’zosining turmush kechirish manbalari ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak; “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining

37-moddasi birinchi qismining "a", "b", "v" va "g" bandlarida nazarda tutilgan 5 yildan kam ish stajiga ega bo'lganda – mehnat daftarchasi.

Pensiya jamg'armasi bo'limi arizaga ish stajiga ega bo'lmagan shaxsga yoshga doir nafaqa tayinlash to'g'risidagi arizada mehnatga layoqatli farzandlarining, qarindoshlarining yoki O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta'minlashi shart bo'lgan boshqa shaxslarning borligi va ariza beruvchining jami daromadi to'g'risidagi ma'lumotlar majburiy tartibda ko'rsatilishi zarur. Haq to'lanadigan ishni bajarish yoki daromadning boshqa manbaiga ega (alimentlar yoki stipendiyalar olish bundan mustasno) shaxslarga yoshga doir nafaqa to'lanmaydi.

*Nogironlik nafaqasi.* Nogironlik nafaqasi nogironlik sodir bo'lgan hollarda, yoshidan qat'i nazar, ish stajiga ega bo'lmagan I va II guruh nogironlariga faqat mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotilganda tayinlanadi va to'lanadi. 2016-yil 1-oktabrdan nafaqa 179755 so'm miqdorida to'lanadi. Nafaqalarni tayinlash va to'lash Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi. Arizaga pasport yoki tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi ilova qilinishi kerak. Pensiya jamg'armasi bo'limi arizaga TMEKdan olingan tibbiy tekshirish dalolatnomasidan ko'chirmani ilova qiladi. Mehnat faoliyatiga layoqati cheklanganligi darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirish (mehnatga layoqati doimiy yoki uzoq muddat yo'qotilganda) TMEK tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqaro mehnat faoliyatiga layoqatli emas yoki unga mehnat faoliyati bilan shug'ullanish mumkin emasligi (yoki zid ekanligi) belgilangan taqdirda TMEK mehnat qobiliyatining doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotilganligi to'g'risida tegishli xulosa chiqaradi. Haq to'lanadigan ishni bajarish yoki daromadning boshqa manbaiga ega (alimentlar yoki stipendiyalar olish bundan mustasno) I va II guruh nogironlariga nogironlik nafaqasi to'lanmaydi.

*Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi.* "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bo'yicha davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo'lmagan shaxsning qaramog'ida bo'lgan oilaning mehnatga layoqatli bo'lmagan a'zolari boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi olish huquqiga ega.

Nafaqani tayinlash va to'lash arizachining yashash manzili bo'yicha joylashgan Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilingan bo'lishi kerak: pasport yoki tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi; boquvchining vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma va boquvchisini yo'qotgan taqdirda nafaqa olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolarining tug'ilganligi to'g'risidagi hujjatlar (pasport, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma) nusxalari; "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 19-moddasida aytib o'tilgan shaxslar oilaning mehnatga layoqatsiz a'zolari jumlasiga kiritiladilar.

Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi vafot etganning oila a'zolariga vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo'lgan nafaqaga foiz nisbatida quyidagi miqdorlarda belgilanadi: a) oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a'zosiga – nafaqaning 100 foizi; b) oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a'zosiga – nafaqaning 75 foizi; d) oilaning mehnatga layoqatsiz bir a'zosiga – nafaqaning 50 foizi. Nafaqa olish huquqiga ega bo'lmagan shaxs vafot etgan taqdirda vafot etganning oila a'zolariga nafaqa yoshga doir nafaqa miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

*Dafn marosimi uchun nafaqa.* Nafaqa marhumning eriga (xotiniga), ota-onasiga, farzandlariga va boshqa qarindoshlariga yoki marhumning qonuniy vakiliga, bunday shaxs bo'lmagan taqdirda esa – dafnni amalga oshirish majburiyatini zimmasiga olgan boshqa shaxsga tayinlanadi va to'lanadi.

Nafaqa: a) davlat pensiyasi oluvchi pensioner; b) davlat ijtimoiy nafaqasi oluvchi fuqaro; d) xodim yoki uning qaramog'idagi oila a'zosi; e) bola hayotining birinchi haftasi mobaynida vafot etganda yoki o'lik bola tug'ilganda (perinatal o'lim); f) ish bilan band bo'lgan yoki band bo'lmagan shaxs, fuqarolarning ayrim toifalariga tegishli bo'lgan shaxs yoki bola; g) O'zbekiston Respublikasi hududida dafn etilgan O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs vafot etgan taqdirda tayinlanadi. Pensioner vafot etgan taqdirda uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga eng kam oylik ish

haqining 4 barobari miqdorida dafn etish nafaqasi to'lanadi. Ko'rsatib o'tilgan pullar, ularni olish uchun pensioner vafot etganidan keyin 6 oy ichida murojaat etilgan taqdirda to'lanadi.

*Bola tug'ilganda beriladigan nafaqa.* Bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida beriladi. Ish haqiga koeffitsiyent qo'llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koeffitsiyentlarni hisobga olgan holda belgilanadi Ishlayotgan ayollarga hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturada tahsil olayotgan ayollarga bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa tegishlicha ish yoki o'qish joyidan to'lanadi. Ishlamaydigan va o'qimaydigan ota-onalarga bola tug'ilganda nafaqa Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tayinlanadi va to'lanadi.

*Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa.* Nogiron bolasini tarbiyalayotgan ishlovchi ota-onaning biriga (vasiyga, homiyga) bola 16 yoshga to'lgunga qadar davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to'lagan holda oyiga qo'shimcha bir dam olish kuni beriladi.

*Kompensatsiya pul to'lovlari.* Quyidagilar eng kam ish haqining 45 foizi miqdorida oylik kompensatsiya pul to'lovlari oluvchilari hisoblanadi:

a) o'zgalar qaramog'iga muhtoj bo'lgan yolg'iz pensionerlar, shu jumladan, nogironlar ham;

b) 1941–1945-yillardagi ikkinchi jahon urushi nogironlari, qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, 1941–1945-yillardagi ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oilalari va vafot etgan nogironlarining xotinlari. Halok bo'lgan harbiy xizmatchining kompensatsiya pul to'lovlarini olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolariga boquvchisini yo'qotgan taqdirda qonun hujjatlariga muvofiq halok bo'lgan harbiy xizmatchi uchun pensiya olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolari kiritiladi. Kompensatsiya pul to'lovlari halok bo'lgan harbiy xizmatchining oila a'zolariga ular oladigan pensiya turidan va oila a'zolari birgalikda yoki alohida yashashlaridan qat'i nazar, to'lanadi;

d) birinchi va (yoki) ikkinchi darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan mukofotlangan shaxslar;

e) sovet Ittifoqi qahramonlari, Sotsialistik Mehnat qahramonlari va Shuhrat ordenining uchala darajasi bilan mukofotlangan shaxslar, shaxsiy pensionerlar;

f) fashistlar konslagerlarining sobiq voyaga yetmagan tutqunlari;

g) Leningrad shahri qamali davrida shahar korxonalari, muassasalari va tashkilotlarida ishlagan fuqarolar;

h) ko'zi ojiz I guruh nogironlari;

i) Chernobil halokati oqibatida ziyon ko'rgan fuqarolar;

j) yadro poligonlarida va boshqa yadroviy radiatsiya obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslar.

### 6.3. Davlat pensiyalarini hisoblash, tayinlash va to'lash tartibi



*Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etish tartibi.* Pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza pensiyaga chiquvchi fuqaro tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq o'zining yashash joyidagi Pensiya jamg'armasi bo'limiga beriladi. Xodimga va uning oila a'zolariga pensiya (boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi) tayinlangan taqdirda pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza xodimning yoki vafot etgan boquvchining (uning oila a'zolariga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlangan taqdirda) oxirgi ish joyi bo'yicha tashkilotning ma'muriyati orqali ariza beruvchining yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limiga berilishi mumkin. Pensiya tayinlanadigan shaxs balog'atga yetmagan yoki huquqiy muomalaga layoqatsiz bo'lgan taqdirda, ariza uning ota-onasi yoki vasiysi tomonidan ularning yashash joyi orqali beriladi.

Pensiya tayinlashni so'rab pensiya olish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab istalgan vaqtda, biror muddat bilan cheklanmagan holda murojaat etish mumkin. Barcha zarur hujjatlar bilan birga ariza qabul qilingan kun pensiya so'rab murojaat etilgan kun hisoblanadi.



Pensiya jamg‘armasi bo‘limi pensiya tayinlash uchun taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish to‘g‘risida qaror chiqargan hollarda, tekshirish tamom bo‘lish muddatidan qat’i nazar, pensiya tayinlash uchun dastlab murojaat qilingan sana pensiya tayinlash uchun murojaat qilingan sana hisoblanadi.

Yoshga doir pensiya tayinlash uchun murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagilar ilova qilinishi kerak: ish stajini, shu jumladan, maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat; ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma; ariza beruvchining jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi (2005-yil 1-yanvardan keyin).

Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi:

– tegishli organ tomonidan berilgan harbiy xizmatni, partizan otryadlari va qo‘shilmalarda bo‘lganlikni, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilganlikni tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

– tegishli organ tomonidan berilgan, idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, harbiylashtirilgan soqchilikdagi, maxsus aloqa organlari va kon-qutqaruv qismlaridagi xizmatni tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

– band bo‘lgan shaxsga O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tomonidan berilgan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘langanligini tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

– O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining davolash-profilaktika muassasasi TMK tomonidan berilgan ariza beruvchining bolasi 16 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bola deb e’tirof etilishini tasdiqlaydigan tibbiyot xulosasi yoki Tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi tomonidan berilgan parvarish ostidagi shaxs I guruh nogironi deb tan olinishini tasdiqlaydigan nogironlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomaning tegishli qismi;

– davolash-profilaktika muassasasining xulosasi asosida fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan o‘zgalar-

ning parvarishiga muhtoj bo‘lgan 80 yoshga to‘lgan keksalarga qarab turilgan vaqtni tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

– oliy ta’lim muassasalarida, aspiranturada, doktoranturada va klinik ordinaturada kunduzgi o‘qishni, shu jumladan, chet elda o‘qishni tasdiqlaydigan diplom yoki ma’lumotnoma;

– bolani parvarish qilish vaqtini tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

– ofitserlar tarkibidan bo‘lgan shaxslar, praporshchiklar, michmanlar va muddatdan tashqari xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilarning xotinlari, ularni ishga joylashtirish imkoniyati bo‘lmagan joylarda erlari bilan yashagan vaqtni tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

– ariza beruvchi urush qatnashchisi yoki unga tenglashtirilgan shaxs hisoblanishini tasdiqlaydigan hujjat;

– davolash-profilaktika muassasasining ariza beruvchi gipofizar nanizm bemori (liliput) yoxud disproporsional pakana ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi;

– familiya, ism, ota ismi o‘zgartirilganligi to‘g‘risidagi hujjat;

– TMEKning nogironlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomasining tegishli qismi – mehnatda yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida I va II guruhlar nogironi bo‘lgan vaqt stajga hisoblanadigan hollarda;

– nogiron bola 8 yoshga to‘lgunga qadar uni parvarish qilish vaqtini tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

– oqlov hukmi yoki ish to‘xtatilganligi to‘g‘risidagi hujjat;

– tegishli muassasaning shaxsni ishsiz deb e’tirof etish to‘g‘risidagi taqdimnomasi.



Nogironlik pensiyasini tayinlashni so‘rab murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi kerak: ish stajini, shu jumladan, maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat; ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma; ariza beruvchining jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi; baxtsiz hodisa va sog‘liqning ishlab chiqarishda boshqa shikastlanishi to‘g‘risidagi hujjat yoki agar nogironlik mehnatda mayiblanish oqibatida sodir bo‘lgan bo‘lsa – boshqa rasmiy hujjat.

*Pensiyalar tayinlash uchun ish stajini hisoblab chiqish va tasdiqlash tartibi.* Fuqaro pensiyaga chiqishi uchun eng avvalo mehnat stajiga ega bo'lishi talab qilinadi, amaldagi pensiya qonunchiligiga ko'ra quyidagi mehnat faoliyati mehnat staji sifatida inobatga olinadi:

– faoliyat turi, mulk va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'i nazar, xodim davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalangan holda bajargan har qanday ish, agar u Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan bo'lsa, 1965-yildan keyingi davr uchun jamoa xo'jaligidagi ish stajini hisoblab chiqarishda, agar jamoa xo'jaligi a'zosi uzrsiz sabablarga ko'ra jamoa xo'jaligida belgilangan mehnatda ishtirok etish minimumini bajarmagan bo'lsa, ishlangan vaqtning amalda davom etgan davri hisobga olinadi, ijodiy faoliyat bilan mashg'ul xodimlarning ish stajini, basharti ular Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan bo'lsalar, ijodiy uyushmalarning boshqaruvlari ana shu muallifning asari e'lon qilingan yoki birinchi marta jamoat oldida ijro yoki namoyish etilgan kundan e'tiboran belgilaydilar;

– harbiy xizmat va partizan otryadlari hamda qo'shilmalarida bo'lish, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilish;

– idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, harbiylashtirilgan soqchilikdagi, maxsus aloqa organlari va tog'-kon-qutqaruv qismlaridagi xizmat;

– yakka tartibdagi mehnat faoliyati, shu jumladan, yakka (guruhli) ijara sharoitidagi yoki shaxsiy yordamchi, dehqon (fermer) xo'jaligidagi faoliyat – Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langan taqdirda;

– I guruh nogironiga yoki 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaga, shuningdek, o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan (davolash muassasasining xulosasiga ko'ra) 80 yoshga to'lgan qariyalarga qarab turilgan vaqt;

– oliy ta'lim muassasalarida, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar institutida, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutida va klinik ordinaturada kunduzgi o'qish, shu jumladan, chet elda o'qish;

– bola 3 yoshga to'lguncha bolani parvarishlash ta'tillarida bo'lish vaqti, lekin hammasini jamlaganda ko'pi bilan 3 yil;

– ofitserlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarning xotinlari, ularni ishga joylashtirish imkoniyati bo‘lmagan joylarda erlari bilan yashagan vaqt, lekin 10 yildan oshmagan davr;

– O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning xotini (eri) chet elda bo‘lgan, lekin 10 yildan oshmagan davr.

Quyidagi mehnat faoliyati turlari mehnat stajiga imtiyozli tarzda qo‘shib hisoblanadi:

– harakatdagi armiya tarkibiga kiruvchi harbiy qismlar, shtablar va muassasalardagi, jangovar harakatlar davrida partizan otryadlari va qo‘shilmalaridagi xizmat va erkin yollanganlar tarkibidagi ish, baynalmilal burchni bajarishda jangovar harakatlarda ishtirok etish – uch hissa barobarida;

– 1941–1945-yillardagi urush davrida mamlakat ichkarisida ishlash, shu jumladan, harbiy qismlardagi erkin yollanganlar tarkibidagi ish ikki hissa barobarida;

– kon sanoatidagi yetakchi kasb egalari bo‘lgan xodimlar, bevosita yerosti va ochiq kon ishlarida ko‘mir, ma’danlar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda, shaxtalar va konlar qurilishida to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan hamda yerosti ishlarida, mehnat sharoiti o‘ta zararli va o‘ta og‘ir ishlarda to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlar – erkaklar 10 yildan ortiq va ayollarda 7 yilu 6 oydan ortiq ishlangan har bir to‘liq yil ikki hissa barobarida;

– moxovxonalarda, vaboga qarshi muassasalarda, immunodefitsit virusi bilan kasallangan shaxslar davolanadigan yuqumli kasalliklar muassasalarida ishlash ikki hissa barobarida;

– patologoanatomiya muassasalari va sud-tibbiy ekspertiza muassasalarining tibbiy xodimlaridan ayrim toifalarining ishi bir yarim hissa barobarida;

– asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortilgan va keyinchalik oqlangan fuqarolarning qamoqda bo‘lish va hibsda saqlash joylarida turgan vaqti – bir yarim hissa barobarida mehnat stajiga qo‘shiladi.

Talab qilinadigan ish stajidan ortiq staj mavjud bo'lgan taqdirda umumiy ish staji yaxlitlanadi va ish stajining umumiy 15 kalendar kundan ortiq davri to'liq oygacha yaxlitlanadi, 15 kalendar kungacha bo'lgan davr esa (15-kalendar kunning o'zi ham) hisobga olinmaydi.

Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogironlik pensiyasi, ish stajidan qat'i nazar, tayinlanadi. Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogironlik pensiyasidan umumiy kasallik oqibatida nogironlik pensiyasiga o'tkazishda zarur staj nogironlikning dastlabki belgilanishi vaqtiga nisbatan yosh bo'yicha belgilanadi.

Umumiy kasallik oqibatida nogironlik pensiyasi nogironlik boshlangan vaqtda nisbatan quyidagi ish staji mavjud bo'lganda tayinlanadi:

*6.2-jadval*

**Nogironligi bo'lgan shaxslarga pensiyasi tayinlanishi**

| № | Yosh | Ish staji (yillarda) |
|---|---|---|
| 1. | 20 yoshdan 23 yoshga yetgunga qadar | 2 |
| 2. | 23 yoshdan 26 yoshga yetgunga qadar | 3 |
| 3. | 26 yoshdan 31 yoshga yetgunga qadar | 5 |
| 4. | 31 yoshdan 36 yoshga yetgunga qadar | 7 |
| 5. | 36 yoshdan 41 yoshga yetgunga qadar | 9 |
| 6. | 41 yoshdan 46 yoshga yetgunga qadar | 11 |
| 7. | 46 yoshdan 51 yoshga yetgunga qadar | 14 |
| 8. | 51 yoshdan 56 yoshga yetgunga qadar | 17 |
| 9. | 56 yosh va undan katta yosh | 20 |



Ish davrida yoki ish to'xtatilgandan keyin 20 yoshga to'lgungacha umumiy kasallik oqibatida nogiron bo'lib qolgan shaxsga pensiya, ish staji davridan qat'i nazar, tayinlanadi.

Mehnat daftarchasi ish stajini tasdiqlaydigan asosiy hujjat hisoblanadi. Band shaxsning ish staji O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida Pensiya jamg'armasi

bo‘limining sug‘urta badallari to‘langanligini tasdiqlaydigan ma’lumotnomasi bo‘yicha belgilanadi.



Mehnat daftarchasi mavjud bo‘lmaganda, shuningdek, mehnat daftarchasida zarur yozuvlar bo‘lmagan yoki mehnat faoliyati davrlari to‘g‘risida noto‘g‘ri va noaniq yozuvlar mavjud bo‘lgan hollarda ish stajini tasdiqlash uchun (band shaxsning ish stajidan tashqari) ma’lumotnomalar, buyruqlardan ko‘chirmalar, shaxsiy hisobvaraqlari va ish haqi berish uchun vedomostlar, mehnat shartnomalari (kontraktlar), arxiv ma’lumotnomalari va mehnat faoliyati davrlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlar qabul qilinadi.

Bolani parvarishlash ta’tilida bo‘lish vaqti bolani parvarishlash ta’tili berilishi va undan qaytish to‘g‘risidagi buyruqlarning nusxalari ilova qilingan holda tashkilot tomonidan berilgan, bolaga qaralgan vaqtni tasdiqlaydigan ma’lumotnomalar asosida belgilanadi.

Bolani parvarishlash ta’tilida bo‘lish vaqti bolani parvarishlash ta’tili berilishi va undan qaytish to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar yoki buyruqlar mavjud bo‘lmaganda, shuningdek, buyruqlarda zarur yozuvlar bo‘lmaganda yoki bolani parvarishlash ta’tilida bo‘lganlik davrlari to‘g‘risida noto‘g‘ri va noaniq yozuvlar bo‘lganda, ushbu davr uchun oylik ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma bolani parvarishlash ta’tilida bo‘lganlik davrining tasdig‘i sifatida qabul qilinadi.

Arxiv tomonidan tasdiqlangan yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlar mavjud bo‘lmaganda bolani parvarishlash ta’tilida bo‘lish davri quyidagi davrlarni tashkil etadi: 1 yil – 1971-yil 1-yanvardan 1983-yil 1-noyabrgacha tug‘ilgan bola uchun; 1,5 yil – 1983-yil 1-noyabrdan 1990-yil 1-iyulgacha tug‘ilgan bola uchun; 3 yil – 1990-yil 1-iyuldan keyin tug‘ilgan bola uchun. Ko‘rsatib o‘tilgan hollarda bolani parvarishlash ta’tili boshlangan sana sifatida homiladorlik va tug‘ish ta’tili tugagan sana qabul qilinadi.

Ish haqining yakka tartibdagi koeffitsiyentini qo‘llagan holda pensiyalarni hisoblab chiqish uchun ish haqini qayta hisoblab chiqish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.



Mavsumiy ishlarda band bo'lgan xodimlarga pensiya tayinlashda pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqi oxirgi o'n yildan istalgan ketma-ket besh mavsum uchun qayta hisoblab chiqilgan ish haqini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Pensiya tayinlash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqi eng kam oylik ish haqi miqdoridan kam bo'lgan yoki ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq mavjud bo'lmagan hollarda pensiya miqdori qonun hujjatlarida pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilingan kunda belgilangan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqib, mintaqaviy koeffitsiyent hisobga olinmasdan hisoblab chiqiladi.

Pensiya miqdori ish staji davriga bog'liq bo'ladi va:

- pensiyaning bazaviy miqdoridan;
- ish staji uchun pensiya oshirilishidan;
- pensiyaga ustama haqlardan shakllanadi.

Pensiyani hisoblash uchun pensiyalarning quyidagi bazaviy miqdorlari belgilanadi:

- yoshga doir pensiyalar uchun pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, biroq yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan kam emas;

- I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, biroq yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan kam emas;

- boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun oilaning har bir mehnatga layoqatsiz a'zosiga pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi miqdorida, biroq yoshga doir eng kam pensiyaning 50 foizidan kam emas;

- har ikkala ota-onasini yo'qotgan bolalarga (chin yetimlarga) boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga har bir bola uchun pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, biroq yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan kam emas.

Pensiya tayinlash uchun talab qilinadigandan ortiq ish stajining har bir to'liq yili uchun pensiyalarning bazaviy miqdorlari:

– yoshga doir pensiyalar pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foiziga;

– I va II guruhlar nogironlariga nogironlik pensiyalari pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foiziga;

– boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari oilaning har bir mehnatga layoqatsiz a'zosiga boquvchi o'rtacha oylik ish haqining 0,5 foiziga oshiriladi.

Ham otasini, ham onasini yo'qotgan bolalarga (chin yetimlarga) tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiyalarini oshirish eng kam oylik ish haqining sakkiz baravari *miqdori* doirasida ota-onaning ish haqi umumiy miqdoridan amalga oshiriladi. Bunda ota-onasini yo'qotgan bolalarga (chin yetimlarga) tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik *pensiyasi miqdori* ota-onaning umumiy ish staji miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi, ya'ni pensiya tayinlash va talab etiladigandan ortiq staj uchun pensiyani oshirish ota-onaning umumiy ish staji miqdori bo'yicha amalga oshiriladi. Agar ota-onadan birining ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi miqdori ota-onaning umumiy ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi miqdoridan ko'p bo'lsa, u holda, chin yetim maqomini saqlab qolgan holda, murojaat etganning xohishi bo'yicha ota-onadan birining ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan pensiyaning eng ko'p miqdori tayinlanadi.

2014-yilning 4-dekabrida O'zbekiston Respublikasining "Soliq va budjet siyosatining 2015-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-379-sonli Qonuni qabul qilindi. Mazkur hujjatning pensiya sohasiga oid o'zgartirishlar aks etgan 1-moddasi 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab kuchga kirdi. Ushbu Qonunning *1-moddasi* bilan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar mohiyati quyidagilardan iborat:

*1. Pensiyalarning tayanch miqdoriga doir:* "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasiga kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq endilikda pensiyalarning tayanch miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan belgilanadigan yoshga doir eng kam pensiya miqdoriga nisbatan belgilandi hamda amaliyotga moslashtiriladi.

*2. Ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalarni hisoblab chiqarish uchun pensiyalarning eng kam miqdoriga doir:* bundan buyon ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalarni hisoblab chiqarish uchun pensiyalarning eng kam miqdori oldingidek eng kam ish haqiga nisbatan emas, balki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoni bilan belgilanadigan yoshga doir eng kam pensiya miqdoriga mutanosib ravishda hisoblanadi. Xuddi shu mazmundagi o'zgartish "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunining 29-moddasiga kiritildi. Shunday qilib, 2016-yil 1-oktabrdan boshlab, ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalar yoshga doir eng kam pensiya miqdoridan kelib chiqqan holda quyidagicha belgilangan:

*6.3-jadval*

**Ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalarni hisoblab chiqarish uchun pensiyalarning eng kam miqdori hisob-kitobi**[83]

| Ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalar turlari | 2015-yil 1-yanvardan boshlab | | 2016-yil 1-oktabrdan boshlab | |
|---|---|---|---|---|
| | % | Yoshga doir eng kam pensiya miqdoridan, so'mda | % | Yoshga doir eng kam pensiya miqdoridan, so'mda |
| Yoshga doir pensiyalar | 50 | 115 787,5 | 50 | 146470 |
| I guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari | 100 | 231 575 | 100 | 292940 |

[83] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016-yil 13-sentabrdagi 69-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-avgustdagi PF-4822-sonli "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoni bo'yicha pensiyalarni qayta hisoblash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Buyrug'i.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari | 50 | 115 787,5 | 50 | 146470 |
| Oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi | 50 | 115 787,5 | 50 | 146470 |
| Ham otasi, ham onasidan judo bo'lgan (chin yetim) har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi | 100 | 231 575 | 100 | 292940 |

"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning 36-moddasida ish stajiga qo'shib hisoblanadigan mehnat faoliyati turlariga qo'shimcha kiritildi[84]. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning xotini (eri) chet elda bo'lgan, lekin 10 yildan oshmagan davr ham endilikda ish stajiga qo'shib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014-yil 10-fevralda ro'yxatdan o'tkazilgan "Ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qaror (2222–2-son)ga ko'ra, 2014-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha ishlaydigan va qonun hujjatlari bilan belgilangan yoshga doir pensiyalarning minimal miqdoridan past daromad (gonorar, mukofot va boshq.) oladigan pensionerlarga pensiya to'liq miqdorda to'lanishi haqidagi yangi qoida kiritildi. Ishlovchi pensionerlarga ularga tayinlangan pensiyaning 50 foiz miqdorida pensiyalar faqat pensioner fuqarolik huquqiy (mehnat shartnomasi) tusdagi shartnoma bo'yicha ishlagan kunlari uchun to'lanadi. Pensioner fuqarolik huquqiy tusdagi shartnoma tuzmagan qolgan

[84] O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-dekabrdagi O'RQ-379-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan. O'zbekiston Respublikasi qonuniy hujjatlar to'plami, 2014-y., 49-son, 579-modda.

agan kunlarida pensiyalar qonun hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda q miqdorda to‘lanadi. Nizomda to‘lanayotgan pensiya miqdorini blash bilan bog‘liq bir qator misollar ham keltirilgan.

**misol**

2016-yil 15-yanvarda yoshga doir pensiya oluvchi ishlamaydigan pensioner mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilindi. Pensionerning har oylik pensiya miqdori 380 800 so‘mni tashkil qiladi. 2016-yil 1-yanvardan 14-yanvargacha bo‘lgan davr uchun pensiya 100 foiz miqdorida (380 800 : 31 x 14 = 171 974,19 so‘m), 15-yanvardan 31-yanvargacha bo‘lgan davr uchun 50 foiz miqdorida (380 800 : 31 x 17 x 50% = 104 412,90 so‘m) to‘lanadi. 2016-yil yanvar oyi uchun pensiya to‘lovi miqdori 279 387,09 so‘mni (171 974,19 so‘m+ 104 412,90 so‘m) tashkil qiladi.

**misol**

2016-yil 2-oktabrda yoshga doir pensiya oluvchi ishlamaydigan pensioner bir martalik fuqarolik-huquqiy shartnomasini 250,0 ming so‘m miqdorida tuzdi va u bo‘yicha majburiyatlar pensioner tomonidan yanvar oyi davomida bajarildi. Pensionerning har oylik pensiya miqdori 420600 so‘mni tashkil qiladi. Yanvar oyi uchun yoshga doir pensiyaning eng kam miqdori 292940 so‘m miqdorini tashkil etadi. Yanvar oyi uchun pensiya 420600 so‘m miqdorida to‘lanishi lozim.

**misol**

2016-yil 2-oktabrda yoshga doir pensiya oluvchi ishlamaydigan pensioner bir martalik fuqarolik-huquqiy shartnomasini 900,0 ming so‘m miqdorida tuzdi va u bo‘yicha majburiyatlar pensioner tomonidan 3 oy davomida bajarildi. Pensionerning o‘rtacha oylik daromadi 300 ming so‘mni tashkil etadi. Pensionerning har oylik pensiya miqdori 420600 so‘mni tashkil qiladi. oktabr, dekabr va yanvar oylari uchun yoshga doir pensiyaning eng kam miqdori 292940 so‘m miqdorini tashkil etadi. Yanvar, fevral va mart oylari uchun pensiya har oyda 210300 so‘m miqdorida to‘lanishi lozim.

**misol**

2016-yil 15-oktabrda yoshga doir pensiya oluvchi ishlamaydigan pensioner ommaviy axborot vositalarida maqola chop etish uchun bir martalik fuqarolik-huquqiy shartnomasini 150,0 ming so‘m miqdorida tuzdi va u bo‘yicha majburiyatlar pensioner tomonidan shu kunning o‘zida bajarildi. 2016-yil oktabr oyi uchun pensiya to‘liq miqdorda to‘lanishi lozim.

**6.2-rasm. Ishlovchi pensionerlarga pensiya to‘lanishiga oid misollar[85]**

Ma’lumki, pensionerga hisoblab chiqarib qo‘yilgan, lekin uning to-idan o‘z vaqtida talab qilib olinmagan pensiya puli pensiyani ol-naqsadida murojaat etilganidan oldingi uch yildan oshmagan davr

[5] O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014-yil 10-fevralda at ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Ishlovchi pensionerlarga pensiya to‘lash oi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va q‘shimchalar kiritish haqida”gi -2-sonli Qaror.

uchun to'lanar edi. 2015-yil 1-yanvardan boshlab bu davr 3 yildan 12 oyga qisqartirildi.

Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida I va II guruhlar nogironlariga nogironlik pensiyasining bazaviy miqdori nogironlik bo'yicha pensiya tayinlangan kunda qonunchilikda belgilangan mehnat staji mavjud bo'lganda oshiriladi.

*Pensiyani tayinlash tartibi.* Pensiya tayinlash masalalarini ko'rib chiqish uchun Pensiya jamg'armasi bo'limida pensiya tayinlash bo'yicha komissiya tuziladi. Komissiya faoliyatini tashkil etish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.




Komissiya boshqa zarur hujjatlar bilan birgalikda pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza tushgandan keyin o'n kun muddatda tegishli qaror qabul qiladi (pensiya tayinlash to'g'risida, pensiya tayinlashni rad etish haqida, taqdim etilgan hujjatlarning asoslanganligini tekshirish to'g'risida va shu kabilar).

Agar ariza beruvchi pensiya olish huquqiga ega bo'lgani holda pensiya tayinlash uchun murojaat qilishda nazarda tutilgan zarur hujjatlarni taqdim etmasa yoki taqdim etilgan hujjatlar ularning asoslanganligi va ishonchliligi yuzasidan qo'shimcha tekshirishni talab qilsa, komissiya tomonidan ariza beruvchining yozma roziligiga ko'ra shubha tug'dirmaydigan mavjud hujjatlar bo'yicha pensiya tayinlanishi mumkin. Agar ariza beruvchi shubha tug'dirmaydigan mavjud hujjatlar bo'yicha pensiya tayinlashga rozi bo'lmasa, komissiya ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish tamom bo'lgandan keyin pensiya tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Pensiya ishi komissiya tomonidan pensiya tayinlash to'g'risida qaror qabul qilingan kun mobaynida rasmiylashtirilishi kerak. Pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish tartibi, shuningdek, pensiya hujjatlari shakllari va ularni to'ldirish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Pensiya tayinlash rad etilgan taqdirda Pensiya jamg'armasi bo'limi tegishli qaror chiqarilgandan keyin besh kundan kechikmay tashkilot yoki ariza beruvchiga rad etish sabablarini, qabul qilingan qaror yu-

zasidan shikoyat qilish tartibi ko'rsatilgan bildirishnomani berishi yoki yuborishi hamda barcha taqdim etilgan hujjatlarning asl nusxalarini hujjatlar olinganligi to'g'risidagi tilxat bilan pensionerning (ota-onaning, qonuniy vakilning) qo'liga qaytarishi shart. Komissiyaning qarori yuzasidan ariza beruvchi tomonidan Pensiya jamg'armasi bo'limining bevosita yuqori organiga yoki sudga shikoyat qilishi mumkin.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolarining barchasiga bitta umumiy pensiya tayinlanadi. Oila a'zosining talabiga ko'ra uning pensiyadagi ulushi ajratiladi va unga alohida to'lanadi.

Boshqa tumanda (shaharda) yashaydigan oila a'zosi o'ziga pensiya ulushini tayinlash yoki ajratish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilganda murojaat qilganning yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limi rasmiylashtiradigan yoki ushbu oilaning amaldagi pensiya hujjatlar yig'majildi turgan Pensiya jamg'armasi bo'limiga tegishli xabarnomani yuboradi. Xabarnomaga ariza va yangidan murojaat qilgan oila a'zosining pensiya olish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilinadi. Ushbu holatda pensiya boquvchisini yo'qotganlik pensiyasidan ulush ajratib berish to'g'risida murojaat qilingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab tayinlanadi. Agar vafot etganning bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nevaralari parvarishi bilan ular ikki yoshga to'lgungacha band bo'lgan oila a'zolaridan biri pensiya turlaridan bittasini oluvchi bo'lsa, u holda uning xohishi bo'yicha Qonunning 4-moddasiga muvofiq faqat pensiyaning bitta turi tayinlanadi. Agar oilaning alohida yashaydigan a'zosining pensiyaga bo'lgan huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar oilaning boshqa a'zolariga pensiya tayinlash to'g'risida qaror chiqarilganidan keyin tushsa, u holda alohida yashaydigan oila a'zosiga pensiya ulushi ajratilgan holda oilaning barcha a'zolariga pensiya tayinlash to'g'risida yangidan qaror qabul qilinadi.

Oilaning ko'rsatib o'tilgan a'zosining tushgan hujjatlari amaldagi pensiya ishiga qo'shib qo'yiladi, pensiya ulushini ajratish to'g'risidagi qaror nusxasi esa uning yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limiga yuboriladi. Pensiya jamg'armasi bo'limi pensiya ulushini ajratish uchun asos bo'lgan barcha zarur hujjatlarning nusxalari bi-

lan birga pensiya ulushini oluvchiga mustaqil pensiyaga oid hujjatlar yig'majildini rasmiylashtirishi kerak.

Ulushli pensiyani to'laydigan Pensiya jamg'armasi bo'limi pensiya ulushini ajratgan Pensiya jamg'armasi bo'limiga pensiya miqdorini qayta ko'rib chiqish yoki uni to'lashni to'xtatish zarurligiga olib kelgan boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha ulushli pensiya oluvchi oilaning tarkibida yuz bergan barcha o'zgarishlar to'g'risida xabar qilishi shart.

Pensiya ulushini to'lash to'xtatilgan taqdirda hujjatlar pensiya to'lash davom etayotgan Pensiya jamg'armasi bo'limiga yuboriladi. Shaxslarning ayrim toifalari Qonunga muvofiq imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya olish huquqiga ega. Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-maydagi 250-sonli Qarori bilan tasdiqlangan 1, 2 va 3-ro'yxatlarda nazarda tutilgan ishlarni bajarish bilan band bo'lgan xodimlar ega bo'ladilar. Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ish hajmining qisqarishi yoxud korxona tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarga yoshga doir muddatidan oldin beriladigan pensiya "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning 47-moddasida nazarda tutilgan muddatlarga muvofiq tayinlanadi.

To'liq bo'lmagan ish staji sharoitida pensiya:

– yoshga doir pensiya Pensiya jamg'armasiga 7 yil mobaynida sug'urta badallari to'langan taqdirda yoxud unga tenglashtirilgan mehnat faoliyatida band bo'lsa, bor stajga mutanosib ravishda pensiya tayinlanadi;

– nogironlik pensiyasi pensiya tayinlash uchun yetarli ish stajiga ega bo'lmagan umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruhlar nogironlariga (shu jumladan, bolalikdan nogironlarga);

– boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi umumiy kasallik oqibatida vafot etgan va nogironlik pensiyasini tayinlash uchun yetarli ish stajiga ega bo'lmagan boquvchisini yo'qotgan oila a'zolariga tayinlanadi.



Staj to'liq bo'lmagandagi pensiya miqdori Qonunda belgilangan miqdorlardan past bo'li-

shi mumkin emas. Staj to'liq bo'lmagan holda pensiya olgan vafot etgan pensionerning oila a'zolariga pensiya vafot etgan boquvchiga pensiya undan kelib chiqib tayinlangan ish stajiga mutanosib ravishda tayinlanadi.

To'liq bo'lmagan ish staji holatida pensiya quyidagi tarzda mavjud stajga mutanosib ravishda hisoblab chiqiladi: dastlab tegishli to'liq pensiya aniqlanadi; ushbu pensiya talab etiladigan ish staji oylari soniga bo'linadi, olingan summa amaldagi ish staji oylari soniga ko'paytiriladi.



*Pensiyalarni to'lash tartibi.* Ishlamaydigan pensionerlarga pensiya yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limlari tomonidan AT "Xalq banki" va uning bo'limlari orqali yoki pensionerning xohishiga ko'ra pul mablag'larini fuqarolarning depozit hisob raqamlariga naqd pulsiz o'tkazish yo'li bilan to'lanadi. Tijorat bankining filiali orqali pensiya oladigan pensioner har 6 oyda pensiya to'laydigan Pensiya jamg'armasi bo'limiga kelish yo'li bilan o'zining pensiya summasini olish huquqini tasdiqlashi zarur.

Pensioner belgilangan muddatda Pensiya jamg'armasi bo'limiga kelmagan taqdirda Pensiya jamg'armasi bo'limi xodimlari o'n kun mobaynida: uning tirik ekanligi; ishga joylashganligi; yashash joyi o'zgarganligi yoki chet elga ketganligi; jazoni o'tash joylarida ekanligi; keksalar va nogironlarning internat uylarida (pansionatlarida) yashayotganligi holatlarini aniqlash uchun pensioner yashaydigan joyga boradilar. Olinadigan pensiyaga pensionerning huquqi tasdiqlangan taqdirda pensiyani to'lash navbatdagi 6 oyga davom ettiriladi.

Pensionerning huquqlari tasdiqlanmagan taqdirda pensiyani to'lash fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish tegishli organi vakillari va qo'shnilar ishtirokida Pensiya jamg'armasi bo'limi xodimlari tomonidan tuzilgan to'lanayotgan pensiyani to'lashga va uning miqdori asoslanganligiga ta'sir ko'rsatuvchi holatni tasdiqlaydigan dalolatnoma asosida to'xtatib turiladi. Ko'rsatib o'tilgan dalolatnoma asosida Pensiya jamg'armasi bo'limi pensiyani to'lashni to'xtatib turish (to'xtatish) yoki uning miqdorini o'zgartirish to'g'risida tegishli qaror

qabul qiladi. Ishlab turgan pensionerga pensiya to'lash, ish vaqtining qancha davom etishidan, tashkilotning tashkiliy-huquqiy shaklidan, shuningdek, shartnoma (bitim)ning xususiyatidan (turidan) qat'i nazar, qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda ish joyi bo'yicha to'lanadi.

Qariyalar va nogironlarning internat uylarida (pansionatlarida) yashovchi yolg'iz pensionerlarga pensiya bilan ular ta'minoti uchun sarf-xarajat o'rtasidagi farq, biroq tayinlangan pensiyaning kamida 10 foizi va urush nogironlariga esa kamida 20 foizi miqdorida to'lanadi. Ruhiy bemorlar internat uylarida yashovchi pensionerlarga pensiya to'lanmaydi.

Pensioner tomonidan o'z vaqtida talab qilib olinmagan pensiyaning hisoblangan summasi o'tgan vaqt uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga muvofiq pensiyalar miqdorlari oshirilishi hisobga olingan holda bir yo'la to'lanadi, biroq pensiya olish uchun murojaat qilishdan oldingi o'n ikki oydan ortiq vaqt uchun emas.

Pensiya jamg'armasi bo'limining aybi bilan o'z vaqtida olinmagan pensiya summasi o'tgan vaqt uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga muvofiq pensiyalar miqdorlari oshirilishi hisobga olingan holda, muddat cheklanmasdan bir yo'la to'lanadi.

Pensioner O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash uchun boshqa tuman (shahar)ga ko'chgan taqdirda pensiya hujjatlar yig'ma jildi pochtaning tarkibiy bo'linmalari orqali pensionerning yangi yashash joyi bo'yicha joylashgan Pensiya jamg'armasi bo'limiga yuboriladi yoki pensionerning qo'liga beriladi. Ushbu holatda pensiyani to'lash pensiya hujjatlar yig'ma jildi olingandan keyin pensiya oluvchining yangi yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan davom ettiriladi. Bunda pensiyani to'lash oldingi yashash joyi bo'yicha pensiyani to'lash to'xtatilgan vaqtdan boshlab, lekin, uning tomonidan hisobga qo'yish maqsadida murojaat etilgandan oldingi 12 oydan oshmagan davr uchun davom ettiriladi.

Tayinlangan pensiyani to'lash: pensioner vafot etganda; tayinlangan pensiyaga huquqlar yo'qolganda; doimiy yashash uchun O'zbekis-ton Respublikasi tashqarisiga chiqib ketilganda to'xtatiladi. Tayinlangan pensiyani to'lash: pensiya to'lash muddati tamom bo'lganda; ketma-ket 3 oydan ortiq vaqt mobaynida pochta aloqasi

tashkiloti yoki AT Xalq banki orqali pensiya olinmaganda; pensioner ozodlikdan mahrum etilganda; pensioner ruhiy bemorlar internat uylarida yashaganda; pensiyani to'lashni to'xtatib turish to'g'risida pensioner tomonidan ariza berilganda to'xtatib turiladi. Tayinlangan pensiyani to'lash qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ham to'xtatib turilishi mumkin. Pensiyani to'lash pensioner yoki uning vasiysi Pensiya jamg'armasi bo'limiga kelgandan so'ng va u ariza taqdim etgandan, shuningdek, shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatgandan so'ng tiklanadi. Pensionerning sud hukmi bo'yicha qamoq joylarida bo'lgan vaqti uchun pensiya to'lanmaydi. Pensioner ozod bo'lgandan keyin pensiyani to'lash Pensiya jamg'armasi bo'limiga ariza berilgan kundan boshlab tiklanadi.



Uzrli sababga ko'ra qayta tibbiy ko'rikdan o'tish muddati o'tkazib yuborilgan taqdirda pensiyani to'lash to'lov to'xtatib turilgan kundan boshlab qayta tekshirish kunigacha, biroq, agar TMEK uni bu davrda nogiron deb e'tirof etsa, 3 yildan ortiq bo'lmagan muddatga amalga oshiriladi. Bunda, agar qayta tekshirish chog'ida nogiron nogironlikning boshqa guruhiga (yuqoriroq yoki pastroq guruhga) o'tkazilgan bo'lsa, u holda, ko'rsatib o'tilgan vaqt uchun pensiya oldingi guruh bo'yicha to'lanadi. Agar umumiy kasallik oqibatida mehnat layoqatini yo'qotgan nogironga pensiya to'lash mehnat layoqati tiklanganligi tufayli to'xtatilgan bo'lsa yoki uzrli sabablarsiz qayta tibbiy ko'rikdan o'tishga kelmaganligi oqibatida to'xtatib turilgan bo'lsa, u holda, keyinchalik u nogiron deb e'tirof etilgan taqdirda ilgari tayinlangan pensiyani to'lash, agar pensiya to'lash to'xtatilgandan keyin besh yildan ko'p bo'lmagan vaqt o'tgan bo'lsa, nogironlik yangidan belgilangan kundan boshlab tiklanadi. Agar besh yildan ko'p vaqt o'tgan bo'lsa, pensiya yana umumiy asoslarda tiklanadi.

Pensioner vafot etgan oy uchun olingan pensiya summasi oilaning ko'rsatib o'tilgan a'zolariga uning vafotigacha ushbu oyning kunlari uchun to'lanadi. Oilaning bir necha a'zolari murojaat qilgan taqdirda ularga berilishi kerak bo'lgan pensiya summasi ular o'rtasida teng

taqsimlanadi. Ko‘rsatib o‘tilgan summa, uning uchun pensioner vafot etgandan so‘ng 6 oydan kechikmay murojaat qilingan taqdirda to‘lanadi. Agar ishlab turgan pensioner ishdan bo‘shashi munosabati bilan o‘z ish joyi bo‘yicha pensiya summasini olishga ulgurmasa, olinmagan pensiya summasi qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tomonidan to‘lanadi.

Doimiy yashash uchun O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga ketishgacha tayinlangan pensiya (O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta’minoti to‘g‘risida xalqaro shartnomalar tuzgan davlatlar bundan mustasno) Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga ketish to‘g‘risida ariza berilgan kundagi pensiya miqdori hisob-kitobidan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga jo‘nab ketishdan 6 oy avval O‘zbekiston Respublikasi milliy valutasida to‘lanadi. Pensiya to‘lanadigan 6 oylik davr O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga doimiy yashash uchun ketishdan avvalgi olti oy uchun pensiya to‘lash uchun arizada ko‘rsatilgan sanadan boshlab hisoblab chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta’minoti to‘g‘risida xalqaro shartnomalar tuzgan O‘zbekiston Respublikasi tashqarisidagi davlatga doimiy yashash uchun ketilgan kungacha tayinlangan pensiya turar-joyidan ro‘yxatdan chiqqan oyning oxirigacha to‘lanadi. O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga doimiy yashash uchun ketayotgan fuqarolarga pensiyani to‘lash uning arizasi va “Doimiy yashash joyidan ro‘yxatdan chiqarildi” degan belgi bo‘lgan shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida to‘xtatilishi mumkin.

## 6.4. Pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta’minlash



Pensiya ta’minoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida Prezidentimizning 2009-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakl-

lantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1252-sonli Qarori va unga ilova qilingan Nizomga muvofiq, Pensiya jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari belgilangan.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, pensiya tizimining samarali amal qilishi uchun pensionerlar va ishlayotgan fuqarolar o‘rtasida ma’lum darajada muvozanat bo‘lishi lozim. Biroq demografik prognozlar respublikada aholining keksayish jarayoni nisbatan tezlashishini va bu muvozanat o‘zgarishini, ya’ni keksalarning iqtisodiy faol aholiga to‘g‘ri keladigan demografik yuki ortib borishini ko‘rsatmoqda. Bu holat iqtisodiy faol aholidan foydalanishning samaradorlik ko‘rsatkichlari bozor nuqtayi nazaridan kamayishini, ya’ni ishlayotganlarning badallari pensiyalarni to‘lash uchun ham yetmasligini ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, hozirdan Pensiya jamg‘armasining moliyaviy holatini yaxshilashni talab etadi.

Respublikada Pensiya jamg‘armasi moliyaviy holatini yaxshilash yo‘llaridan biri imtiyozli pensiya tayinlanishini kamaytirishdir. Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda respublikamizda yoshga doir pensiya oluvchilar o‘rtasida imtiyozli asosda pensiyaga chiquvchilarning hissasi ortib bormoqda. Statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2012-yilda jami yoshga doir pensiya oluvchilar soni 2005-yilga nisbatan 4,4 foizga ko‘paygani holda, imtiyozli asosda pensiya oluvchilar soni 29,5 foizga ko‘paygan. Fikrimizcha, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi sharoitida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishida kuzatilayotgan quyidagi xususiyatlar imtiyozli asosda tayinlanadigan pensiyadan butunlay voz kechishga imkon beradi. Jumladan, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarning kiritilishiga katta e’tibor qaratilayotganligi sababli, iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlaridagi mehnat sharoiti avvalgidek zararli va og‘ir hisoblanmaydi. Agar 2005-yilda sanoat, transport va qishloq xo‘jaligi korxonalarida mehnat qilayotgan har 10000 kishining kasb kasalligi bilan xastalanish ko‘rsatkichi 0,5 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2012-yilda bu ko‘rsatkich 0,45 foizni tashkil etdi.

Yuqorida ko‘rsatilgan xususiyatlar respublikada imtiyozli pensiyadan butunlay voz kechishga imkon beradi. Bu esa, pensiyaga chiqish o‘rtacha yoshini erkaklar uchun 1,5 yilga, ayollar uchun 2 yilga ko‘tarish imkonini beradi.



Qator mamlakatlar pensiya tizimini moliyaviy barqarorlashtirish muammosini pensiyaga chiqish yoshini ko'tarish yo'li bilan hal qilmoqda. Masalan, MDH tarkibiga kiruvchi aksariyat mamlakatlar pensiyaga chiqish yoshini qonun yo'li bilan ko'tardi. Jumladan, Ozarbayjon, Moldova va Turkmanistonda pensiyaga chiqish yoshi erkaklar uchun – 62 yoshga, ayollar uchun – 57 yoshga, Armanistonda erkaklar uchun – 63 yoshga, ayollar uchun – 60 yoshga, Qozog'istonda erkaklar uchun – 63 yoshga, ayollar uchun – 58 yoshga ko'tarilgan. Shu nuqtayi nazardan



O'zbekistonda Pensiya jamg'armasi moliyaviy holatini yaxshilash yo'llaridan yana biri erkaklar va ayollar uchun pensiyaga chiqish yoshini tenglashtirishdir.

Yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitda O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibida bevosita ayollarga xos ijtimoiy-demografik xususiyatlar sodir bo'lmoqda. Jumladan:



– ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ayollar salmog'i ortib bormoqda. Agar, 1995-yilda iqtisodiy faol ayollar salmog'i 3608,0 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2012-yilga kelib bu ko'rsatkich 5554,1 ming kishiga yetgan yoki bugungi kunda ish bilan band aholining 45,4 foizini ayollar tashkil qilmoqda;

– ayollarda erkaklarga nisbatan tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining yuqoriligi saqlanmoqda. 1990-yilda respublikada ayollarning o'rtacha umr davomiyligi 72,4 yoshdan 2012-yilda 75,1 yoshga, erkaklarda esa 66,1 yoshdan 69,6 yoshgacha oshgan. Ko'rinib turibdiki, ayollarning o'rtacha hayot davomiyligi erkaklarga nisbatan 3–5 yilga ortiqni tashkil etadi.

Ko‘rib o‘tilgan ijtimoiy-demografik xususiyatlari erkaklar va ayollar uchun pensiyaga chiqish yoshini tenglashtirish imkonini yaratdi.



Bugun Ona sayyoramizda har soniyada ikki kishi o‘zining oltmish yoshga to‘lganini nishonlamoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, asrimiz o‘rtalariga borib Yerda 100 yoshdan oshganlar soni 3,2 million kishiga yetar ekan. Vaholanki, ular 2014-yilda 300 ming kishidan oshmayotgan edi. Agar 1950-yillarda insonning o‘rtacha umr ko‘rishi 47 yil atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2010-yilda bu raqam 69 yoshga yetdi. 2050-yilda bu ko‘rsatkich 76 yoshni, 2100-yilda 85 yoshni tashkil etishi kutilmoqda.

Dunyoda sog‘liqni saqlash sifati yaxshilangani, tibbiyotning jadal taraqqiy etayotgani, sanitar nazoratning takomillashayotgani, ta’limdan foydalanishning kengayayotgani, iqtisodiy farovonlik bois keksalar ulushi borgan sari ko‘paymoqda.



Uzoq umr ko‘rish – insoniyat taraqqiyotining eng katta muvaffaqiyatlaridan biridir. Shuni ham ta’kidlash joizki, bugun Yevropadagi ishchi o‘rinlarining 60 foizini 30 dan 50 yoshgacha bo‘lganlar, 40 foizini esa 50 yoshdan oshganlar tashkil qilayotganining o‘ziyoq muammoning nechog‘li dolzarbligini ko‘rsatib turibdi. Hayot darajasi yaxshilangani bois odamlarning umri ham uzayib boryapti. Jumladan, 2050-yilga borib AQSH, G‘arbiy Yevropa va Yaponiyada keksalar miqdori yoshlar ulushiga qaraganda ko‘p bo‘ladi. Bugun keksalar soni bo‘yicha Yaponiya jahonda birinchi o‘ringa chiqib oldi. Bu yerda 65 yoshdan oshganlar aholining 25 foizini tashkil qilyapti. Tug‘ilishning kamligi sababli Janubiy Koreya ham unga yetishib kelyapti[86]. AQSH esa o‘z YalMining (19,0 trillion AQSH dollar) 10 foizini qari-keksal-

[86] Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 35-50.

ar tibbiy sug'urtasini ta'minlash federal dasturlariga yo'naltirayapti. Yevropa davlatlarida pensiya tizimi ular YalMning 13 foizini "yeb qo'ymoq-da". Bu mamlakatlarda har bir pensionerga 4 nafar mehnatga yaroqli kishi to'g'ri kelyapti. Ammo, 2050-yilga borib bu mutanosiblik 2 taga tushib qoladi. Rossiyada 60 yoshdan oshganlar ulushi 2012-yildayoq 26,5 million kishiga yetdi va umumiy aholining 19 foizini tashkil etayapti. 2030-yilga borib ular ulushi 28 foizga ortadi. Xitoyda 2013-yilda 60 yoshdan oshgan aholi soni 202 million kishi bo'ldi va bu aholining 15 foizini tashkil qilmoqda. Shuning uchun fuqarolarga umrining oxiriga qadar pensiya to'lash, munosib yashash sharoitlarini yaratib berishni davom ettirish davlat zimmasidagi dolzarb vaziyatga aylanib bormoqda. 2010-yilda pensiya fondlaridagi defitsit 300 milliard yevroni tashkil qildi. Gollandiya banki pensiya miqdorini o'rtacha 3 foizga kamaytirdi. Boshqalar undan o'rnak olmoqda. Xullas, qari ham, yosh ham ko'proq ishlashiga, o'z istiqboli uchun ko'proq sarmoya kiritishiga to'g'ri kelmoqda.

Shu jihatdan olganda, taraqqiy etgan mamlakatlarda pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy himoyaning turli institutlarini qamrab oluvchi pensiya tizimining turli modellari – davlat pensiya ta'minoti, majburiy ijtimoiy sug'urta, shaxsiy ijtimoiy sug'urta va boshqalar – qo'llaniladi. Bunda "jamg'ariladigan" va "taqsimlovchi" modellar ham bo'lib, asosan, "kombinatsiyalashgan" model amal qiladi.

Ta'kidlash joizki, hozir aholisining 20 foizidan ko'pi 65 yoshdagilarni tashkil qiluvchi mamlakatlar safida faqat 3 ta davlat – Germaniya, Italiya va Yaponiya bor. Buyuk Britaniya pensiya tizimi dunyodagi eng qadimiysi bo'lib, ommaviy va universal pensiya ta'minoti 1908-yilda joriy qilingan. Mazkur tizim tashkil etish, tartibga solish va imkoniyatlar tanlovi bo'yicha birmuncha murakkab hisoblanadi. Buyuk Britaniyalik pensionerlar oylik maoshi va ish stajidan kelib chiqib, davlatdan bazaviy pensiyani ham, milliy sug'urta tizimidan mehnat pensiyasini ham olishi mumkin. Davlatning bazaviy pensiyasini 65 yoshdan oshgan erkaklar va 60 yoshdan oshgan ayollar olishadi, uning miqdori ish stajiga bog'liq bo'ladi. Pensiyaning miqdori

cheklangan va inflyatsiyadan kelib chiqib, davlat tomonidan indeksatsiya qilinadi. U ishchi-xodimning o'rtacha oylik ish haqining 20 foizi miqdorida davlat tomonidan kafolatlanadi. Mehnat pensiyasi ham ishchi-xodimning badallari hisobiga shakllantiriladi, biroq, bunda ish beruvchi bilan teng ikkiga bo'linadi. Mehnat pensiyasi to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar miqdoriga bog'liq bo'lib, daromadning 20 foizini tashkil qiladi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada xususiy pensiyalarni fondlarining turli-tuman usullari – korxonada korporativ dasturlardan tortib to nodavlat pensiya fondlariga ixtiyoriy tarzda pensiya jamg'arishning rivojlangan tizimi – ham mavjud[87].

Ijtimoiy ta'minot tizimi birinchi marta 1889-yilda Germaniyada Bismark tomonidan yaratilgan. Ushbu tizim to'liqligicha sug'urtaga asoslangan bo'lib, to'lovlar miqdori ish haqiga bog'liq bo'lgan. Germaniyaning pensiya tizimi "aviodlar birdamligi" tamoyiliga asoslanadi, ya'ni hozirda ishlovchilar pensionerlarning pensiyalarini to'lash uchun davlat pensiya fondiga ijtimoiy sug'urta badallarini to'laydilar va bu pensionerlarga pensiya to'lanadi. Bugungi kunda ishlayotgan fuqarolar tomonidan to'lanadigan to'lovlar miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, keyinchalik ular tomonidan to'langan to'lovlarga mutanosib ravishda pensiya miqdori shuncha yuqori bo'ladi. Germaniya fuqarolari tomonidan pensiya fondiga to'lanadigan har oylik to'lovning o'rtacha miqdori ular ish haqining 20 foizini tashkil qiladi. Bunda uning teng yarmini ish beruvchi to'laydi. Fuqaro harbiy xizmatni o'tayotgan vaqtida yoki ayollarning dekret ta'tili davomida to'lovlar davlat hisobidan amalga oshiriladi. Pensiya hisob-kitoblari individual koeffitsiyentlar asosida (butun mehnat faoliyati) amalga oshiriladi. U pensiyaga chiqish yoshiga (Germaniyada pensiyaga chiqish yoshi 67 ni tashkil qiladi), mehnat stajiga, ish haqi miqdoriga va pensiyaning turiga bog'liq bo'ladi. Germaniyada ishlovchilarning ko'pchiligi nodavlat pensiya fondlarida ishtirok etishadi va xususiy pensiya rejalariga ega bo'ladi.

Ilk pensiya ta'minoti Fransiya harbiy dengiz floti ofitserlari uchun 1673-yilda joriy etilgan. 1790-yildagi "Buyuk fransuz inqilobi" davri-

[87] Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 50-60.



da "Davlat xizmatchilari uchun fuqarolik pensiyasi haqida"gi qonun qabul qilindi. U 30 yil mehnat qilgan va ellik yoshga to'lganlar uchun mo'ljallangan edi. Fransiya pensiya tizimi "taqsimlovchi" modelga asoslangan bo'lib, bunda pensionerlarning pensiyalari iqtisodiy faol aholi to'lovlari hisobidan shakllanuvchi daromadlar hisobidan amalga oshiriladi. Pensiya ta'minotini boshqarish davlat nazorati asosida Kasaba uyushmalari va assotsiatsiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Pensiya badallari ish beruvchilar va ishlovchilar o'rtasida taqsimlanadi. Erkin kasb egalari, jumladan, kichik tadbirkorlik subyektlarining, dehqonlarning Pensiya jamg'armasiga to'laydigan har oylik to'lovlari miqdori ish haqining 16,35 foizni tashkil qiladi. Fransiyada pensiyalar o'rtacha ish haqining 50 foizini tashkil qiladi va bunda so'nggi 11 yillik mehnat staji hisobga olinadi. Biroq Fransiyada minimal va maksimal davlat pensiyasi amal qiladi. Bugungi kunda minimal davlat pensiyasi taxminan yiliga 6 ming yevroni tashkil qiladi, maksimal davlat pensiyasi miqdori esa bundan 2 barobar ko'p. Pensiyaga chiqishning minimal yoshi 60 yilni tashkil qiladi. Agar fuqaro 41 yil ishlagan bo'lsa, u to'liq miqdorda pensiya oladi. Agar mehnat staji kam bo'lsa, pensiya miqdori 1,25 foizga kamayadi. Fransiya Qariyalar ishlari bo'yicha vaziri Mishel Delone mamlakatda 60 yoshdan oshganlar umumiy aholi ulushida 23,4 foizni tashkil etayotganini ta'kidlar ekan, keksalarni ishlab chiqarishga faol jalb qilish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Ular istiqbolda, nafaqat, davlat xizmatlari uchun, balki ko'plab kompaniyalarga ham bag'oyat foydali shaxslarga aylanishlari mumkin[88].



Shvetsiyada pensiyalar uch qismdan iborat: shartli-jamg'arma; jamg'arma va kafolatli. Birinchisi, ishchilar ish haqining 16 foizini tashkil etuvchi badallar hisobidan shakllanadi va bu joriy

[88] Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 61-65.

iqtisodiy vaziyat va demografik holatdan kelib chiqib, indeksatsiyalanadi. Jamg'arma qismi ham ishchilarning ish haqiga bog'liq bo'ladi, biroq bu mablag'lar ishlovchining hisobraqamidagi real mablag'lar bo'lib, ushbu mablag'larni nodavlat pensiya fondlari orqali investitsiyalashi mumkin.

O'zbekistonda ham pensiya islohotlari faollik bilan amalga oshirilayapti. 2005-yil 1-yanvardan jamg'arib boriladigan pensiya tizimining joriy qilinishi bozor talablariga to'liq javob beradi. Asosiy muammo Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta'minlashdir. Bu borada Pensiya jamg'armasi tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilayapti.

Pensiya jamg'armaning hududiy boshqarmalari har yili 15-iyundan kechikmay Jamg'armaning ijro etuvchi apparatiga joriy yil uchun xarajatlarning kutilayotgan ijrosini va kelgusi yilga Jamg'arma xarajatlari prognozini taqdim etadi. Kelgusi yilga manbalar va foydalanish yo'nalishlari bo'yicha Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari prognozlari Jamg'armaning ijro etuvchi apparati tomonidan ishlab chiqiladi va Jamg'armaning Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti belgilangan tartibda qabul qilingandan va kelgusi yilga uning asosiy parametrlari tasdiqlangandan keyin Jamg'armaning ijro etuvchi apparati besh kun muddatda:

– O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga – mintaqalar bo'yicha kelgusi yilga Jamg'arma daromadlarining tasdiqlangan asosiy parametrlarini;

– Jamg'armaning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlariga – turlar va mintaqalar bo'yicha kelgusi yilga Jamg'arma xarajatlarining tasdiqlangan asosiy parametrlarini (yo'nalishlarini) yetkazadi.

Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining tasdiqlangan ko'rsatkichlarini bajarish: yuridik va jismoniy shaxslardan majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar tushishining va yig'ilishining to'liqligi yuzasidan – davlat soliq xizmati organlari tomonidan; Jamg'arma mablag'larini belgilangan tartibda o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirish, o'z vaqtida tayinlash, to'lash va manzilli ravishda sarflash, shuningdek, Jamg'arma mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishini

nazorat qilish yuzasidan – Jamg'armaning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari tomonidan ta'minlanadi.

Jamg'armaning hududiy boshqarmalari Jamg'armaning ijro etuvchi apparatiga: har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunigacha – hududlar bo'yicha to'langan pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar to'g'risidagi tezkor axborotni; tasdiqlangan shakl bo'yicha yuridik shaxslarning choraklik va yillik hisobotlari taqdim etilgandan keyin 15 kun mobaynida – mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi.

Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanat buzilishining kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat:

– Pensiya jamg'armasi daromadlarining shakllanishida korxona, tashkilot va muassasalarda yuzaga kelayotgan debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarning mavjudligi;

– korxona va tashkilotlarda "konvert" usulida berilayotgan ish haqilarning ko'payib, haqiqiy hisoblangan ish haqining kamayib borayotganligi va shu orqali ish haqi fonidiga nisbatan hisoblangan yagona ijtimoiy to'lovning pasayishi, ularning daromad manbalaridagi ulushi sezilarli pasayishi;

– Pensiya jamg'armasida daromadlarning xarajatlardan kamligi, defitsiti yuzaga kelishiga Pensiya jamg'armasida harakatda bo'lgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarga amal qilinmaganligi va noto'g'ri tayinlangan pensiya turlari hamda fuqarolarga qonunni buzish orqali tayinlangan pensiyalar ortishi sabab bo'lgan;

– pensiya asosini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan tariflarning pastligi;

– muddatidan ilgari to'lanadigan pensiya imtiyozlari, ustamalarini to'lash bilan bog'liq xarajatlar;

– mehnat stajining ozligi;

– Pensiya jamg'armasida faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlarning bilim saviyasining pastligi va boshqa omillar sabab bo'lgan.

## 6.5. Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari mablag'laridan foydalanish masalalari



1990-yildan 2011-yilgacha bo'lgan davrda yoshga doir pensiya va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari uchun to'lovlarga davlat xarajatlari Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (XHTT) mamlakatlarida YalMga nisbatan 28 foizga tezroq o'sgan va YalMdagi o'rtacha ulushi 6,2 foizdan 7,9 foizga ko'tarilgan. Davlat pensiyalari davlatning ijtimoiy ta'minot xarajatlarining, aksariyat hollarda, eng katta salmog'ini va davlat xarajatlarining o'rtacha 18 foiz ulushini egallaydi.



XHTT mamlakatlari tarkibida Italiya mamlakat milliy daromadining eng katta qismini pensiya xarajatlariga yo'naltiradi, u 2011-yilda YalMning 15,8 foizini tashkil etgan. Bundan tashqari, Yevropaning boshqa kontinental mamlakatlari: Avstriya, Fransiya, Gretsiya va Portugaliyada YalMning 13–14 foizini, Germaniya, Polsha, Sloveniyada 11 foizini tashkil etgan. Davlat pensiya xarajatlari mazkur mamlakatlar davlatning yalpi xarajatlarining 23–30 foizini tashkil etadi.



Islandiya va Meksikada davlat xarajatlarida pensiyaning ulushi mos ravishda 2,1 va 1,8 foizni tashkil etadi. Koreyada esa 2,2 foizdir. Islandiya va Meksikaning aholisi tarkibida yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi. Koreya pensiya tizimi esa hali yetarlicha taraqqiy etmagan, mamlakatda pensiyaning daromadga bog'langan tizimi 1988-yilda joriy etilgan. Yangi yo'nalishli bazis pensiya faqat 2014-yilda joriy etilgan. Meksikada past xarajatlar ham pensiyalarning jamidagi sal-

mog‘i past bo‘lishiga sabab bo‘ladi (ishlovchilarning faqat 35 foizi). Islandiyada qarilik daromadining ko‘pi majburiy kasbiy sohalar orqali ta’minlanadi va qarilik daromadlarini ta’minlashda davlat sektorining ahamiyati nisbatan katta emas. Buning ustiga pensiya yoshi mamlakatda 67 yosh qilib belgilangan.



Avstraliya, Kanada, Irlandiya, Yangi Zelandiyada xarajatlar salmog‘ining past bo‘lishiga qulay demografik vaziyat ijobiy ta’sir qiladi. Biroq, bu xarajatlar o‘sishining past bo‘lishidagi yagona omil emas, Turkiya XHTT mamlakatlari orasida yosh jihatdan ikkinchi yosh mamlakat bo‘lishiga qaramasdan, mamlakat YaIMning 7,5 foizi davlat pensiyalarini to‘lashga sarflanadi. Bu ko‘rsatkich aholisi salmog‘ida 65 yoshdan oshganlar salmog‘i ko‘proq bo‘lgan Buyuk Britaniya, Daniya, Niderlandiya, AQSH kabi mamlakatlarda Turkiyanikidan pastroqdir.

Davlat pensiya xarajatlari 1990–2011-yillar oralig‘ida XHTTning oltita a’zosida YaIMning o‘sishiga mutanosib ravishda o‘sib borgan: Kanada, Islandiya, Irlandiya, Lyuksemburg, Norvegiya, Shvetsiya. Niderlandiya va Yangi Zelandiyada esa davlat pensiya xarajatlari milliy daromad o‘sishiga nisbatan pastroq sur’atlarda o‘sib borgan. Niderlandiyada bunga asosiy sabab davlat pensiyalariga nisbatan zaruratning qisqarishi va kasbiy pensiyalar ahamiyatining ortib borishi ta’sir ko‘rsatgan. Yangi Zelandiyada pensiyaga davlat xarajatlarining 30 foiz qisqarishiga 1992–1994-yillarda bazis pensiya miqdorlarining muzlatib qo‘yilishi va pensiyaga chiqish yoshining 60 dan 65 yoshga oshirilishi sabab bo‘lgan. Boshqa qisqarishlar esa xususiy va kasbiy pensiya xarajatlarining oshishi hisobiga sodir bo‘ldi. XHTTning oltita mamlakatida davlat pensiya sarflari mamlakat milliy daromadiga nisbatan ikki marta tezroq o‘sgan (6.4-jadval).

*6.4-jadval*

**Yoshga doir pensiyalar va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi bo‘yicha to‘lovlarga davlat xarajatlari[89]**

| Mamlakatlar | Yoshga doir pensiyalar va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi bo‘yicha to‘lovlarda davlat xarajatlari | | | | | | | | | Jami naqdsiz ko‘rinishdagi xarajatlar, YaIMga nisbatan foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | YaIMdagi salmog‘i, foizda | | | | | O‘zgarishi, foizda | Hukumat xarajatlaridagi salmog‘i, foizda | | YaIMdagi sof pul xarajatlari salmog‘i, foizda | |
| | 1990 yil | 1995 yil | 2000 yil | 2005 yil | 2011 yil | 1990–2011-yillar | 1990 yil | 2011 yil | 2011 yil | 2011 yil |
| Avstraliya | 3,1 | 3,6 | 3,8 | 3,3 | 3,5 | 14,0 | 8,5 | 9,7 | 3,4 | 5,2 |
| Avstriya | 11,4 | 12,3 | 12,2 | 12,4 | 13,2 | 16,3 | 22,1 | 26,1 | 11,5 | 13,9 |
| Belgiya | 9,1 | 9,3 | 8,9 | 9,0 | 10,2 | 11,7 | 17,4 | 19,0 | 9,0 | 10,4 |
| Kanada | 4,2 | 4,6 | 4,2 | 4,0 | 4,3 | 2,7 | 8,7 | 10,5 | 4,1 | 4,3 |
| Chili | | 6,7 | 7,3 | 3,7 | 3,2 | | | | 3,2 | 3,3 |
| Chexiya | 5,8 | 6,1 | 7,2 | 7,0 | 8,9 | 53,8 | | 20,5 | 8,9 | 9,1 |

[89] Pensions at a Glance 2015. OECD and G20 indicators. OECD (2015), Pensions at a Glance 2015: OECD and G20 indicators, OECD Publishing, Paris. http://dx.doi.org/10.1787/pension_glance-2015-en. - P. 183-186.

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Daniya | 5,1 | 6,2 | 5,3 | 5,4 | 6,2 | 21,4 | 9,2 | 10,8 | 4,6 | 8,5 |
| Estoniya | | | 6,0 | 5,3 | 6,9 | | | 18,3 | 6,8 | 7,0 |
| Finlandiya | 7,3 | 8,8 | 7,6 | 8,4 | 10,3 | 41,0 | 15,1 | 18,7 | 8,5 | 11,4 |
| Fransiya | 10,6 | 12,0 | 11,8 | 12,4 | 13,8 | 29,5 | 21,4 | 24,6 | 12,7 | 14,2 |
| Germaniya | 9,5 | 10,5 | 11,2 | 11,5 | 10,6 | 11,6 | | 23,4 | 10,2 | 10,6 |
| Gretsiya | 9,9 | 9,7 | 10,8 | 11,8 | 14,5 | 46,3 | | 28,0 | 14,5 | 14,7 |
| Vengriya | | | 7,6 | 8,5 | 10,0 | | | 19,9 | 10,0 | 10,5 |
| Islandiya | 2,2 | 2,4 | 2,2 | 2,0 | 2,1 | -3,9 | | 4,5 | 1,8 | 2,6 |
| Irlandiya | 4,8 | 4,3 | 3,1 | 3,4 | 5,3 | 8,5 | 11,5 | 11,2 | 5,0 | 5,8 |
| Isroil | | 4,5 | 4,7 | 4,9 | 4,8 | | | 11,4 | 4,7 | 4,9 |
| Italiya | 11,7 | 13,2 | 13,7 | 14,0 | 15,8 | 35,3 | 22,2 | 31,9 | 13,8 | 16,0 |
| Yaponiya | 4.8 | 6,1 | 7,3 | 8,5 | 10,2 | 112,1 | 24,4 | | 9,7 | 11,9 |
| Koreya | 0.7 | 1,2 | 1,4 | 1,5 | 2,2 | 205,7 | 3,7 | 7,4 | 2,2 | 2,4 |
| Lyuksemburg | 8.2 | 8,8 | 7,5 | 7,2 | 7,7 | -5,3 | 21,6 | 18,1 | 7,0 | 7,7 |
| Meksika | 0.4 | 0,7 | 0,8 | 1,2 | 1,8 | 308.5 | | 7,9 | 1,8 | 1,8 |
| Niderlandiya | 6,7 | 5,8 | 5,0 | 5,0 | 5,5 | -18,8 | 12,2 | 10,9 | 5,0 | 6,4 |
| Yangi Zellandiya | 7,3 | 5,6 | 4,9 | 4,2 | 4,9 | -33,6 | 14,0 | 11,1 | 4,2 | 4,9 |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Norvegiya | 5,6 | 5,5 | 4,8 | 4,8 | 5,4 | -3,7 | | 12,4 | 4,4 | 7,4 |
| Polsha | 5,1 | 9,4 | 10,5 | 11,4 | 10,8 | 110,3 | | 24,9 | 9,8 | 10,9 |
| Portugaliya | 4,9 | 7,2 | 7,9 | 10,3 | 13,0 | 166,7 | | 26,4 | 12,2 | 13,1 |
| Slovakiya | - | 6,3 | 6,3 | 6,2 | 7,0 | | | 17,9 | 7,0 | 7,3 |
| Sloveniya | | | 10,5 | 9,9 | 11,4 | | | 22,8 | 11,4 | 11,6 |
| Ispaniya | 7,9 | 9,0 | 8,6 | 8,1 | 10,5 | 32,4 | | 22,9 | 10,1 | 11,2 |
| Shetsiya | 7,6 | 8,2 | 7,2 | 7,6 | 7,4 | -2,6 | | 14,3 | 5,7 | 9,8 |
| Shvetsariya | 5,5 | 6,5 | 6,5 | 6,6 | 6,6 | 19,3 | 18,5 | 19,5 | 6,6 | 6,9 |
| Turkiya | 2,4 | 2,7 | 4,9 | 5,9 | 7,5 | 219,4 | | 20,2 | 7,5 | 7,6 |
| Buyuk Britaniya | 4,8 | 5,3 | 5,3 | 5,5 | 5,6 | 17,0 | 11,6 | 11,7 | 5,4 | 6,1 |
| AQSH | 5,8 | 6,0 | 5,6 | 5,7 | 6,7 | 15,3 | 15,8 | 16,1 | 6,3 | 6,7 |
| XHTT | 6,2 | 6,7 | 6,8 | 7,0 | 7,9 | 27,8 | - | 17,5 | 7,3 | 8,4 |



2011-yilda XHTTga a'zo bo'lgan 26 ta mamlakatda xususiy pensiya tizimlaridan pensiyaga to'langan to'lovlar YaIMning o'rtacha 1,6 foizini tashkil etgan. Bu yoshga doir pensiyalar bo'yicha to'lovlarga o'rtacha davlat xarajatlarining 1/5 qismiga tengdir. 1990–2011-yillar oralig'ida xususiy pensiya to'lovlari miqdorlari YaIMning o'rtacha o'sish sur'atlaridan 38 foizga yuqori bo'lgan va bu borada davlat pensiya xarajatlarini ham ortda qoldirgan.




Xususiy pensiyalar XHTT mamlakatlarining yarmidan kamrog'ida xususiy pensiya tizimining majburiy yoki yarim majburiy ko'rinishda joriy etilishi orqali qamrovining kengayishiga erishilgan. Boshqalarida esa individual (personal) yoki ish beruvchi tomonidan ta'minlanadigan (occupational) ko'rinishdagi ixtiyoriy xususiy pensiyalar keng qamrovga ega.

2011-yilda Niderlandiyada xususiy pensiya to'lovlari YaIMning 5,8 foiziga teng bo'lgan va bu borada eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan. Davlat pensiya xarajatlari bilan birgalikda esa mamlakat YaIMining 11,2 foizini tashkil etgan. Shvetsariyada esa xususiy pensiya xarajatlari YaIMning 5,0 foiziga teng bo'lgan. Shvetsariyada xususiy pensiya to'lovlari belgilangan minimal miqdorlardan yuqori to'lovlarni o'z ichiga olishiga qaramasdan



kasbiy pensiya rejalari majburiy ravishda tashkil etilishi belgilangan.

Kanada, Daniya, Islandiya, Buyuk Britaniya va AQSHda xususiy pensiya to'lovlari mamlakat YalMning 3,3–4,7 foiziga teng. Daniya va Islandiyani istisno qilganda, ularda xususiy pensiyalar ixtiyoriy bo'lishiga qaramay, kasbiy va shaxsiy rejalar qamrovi juda kengdir. Yaponiyada ham (xususiy pensiyalar ixtiyoriy) xususiy pensiyalar xarajatlarining salmog'i yuqori bo'lib, u YalMning 2,7 foiziga tengdir. Islandiyada jami pensiya xarajatlarida xususiy pensiya xarajatlari 64 foizga teng va bu eng yuqori ko'rsatkichdir.

1990-yillarda Avstraliya, Estoniya, Meksika, Polsha, Slovakiya va Shvetsiya kabi mamlakatlar majburiy xususiy pensiyalarni joriy qilishdi. Ba'zi hollarda, ayniqsa, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida majburiy va ixtiyoriy xususiy pensiya tizimlarining joriy qilinishi, asosan, yosh ishlovchilarga nisbatan tatbiq etilgan. Ularning aksariyatiga hali pensiya to'lovlari amalga oshirilmagan. Xususiy pensiyalar majburiy tartibda joriy etilishidan avvalroq ixtiyoriy va yarim-majburiy pensiya tizimi joriy etilgan Avstraliya va Shvetsiya mamlakatlarida xususiy pensiya to'lovlarining aksariyat qismi ixtiyoriy va yarim majburiy pensiya tizimlariga tegishlidir. Barcha hollarda, ixtiyoriy va yarim majburiy pensiya tizim a'zolarining pensiya yoshigacha bo'lgan davri bir necha o'n yillikni o'z ichiga oladi.

## Davlat va xususiy pensiya to‘lovi xarajatlari[90]

*6.5-jadval*

| Mamlakatlar | Tizimdagi ishtiroki | Xususiy pensiya tizimlari to‘lovi xarajatlari | | | | | | Davlat va xususiy pensiya xarajatlarining mamlakat YalMidagi ulushi | Xususiy pensiyalar uchun soliqlarning qisqarishi, YalMga nisbatan foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | YalMga nisbatan ulushi | | | | | O‘zgarishi, foizda | | |
| | | 1990 yil | 1995 yil | 2000 yil | 2005 yil | 2011 yil | 1990–2011 yillar | 2011 yil | 2011 |
| Avstraliya | ixtiyoriy | | 1,8 | 2,9 | 1,9 | 2,1 | | 5,6 | 1,9 |
| Avstriya | ixtiyoriy | 0,4 | 0,4 | 0,5 | 0,5 | 0,7 | 56,6 | 13,9 | 0,0 |
| Belgiya | ixtiyoriy | 1,0 | 1,7 | 1,4 | 1,5 | 1,2 | 15,7 | 11,4 | 0,2 |
| Kanada | ixtiyoriy | 2,5 | 3,4 | 3,9 | 4,2 | 3,3 | 29,3 | 7,6 | 1,5 |
| Chili | majburiy | | 0,9 | 1,1 | 1,2 | 1,4 | | 4,6 | |
| Chexiya | majburiy,<br>ixtiyoriy | -<br>– | -<br>0,0 | 0,2<br>0,0 | 0,2<br>0,0 | 0,5<br>0,1 | | 9,4 | 0,0 |
| Daniya | yarim majburiy | 1,5 | 1,8 | 2,0 | 2,3 | 4,7 | 202,2 | 10,9 | |
| Estoniya | | | | | | | | 6,9 | |
| Finlandiya | ixtiyoriy | 0,1 | 0,4 | 0,3 | 0,2 | 0,3 | 173,6 | 10,5 | 0,1 |
| Fransiya | majburiy,<br>ixtiyoriy | 0,2<br>0,1 | 0,1<br>0,1 | 0,2<br>0,1 | 0,2<br>0,1 | 0,2<br>0,2 | -18,7<br>233,0 | 14,1 | 0,0 |
| Germaniya | ixtiyoriy | 0,7 | 0,7 | 0,8 | 0,8 | 0,8 | 18,1 | 11,4 | 0,9 |
| Gretsiya | ixtiyoriy | 0,4 | 0,4 | 0,5 | 0,5 | 0,4 | 0,5 | 14,9 | |
| Vengriya | | | | | | | | 10,0 | |
| Islandiya | ixtiyoriy | 1,4 | 1,8 | 2,3 | 2,8 | 3,7 | 167,1 | 5,9 | 0,0 |

[90] Pensions at a Glance 2015. OECD and G20 indicators. OECD (2015), Pensions at a Glance 2015: OECD and G20 indicators, OECD Publishing, Paris. http://dx.doi.org/10.1787/pension_glance-2015-en. - P. 183-186.

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Irlandiya | ixtiyoriy | 0,9 | 1,0 | 0,8 | 0,9 | 0,8 | -4,3 | 6,1 | 1,1 |
| Isroil | | | | | | | | 4,8 | |
| Italiya | majburiy,<br>ixtiyoriy | -<br>0,1 | -<br>0,3 | -<br>0,3 | -<br>0,3 | -<br>0,4 | -<br>159,0 | 16,2 | 0,0 |
| Yaponiya | majburiy,<br>ixtiyoriy | 0,2<br>– | 0,3<br>– | 0,5<br>2,9 | 0,4<br>2,2 | 0,6<br>2,7 | | 13,0 | 0,0 |
| Koreya | ixtiyoriy | - | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,1 | | 2,3 | |
| Lyuksemburgg | ixtiyoriy | - | - | - | 0,6 | 0,6 | | 8,3 | 0,0 |
| Meksika | | | | | | | | 1,8 | 0,3 |
| Niderlandiya | majburiy,<br>ixtiyoriy | -<br>3,9 | 0,0<br>4,7 | 0,0<br>4,8 | 0,0<br>5,2 | 0,0<br>5,8 | 48,5 | 11,2 | |
| Yangi Zelandiya | | | | | | | | 4,9 | |
| Norvegiya | ixtiyoriy | 0,6 | 0,6 | 0,6 | 0,6 | 0,6 | 15,9 | 6,1 | 0,5 |
| Polsha | | | | | | | | 10,8 | 0,0 |
| Portugaliya | ixtiyoriy | 0,3 | 0,3 | 0,4 | 0,6 | 0,6 | 95,0 | 13,6 | 0,1 |
| Slovakiya | ixtiyoriy | - | 0,1 | 0,2 | 0,4 | 0,3 | | 7,3 | 0,1 |
| Sloveniya | | | | | | | | 11,4 | |
| Ispaniya | | | | | | | | 10,5 | 0,2 |
| Shvetsiya | yarim majburiy | 1,2 | 1,9 | 1,8 | 2,1 | 2,6 | 112,5 | 9,9 | |
| Shvetsariya | majburiy,<br>ixtiyoriy | 2,3<br>0,0 | 3,3<br>0,0 | 4,2<br>0,0 | 4,7<br>0,0 | 5,0<br>0,0 | 113,3 | 11,5 | |
| Turkiya | | | | | | | | 7,5 | |
| Buyuk Britaniya | majburiy,<br>ixtiyoriy | 4,2 | 5,1 | 6,0 | 4,7 | 4,6 | 7,4 | 10,2 | 1,5 |
| AQSH | ixtiyoriy | 2,6 | 3,0 | 3,6 | 3,6 | 4,5 | 72,5 | 11,2 | 0,8 |
| **XHTT** | | **1,2** | **1,3** | **1,5** | **1,4** | **1,6** | **37,9** | **9,3** | **0,4** |



Xususiy pensiya to‘lovlari sur’atlarining o‘sishi yuqori bo‘lgan mamlakatlar dastlabki nuqtasida YaIMning 0,5 foiziga teng bo‘lgan. Ammo bu yerda Daniya, Islandiya, Shvetsiya va Shvetsariya bundan istisnodir. Keyinroq, kasbiy pensiyalar 1985-yildan boshlab majburiy ravishda joriy etilgach, pensiyalarning qamrov darajasi sezilarli darajada ortgan. Yoshga doir pensiyalarning har bir keyingi avlodida xususiy pensiyalarning o‘rtacha qamrovi ortib borishi, hozirda xususiy pensiyalar vakolatlarining muntazam oshib borishiga ta’sir qilmoqda.

Ko‘plab XHTT mamlakatlari qarilikda xususiy pensiya rejalari orqali qarilik daromadlariga ega bo‘lishi uchun qulay soliq siyosatini taklif qilishadi. Tez-tez, individual badallar daromad solig‘i majburiyatlaridan to‘liq yoki qisman chegirilgan va investitsion qaytimlar to‘liq yoki qisman ozod etilgan bo‘ladi. Ba’zi mamlakatlar pensiya to‘lovlarida soliqdan ozod etishni taklif qilishadi.

**Bahs-munozara va nazorat uchun savollar**

- Pensiya jamg‘armasi xarajatlari qaysi qonuniy hujjatga asosan tartibga solinadi?
- Pensiya jamg‘armasining mablag‘laridan qanday xarajatlar uchun foydalaniladi?
- Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ishlamaydigan fuqarolarga to‘lanadigan to‘lovlar deganda nimani tushunasiz?
- Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ishlaydigan fuqarolarga to‘lanadigan to‘lovlar deganda nimani tushunasiz?
- Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining sarflanish yo‘nalishlarini izohlab bering.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro‘yxatlarga muvofiq kimlar imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar?
- 2017-yil 2-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

"Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2753-sonli Qarorining mazmuni va ahamiyatini tushuntirib bering.

- Pensiya jamg'armasi xarajatlarini guruhga ajratib, har biriga izoh bering.
- Ijtimoiy nafaqalar qanday turlarga bo'linadi?
- Bolalikdan nogironlarga nafaqalar deganda nimani tushunasiz?
- Yoshga doir nafaqani izohlab bering.
- Nogironlik nafaqasi deganda nimani tushunasiz?
- Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi qanday hollarda beriladi?
- Dafn marosimi uchun nafaqa nima?
- Bola tug'ilganda beriladigan nafaqaning mohiyatini ifodalab bering.
- Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa nima?
- Kompensatsiya pul to'lovlari nimani anglatadi?
- Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etish tartibini tushuntirib bering.
- Pensiyalar tayinlash uchun ish stajini hisoblab chiqish va tasdiqlash tartibini izohlab bering.
- Pensiyalarning tayanch miqdori deganga nimani tushunasiz?
- Davlat pensiyalarini hisoblash, tayinlash va to'lash tartibi qanday qonuniy hujjat bilan tartibga solinadi?
- Davlat pensiyalarini tayinlash tartibini tushuntirib bering.
- To'liq bo'lmagan ish staji sharoitida pensiya qanday tayinlanadi?
- Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari mutanosibligi deganda nimani tushunasiz?
- O'zbekistonda Pensiya jamg'armasi moliyaviy holatini yaxshilashning qanday imkoniyatlarini bilasiz?
- O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibida bevosita ayollarga xos ijtimoiy-demografik xususiyatlar haqida nimalarni bilasiz?
- Taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy himoyaning turli institutlarini qamrab oluvchi pensiya tizimining qanday modellarini bilasiz?
- Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari mablag'laridan foydalanish yo'nalishlarini izohlab bering.

# 7-bob. PENSIYA JAMG‘ARMASI FAOLIYATI NAZORATI

## 7.1. Pensiya jamg‘armasi faoliyati nazoratining mazmuni, vazifalari va ahamiyati



Nazorat jamiyat iqtisodiy hayotidagi obyektiv hodisa va har qanday davlat boshqaruvining muhim bo‘g‘inidir. Davlat moliyasini va iqtisodiy faoliyatni boshqarishda nazorat tizimi – bu erishilgan natijalarning qabul qilingan boshqaruv qarorlariga mosligi darajasini belgilash hamda qo‘yilgan maqsadni ishlarning haqiqiy ahvoliga taqqoslash asosida nazorat obyektining holatini baholash, tartibga solish tadbirlari va tuzatish ta’sirlarini ishlab chiqish jarayonida nazorat subyektlari, obyektlari va vositalarining majmui.

Moliyaviy nazorat iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga obyektiv xos bo‘lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo‘lishidir. Odatda, moliyaviy nazorat quyidagi ikki jihat bilan qaraladi: barcha iqtisodiy subyektlarning moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya qilishi ustidan maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining qattiq tartibga solingan faoliyati; moliyaviy operatsiyalarning samaradorligini va maqsadga muvofiqligini ta’minlash maqsadida makro- va mikrodarajada moliya hamda pul oqimlarini boshqarishning ajralmas elementi.

Bozor iqtisodiyotida davlat moliyaviy nazorati alohida bir soha sifatida davlat moliyaviy resurslaridan maqsadga muvofiq va samarali foydalanishi, davlat mulkidan oqilona foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Budjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida moliyaviy nazorat obyektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarini o‘rganish hamda taqqoslashga davlat moliyaviy nazorati deyiladi. Davlat moliyaviy nazorati bu davlatning asosiy qonunlariga tayanadigan va hokimiyat hamda aniq boshqaruv organlari iqtisodiy-huquqiy harakatining kompleksli va maqsadga yo‘naltirilgan tizimidir. Davlat maqsadli jamg‘armalari, shu jumladan, Pensiya jamg‘armasi moliyaviy nazorat obyekti hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazoratining mohiyatini yoritishda quyidagi holatlarni hisobga olish zarur (7.1-rasm):




**7.1-rasm. Moliyaviy nazoratning tavsiflari[91].**

Pensiya jamg'armasi faoliyati nazoratining predmeti quyidagi moliyaviy ko'rsatkichlardan iborat: Pensiya jamg'armasi budjetining daromadlari va xarajatlari; Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar, sug'urta badallari va boshqa to'lovlarning hajmlari (miqdorlari, o'lchamlari).

Pensiya jamg'armasi faoliyati nazoratining predmeti hisoblangan yuqoridagi ko'satkichlarning ko'plari hisobli ko'rsatkichlar hisoblanadi va bu narsa, o'z navbatida, ularning amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq ravishda hisoblanishining to'g'riligi va ishonchliligini tekshirishni (nazorat qilishni) taqozo etadi.

Pensiya jamg'armasi faoliyati nazoratining oldida turgan eng asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

– Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta'minlash, pul fondlarining o'lchami va moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi mutanosiblikka (balanslilikka) ta'sir ko'rsatish;

– Pensiya jamg'armasining fuqarolar oldidagi majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash;

---

[91] Nuritdinova V.Sh., Sharapova M.A. Moliyaviy nazorat. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2013.–B.45.

– Pensiya jamg‘armasi daromadlarini ko‘paytirishning ichki xo‘jalik rezervlarini qidirib topish;

– va boshqalar.

Bunda nazoratni amalga oshirish jarayonida uning quyidagi usullaridan foydalaniladi: tekshiruv; tadqiq etish; nazorat; moliyaviy holat tahlili; monitoring; taftish.

Tekshiruv hisobot, balans va xarajat hujjatlari asosida moliyaviy-xo‘jalik faoliyatning alohida masalalari bo‘yicha amalga oshiriladi. Tekshiruv jarayonida moliyaviy intizomning buzilganligi aniqlanadi va ularga barham berish borasida choralar belgilanadi. Tadqiq etish Pensiya jamg‘armasi faoliyatining ayrim tomonlarini qamrab oladi. Shuningdek, tadqiq etish so‘rash, kuzatish va inspeksiya qilish hollari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Nazorat Pensiya jamg‘armasi moliyaviy faoliyatning nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratni anglatadi. U o‘rnatilgan qoidalar va normativlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni ko‘zda tutadi.

Iqtisodiy tahlil Pensiya jamg‘armasi nazoratini amalga oshirish usuli sifatida Pensiya jamg‘armasi faoliyatining natijalari, moliyaviy holatning ahvoliga umumiy baho berish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini asoslash maqsadida davriy yoki yillik moliyaviy va buxgalteriya hisobotlarini detallashtirilgan tarzda o‘rganishni ko‘zda tutadi.

Taftish Pensiya jamg‘armasi moliyaviy faoliyatidagi nazoratning ancha keng tarqalgan usuli sanalib, nazoratning haqiqiy va hujjatli usullarini qo‘llash yordamida amalga oshiriladigan Jamg‘arma faoliyatini o‘zaro bog‘langan kompleks tekshiruvidan iboratdir. Taftish taftish qilinayotgan obyekt faoliyatidagi kamchiliklar va buzilmalarni topish uchun, ya’ni sodir etilgan moliyaviy operatsiyalarining maqsadga muvofiqligi, asoslanganligi, iqtisodiy samaradorligini, moliyaviy intizomga rioya etilganligini, buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlarining ishonchliligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi Pensiya jamg‘armasining budjetini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va budjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni belgilab beradi.



Moliyaviy nazorat bo‘yicha muhim vazifa va funksiyalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zimmasiga ham yuklatilgan. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi 1993-yil 6-maydagi Qonunining 12-moddasiga muvofiq u vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. U davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi organlar vakolati va funksiyalari tartibini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining budjeti loyihasini ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi; Pensiya jamg‘armasining budjeti loyihasini ko‘rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi; davlat boshqaruvi organlarining Pensiya jamg‘armasi budjetini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda nazorat qiladi; Pensiya jamg‘armasining budjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarini har chorakda ko‘rib chiqadi; o‘tgan moliya yili uchun Pensiya jamg‘armasi budjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tashqi audit o‘tkazish hamda baholash uchun O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi; Pensiya jamg‘armasi budjetining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi; Pensiya jamg‘armasi budjeti parametrlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflarni ko‘rib chiqadi.



Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Moliya vazirligi respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy, narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi-

ning vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika budjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta'minlashni, valuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydi.

Moliya vazirligi Pensiya jamg'armasining faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri yoki o'zi tashkil etadigan organlar orqali muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi. Pensiya jamg'armasi faoliyati nazoratida Moliya vazirligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– Pensiya jamg'armasi daromadlarining o'sishini ta'minlash;

– Pensiya jamg'armasida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish va takomillashtirish ishlarini muvofiqlashtirish;

– fuqarolarning pensiya ta'minoti sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish;

– Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta'minlash;

– Pensiya jamg'armasi tomonidan unga yuklangan vazifalar va funksiyalarning, ayniqsa, pensiyalarni va boshqa tegishli to'lovlarni tayinlash va to'lashning belgilangan qoidalarini qo'llash yuzasidan bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.

Pensiya jamg'armasi faoliyati nazoratida Moliya vazirligining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

– amaldagi qonunchilikka muvofiq Pensiya jamg'armasi budjetini tuzish va ijro etish ishlarini tashkil etadi;

– aholini ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash manbalarini aniqlaydi va mablag' bilan ta'minlaydi;

– Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini yaxshilashga va ularni saqlash xarajatlarini arzonlashtirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqadi;

– Pensiya jamg'armasining buxgalterlik hisobi va hisobotlari yuzasidan metodologik rahbarlikni amalga oshiradi hamda ularni takomillashtirish chora-tadbirlarini ko'radi;

– Pensiya jamg'armasi budjetining ijrosi, budjetdagi muassasalar xarajatlar smetasining ijrosi bo'yicha buxgalterlik hisobini yuritish tartibini belgilaydi;

– Pensiya jamg‘armasi budjetining kassa ijrosi bo‘yicha hisob-kitob va hisobotlar shakllarini belgilaydi.

Davlat moliyaviy nazorati tizimida Hisob palatasiga katta rol ajratilgan[92]. U mustaqil organ bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi: Pensiya jamg‘armasining budjeti loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi; Pensiya jamg‘armasi budjetining ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobot bo‘yicha tashqi audit va baholashni amalga oshiradi hamda ular yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi; Pensiya jamg‘armasi budjeti daromadlari va xarajatlari moddalarining maqsadli ijrosini boshlang‘ich ma’lumotlar bo‘yicha nazorat qilish imkonini beruvchi axborot tizimlari va resurslariga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi; Pensiya jamg‘armasi budjeti daromad qismining ijrosi yuzasidan monitoring o‘tkazadi; Pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.



Pensiya jamg‘armasi faoliyati nazoratida Nazorat-taftish bosh boshqarmasi muhim o‘rin tutadi. Nazorat-taftish bosh boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi va bevosita O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziriga bo‘ysunadi. Pensiya jamg‘armasi faoliyati nazoratida Nazorat-taftish bosh boshqarmasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining maqsadli ishlatilishi yuzasidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish;

– Pensiya jamg‘armasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

[92] Mazkur Palata O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 21-iyundagi Farmoni bilan tashkil etilgan.

qarorlari va farmoyishlari, shuningdek Pensiya jamg'armasi budjetining ijrosi bilan bog'liq boshqa qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash;

– budjet va smeta-shtat intizomiga rioya qilinishini ta'minlash;

– Pensiya jamg'armasi budjetining xarajatlari ijrosini ta'minlash;

– Pensiya jamg'armasi budjetining mablag'lari hisobidan to'lovlarni amalga oshirishning navbatliligi, muddatlariga rioya etilishi va to'liqligini ta'minlash;

– pensiyalar va nafaqalarning to'g'ri tayinlanishi, hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash;

– TMEKlarining faoliyatini nazorat qilish.

Nazorat-taftish bosh boshqarmasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

– Pensiya jamg'armasi budjetining ijrosi bo'yicha davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish;

– Pensiya jamg'armasi budjetining mablag'lari hisobidan to'lovlarni amalga oshirishning navbatliligi, to'liqligi va muddatlariga rioya etilishi, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarning berilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

– ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam to'lovlari uchun kam ta'minlangan oilalarga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi yuzasidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish;

– Pensiya jamg'armasi mablag'larining maqsadli sarflanishi yuzasidan tekshirishlar o'tkazish;

– Pensiya jamg'armasi va uning hududiy bo'linmalarida pensiya va nafaqalarning to'g'ri tayinlanishi, hisoblanishi va to'lanishini, shuningdek, fuqarolarning pensiya yig'majildlaridagi dastlabki hujjatlarning to'liqligi va ishonchliligi yuzasidan tekshirishlarni amalga oshirish;

– barcha tashkilotlar tomonidan ishlayotgan pensionerlarga pensiya va nafaqalarning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi yuzasidan tekshirishlarni amalga oshirish;

– fuqarolarga pensiya va nafaqalarning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Xalq bankining joylardagi bo'linmalari tomonidan o'z vaqtida va to'liq to'lanishi yuzasidan tizimli nazoratni olib borish[93];

[93] O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017-yil 13-martdagi "Pensiya va nafaqalarni to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2826-sonli Qarori ko'ra Xalq banki butun respublika bo'yicha

– Pensiya jamg‘armasi tomonidan amalga oshirilgan boshqa xarajatlarning to‘g‘riligini tekshirish;

– TMEKlari xizmati faoliyatini nazorat qilish;

– o‘tkazilgan tibbiy-ekspert tekshirishlarning to‘g‘riligi va asoslanganligini, shu jumladan, davolash-profilaktika muassasalari tomonidan berilgan dastlabki tibbiy hujjatlarning to‘liqligi va ishonchliligini tekshirish;

– TMEKlari tomonidan berilgan ko‘rikdan o‘tkazish dalolatnomalarini va xulosalarni, zarurat bo‘lganda, mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda qayta ekspertizadan o‘tkazish;

– TMEKlari faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimi mutaxassislarini jalb etgan holda doimiy ravishda tekshirish.



“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda fuqarolarining pensiya ta’minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida 2009-yil 30-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning pensiya ta`minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘rsida”gi 4161-sonli Farmoni tasdiqlandi. 2010-yilning 1-yanvardan boshlab pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to‘lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish Pensiya jamg‘armasining tegishli hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

## 7.2. Pensiya jamg‘armasi faoliyati nazoratida dastlabki, joriy va so‘nggi nazorat

Pensiya jamg‘armasi faoliyatida nazorat o‘tkazilish vaqti bo‘yicha quyidagi shakllarni o‘z ichiga oladi:

---

pensiya va nafaqalar to‘lash bo‘yicha yagona vakolatli bank etib belgilandi. “O‘zbekiston pochtasi” AJ ushbu funktsiyani bosqichma-bosqich bankning maxsus bo‘limlariga topshiradi.

– dastlabki;
– joriy (operativ);
– so‘nggi (kelgusi).

Dastlabki nazorat moliyaviy operatsiyalarning sodir bo‘lishidan oldin amalga oshiriladi va moliyaviy xatoliklarning (buzilmalarning) oldini olish yoki ularni ogohlantirishda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy nazoratning bu shakli mablag‘larning notejamli va nosamarali sarflanishining oldini olish uchun xarajatlarning moliyaviy jihatdan asoslangan bo‘lishini ko‘zda tutadi. Makrodarajada bunday nazoratga misol sifatida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari bashoratlari asosida barcha darajadagi budjetlarni va nobudjet fondlarining moliyaviy rejalarini tuzish va tasdiqlash jarayonini ko‘rsatish mumkin. Mikrodarajada esa ular moliyaviy rejalar va smetalar, kredit va kassa arizalari, biznes-rejalarning moliyaviy bo‘limlari, bashorat balanslarini tuzish, hamkorlikdagi faoliyat to‘g‘risida shartnoma va h.k.lardan iborat bo‘lishi mumkin.

Joriy (operativ) nazorat pul bitimlari, moliyaviy operatsiyalar, ssuda va subsidiyalarni berish va h.k.larning sodir bo‘lish vaqtida amalga oshiriladi. Moliyaviy nazoratning bu shakli mablag‘larni olish va ularni sarflash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan qonunbuzarliklardan ogohlantiradi, moliyaviy intizomning mustahkamlanishiga va pul hisobkitoblarining o‘z vaqtida amalga oshirilishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu yerda buxgalteriya xizmatlari katta rol o‘ynaydi.

So‘nggi (kelgusi) moliyaviy hisobot va buxgalteriya hujjatlarini tahlil va taftish qilish yo‘li bilan amalga oshirilib, uning bu shakli iqtisodiy subyektlar moliyaviy faoliyatining natijalarini, taklif etilgan moliyaviy strategiya amalga oshirilganligining samaradorligini, moliyaviy xarajatlarning ularning bashoratlari bilan qiyoslanishini va h.k.larni baholashga mo‘ljallangan.

Pensiya jamg‘armasi tizimda ichki nazoratni amalga oshiradi hamda quyidagilarni ta’minlaydi:

– pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash uchun yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni belgilangan tartibda tekshiradi;

– tayinlanayotgan pensiyani tegishli tartibda komissiya tuzgan holda qayta ko‘rib chiqadi;

– tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo‘jaliklari a’zolari tomonidan taqdim etilgan pensiyalar, Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar olish huquqini beradigan hujjatlarning ishonchliligini tekshiradi;

– aloqa tashkilotlari, banklar tomonidan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri yetkazib berilishi hamda to‘lanishi yuzasidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshiradi;

– AT “Xalq banki”da pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari hamda boshqa to‘lovlarning o‘z vaqtida to‘lanishi monitoringini olib boradi;

– Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparati, hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarni to‘lash uchun nazarda tutilgan Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining o‘z vaqtida va to‘liq moliyalashtirilishi, mablag‘lardan qat’iy maqsadli foydalanilishi uchun javobgardir. Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarni to‘laydigan tashkilotlar Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining o‘z vaqtida va maqsadli to‘lanishi uchun javobgardir. Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparati O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga belgilangan muddatlarda davriy buxgalteriya hisobotlarini taqdim etadi. Pensiya jamg‘armasiga muddatida to‘lanmagan majburiy to‘lovlar, badallar va boshqa to‘lovlarni undirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarni to‘lashda Pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan to‘g‘ri foydalanilishini nazorat qilish Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparati va uning hududiy boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo‘limlari, shuningdek, tashkilotlarning rahbarlari va bosh buxgalterlari tomonidan amalga oshiriladi. Zarurat bo‘lganda, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi organlari tomonidan, mustaqil ekspertlar jalb qilingan holda bosh, tumanlararo, tuman va shahar TMEKlari tomonidan berilgan ko‘rikdan o‘tkazish dalolatnomalari va xulosalar hujjatlari takroran ekspertizadan o‘tkazili-

shi mumkin. Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni to'lash bo'yicha xarajatlarning, shuningdek, tashkilotlarning ijtimoiy sug'urta bo'yicha xarajatlarining o'z vaqtida moliyalashtirilishi yuzasidan monitoring olib borish Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparati va uning hududiy boshqarmalari hamda joylardagi tuman (shahar) bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Pensiya jamg'armasidagi monitoring guruhi rahbari va har bir inspektori pensiya va nafaqa bo'yicha aniqlangan ortiqcha to'lovlar summalari, har oylik chegirmalar va undirilgan mablag'lar summasi, shuningdek, har bir qarzdorlik bo'yicha ularning qoldiqlari oylik hisobotini yuritadi.

Pensiya jamg'armasi bo'limiga shaxsning pensiya va nafaqasidan chegirma qilish to'g'risida kelib tushgan ijro hujjatlari Pensiya jamg'armasi bo'limining *"Kelib tushgan hujjatlarni qayd etish kitobi"ga* qayd etiladi va Pensiya jamg'armasi bo'limi boshlig'i ko'rsatmasiga asosan monitoring guruhi rahbariga topshiriladi. Monitoring guruhi rahbari ijro hujjatini *"Pensiya (nafaqa)dan chegirmalar to'g'risida ijro hujjatlarini ro'yxatga olish kitobi"ga* qayd etadi va mazkur shaxs yashaydigan hududga xizmat ko'rsatish uchun mas'ul monitoring guruhi inspektoriga topshiradi. Ijro hujjatiga asosan chegirmalarning to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirilishi bo'yicha mas'uliyat monitoring guruhining tegishli inspektoriga, nazorat esa monitoring guruhi rahbari zimmasiga yuklatiladi. Yo'riqnomaga muvofiq komissiya shaxsga pensiya (nafaqa) miqdoridan ortiqcha pullar to'langan taqdirda pensiya (nafaqa)dan chegirma qilish to'g'risida yo'riqnomaga muvofiq shakldagi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladigan qaror qabul qiladi. Ishlovchi pensionerning F-25 topshiriqnomasiga chegirmani hisobga olgan holda pensiya miqdori va ortiqcha to'langan pensiya summasini to'liq undirish yakunlanadigan muddat ko'rsatiladi. Chegirma qilish to'g'risidagi komissiya qarori *"Pensiya jamg'armasi bo'limi komissiyasining chegirma qilish to'g'risidagi qarorlarini qayd etish kitobi"da* ro'yxatga olinadi. Shaxs O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida boshqa tuman (shahar)ga ko'chib o'tgan taqdirda pensioner yoki nafaqa oluvchining avvalgi yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan pensiya yig'ma jildi va attestatga pensiya (na-

faqa)dan ortiqcha to'lovlar to'g'risida ma'lumotlar kiritiladi. Ortiqcha to'langan pensiya (nafaqa) summasi qoldig'ini ushlab qolish shaxsning yangi yashash joyidagi Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan davom ettiriladi. Ortiqcha to'langan pensiya (nafaqa) summasi bo'yicha qarzdorlikka ega bo'lgan pensioner (nafaqa oluvchi)ning vafoti munosabati bilan olinmay qolgan pensiya (nafaqa) summasini tayinlashda ortiqcha to'lov summasi olinmay qolgan pensiya (nafaqa) summasidan undirib qolinishi lozim. Pensioner (nafaqa oluvchi)ning vafoti yoki O'zbekiston Respublikasidan tashqarisiga doimiy yashash uchun ko'chib ketishi munosabati bilan pensiya (nafaqa) summasidan ortiqcha to'lovlarni hisobdan chiqarish komissiya qaroriga asosan amalga oshiriladi. Pensiya (nafaqa) summasidan ortiqcha to'lovlar sud qaroriga asosan ham hisobdan chiqarilishi mumkin. Pensiya (nafaqa) summasidan aniqlangan ortiqcha to'lovlar naqd pulda yoki pul o'tkazish yo'li bilan Pensiya jamg'armasining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga tegishli to'lovlarni kiritish orqali undirilishi mumkin. Bunda to'lov topshiriqnomasining raqami, summasi va sanasi shaxsiy kartochkaga va axborot tizimiga kiritiladi. Pensiya (nafaqa) summasidan aniqlangan ortiqcha to'lovlardan har oyda chegirma qilib borish ustidan umumiy nazorat Pensiya jamg'armasi bo'limi boshlig'i o'rinbosari tomonidan amalga oshiriladi. Komissiyaning chegirma qilish to'g'risidagi qarori va pensiya (nafaqa)lar bo'yicha ortiqcha to'lovlarning undirilganligi to'g'risida to'lov hujjatlari nusxasi monitoring guruhi inspektori tomonidan pensiya va nafaqalarni tayinlash guruhining tegishli inspektoriga *"Pensiya va nafaqalarni tayinlash guruhiga taqdim etilgan hujjatlarni ro'yxatga olish kitobi"ga* qayd qilish orqali pensiya yig'ma jildiga tikilishi uchun taqdim etiladi.

Pensiya jamg'armasi mablag'laridan qat'iy maqsadli foydalanilishni ta'minlash maqsadida Pensiya jamg'armasi bo'limlari tomonidan pensiya va nafaqalar to'lovi ustidan monitoring ishlari amalga oshiriladi. Monitoring har oyda tanlov asosida Pensiya jamg'armasi bo'limida hisobda turgan pensionerlar va nafaqa oluvchilarning 8 foizidan kam bo'lmagan holda, 12 oy yakunlari bo'yicha esa barchasini qamrab olgan holda o'tkaziladi. Har yilning boshida Pensiya jamg'armasi bo'limi boshlig'ining buyrug'i bilan monitoring o'tkazish grafigi tas-

diqlanadi. Mazkur buyruqda Pensiya jamg'armasi bo'limining mas'ul xodimlarini ko'cha va uchastkalar bo'yicha biriktirish, ish rejasi (ish kuni tartibini nazarda tutgan holda, haftasiga kamida 2 kun mobaynida monitoring o'tkazilishi) va o'rganish grafigi; monitoring o'tkaziladigan kunda kamida 40–50 nafar pensioner va nafaqa oluvchilarni monitoringdan o'tkazish talablari ko'zda tutilgan bo'lishi lozim. Monitoring o'tkazish uchun mas'ul Pensiya jamg'armasi xodimi tegishli uchastkalarda yashovchi pensionerlar va nafaqa oluvchilar, ularning pensiyalari hamda nafaqalari miqdorlari aks ettirilgan ro'yxat bilan ta'minlanadi. Monitoring uchun mas'ul har bir pensioner va nafaqa oluvchi bilan suhbat o'tkazadi, va monitoring natijalari bo'yicha anketani to'ldiradi. Monitoring davomida monitoring uchun mas'ul quyidagi holatlarni aniqlaydi:

– pensioner yoki nafaqa oluvchining tirik ekanligi;

– ishga joylashganligi;

– yashash joyi o'zgarganligi yoki O'zbekiston Respublikasidan tashqariga doimiy yashash uchun ko'chib ketganligi;

– jazoni ijro etish muassasasida ekanligi;

– doimiy (vaqtinchalik) ro'yxatdan o'tgan joyi;

– pasportning amal qilish muddati;

– keksalar va nogironlarning internat uylarida yashayotganligi;

– ishonchnoma orqali pensiya va nafaqa to'lovi to'g'ri to'lanayotganligi;

– pensiya va nafaqani qaydnomada ko'rsatilgan pensionerga yoki nafaqa oluvchiga shaxsan to'lanayotganligi;

– bank plastik kartochkasining mavjudligi;

– pensiya va nafaqa to'loviga ta'sir qiladigan boshqa holatlar.

Monitoring o'tkazish davomida aniqlangan huquq buzilish holatlari bo'yicha monitoring uchun mas'ul tomonidan shaxs yoki tegishli fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organi vakili ishtirokida dalolatnoma rasmiylashtiradi. Monitoring o'tkazish davomida Pensiya jamg'armasi bo'limi tegishli pochta aloqasi obyektlaridan quyidagilarni talab qilish huquqiga ega: pensiya va nafaqa to'lovi amalga oshirilgan ishonchnomalarning asl nusxalarini; pensiya va nafaqalar to'lovi bilan bog'liq boshqa hujjatlarni.

Monitoring guruhi inspektorlari, shuningdek, Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga qabulga kelgan pensionerlar va nafaqa oluvchilar bilan monitoring o‘tkazadilar va monitoring natijalari bo‘yicha anketani rasmiylashtiradilar. Monitoring uchun mas’ul monitoring natijalari bo‘yicha hujjatlarni Pensiya jamg‘armasi bo‘limi boshlig‘iga taqdim etadi. Pensiya jamg‘armasi bo‘limi boshlig‘i monitoring natijalari bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi yoki nazorat maqsadida qo‘shimcha o‘rganishni tashkil etadi. Zarur hollarda, Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tasdiqlangan grafiklardan tashqari to‘satdan o‘rganishlar tashkil etish huquqiga ega.

Pensiya jamg‘armasi bo‘limi monitoring natijasida aniqlangan holatlar yuzasidan tegishli pochta aloqasi obyektlariga va tijorat banklari filiallariga kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, mablag‘larni tiklashga oid zarur chora-tadbirlarni ko‘rish uchun xat (murojaat) yuboradi. Pochta aloqasi obyekti va tijorat banki filiali kamchiliklarni bartaraf etish va o‘zlashtirilgan mablag‘larni yoki noqonuniy to‘langan pensiya va nafaqalar summalarining tiklanishi bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘radi. Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasi tomonidan Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari xodimlarini jalb qilgan holda o‘tkazilayotgan monitoring sifati o‘rganiladi. Ortiqcha to‘langan pensiya puli bo‘yicha qarzdorlik to‘liq uzilgunga qadar pensiya to‘lash to‘xtatilgan hollarda qolgan qarz sud tartibida davlat budjetiga undiriladi. Ijrosi ta’minlangan ijro hujjatlari kuzatuv xati bilan tegishli tuman (shahar) sud ijrochilari bo‘limiga qaytarilishi lozim. Pensiya jamg‘armasi faoliyatida bunday nazoratlarning amalga oshirilishi mablag‘lardan samarali va maqsadli foydalanish hamda aholini manzilli ijtimoiy himoya qilish imkonini beradi.

### Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

- Davlat moliyasini va iqtisodiy faoliyatni boshqarishda nazorat tizimi deganda nimalarni tushunasiz?
- Iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaviy nazoratning mohiyatini izohlab bering.
- Pensiya jamg‘armasi faoliyati nazoratining predmetini qanday moliyaviy ko‘rsatkichlar tashkil qiladi?

- Pensiya jamg‘armasi faoliyati nazoratining oldida turgan eng asosiy vazifalarni yoritib bering.
- Pensiya jamg‘armasi faoliyati nazoratida qanday usullardan foydalaniladi?
- Pensiya jamg‘armasi faoliyati nazoratida Moliya vazirligining asosiy vazifalarini aytib bering.
- Pensiya jamg‘armasi faoliyati nazoratida Moliya vazirligining asosiy funksiyalarini izohlab bering.
- O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining Pensiya jamg‘armasi faoliyatini nazorat qilishdagi rolini ifodalab bering.
- Pensiya jamg‘armasi faoliyati nazoratida Nazorat-taftish bosh boshqarmasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- Nazorat-taftish bosh boshqarmasi Pensiya jamg‘armasi faoliyati nazoratida qanday funksiyalarni bajaradi?
- Pensiya jamg‘armasi faoliyatida nazorat o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra qanday shakllarni o‘z ichiga oladi?

# 8-bob. PENSIYA JAMG‘ARMASI FAOLIYATIDA AXBOROT TA’MINOTI

## 8.1. Pensiya jamg‘armasi faoliyatida axborot ta’minotining o‘rni va ahamiyati

Bugungi kunda global internet tarmog‘i turli xil insonlarni yagona maqsad bilan birlashishiga katta omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Barcha internet foydalanuvchilari tarmoqdan biror turdagi ma’lumot olishga harakat qiladi. Zamon rivojlangani sayin, shunday vaqtlar keladiki, hujjatni internetda chop etish malakasi yozuv mashinkasidan foydalanish kabi har bir hatto o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan insonning ham qo‘lidan keladi.



Hozirgi vaqtda, hukumatimiz tomonidan interaktiv xizmatlarni shakllantirish, tashkil etish va ularni boshqarishga katta e’tibor berilmoqda. Interaktiv xizmatlarni tashkil etishning eng tez va yaxshi yo‘li, bu, ularni internet tarmoqlari orqali amalga oshirish hisoblanadi.

Interaktiv davlat xizmati – idoralar tomonidan idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiyalar tarmog‘i orqali jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ko‘rsatiladigan xizmatlar.

Interaktiv davlat xizmati quyidagi shakllarda ko‘rsatiladi:

– umumiy foydalaniladigan axborotni e’lon qilish (tarqatish) – tegishli axborot tizimlari, shu jumladan Internet orqali davlat axborot resurslaridan foydalanish bo‘yicha xizmatlarni realizatsiya qilish;

– bir tomonlama o‘zaro hamkorlik – elektron shakldagi hujjatlarning har xil formulyarlaridan foydalanish imkoniyatini berish;

– ikki tomonlama axborot ayirboshlash – so‘rov bo‘yicha qabul qilish, tahlil (ko‘rib chiqish) va javob yuborishni o‘z ichiga oladigan idora xizmatlari (buyurtmanomalar va murojaatlarni taqdim etish, ularni qayta ishlash natijalarini taqdim etish va/yoki berish);

– elektron shakldagi ma’lumotlar to‘liq ayirboshlanishini amalga oshirish, shu jumladan xizmatlar ko‘rsatish va ularga haq to‘lash shaklida ko‘rsatilishi mumkin.

Shu munosabat bilan respublikamizning qator korxona-tashkilotlarining texnika bazasi, jumladan, kompyuter texnikasining yangi avlodi bilan jihozlanishi, shuningdek, ularning global internet tarmoqlariga ulanishi, elektron tarzdagi aloqalar tashkil etilishi kabi chora-tadbirlar yanada kuchaydi. Bularning barchasi tashkilotlarda ish samaradorligini oshirish maqsadida korxona-tashkilotlarga yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda tashkilotlardagi ish jarayonini yangi interfaol usul va vositalardan foydalangan holda, jumladan, masofadan turib ma’lumot almashish, kompyuterlashtirilgan anjumanlar o‘tkazish va ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish jarayonida qo‘llashga qaratilgan tadbirlardir.

So‘nggi yillarda aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni o‘z vaqtida moliyalash, barqaror daromadlarni ta’minlash, shuningdek, yangi dasturiy ta’minotdan foydalangan holda, barcha tarkibiy bo‘linmalar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash Pensiya jamg‘armasi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Davlat pensiya ta’minoti tizimiga rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal joriy etilishi mamlakatimiz miqyosida pensiya va nafaqalarning qonuniy tayinlanishiga, ularning o‘z vaqtida to‘lanishiga, aniq va daliliy hisobotlarni shakllantirilishiga, sohalar bo‘yicha elektron bazalari o‘rtasida axborotlar almashtirishda, budjet mablag‘larining noto‘g‘ri xarajat qilinishining oldini olish vositasiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 19-oktabrdagi “2015–2017-yillarda pensiya ta’minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi 297-sonli Qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan respublikamizning 3 milliondan ortiq pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi fuqarolar bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini ifodalaydigan, uning vositasida pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash, hisob-kitob va qayta hisob-kitob qilish, shuningdek, har oyda tayinlash jarayonlarini avtomatlashtirishni ta’minlaydigan axborot tizimi – “Pensiya” dasturiy majmui joriy etildi. Ushbu dasturning imkoniyatlaridan kelib chiqib, ma’lumotlar almashish va fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida tijorat banklari, Xalq banki, Adliya vazirligi, Soliq idoralari va O‘zbekiston pochtasi bilan axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, ushbu qaror pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlashning eng qulay tizimini yaratishga, ma’lumotnomalar va tasdiqlovchi hujjatlarni qog‘oz shaklida olishni istisno etishga, qolaversa, pensiyalar va nafaqalarni to‘lash uchun mablag‘larni o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlaydigan Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi pensiya ta’minotining yagona idoralararo intergatsiyalashtirilgan axborot tizimi (“Nafaqa” yagona axborot tizimi) tashkil etilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, yurtimizda izchil joriy etilayotgan “Elektron hukumat” tizimi tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir.





Bundan tashqari, nafaqat, pensiya va nafaqa oluvchilar, balki korxona va tashkilotlarga qulaylik yaratish maqsadida, 2017-yildan korxona va tashkilotlar tomonidan Pensiya jamg‘armasining tuman bo‘limlariga (pensiya, so‘yunchi, dafn va kompensatsiya) to‘lov talabnomalarni elektron tarzda yuborish imkoniyati ham yaratildi. Yaqin kelajakda Ichki ishlar, Moliya vazirligi g‘aznachiligi, Arxiv, Oliy sud, Oliy ta’lim, Sog‘liqni saqlash, Statistika qo‘mitasi va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan elektron axborot almashinuvi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, fuqarolarga pensiya ta'minoti borasida yanada qulayliklar yaratish maqsadida bir qator davlat interaktiv xizmatlari amaliyotga joriy etildi[94]:

1. Pensiya jamg'armasi tizimida WS Personal dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu dastur Pensiya jamg'armasining ichki dasturi hisoblanadi. Bunda, asosan, pensiya ta'minotiga oid normativ huquqiy baza, xodimlar to'g'risida ma'lumotlar bazasi, xodimlarning bilim saviyasini oshirish test moduli va ijro intizomini tartibga soluvchi modul va so'rov modullaridan iborot majmua hisoblanadi;



2. Pensionerlarga ularning pensiya miqdorlari oshirilganda ularning mobil aloqa vositalariga SMS xabarlari yuborish tizim joriy etildi. Pensionerlarga qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida mobil telefon yordamida 10711 raqamiga SMS (*Hisob raqami*1# (*RU# rus tilida)) so'rovi yuborish orqali pensiya miqdori va to'lov muddati, pensiyalarning to'langanligi, tayinlanganligi, pensiya muddati to'g'risida batafsil ma'lumotlarni olish imkoniyati bo'yicha interaktiv xizmat amaliyotga tatbiq etildi.

3. Internet tizimi ommaviylashib borayotgan bir paytda pensionerlar davlat pensiya ta'minotiga oid eng so'nggi ma'lumotlarni bevosita Pensiya jamg'armasining (pfru.uz) rasmiy veb-sayti orqali olishlari mumkin. Saytga, shuningdek, pensiya kalkulyatori ruknida fuqarolar o'zlarining dastlabki pensiya miqdorlarini hisoblab chiqishlari va bu bo'yicha batafsil ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin.

4. Shu bilan birga, Pensiya jamg'armasi tizimida tashkil etilgan "Ishonch telefoni" 1140 – qisqa raqamli orqali xizmat joriy qilindi.

Davlatimiz rahbarining 2012-yil 21-martda qabul qilingan "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga binoan davlat pensiya ta'minoti tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalari joriy etilayotir.

[94] Ziyadullayev M.J. Pensiya ta'minotidagi islohotlar va yaratilgan interaktiv xizmatlar. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezislar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2017. 21-b.

## 8.2. Pensiya jamg‘armasi faoliyatida avtomatlashtirilgan PK "Pensiya" dasturi, uning mazmuni, maqsadi, vazifalari va ishlash mexanizmi



Pensiya va nafaqalarni hisobga olish, tayinlash hamda to‘lashni tashkil etish, zamonaviy innovatsiya dasturiy mahsulotlaridan foydalanish orqali Pensiya jamg‘armasining barcha tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasida samarali elektron hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilgan. "Pensiya" dasturiy kompleksi shulardan biridir. Mazkur kompleks O‘zbekistondagi yirik kompaniyalardan biri – "Fido-biznes" mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan hamkorlikda yaratildi. Tizimni ishlab chiqish 2010-yilning mayida boshlangan edi. Bir yildan so‘ng bu jarayon Pensiya jamg‘armasining Toshkent shahar va viloyatidagi tuman bo‘limlarida davom ettirildi. 2012-yilning birinchi choragida dasturiy kompleks O‘zbekistonning barcha hududlarida ishga tushirildi. Ayni paytda barcha pensionerlar va nafaqa oluvchilar haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni shakllantirilgan yagona elektron axborot bazasi o‘z ichiga olgan, pensiyalarni tayinlash hamda to‘lash joriy etilgan dasturiy majmua orqali amalga oshirilmoqda.



U ishonchli himoya qilingan va markazlashtirilgan yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, foydalanuvchilarni ishonchli, to‘liq hamda dolzarb axborot bilan o‘z vaqtida ta'minlash imkonini beradigan avtomatlashtirilgan axborot tizimidir

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda ham, jumladan, AQSHda ham pensiya tizimini boshqarish, pensiya imtiyozlarini belgilash, pensiya tizimida investitsiyalarni boshqarish va boshqalar maxsus kompyuter dasturlari asosida amalga oshiriladi[95].

[95] Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 29, 85, 111.

"Pensiya" dasturiy majmui pensiya va nafaqalarni tayinlash, ularning hajmini hisoblash, pensiya hamda nafaqalarni qonunchilikka asosan qayta hisob-kitob qilish va hisobga olish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan.



Mazkur tizim jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlarida pensionerlarni ro'yxatga olish, ular haqidagi axborotni saqlash, qayta ishlash va berish, qayta ishlanayotgan axborotning tezkorligi va ishonchliligini oshirish uchun pensionerlar to'g'risida markazlashtirilgan yagona ma'lumotlar bazasini yaratishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, dasturiy mahsulot to'lov hujjatlarini (pensiya va nafaqalar to'lash uchun vedomostlar) shakllantirish, elektron to'lov hujjatlarini to'lovlar uchun mas'ul tegishli tashkilotlarga jo'natish imkonini beradi. "Pensiya" dasturiy majmuidan foydalanish hisobdorlik shakllarini jamg'arma bo'linmalari darajasida olish, fuqarolar pensiya ta'minoti tizimining faoliyat ko'rsatkichlarini sifat jihatidan yaxshilash, pensiya va nafaqalarni turlari bo'yicha moliyalashtirishni hisobga olish hamda monitoring qilishga yordam beradi.

"Pensiya" dasturiy majmui 196 tuman va shahar bo'limlarida mahalliy hisoblash tarmog'ini joriy etish, uni Moliya vazirligi korporativ tarmog'iga ulash, pensionerlar haqidagi shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi saqlangan holda ishlarni tezlashtirishga yordam berdi[96]. Ushbu dastur yordamida xodimlar faoliyatidagi xatolarni tez aniqlash, pensiyalarni tayinlash va to'lashda yomon niyatli odamlar xatti-harakatining oldini olish mumkin. Shu bilan birga, dasturda davlat pensiya va nafaqalarini tayinlash, qayta hisob-kitob qilish va to'lash bo'yicha daromadlar hamda xarajatlarning kunlik balansini tuzish, jamg'arma mablag'larining sarflanishini barcha joylarda tezkor qayd etish, markazlashtirilgan ma'muriy nazoratni amalga oshirish imkoni ham bor.

---

[96]http://uza.uz/oz/business/pensiya-jamg'armasi-uchun-yangi-texnologiyalar.




Ta'kidlash kerakki, "Pensiya" dasturiy majmui orqali pensionerlarga interfaol xizmatlarni ko'rsatish kengaytirildi. Xususan, ular hisoblangan pensiya hajmi haqidagi ko'chirmani elektron pochta, mobil telefonda qisqa xabar orqali olishlari mumkin. Bundan tashqari, telefonga pensiyalar oshgani haqidagi ma'lumotlar ham kelib tushadi.



Pensionerlarga pensiya ta'minotidagi oxirgi o'zgarishlar va yangiliklar haqida ma'lum qilinadi, mutaxassisni "shoshilinch liniya" va saytdagi opsiya orqali chaqirish imkoni ham mavjud (pensionerlarga maslahat berish va ularning savol hamda e'tirozlarini ko'rib chiqish uchun). Pensionerlar interfaol xizmatlar afzalligini ilk bor 2012-yil avgustda his etishdi.

Prezidentimiz tomonidan 2012-yil 5-iyulda imzolangan "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq pensiyalar miqdorining 1,15 barobar oshirilishi, shuningdek, pensiyalari miqdori haqidagi ma'lumotlar telefon xabarlari orqali ularning mobil telefonlariga jo'natildi[97].

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi "Pensiya" dasturiy majmuining boshqa elektron ma'lumotlar bazalari bilan hamkorlik qilish ustida ish olib bormoqda. Masalan, budjetlar kesimida jamg'arma daromad va xarajatlarini shakllantirish hamda ro'yxatini jo'natish bo'yicha Moliya vazirligi G'aznachiligining ma'lumotlar bazasi, online rejimida pensiya va nafaqalarni to'lash uchun har oylik elektron

[97]http://uza.uz/oz/business/pensiya-jamg'armasi-uchun-yangi-texnologiyalar.

vedomostlarni shakllantirish hamda jo‘natish bo‘yicha “O‘zbekiston pochtasi” aksiyadorlik jamiyati ma’lumotlari bazasi shular jumlasidandir. Pensiya va nafaqalarni to‘lash uchun har oylik elektron vedomostlarni shakllantirish hamda jo‘natish bo‘yicha davlat aksiyadorlik tijorat “Xalq banki” va tijorat banklari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda, yaqin kelajakda bu ro‘yxatga O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat statistika qo‘mitasini ham kiritish mo‘ljallanmoqda.

## 8.3. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining “SMS-Pensiya” interaktiv xizmati



Interaktivlik deganda, biz o‘rganayotgan fan kesimida texnik vositalar, kompyuter, ularning dasturlari hamda foydalanuvchilar orasidagi o‘rnatilgan muloqotni tashkil etish tushuniladi. Interaktivlik orqali foydalanuvchi moddiy, ma’naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axboriy va ishlab chiqarishning turli manbalaridan ko‘riladigan manfaat mavjud bo‘lsa, unga interaktiv xizmat qilingan deb tushuniladi, ya’ni kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchiga interaktiv xizmat tashkil etilgan, deb tushuniladi. Hozirgi vaqtda, Hukumatimiz tamonidan interaktiv xizmatlarni shakllantirish, tashkil etish va ularni boshqarishga katta e’tibor berilmoqda. Interaktiv xizmatlarni tashkil etishning eng tez va qulay yo‘li, bu, ularni internet tarmoqlari orqali amalga oshirish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashabbusi, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish Jamg‘armasining tashkiliy hamda moliyaviy ko‘magi, shuningdek, “Mobi Tel Inform” MChJning tashkiliy-texnik ko‘magi asosida 2017-yil 1-fevraldan Pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiya va nafaqalarni oluvchi shaxslarga SMS-Pensiya interaktiv xizmati taqdim etildi.

Ushbu interaktiv xizmatining tashkiliy-texnik ijrochisi bo‘lib “Mobi Tel Inform” mas’uliyati cheklangan jamiyat hisoblanadi. Mazkur interaktiv xizmat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18-fevraldagi “Keksalarni e’zozlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2302-sonli Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 1-martdagi 165-F-sonli Farmoyishi asosida ishlab chiqilgan.



“SMS-Pensiya” xizmati davlat pensiya ta’minoti sohasidagi axborot beruvchi va xabardor qiluvchi SMS-xabarlarni shakllantirish hamda pensiya va ijtimoiy nafaqalarni oluvchi shaxslarga jo‘natish uchun mo‘ljallangan.

“SMS-Pensiya” xizmatini joriy etilishining asosiy maqsadi davlat pensiya ta’minoti sohasida pensiya va ijtimoiy nafaqalarni oluvchi shaxslarning so‘rovlariga e’tiborni kuchaytirish hamda ularga bepul SMS-xabarlarni jo‘natish bo‘yicha xizmatni joriy etish orqali tezkorlik bilan javob berish hisoblanadi.

Ushbu tizimda shaxsiy hisob raqamga mobil telefon raqamining biriktirilishi faqat ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi:

1. Foydalanuvchining Pensiya jamg‘armasining tegishli (shaxsiy hisob raqam tegishli bo‘lgan shaxsning hisobda turgan) tuman (shahar) bo‘limiga shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bilan kelishi va tegishli arizani to‘ldirishi orqali amalga oshiriladi.

2. Foydalanuvchi tomonidan mustaqil tarzda o‘zining mobil telefon raqami orqali tegishli belgi, raqam va harflardan iborat SMS-so‘rovni 10711 qisqa raqamga yuborish orqali amalga oshiriladi.



Tizimda ro‘yxatdan o‘tish orqali foydalanuvchi o‘zining mobil telefon raqamiga Pensiya jamg‘armasining barcha turdagi SMS-xabarlarini olishga roziligini tasdiqlaydi. Tizimda foydalanuvchi mobil telefon raqamining ro‘yxatdan o‘tishi 10711 qisqa raqamga quyidagi belgi, raqam

va harflardan iborat SMS-so‘rovni yuborish orqali amalga oshiriladi: *7000007*1*UZ#. Bu yerda: 7000007 – shaxsiy hisob raqam; 1 – ro‘yxatdan o‘tish belgisi; UZ yoki RU – foydalanuvchi ma’lumotlarni qaysi tilda olishini bildiruvchi belgi. Agar til ko‘rsatib o‘tilmasa, unda ma’lumotlar o‘zbek tilida yuboriladi. Tizimda foydalanuvchining muvaffaqiyatli ro‘yxatdan o‘tishi natijasida uning mobil telefon raqamiga ro‘yxatdan o‘tishda tanlagan tilida SMS-xabari keladi.



Tizimda foydalanuvchining qayta ro‘yxatdan o‘tishi faqat bitta yo‘l bilan amalga oshiriladi – foydalanuvchining Pensiya jamg‘armasining tegishli (shaxsiy hisob raqam tegishli bo‘lgan shaxsning hisobda turgan) tuman (shahar) bo‘limiga shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bilan kelishi va tegishli arizani to‘ldirishi orqali. Pensiya jamg‘armasining tegishli tuman (shahar) bo‘limi inspektori 1 ish kuni davomida tizimdagi shaxsiy hisob raqamga yangi mobil telefon raqamini biriktirishi shart deb belgilangan.



SMS-xabar turidan kelib chiqib foydalanuvchi tomonidan “SMS-Pensiya” xizmatidan foydalanishi ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi:

1. Tizimda shaxsiy hisob raqamga tegishli operatsiyalar amalga oshirilganda SMS-xabarlarning avtomatik tarzda shakllanishi va ularning foydalanuvchiga yuborilishi (ro‘yxatdan o‘tgan mobil telefon raqamlarga) orqali;

2. SMS-xabarlarni olish uchun individual SMS-so‘rovlarni jo‘natish (ro‘yxatdan o‘tgan mobil telefon raqamlarga) orqali.

Ma’lum SMS-xabarlarni olish 10711 qisqa raqamga quyidagi raqamdan iborat individual SMS-so‘rovni yuborish orqali amalga oshiriladi: *7000007*61#. Bu yerda: 7000007 – shaxsiy hisob raqam; 61- SMSning tizimdagi kodi. Tizimda foydalanuvchi har bir shaxsiy hisob raqami bo‘yicha “SMS-Pensiya” xizmatini o‘chirishi mumkin.



Foydalanuvchilarning individual SMS-so‘rovlariga asosan yuboriladigan ma’lum SMS-xabarlar tizimda 3 oy davomida saqlanadi.

Foydalanuvchi SMS-xabarni o‘chirib yuborgan, mobil aloqa vositasini o‘zgartirgan taqdirda, u 10711 qisqa raqamga quyidagi raqamdan iborat individual SMS-so‘rovni yuborish orqali o‘tgan davrga tegishli SMS-xabarni olishi mumkin: *7000007*61*112016#. Bu yerda: 7000007 – shaxsiy hisob raqam; 61 – SMSning tizimdagi kodi, 112016 – talab qilingan (o‘tgan) davr uchun SMS-xabar.

Xulosa qilib aytganda, pensiya ta’minoti tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining faol joriy etilishi pensiya va nafaqalarning to‘g‘ri va aniq hisob-kitob qilinishini, davlat budjeti mablag‘laridan samarali foydalanilishini, o‘zaro axborot almashinuvining tezkorligi va shaffofligini, pensiya va nafaqa oluvchi fuqarolarga katta qulayliklar yaratilishini ta’minlaydi.

### Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

- Davlat pensiya ta’minoti tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal joriy etilishining qanday afzalliklari mavjud?
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 19-oktyabrdagi “2015–2017-yillarda pensiya ta’minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 297-sonli Qarorining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
- Pensiya jamg‘armasi tizimida WS Personal dasturi qanday dastur hisoblanadi?
- Pensionerlarga ularning pensiya miqdorlari oshirilganda ularning mobil aloqa vositalariga SMS xabarlari yuborish tizimini tushuntirib bering.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martda qabul qilingan “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari-

ni yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining mazmuni va ahamiyatini izohlab bering.

- “Pensiya” dasturiy kompleksining mohiyati, yaratilishi va ahamiyatini tavsiflab bering.
- “Pensiya” dasturiy majmui qanday axborot tizimini anglatadi?
- “Pensiya” dasturiy majmuining boshqa elektron ma’lumotlar bazalari bilan hamkorligi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
- Pensiya jamg‘armasining “SMS-Pensiya” interaktiv xizmati nimalarni ko‘zda tutadi?
- Interaktivlik deganda nimani tushunasiz?
- “SMS-Pensiya” xizmati nimani anglatadi?
- “SMS-Pensiya” xizmatini joriy etilishining asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
- “SMS-Pensiya” xizmati tizimida shaxsiy hisob raqamga mobil telefon raqamning biriktirilishi qanday amalga oshiriladi?
- SMS-xabar turidan kelib chiqib foydalanuvchi tomonidan “SMS-Pensiya” xizmatidan foydalanishi qanday yo‘l bilan amalga oshiriladi?
- Pensiya ta’minoti tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining faol joriy etilishi istiqbolda qanday imkoniyatlarni yaratib beradi?

# 9-bob. PENSIYA JAMG‘ARMASI: KELAJAKKA NAZAR

## 9.1. Pensiya ta’minotining xorij tajribalari va xususiyatlari



Xalqaro amaliyot ko‘rsatishicha, aksariyat mamlakatlarda – taqsimlanuvchi davlat hamda majburiy va ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan – aralash pensiya tizimlari amal qilmoqda. Pensiya tizimining aralash turi moliyaviy barqarorlik va to‘lanayotgan pensiya darajasi nuqtayi nazaridan samarali hisoblanadi[98]. Jahon amaliyotida jamg‘arib boriladigan va taqsimlanuvchi pensiya modellari sof holda kam uchraydi. Bir vaqtning o‘zida majburiy va ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan qismlari mavjud pensiya tizimi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo mamlakatlar orasida faqat Norvegiyada amal qiladi[99].



Finlyandiya pensiya tizimida asosiy o‘rinni taqsimlovchi pensiya tizimi egallaydi. Taqsimlovchi pensiya tizimi bazaviy va sug‘urtaviy qismga bo‘linadi. Bazaviy qism milliy (davlat) pensiyaning minimal miqdorini kafolatlaydi. Mehnat pensiyasining sug‘urtaviy qismi markazlashmagan bo‘lib, sug‘urta kompaniyasi yoki pensiya fondining tanlab olingan sxemasi bo‘yicha badallar hisobiga shakllanadi. Sxemalar tarmoq, alohida korxona, ijtimoiy guruhlar tarzida bo‘lishi mumkin. Sxemalar qisman fondlashtirilgan bo‘ladi.

Norvegiyada pensiyalar har bir fuqaroga davlat tomonidan to‘lanadi va uning miqdori mehnat staji va ish haqi miqdoriga bog‘liq bo‘ladi.

---

[98] Федотов А.И. Анализ моделей построения пенсионных систем // Труды ИСА РАН. 2008. № 38. С. 168–173.; Stalebrink J. Public pension funds and assumed rates of return: an empirical examination of public sector defined benefit pension plans // American review of public administration. 2014. № 1(44). P. 92–111.

[99] Rozanov A. Public pension fund management: best practice and international experience // Asian Economic Policy Review. 2015. № 10. – P. 275–295.




Bundan tashqari, mamlakatda neft hisobidan orttirilgan yuqori daromadlar joylashtirilgan pensiya fondi mavjud. Davlat ushbu fond mablag'larini butun dunyo bo'yicha ko'chmas mulk va fond bozoriga investitsiya qiladi. Norvegiyada (skandinaviya mamlakatlarida ham) pensiyaga chiqish yoshi ayollar uchun ham, erkaklar uchun ham – 65–67 yoshni tashkil qiladi, biroq Hukumat hozirgi kunda pensiya yoshini 70 ga yetkazish choralarini ko'rmoqda.




AQSHda davlat pensiya tizimi hamda xususiy pensiya tizimi amal qiladi. Shunga muvofiq ravishda AQSH fuqarolari o'zini bir emas, uch turdagi pensiya bilan ta'minlaydi: davlat; xususiy jamoa (ish joyi bo'yicha) va xususiy individual (shaxsiy pensiya hisobraqami ochish yo'li bilan). Taqsim-lovchi (davlat pensiyasi) tizimda pensionerlar hozir ishlayotgan fuqarolar tomonidan pensiya fondiga badallarni to'lashlari hisobiga pensiya oladilar. AQSHda eng yirik davlat pensiya tizimi – umumiy Fede-ral dastur hisoblanib, ushbu dastur iqtisodiyotning xususiy sektorida band bo'lgan barcha aholini qamrab oladi va taqsimlovchi tamoyilga asos-lanadi. Dastur 1935-yilda qabul qilingan "Ijtimoiy sug'urta to'g'risida"gi Qonunga asosan amal qiladi va minimal pensiyani ta'minlaydi. Jamg'ariluvchi tizimga esa davlat pensiya dasturlari bilan birga xususiy pensiya dasturlari ham tegishlidir. Jamg'ariluvchi tizimdagi davlat pensiya dasturlari mahalliy organlarda va Hukumat tarkibida ishlovchi fuqarolarga mo'ljallangan. Iqtisodiyotning xususiy sektorida ishlovchilar ish joyida tashkil etiladigan qo'shimcha davlat pensiya tizimida ishtirok etishlari mumkin. Dastur belgilangan to'lovlar asosida ish beruvchilar tomonidan qilinadigan ajratmalar hisobidan shakllanadi, bunda ishlovchilar ishtirok etmaydi. Har bir AQSH fuqarosi tijorat va jamg'arma banklarda, pay fondlarida, sug'urta kompaniyalarida o'zining shaxsiy pensiya hisobraqamini ochishi mumkin. Shaxsiy pensiya hisob raqamiga to'lovlarning yillik miqdorining yuqori chegarasi cheklangan bo'lib, 2000 AQSH dollarini tashkil qiladi. Ushbu hisob raqamdagi mablag'larni 59,5

yoshgacha yechib olish mumkin emas, 79,5 yoshga to'lganda esa hisobraqam majburiy tartibda yopiladi. Hisobraqamdagi ushbu mablag'lar soliqqa tortilmaydi, ammo, ushbu mablag'larni hisobraqamdan yechib olishda hamda hisobraqamni yopishda jamg'arilgan mablag'lardan daromad solig'i olinadi. AQSHda 1938-yilgacha tug'ilgan shaxslar uchun pensiya yoshi 65 yoshni tashkil qiladi. Aholining umrguzaronligi oshib borishi bilan "Ijtimoiy ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga tegishli o'zgartishlar kiritildi va pensiya yoshi 67 yosh qilib belgilandi. AQSH pensiya tizimining modeli bir qancha Lotin Amerikasi davlatlarida va Portugaliyada ham amal qiladi.



Chili pensiya tizimi dunyodagi innovatsion pensiya tizimlaridan biri hisoblanadi. Pensiya tizimining Chili modelida pensiya jamg'armalari shakllanishining javobgarligi ishlovchi fuqarolar zimmasiga yuklatilgan. Har bir fuqaroning o'zining pensiya hisobraqami mavjud bo'lib, ushbu hisobraqam ishlovchilar ish haqining oylik 10 foizini tashkil etuvchi badallar hisobidan to'ldirib boriladi. Keyinchalik ushbu mablag'lar fuqarolar xohishiga ko'ra xususiy boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan kapitalizatsiya qilinadi. Chilida pensiya yoshi erkaklar uchun 65 yoshni, ayollar uchun 60 yoshni tashkil qiladi.



Pensiya ta'minoti modellarida budjet hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy ta'minoti muhim o'rin egallaydi. Yaponiya 2 darajali pensiya tizimiga ega. Birinchisi – bu bazaviy pensiya, ya'ni bu pensiyani millati, faoliyat turi, daromadi darajasidan qat'i nazar, mamlakatda yashovchi barcha fuqarolar olish huquqiga ega. Bazaviy pensiyalar yoshga doir (65 yoshga to'lgan va sug'urta staji mavjud bo'lgan), nogironlik hamda boquvchisini yo'qotganlik pensiyalariga bo'linadi. Ikkinchisi – davlat va kasb pensiyalari. Buni yollanma ishchilar bazaviy pensiyaga qo'shimcha tarzda oladilar. Yaponiyada pensiyaga chiqish yoshi 65 yoshni tashkil qiladi. Mehnat faoliyati davom etganda pensiya miqdori har yili oshirib boriladi. Xitoyda pensiyalar-

ni dastlab chinovniklar va davlat kompaniyalari ishchilari olishgan. Keyinchalik bu tizimga bozor islohotlari natijasida xususiy sektorda ishlovchi shahar aholisi ham jalb qilingan. 2007-yilda 30 foiz aholi pensiyaga ega bo'lgan bo'lsa, qolganlarini an'anaviy tarzda farzandlari boqishgan. 2009-yilda Xitoy hukumati qishloq aholisi uchun ham pensiyalarni joriy qildi. 2012-yilda pensiya tizimi Xitoy aholisining 55 foizini qamrab oldi. Xitoyda 2013-yilda 60 yoshdan oshgan aholi soni 202 million kishi bo'ldi va aholi sonining 15 foizini tashkil qilmoqda. Bu qatlam bilan ishlash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish, jamiyat hayotidan ajralib qolmasligini ta'minlash yuzasidan Xitoy keng ko'lamli chora-tadbirlarni allaqachon boshlagan.

Xitoyda pensiya badallari aholining qishloq joylarda yoki shaharda yashashiga, davlat tashkilotida yoki xususiy kompaniyalarda ishlashiga bog'liq bo'ladi. Davlat pensiyasi o'rtacha ish haqining 20 foizini tashkil qiladi.

Qishloq joylarda pensiya miqdori dehqonlarining o'rtacha oylik daromadining 10 foizini tashkil qiladi. Xususiy sektorda ishlovchilar ish haqining 8 foizini pensiya fondiga yo'naltiradi, yana 3 foizini ish beruvchi to'laydi. Xitoyda erkaklar 60 yoshdan pensiyaga chiqadi. Boshqaruv sohasida faoliyat ko'rsatuvchi ayollar 55 yoshdan, jismoniy mehnat bilan mashg'ul ayollar 50 yoshdan pensiyaga chiqadi. Pensiya olish uchun mehnat staji 15 yilni tashkil qiladi.

Barcha taraqqiy etgan mamlakatlar pensiya bo'yicha o'zining jamg'arma tizimiga ega. Qoida tarzida, bu tizimda 40 foiz aholi ishtirok etadi. Ayrim mamlakatlarda (AQSH) bu ko'rsatkich 80 foizga yaqin. Shunga mos ravishda pensiyaning o'rtacha miqdori ham har bir davlatda turli miqdorlarni tashkil qiladi[100]. Masalan, Finlyandiyada 2015-yilda pensiyaning o'rtacha miqdori ish haqining 58 foizini, ya'ni 1982 AQSH dollarini tashkil qilgan.



Germaniyada pensiyaning o'rtacha miqdori 2015-yilda 1400 AQSH dollarini tashkil qilgan. Agar pensioner mehnat qobiliyati mavjud bo'lgan davrda ishsiz bo'lsa yoki unga hisoblan-

[100] National officials, OECD calculation and Turner, 2016. – P. 231.

gan pensiya yashash minimumidan kam bo‘lsa, davlat ushbu farqni qoplab beradi. Shuningdek, davlat pensionerlarning kommunal xarajatlarini o‘z zimmasiga oladi.

AQSHda pensiyaning o‘rtacha miqdori 1200 AQSH dollarini tashkil qiladi va bu miqdor o‘rtacha ish haqining 50 foizini tashkil qiladi. Ishchilar o‘z daromadlarining 7,5 foizini, ish beruvchilar ham 7,5 foizini pensiya fondiga o‘tkazib boradi. Nodavlat sektorida faoliyat ko‘rsatuvchi biznesmenlar, advokatlar va boshqalar mustaqil tarzda 15 foiz mablag‘ni pensiya fondiga o‘tkazadi.

Gretsiyada 2015-yilda pensiyaning o‘rtacha miqdori 573 AQSH dollarni, Ukrainada 52, Belorussiyada 175, Qozog‘istonda 250, Armeniyada 100, Bolgariyada 140, Gruziyada 60, Latviyada 335, Estoniyada 255 AQSH dollarini tashkil qiladi.

Hozirda ko‘plab mamlakatlarda pensiyaga 65 yoshdan chiqiladi (9.1-jadval). Yevropa va AQSHda yaqin yillar ichida bu chegarani 70 yosh qilib belgilash nazarda tutilmoqda. 2005-yildayoq Yevrokomissiya Yevropa Ittifoqi mamlakatlari pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirib borishi zarurligi bo‘yicha tegishli tavsiya bergan. 2060-yilga borib iqtisodiy nuqtai nazardan optimal variant 70 yosh atrofida bo‘ladi.

Rossiyada pensiya yoshi 2015-yilda erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yoshni tashkil etar edi. Lekin ushbu mamlakatda ham pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirib borish jarayoni boshlandi va 2016-yilda erkaklar 61 yoshda, ayollar 56 yoshdan pensiya chiqishi va shu zaylda davom etib, 2020-yilga borib erkaklarning 65 yoshda, ayollarning 60 yoshda pensiyaga chiqishi qonunan belgilab qo‘yildi.

*9.1-jadval*

## Xorijiy mamlakatlarning pensiya tizimlari[101]

| Mamlakatlar | Moliyaviy jihatlari | Pensiyaga chiqish yoshi erkaklar / ayollar | Sug'urta badallarini to'lash staji | Pensiyani hisoblash uchun daromadlarni hisobga olish davri | Maksimal qoplash koeffitsiyenti | Nafaqalarning indeksatsiya qilinishi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| AQSH | Qisman jamg'ari-luvchi | 65/66 | 35 | To'liq mehnat davri | 41,0 | Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha |
| Yaponiya | Qisman jamg'ari-luvchi | 60/55 | 40 | To'liq mehnat davri | 30,0 | Sof ish haqi |
| Germaniya | Taqsimlovchi | 65/65 | 40 | To'liq mehnat davri | 60,0 | Sof ish haqi |
| Fransiya | Taqsimlovchi | 60/60 | 38 | Birmuncha foydali 12 yil | 50,0 | Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha/ bruggo ish haqi |
| Italiya | Taqsimlovchi | 62/57 | 40 | Oxirgi 5 yil | 80,0 | Iste'mol narxlari indeksi bilan bog'liq holda |
| Buyuk Britaniya | Taqsimlovchi | 65/60 | 50 | To'liq mehnat davri | 20,0 | Iste'mol narxlari indeksi bilan bog'liq holda |
| Kanada | Taqsimlovchi | 65/65 | 40 | To'liq mehnat davri | 25,0 | Iste'mol narxlari indeksi bilan bog'liq holda |
| Shvetsiya | Qisman jamg'ari-luvchi | 65/65 | 30 | Birmuncha foydali 12 yil | 60,0 | Iste'mol narxlari indeksi bilan bog'liq holda |

[101] Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA.: "Auerbach Publications", 2008. – R. 65.



Yuqorida amaliyotlari tahlil etilgan xorijiy davlatlarda pensiya tizimida o'ziga xoslik va dunyoning ko'plab rivojlanayotgan va zaif iqtisodiy rivojlanishda bo'lgan davlatlari uchun tajribalar orttirishga munosib yutuqlar ham mavjudligini ko'rish mumkin. Biroq, shu bilan birga, ularda ham hal etilishi jiddiy dolzarblikka aylanib borayotgan muammolar ham yo'q emasligini ta'kidlab o'tmoq joizdir.

Xususan:

– Ayniqsa, AQSH va Yevropa davlatlarida pensiya yoshidagilarning aholi soniga nisbatan ulushining yil sayin ortib borayotganligi, qolaversa, ushbu pensiya yoshidagilar muayyan darajada yana mehnat faoliyatini olib borishga qobil bo'lsa-da, biroq, ularning (AQSH, Daniya, Finlyandiya, Fransiya va boshqa taraqqiy etgan davlatlarda) pensiya haqlarining yuqori darajada saqlanib qolayotgani aholining katta qismi (80 foizi) jamg'arib boriladigan tizimlarida ishtirok etishiga va buning natijasida mehnat faoliyatini davom ettirishga hojat yo'qligini keltirib chiqarmoqda. Qiyosiy baholash uchun Osiyoda bu ko'rsatkich 40 foizni, Afrikaning qoloq davlatlarida esa atigi 5 foizni tashkil qiladi;

– Xalqaro valuta jamg'armasi ekspertlari ishonchiga ko'ra, insoniyatning qarishi taraqqiyotga jahon iqtisodiy inqirozidan ham yomonroq zarba bo'lar ekan. "Moody's" baholash agentligi hisobotida keltirilishicha, 2020-yilga borib dunyoda "qarigan" mamlakatlar soni 13 taga, 2030-yilda esa 34 taga ko'payadi. Tahlillarga ko'ra, 2012-yilda dunyo bo'yicha 15 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan jami mehnatga layoqatli aholining ulushi jahon tarixida eng yuqori cho'qqiga erishgan va 66 %ni tashkil etgan. Undan keyingi yillarda esa ushbu ko'rsatkichning tobora pasayib borganligi, 2050-yilga borib uning yanada pasayib ketishini va ushbu salbiy o'zgarishlar, asosan, rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri kelishi qayd etilgan. Bu, eng avvalo, yuqori darajada daromad oluvchi rivojlangan mamlakatlarda tug'ilishning pasayib ketishi bilan bog'liqligi asoslangan. Jumladan, ushbu davlatlarda 1950-yilda bir ayolga nisbatan to'g'ri keluvchi

tug'ilgan bolalar soni 4,05 tani tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 1,8 tani tashkil etgan. 2050-yilga borib, bu miqdor 1,7 tani tashkil etishi prognoz qilinmoqda[102];

– dunyo amaliyotida qo'llaniluvchi "demogarfik dividendlar" (mamlakatdagi mehnatga layoqatli aholi yoshi va imkoniyati, demografik o'zgarishlardan dividendlar olish – bu mamlakatdagi mehnatga layoqatli aholi imkoniyatlaridan foydalanish jarayoni), asosan, aholining o'sishi, aholining jismoniy, intellektual va boshqa imkoniyatlarining ortishidan, mehnatga layoqatli aholi soni va ulushining ortishidan hamda ularning ichki va tashqi migratsiyasidan samarali foydalanib kelgan rivojlangan davlatlarda, ko'proq, o'z oqibatlarini namoyon etmoqda. Aynan mana shunday davlatlarda bugungi kunda "demografik dividendlar"dan foydalanishda salbiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, 2015-yilda "demografik dividendlar" olishdan keyingi bosqichdagi bu kabi mamlakatlarda mehnatga layoqatli aholining o'sish sur'ati atigi 0,7 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2050-yilga borib, bu ko'rsatkich -0,22 %ga tushib ketishi prognoz qilinmoqda. Bu esa aynan hozirgi kunning o'zida ushbu mamlakatlarda avvallari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirgan "demografik dividendlar" endilikda "demografik soliqlar"ga o'zgarayotganligini, ya'ni pensiya yoshidagi aholi soni yil sayin ortib borgan holda ularni pensiya bilan ta'minlash xarajatlarining tobora ortib borayotganligini ko'rsatadi. Bu esa rivojlangan davlatlarda ish bilan bandlik va pensiya tizimida o'ziga xos bog'liqlik va muvozanatni ta'minlash bo'yicha yangicha islohotlarni olib borishni taqozo etmoqda. O'z navbatida, qarish jarayoni faqat rivojlangan davlatlar muammosi emas. Rossiya, Tailand, Chili va Xitoyda ham demografik ahvol tez yomonlashmoqda. Hatto, nisbatan yosh hisoblangan Braziliya va Turkiya ham qarimoqda[103]. Demak, dunyoning barcha davlatlarida ham pensiya tizimini isloh etib borish doimiy jarayonga aylanishi talab etiladi;

– hatto, rivojlangan davlatlarda ham pensiya ta'minotida hal etilmagan jiddiy muammolar mavjudligi namoyon bo'lmoqda. Jum-

[102] http://www.hrsdc.gc.ca/en/isp/common/hrsdc/ris/rismain.shtml. sayti ma'lumotlari.

[103] http://www.hrsdc.gc.ca/en/isp/common/hrsdc/ris/rismain.shtml. sayti ma'lumotlari.

ladan, iqtisodiy bankrotlik yoqasiga kelib qolgan Gretsiya bu borada juda o'tkir muammolarga duch kelyapti. Greklar 37 yillik ish stajiga ega bo'lsa, 58 yoshda pensiyaga chiqishi mumkin edi. Shu kunlarda hukumat minimal ish stajini 40 yil qilib belgiladi. Boz ustiga, Gretsiya hukumati Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari bilan pensiya jamg'armasi hamkorligini yaxshi yo'lga qo'ymagani bois jiddiy muammolar yuzaga keldi. "Gretsiya ijtimoiy hayotida g'alati holat fosh etilgan va rasmiy choralar ko'rilgan edi. Ya'ni vafot etgan pensionerlar pensiyasi ularning qarindoshlariga berib kelingan. Pensionerlarning o'lgani hech qayerda qayd etilmagani bunga sabab bo'lgan. Bunday holat 63,5 mingtani tashkil etgani, ayniqsa, ajablanarlidir. Keyingi tekshiruvlarda yana 50 mingta shunday holat aniqlandi[104]. Shuningdek, Fransiya davlatida pensiya yoshi 60 yosh qilib belgilangan bo'lsa-da, ammo sobiq prezident N.Sarkozi uni 62 yoshga ko'tarish bo'yicha qaror qabul qilgan edi, yangi saylangan prezident F.Olland ham bu siyosatni izchil davom ettirmoqda. Agar hukumatlar 2050-yilga qadar pensiya yoshini ko'tara olmasa, Yevropada pensiya jamg'armalari taqchilligi yiliga 100 milliard yevrodan kam bo'lmaydi. Ammo kasaba uyushmalari va muxolifat vakillari bunday choralar bilan kelisha olmayapti[105].

O'zbekiston Respublikasida o'ziga xos pensiya tizimi amal qiladi. Jumladan, respublikamizda erkaklar 60 yoshdan, ayollar 55 yoshdan pensiyaga chiqadilar. Rivojlangan va boshqa ko'pgina davlatlardan farqli o'laroq, mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi yaxshi rivojlangan. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda 2015-yilni "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilganligi va "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun 2 trillion 246 milliard so'm va 225 million dollardan ziyod mablag'lar ana shu ezgu maqsadlarga yo'naltirilganligi buning yaqqol misolidir.

---

[104] Pensiya muammosi // "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2015-yil 24-sentabr, 113-son.

[105] http://delo.ua/world/v-evrosojuze-povysit-pensionny-140894/ © delo.ua. sayti ma'lumotlari.

Umuman olganda, O‘zbekiston barcha sohalar singari pensiya tizimini rivojlantirib borishga doimiy e’tibor qaratib kelmoqda. Bu borada aholi, mehnatga layoqatsiz bo‘lgan fuqarolar manfaatlari uchun xizmat qiladigan ijtimoiy himoya va ta’minot hamda pensiya tizimining zaruriy huquqiy asoslari yaratilganligi, pensiya va boshqa ijtimoiy nafaqalarning yil sayin oshirib borilayotganligini alohida ta’kidlab o‘tmoq lozim. Shunday bo‘lsa-da, pensiya tizimi rivojlanishini izchil davom ettirish va uning yanada samarali bo‘lishini ta’minlashda xalqaro ilg‘or tajribalarni o‘rganib borish asosida quyidagilarni alohida ta’kidlash zarur:

1. Bugungi kunda jahonda barcha sohalardagi kabi turli mamlakatlardagi pensiya tizimi transformatsiyasi yuz berayotganligi va bu jarayonda milliy pensiya tizimlaridagi islohotlar doimo ijtimoiy bosim keltirib chiqarishi sababli ushbu masalaga, ayniqsa, rivojlangan davlatlarda ehtiyotkorlik bilan yondashadi.

2. Yaponiya davlati tajribalariga muvofiq mamlakatimizda ham aholining o‘rtacha umr ko‘rish yoshi oshib borayotganligi hamda ularning tibbiy jihatdan salomatligini mustahkamlash tizimining yanada rivojlanib borayotganligini inobatga olib, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda yana 5 yil ishlash va so‘ng pensiyaga chiqqanidan (65 yoshdan) so‘ng ham mehnat faoliyatini davom ettirgan taqdirda pensiya miqdorini har yili muayyan koeffitsiyentda oshirib borish zarur.

3. Turli rivojlangan davlatlarda pensiyani hisoblash uchun daromadlarni hisobga olish davri turlicha yilni tashkil etadi. Shular jumlasida, Fransiya va Shvetsiyada pensionerlarga pensiyani hisoblash uchun daromadlarni hisobga olish davri birmuncha foydali bo‘lgan 12 yilni o‘z ichiga qamrab oladi. Ushbu foydali 12 yil pensiyani hisoblashda muayyan qulaylikni va adolatlilikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

4. AQSH davlatida pensiyaning o‘rtacha miqdori 1200 AQSH dollarini tashkil qiladi va bu miqdor o‘rtacha ish haqining 50 foizini tashkil qiladi. Shu sababli respublikamizda ham pensiyaning o‘rtacha miqdori o‘rtacha ish haqining 50 foizdan kam bo‘lmasligini ta’minlash maqsadga muvofiqdir.

5. AQSH pensiya tizimining modeli bir qancha Lotin Amerikasi davlatlarida va Portugaliyada ham amal qiladi. Unga ko‘ra, har

bir AQSH fuqarosi tijorat va jamg'arma banklarda, pay fondlarida, sug'urta kompaniyalarida o'zining shaxsiy pensiya hisobraqamini ochishi mumkin va ushbu pensiya hisob-raqamiga to'lovlarning yillik miqdorining yuqori chegarasi belgilangan bo'lib, undagi mablag'larni 59,5 yoshgacha yechib olish mumkin emas, pensioner 79,5 yoshga to'lganda esa hisobraqam majburiy tartibda yopiladi. Ushbu mablag'larni hisob-raqamdan yechib olishda hamda hisobraqamni yopishda jamg'arilgan mablag'lardan daromad solig'i olinadi. Bunday qulay tajribani milliy amaliyotimizda ham qo'llash: birinchidan, banklarda fuqarolarning qo'shimcha shaxsiy pensiya jamg'armalari tashkil etilishiga va ularning daromad keltirishiga; ikkinchidan, ushbu shaxsiy pensiya hisobraqamidagi mablag'larning mobilizatsiyasi *hisobiga banklar qo'shimcha daromad hosil qilishiga; uchinchidan,* ushbu mablag'lardan daromad oluvchilar daromad solig'i to'lashi evaziga budjet daromadlarining yanada ortishiga imkon beradi.

## 9.2. Pensiya majburiyatlari va pensiya aktivlari o'sishini boshqarish



Ma'lumki, pensiya majburiyatlari pensiyalarni o'z vaqtida va to'liq miqdorda to'lashni va pensiya aktivlari pensiya fondlariga kelib tushuvchi mablag'larni anglatadi. Pensiya majburiyatlari va pensiya aktivlari o'sishini boshqarish bo'yicha AQSH boy tajribaga ega.

AQSHda davlat va mahalliy pensiya fondlari faoliyat ko'rsatadi. Davlat va mahaliy pensiya fondlari rejasining kelib chiqish tarixi o'tgan XX asrga borib taqaladi. Budjet tashkiloti xodimlarini qisman yoki to'liq qamrab olgan davlat va mahalliy pensiya to'lovlari hukumat ishchilari uchun ularning pensiyalarini qoplashning muhim qismi hisoblanadi va qarilikda moliyaviy ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat pensiya rejalarini boshqarish XX asrning ikkinchi yarmida tobora murakkablashib bordi. Bunday murakkablashib borish quyidagi uch jihatda namoyon bo'ladi:

1. Ko‘pchilik davlat va mahalliy pensiya rejalari pensiyalarni moliyalashtirish siyosatida *"pay-as-you-go"* tizimidan to‘liq aktuar moliyalashtirish tizimiga o‘tishdi.

2. Pensiya aktivlari boshqaruvi zamonaviy investitsiya menejmenti nazariyalari asosida yanada professionallashgan darajada boshqariladi. Investitsion portfellar tarkibi kapital, ko‘chmas mulk, daromadliligi belgilangan aktivlar va muqobil investitsiyalardan iborat bo‘lgan yanada diversifikatsiyalashgan investitsiya portfeliga o‘zgardi. Bunday diversifikatsiya davlat va mahalliy pensiya rejalarida ko‘proq riskni yuzaga keltirsada, umumiylikda davlat va mahalliy pensiya tizimlariga ikki muhim afzallikni keltirdi. Birinchisi, bu davlat va mahalliy pensiya tizimlari uchun yuqori, uzoq muddatli investitsion qaytim va yaxshiroq moliyalashtirish darajasiga, xususan, moliyalashtirish darajasi 1950-yildagi 50 foizdan 2005-yilda 87 foizga ko‘tarildi. Ikkinchisi, investitsion daromad sababli davlat va mahalliy ish beruvchilar va ishlovchilarning pensiya badallari to‘lovi bo‘yicha og‘irliklarini sezilarli darajada qisqartirdi. 1996 va 2005-yillar orasidagi 3 yillik fond bozori pasayishlari davrini ham o‘z ichiga oluvchi o‘n yillik davrda pensiya aktivlari o‘sishida ish beruvchilar va xodimlarning jami badallari umumiy aktivlarning 1/3 qismini tashkil etgan, investitsion daromadlar esa jamida 2/3 qismni egallagan.

3. 2000-yillar boshidagi fond bozori inqirozi sababli pensiya tizimiga bozor o‘zgaruvchanligi ta’sirini kamaytirish qadamlarini qo‘yishdi.

2006-yilda 3 trillion AQSH dollarlik aktivlarga ega bo‘lgan davlat va mahalliy pensiya tizimlari davlat sektoridagi moliyaviy menejmentning ajralmas qismi bo‘ldi. Umuman, yirik davlat darajasidagi pensiya tizimlari yaxshi moliyalashtirilgan bo‘ladi. 2000-yillar boshidagi fond bozorlaridagi pasayishlar tufayli umumiy moliyalashtirish darajasidagi sezilarli tushishlardan keyin, o‘rtacha moliyalashtirish darajasi yana ko‘tarila boshlandi. Hozirgi vaqtda yaxshi moliyalashtirilmagan davlat darajasidagi pensiya tizimlari bilan bir qatorda, Florida Pensiya tizimi kabi yuqori darajada moliyalashtirilgan pensiya tizimlari ham mavjud. Yuqori va past darajada moliyalashtirilgan pensiya tizimlari kelajakdagi pensiya tizimlari menejementi uchun muhim saboqlarni

beradi. Hattoki, davlat va mahalliy pensiya tizimlari pensiya to'lovlarini to'lash uchun aktivlarni to'plashda katta yutuqlarga erishganligiga qaramasdan, uzoq muddatli tendensiyalardan aniqki, kelajakda davlat pensiya tizimlarini boshqarishda o'tgan davrdagiga nisbatan yanada murakkab vazifalar yuzaga kelishi mumkin:

– pensiya mas'uliyati yuzasidan odamlarning umr ko'rish davri uzaymoqda. Zamonaviy sivilizatsiyaning mahsuli bo'lgan uzoq umr ko'rish pensiya rejasiga og'irlik tushiradi. Chunki, uzoq umr ko'ruvchi odamlar ko'proq muddat pensiya olishadi. Pensiya to'lovining har bir qo'shimcha yili pensiya rejasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi (xarajatlarni oshiradi);

– aktivlar qismi bo'yicha esa kelajakda uzoq muddatli investitsion qaytim o'tgan davrdagidek mustahkam bo'lmasligi mumkin;

– keng qamrovli nafaqa to'lovlari nuqtayi nazaridan, nafaqa oluvchining sog'lig'i uchun to'lovlar pensiya to'lovlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas, ammo, u pensiyani moliyalashtirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Davlat pensiyalarning moliyalashtirilishi uchun soliqlarni ko'tarish siyosati aksariyat hukumatlarda oqilona yo'l hisoblanmaydi.

Uzoq davrli tendensiyalarni inobatga olib, pensiyalarni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan muhim bir davlat siyosati masalasi yuzaga kelishini ilg'ash mumkin: qanday qilib davlat va mahalliy hukumat moliyasiga ortiqcha og'irlik tushirmasdan davlat xodimlarini qariganda moliyaviy ta'minlaymiz? Bu masalani uch tomondan ko'rib chiqish mumkin. Chunki pensiya rejasi menejmenti javobgarlik va aktivlar menejmentini o'z ichiga oladi. Bunda ahamiyatli jihati shundaki, pensiya javobgarligining oshishi, aktivlarni ko'paytirishga undaydi.

Pensiya menejmentining javobgarligi jihatidan, eng muhim masala pensiya javobgarligining uzoq muddatli davrda o'sib borishidan iborat bo'ladi. 2000-yildan oldingi va keyingi fond bozori inqirozlari davridagi davlat va mahalliy pensiya tizimlarining tajribasidan ko'rinadiki, doimiy moliyalashtirish manbasini aniqlashtirmasdan pensiya to'lovlarini oshirish fond bozorida pasayishlar paytida pensiya tizimining moliyalashtirilishi holatiga zarar yetkazishi mumkin. Pensiya to'lovi o'sishini cheklash, ehtimol, uzoq muddatli davrda davlat

pensiya rejalarida barqarorlikni ta'minlashning eng muhim omilidir. Pensiya to'lovi oshirilishi pensiya rejasining moliyalashtirish holatiga bog'liq holda turli xil tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Mabodo, pensiya tizimi past darajada moliyalashtirilgan bo'lsa, bu holda har qanday vaziyatda ham pensiya to'lovi oshirilmaydi. Reja past darajada moliyalashtirilgan holda biror pensiya to'lovining o'sishi faqat qisqa muddatli javobgarliklar uchun oshirilishi mumkin va kelgusi davrdagi oshirish esa soliq to'lovchilarning keyingi avlodi uchun moliyaviy og'irliklarni keltirib chiqaradi. Bu davlat moliyasining avlodlar birdamligi tamoyilini buzadi.

Yaxshi darajada ta'minlangan pensiya rejasiga pensiya to'lovlariga qo'shimchalar berish imkoni bo'lsada, to'lovlarni oshirishda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish lozim bo'ladi. Moliyalashtirish profitsitining tabiati tahlil qilinishi lozim. Pensiya fondi profitsiti, ko'pincha, o'tgan davrdagi investitsion qaytimning kutilganidan ko'proq bo'lishi sababli yuzaga keladi. Chunki biror davrdagi investitsion qaytim o'rtacha darajaga yaqin bo'lishiga qaratiladi, yuqori o'rtacha qaytim, kutilmagan ravishda, o'rtacha darajadan past bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham o'zgaruvchan pensiya profitsiti, mabodo, kelajakda pensiya rejasida doimiy yuqori investitsion qaytim bo'lishiga ishonch bo'lmasa, o'zgarmas pensiya to'lovlarining oshirilishi uchun foydalanilmaydi. Agar profitsitning ma'lum bir qismi darajasida pensiya to'lovi ko'paytirilishiga ruxsat berilsa, bu o'zgartirish kuchga kirishidan oldin ushbu oshirish bilan bog'liq moliyalashtirish manbai va xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq oshkor etilishi qonun orqali talab qilinishi lozim.

Pensiya majburiyatlarining uzoq davrdagi o'sishiga sabab bo'luvchi omillardan biri bu davlat sektorida doimiy ishlovchilarning normal pensiya yoshining o'sib borishidir. AQSHda umr ko'rish davomiyligi ayollar va erkaklar uchun sekin-asta o'sib borishda davom etmoqda. 9.2-jadvalda erkaklar va ayollarning 65 yoshdan keyingi umr ko'rish yillarining o'rtachasi o'tgan davrdagi va kelajakdagi prognoz tendensiyalari berilgan.

*9.2-jadval*

**AQSHda 65 yoshdan keyingi umr ko‘rish yillari[106]**

| Ko‘rsatkichlar | 1970-yil | 1980-yil | 1990-yil | 2000-yil | 2006-yil | 2035-yil |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Erkak | 13,1 | 14 | 15,1 | 15,9 | 16,5 | 18,3 |
| Ayol | 17,1 | 18,4 | 19,1 | 19 | 19,1 | 20,5 |

Erkak kishi 2006-yilda pensiya to‘lovlarini 1970-yildagiga qaraganda 3,4 yil ko‘proq olgan va 2035-yilgacha pensiya to‘lovlarining mazkur ikki davrdagidan ham oshib ketishi prognoz qilinmoqda. O‘rtacha umr ko‘rish yoshidagi o‘sish erkaklar uchun unchalik katta bo‘lmasa ham ayollarda bu o‘sish yuqori. Agar normal pensiyaga chiqish yoshi oshmasa, bu yuqori pensiya majburiyatlariga sabab bo‘ladi. Pensiya majburiyatlaridagi bu kabi o‘sish ikki yo‘l orqali moliyalashtirilishi mumkin. Agar bu yuqori xarajatlar xodim ishlayotgan paytda moliyalashtirilsa, aktuar hisob-kitob prognozlari uzoqroq umr ko‘rish davriga moslab o‘zgartiriladi, bu o‘zgartirish, asosan ishlovchi va ish beruvchilarning pensiya badallarini oshirish orqali ta’minlanadi. Agarda bunday yuqori xarajat xodim pensiyaga chiqqanidan keyin uzoqroq umr ko‘rish darajasini moliyalashtirish zarurati sababli yuzaga kelsa, uni kelajakda pensiyaga chiquvchi fuqarolar uchun ish beruvchilar va ishlovchilarning pensiya badallarini oshirish orqali qoplashga to‘g‘ri keladi.

Uzoq umr ko‘rish bilan bog‘liq holda xarajatlarni qisqartirishning bir yo‘li bu normal pensiya yoshini oshirishdir. Pensiya yoshini oshirish orqali qo‘shilgan har bir yil uchun xodimdan qo‘shimcha pensiya badallari to‘lovi olinadi, har bir qo‘shilgan yil pensiya aktivlaridan daromad ishlab olish imkoniyatini beradi va pensiya to‘lovlari uchun chiqimlarning kamayishini ta’minlaydi. Mazkur uch jihat pensiya xarajatlarini qisqartirish uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy ta’minot to‘lovlarini qisqartirmasdan 1960-yildan keyin tug‘ilgan odamlar uchun pensiyaga chiqish yoshining sekin-asta 65 yoshdan 67 yoshga ko‘tarilganligining sababi ham umr ko‘rish davomiyligining o‘sganligidir.

Umr ko‘rishning uzayganligi bilan parallel ravishda, xarajatlarning oshishini inobatga olgan holda yangi doimiy davlat sektori ishlovchi-

[106] The 2007 Annual Report of the Board of Trustees of the Federal OASDI.

lari uchun normal pensiyaga chiqish yoshini 65 yoshga ko'tarish va davlat pensiya to'lovlarini ijtimoiy ta'minot to'lovlari bilan o'zaro maqbullashtirish lozimdir. Normal pensiyaga chiqish yoshi ko'tarilsa, o'z-o'zidan erta pensiyaga chiqish yoshi ham ko'tariladi.

Normal pensiyaga chiqish yoshini 65 yoshga ko'tarish davlat xizmatchilari uchun adolatli bo'lgan pensiya to'lovlari darajasiga muvofiq bo'lishi kerak. Davlat xizmatchilari uchun adolatli bo'lish pensiyaga chiqqanidan keyingi pensiya to'lovlari darajasi ishlovchining yaxshi hayot kechirishini ta'minlay olishi kerakligini bildiradi.

Pensiya to'lovlarining pensiyaga chiqishdan oldingi daromadning 60 foizini tashkil etishi qarilikda yaxshi hayot kechirishi uchun eng kam miqdorda talab qilinuvchi me'yordir, eng yuqori pensiya to'lovi pensiyaga chiqishdan oldingi daromadning 75 foizidan oshib ketmasligi lozim. 75 foizda (pensiyaga chiqishdan oldingi daromadni qoplash koeffitsiyentining 70 foiziga to'g'ri keladi) davlat xizmatchilarining aksariyati uchun birgalikdagi daromadlar pensiyaga chiqishdan oldingi daromadga teng yoki 100 foizga juda yaqin bo'ladi. Misol sifatida, Florida shtat qonunchiligi pensiya va ijtimoiy ta'minot to'lovlari birgalikda pensiyaga chiqishdan oldingi daromadlarning 100 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emasligini belgilagan. Floridada pensiya to'lovlari uchun limit belgilanmagan bo'lishiga qaramasdan, mazkur qonun pensiya to'lovlari darajasidagi yashirin yuqori chegarasini o'rnatadi.

Davlat sektorida pensiya to'loviga yakuniy ish haqining 75 foizigacha yoki undan pastroq darajada cheklov qo'yilishi misli ko'rilmagan darajadir. Ko'pgina pensiya tizimlari pensiya to'lovlari uchun so'nggi o'rtacha maoshning 75 foizigacha yoki undan kamroq miqdorida cheklov belgilaydi. Biror pensiya to'lovi, agarda to'lov omilida unga mos keluvchi o'zgarish bo'lsagina, eng samarali hisoblanadi. Pensiya to'lovi omili davlat sektorida to'liq faoliyat yuritganidan keyin 65 yoshga yetganda erishiladigan pensiya to'lovlari darajasida belgilanishi lozim. To'liq faoliyat 65 yoshdagi xodimning 35–40 yillik davrini o'z ichiga oladi. Pensiya to'lovi shunga qarab belgilanadi, ya'ni 60 foiz yoki 75 foizlik pensiya to'lovi darajasiga faqat 35 yildan 40 yilgacha xizmat yillariga ega bo'lganlar ega bo'lishadi. 65 yoshga to'lish-

dan oldin pensiyaga chiqishni xohlagan istalgan ishlovchilarga kamaytirilgan pensiya to'lovlari tayinlanadi, shuningdek, ijtimoiy ta'minot to'lovlarini ham olishadi.

Pensiya majburiyatlarining o'sishi nazorat qilinishi bilan bir qatorda pensiya to'lovi darajasi me'yorining yana boshqa ko'pgina afzalliklari ham mavjud. Birinchidan, davlat pensiya rejasining adolatli faoliyat yuritayotganligini ommaga ko'rsatadi. Ikkinchidan, unda pensiya to'lovining eng yuqori miqdori bo'yicha cheklov mavjudligi uchun ham kelajakda pensiya to'lovi o'sishi bilan bog'liq har qanday ta'sirlarni bo'g'ib qo'ya oladi. Uchinchidan, u pensiya to'lovidagi har qanday potensial noto'g'ri foydalanilishlar, xususan, ko'proq "pensiyaning tasodifiy o'sishi" deb ataluvchi nomaqbulliklar bo'yicha kelib chiquvchi salbiy ta'sirlarni cheklay oladi.

Pensiyaning tasodifiy o'sishi yashash uchun yanada ko'proq pensiya to'loviga ega bo'lish maqsadida oxirgi yillarda odatiy daromadlarga nisbatan daromadlarni ancha yuqoriga ko'tarib yuborishni ifodalaydi. Maoshlarning oshirilishi qo'shimcha ishlash, bonuslar, kasallik varaqalari, ta'til vaqti uchun to'lovlar yoki so'nggi yillarda bir xil ish uchun oldingi yillardagiga qaraganda ko'proq maosh to'lash orqali yuzaga kelishi mumkin. Vaqti-vaqti bilan ommaviy axborot vositalarida o'zining kelajakda olishi mumkin bo'lgan pensiyasidan ko'proq pensiya olishga urinuvchi ba'zi xodimlar haqida axborotlar berib turiladi.

Pensiya majburiyati prognozlashtirilgan so'nggi ish haqiga asoslanadi, amaldagi ish haqining ancha yuqori bo'lishi esa rejalashtirilgan pensiya majburiyatini sezilarli oshishiga sabab bo'ladi. Pensiyaning tasodifiy o'sishi davlat sektorida keng tarqalmagan bo'lsa ham, uni moliyalashtirishda taqchillik yuzaga kelishi ham mumkin. Eng muhimi, u jamoatchilikning davlat pensiya to'lovi dasturi yaxlitligiga ishonchini so'ndirishi mumkin.

Davlat sektorida erta pensiyaga chiqishni rag'batlantirish dasturlaridan chetlashish lozim, chunki, davlat sektorida bu orqali xarajatlarni tejab qolishga erishish qiyin masala. Pensiya majburiyatlarining ko'paytirilishi nuqtayi nazaridan xarajatlarni nisbiy o'ta aniqlik bilan hisoblab chiqishning imkoniyati mavjud bo'lsa ham, bunday dastur orqali jamg'armalarni rejalashtirish juda og'ir.

Pensiya majburiyatlarining o'sishi davlat pensiya to'lovlari dasturlarining uzoq davr mobaynida yetarlicha ta'minlanish yo'lining faqat bir qismi, xolos. Boshqa qismi kelajakda pensiya aktivlari o'sishining etarliligini ta'minlash, har ikkala pensiya badallari va investitsiya qaytimining yetarli bo'lishini ta'minlashdir.

Pensiyani qat'iy moliyalashtirish siyosati pensiya badallarining yetarli bo'lishini ta'minlashdagi asosiy omildir. Hatto, federal tartibga solishlarsiz ham shtat darajasidagi pensiya tizimlarining ko'pchiligi o'zlarining moliyalashtirish siyosatlarini aktuar hisoblarga asosan hisoblab chiqarilgan badallarni to'lattirish orqali amalga oshirishadi, bundan tashqari, moliyalashtirish siyosatida "Ishlovchilar pensiya daromadlari ta'minoti to'g'risida"gi qonuni talablariga amal qilishlari shart. Faqatgina bir nechta davlat darajasidagi yirik pensiya tizimlarigina o'zlarining ilgari hukumat rejasi homiyligi ostida past darajada moliyalashtirilgan aktuar hisoblarga asoslangan badallarini doimiy kuzatib borishadi. Bunday doimiy past darajada moliyalashtirish 2004-yilda to'rtta davlat darajasidagi pensiya tizimlarining moliyalashtirish darajasining 60 foizdan past bo'lishiga sabab bo'ldi, xususan, Konnektikut shtati ishchilari pensiya tizimida 57 foiz, Illinoys shtat ishchilari pensiya tizimida 54 foiz, Oklaxoma o'qituvchilar pensiya tizimi 47 foiz va G'arbiy Virjiniya o'qituvchilar pensiya tizimi 22 foiz darajada moliyalashtirilgan[107]. Yana shuni ta'kidlash lozimki, mazkur to'rtta shtatlar kelajakda pensiyani moliyalashtirish darajasini oshirish uchun pensiya badallarini sekin-astalik bilan oshirib boruvchi yoki aktuar hisob-kitoblarda aniqlangan badallar darajasini qoniqtiruvchi qonun hujjatlarini qabul qilishdi.

Oklaxomada 2007-yilda shtat hukumati tomonidan O'qituvchilar pensiya tizimiga ish beruvchilarning badallarini oshirishni nazarda tutuvchi "SB 357" qonun hujjatini joriy qildi. Bu hujjatga ko'ra, tizimga shtat badallarini 2007-yildagi 7,85 foizdan 2010-yilda 9,5 foizga

---

[107] Yana bir davlat darajasidagi yirik pensiya tizimi hisoblanuvchi, to'rtinchi bobda muhokama qilingan, Indiana o'qituvchilar pensiya fondida 2004-yilda moliyalashtirish darajasi 60 foizdan past bo'lgan. Bunday past darajada moliyalashtirish darajasi 1995-yildan avvalgi ishga yollangan reja a'zolari uchun qo'llanilgan "pay-as-you-go" moliyalashtirish usuli tufaylidir.

ko‘tarishni nazarda tutgan edi[108]. Bu qonun, shuningdek, iqtisodiy inqiroz davrlarida zararlarsiz olib o‘tiluvchi, shtatning o‘qituvchilar pensiya tizimiga badallarini ta’minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Agar moliyalashtirish har yilda o‘tkazilsa, mazkur qonun shtatning o‘qituvchilar pensiya tizimini 2026-yilgacha 80 foizga moliyalashtirish imkonini beradi (Oklahoma Teachers Retirement System).




Konnektikut shtatida Gubernator Jodi Rell 07–186-sonli “O‘qituvchilar pensiya tizimini yetarli darajada moliyalashtirish haqida”gi davlat Qonunini imzoladi, unga ko‘ra shtat o‘qituvchilar pensiya fondining qisqa muddatli majburiyatlarini moliyalashtirishni 30 yil ichida maksimal darajada 2 mlrd. AQSH dollarga ko‘tarish uchun pensiya obligatsiyalarini emissiya qilish huquqiga ega bo‘lish maqsad qilingan. Bu qonun, shuningdek, agarda Gubernator tomonidan favqulotda holat e’lon qilinmasa, Bosh assambleya tomonidan obligatsiyalar to‘langunicha, shtatning zarur badallarini kamaytirish uchun hech qanday qonun hujjati qabul qilmasligiga va’da beradi. Bordi-yu bunday qisqartish zarurati yuzaga kelib qolsa, bu qisqartirishni qonun chiqaruvchilarning 3/5 qismi tasdiqlashi lozim bo‘ladi va pensiya obligatsiyasi savdosidan keyin qisqarishga yoki moliyalashtirish darajasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri pasayishi tufayli o‘qituvchilarning pensiya tizimini moliyalashtirish darajasida yuz beruvchi qisqarish 5 foizdan ortiq bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi[109].

Moliyalashtirish siyosatidagi bunday keng ko‘lamdagi o‘zgarishlar eng yomon moliyalashtirilgan pensiya tizimlariga ega shtatlar tomonidan amalga oshirildi. Aktuar tartibdagi ehtiyojlari to‘liq moliyalashtirilmagan shtatlar hukumatlari endi pensiya obligatsiyalariga beparvo

---

[108] Qonunning to‘liq matni Oklahoma shtati Sekretariyatining quyidagi Web-saytida berilgan http://www.sos. state.ok.us/documents/ Legislation/51st/2007/1R/SB/357.pdf (Accessed July 27, 2007.).

[109] Qonunning to‘liq matni Connecticut shtatining qonun chiqaruvchi organining quyidagi manzildagi Web-saytidan topish mumkin http://www.cga.ct.gov/2007/ACT/PA/2007PA-00186-R00HB-06141-PA.htm (Accessed September 8, 2007.).




bo'lmaslik kerakligini, tezkor tartibda ishlash zarurati yuzaga kelganda pensiya tizimlarini mablag' bilan ta'minlashda obligatsiyalar mablag'lar manbai ekanligini anglab yetishdi.

1950-yillardan buyon doimiy daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozlardan kapitalga o'tib borish davlat pensiya tizimiga ko'proq foyda ko'rish imkonini berdi, biroq shu bilan birga, aktivlar qiymatida ba'zi o'zgaruvchanliklarni keltirib chiqardi. Qimmatli qog'ozlar bozorida o'zgaruvchanlikni kamaytirish va kelajakda o'rnatilgan daromadli va kapital bozoridagi past imkoniyatli qaytimga ega kelgusi investitsion qaytimni kuchaytirish uchun, ko'pchilik davlat pensiya tizimlari orasidagi kapital taqsimotida yana bir bosqichma-bosqich yo'l mavjud, ya'ni ko'chmas mol-mulk, hedj fond (baholar ko'tarilishi va tushishi bilan bog'liq xatarlarni sug'urtalash jamg'armasi) va kapitalni xususiylashtirish singari muqobil investitsiyalarni taqsimlashni oshirish va milliy investitsiyani taqsimlashni kamaytirish orqali bunga erishish mumkin. Muqobil investitsiyalar an'anaviy investitsiyalar bilan past bog'lanishga ega va potensial investitsion qaytim yuqori. 2006-yilda ba'zi yirik davlat darajasidagi pensiya tizimlarining ko'chmas mulk va muqobil investitsiyalar uchun aktivlar taqsimoti siyosati me'yorlari quyidagicha ko'rinishni kasb etgan:[110]

- Kaliforniya davlat xodimlari pensiya tizimi: 14 %;
- Kaliforniya shtati o'qituvchilari pensiya tizimi: 12 %;
- Oregon davlat xodimlari pensiya tizimi: 20 %;
- Pensilvaniya davlat xodimlari pensiya tizimi: 18 %;
- Pensilvaniya shtati xodimlar pensiya tizimi: 20 %;
- Washington shtati pensiya birlashgan ishonch Fondi: 28 % (Washington State Investment Board, 2006).

Portfelning sezilarli qismi muqobil investitsiyalardan iborat bo'lgan mazkur pensiya tizimlari ham 2000-yildan boshlab, yuqori investitsion

[110] Mazkur pensiya siyosatlari maqsadlari 2006-yilgi moliya yili uchun tegishli pensiya tizimlarining yillik moliyaviy hisobotlarida ham keltirib o'tilgan.

qaytim va aktivlar qiymatidagi o'zgaruvchanlikni qisqartirish evaziga foyda ko'rishni boshlashdi.

Davlat pensiya to'lovi dasturini uzoq davrda yetarlicha ta'minlash uchun pensiya majburiyatining o'sishi pensiya aktivlarining o'sishiga bog'liq bo'ladi. Pensiya rejasi homiylari belgilangan to'lov pensiya rejasida barcha moliyalashtirish risklarini o'ziga oladi, belgilangan taqsimot pensiya rejasida esa barcha risk reja a'zolari zimmasida bo'ladi. Biroq shunday pensiya to'lovi loyihalari mavjudki, ularda reja homiylari va a'zolari moliyalashtirish riskini o'zaro taqsimlab olishadi.

Gibrid rejani tuzish moliyalashtirish riskini taqsimlashning bir yo'li hisoblanadi. Gibrid rejaning ikkita asosiy turi mavjud: pul balansi rejasi yoki belgilangan to'lovlar va belgilangan taqsimot usullari komponentlariga ega bo'lgan pensiya rejasi. Pul balansi rejasida, ish beruvchi qaytimning pastroq stavkasini kafolatlaydi va qaytimning qolgan qismi kafolati ishlovchilar zimmasiga tushadi. Belgilangan daromad va belgilangan taqsimot komponentlarini birlashtirgan rejada ish beruvchi badallari, odatda, belgilangan daromad rejasiga va ishlovchi badallari belgilangan badal rejasiga kiritiladi. Bu orqali, ish beruvchi pensiya to'lovining pastroq darajasini kafolatlaydi, ishlovchi esa o'zining pensiya to'lovining investitsion faoliyatga bog'liq bo'lgan qismi uchun mas'ul bo'ladi. Belgilangan badal komponentida ishlovchilarning riskini yanada cheklash uchun ish beruvchilar ishlovchilarni, agar ular rozi bo'lsa, hayot davri fondi kabi yaxshi diversifikatsiyalangan standart investitsiya fondiga qo'yishlari mumkin. Bu ikki reja bo'yicha risk biroz turlicha taqsimlanadi, ularning ikkalovi, aslida, an'anaviy pensiya rejalari bilan taqqoslaganda biroz pastroq darajadagi to'lovlarni kafolatlaydi va bundan tashqari, moliyaviy bozor orqali umumiy pensiya to'lovlarini birmuncha ko'tarishga ruxsat beradi. Bu ish beruvchining pensiya davrida ishlovchining moliyaviy xavfsizligini haddan tashqari xavf ostida qoldiruvchi moliyalashtirish riskidagi ta'sirini cheklaydi.

Ishlovchilar va ish beruvchilar o'rtasida riskni taqsimlanishiga imkon beruvchi pensiya to'lovi shaklidagi o'zgartirishlarning o'ziga xos yo'llaridan biri, o'zgarishlarni turmush kechirish xarajatlari korrektirovkasi bilan birgalikda amalga oshirishdir. Turmush kechirish xarajatlari korrektirovkasi pensionerlarni inflatsiya sababli xarid qo-

biliyatining yemirilishidan himoya qiluvchi muhim to'lovdir. Bunday korrektirovka doimiy bo'lganligi uchun ham, u ish beruvchilarning xarajatlariga sezilarli darajadagi xarajatlarni qo'shib boradi.

Turmush kechirish xarajatlari korrektirovkasining ikki asosiy turi mavjud: doimiy stavkali korrektirovka va vaqtinchalik belgilangan korrektirovka. Doimiy stavkali korrektirovka, odatda, uch foiz deb belgilanadi. Maxsus belgilangan korrektirovka esa hech qanday shartlarsiz biriktirilgan korrektirovka yoki faqat investitsion qaytim yuqori bo'lgan paytda ma'lum davr uchun aniq darajalarda ta'minlanuvchi korrektirovka bo'lishi mumkin. Moliyalashtirish riskining taqsimlanishi doimiy stavkali va investitson qaytimlarga asoslanuvchi maxsus usullarining kombinatsiyasi orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu kabi taqsimlash doimiy stavkalarning pastroq foizlarda belgilanishini talab qiladi, bu stavka hozirda aksariyat pensiya tizimlarida belgilangan doimiy stavkalarning yarmiga teng va so'ngra ta'minlanishi mumkin bo'lgan qo'shimcha korrektirovkalar moliya bozoridan jalb qilinadi. Bu yo'l ishlovchilarni inflatsiyadan birmuncha himoyalashni kafolatlaydi va moliyaviy bozordagi inqirozlar paytida salbiy ta'sirlarni biroz yumshatish orqali pensiya aktivlari qiymatiga ta'sir etadi.

2000–2002-yillardagi fond bozori pasayishlari ko'plab davlat pensiya tizimlari, shu jumladan, hatto, aktuar talab qilingan miqdorlarda to'liq moliyalashtirilgan pensiya tizimlarining ham ancha hushyor tortishiga sabab bo'ldi. Ko'plab davlatlar kelajakda pensiya badallarini yanada takomillashtirish yoki o'tgan davrdagi badallar taqchilligini qoplash va moliyalashtirish nisbatini ko'tarishni amalga oshirish uchun turli qonunchilik hujjatlarini joriy qilishdi. AQSHda pensiya aktivlari bo'yicha katta yutuqlarga erishilgan bo'lsada, pensiya majburiyatlari bo'yicha hali ko'p ishlar qilinishi kerak.

### 9.3. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining uzoq muddatli istiqbolda barqaror amalga oshirilishini ta'minlash

Bugungi kunda pensiya ta'minoti tizimining holatini pensiya sug'urtasining elementlari bilan taqsimlash tizimi ko'rinishida xarakterlash mumkin. 2005-yildan AT "Xalq banki"ida fuqarolarning majburiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti joriy qilindi. Biroq tizim-

ning qolipi oldingidek, "avlodlar birdamligi" prinsiplariga asoslangan taqsimlovchi komponentdan tarkib topgan. U Pensiya jamg'armasi tomonidan taqdim qilingan bo'lib, har ikkala ish beruvchi va ishchi tomonidan to'lanadigan mehnat haqi fondiga tegishli sug'urta badallari hisobidan olingan resurslarni generatsiya qiladi.

Taqsimlovchi komponent ko'p ko'rinishlari bilan sobiq Ittifoq davrida qo'llanilgan pensiya ta'minoti normalarini meros qilib olgan. Ularni quyidagi omillarda kuzatsa bo'ladi: a) uchta mehnat pensiyasi turi: yosh, imkoniyati cheklangan, boquvchisini yo'qotgan; b) ko'plab imtiyozli pensiya va moddiy yordam; d) pensiya hajmini belgilashda past differensiatsiya ko'rsatkichi; e) pensiya yoshining nisbatan pastligi ( ayollar uchun 55 yosh, erkaklar uchun 60 yosh); f) umumiy pensiya oluvchilarning 2/3 qismini tashkil qiluvchi ayollarga talay imtiyozlar. Bu kabi pensiya ta'minoti modelining qayta taqsimlash samarasi o'tish davrining qiyinchiliklari, 2008–2010-yillardagi jahon moliyaviy inqirozi, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar guruhidan o'rin olgan O'zbekistonning mavqeiga (bu guruhdagi ko'plab mamlakatlarda pensiya ta'minoti tizimi yo'lga qo'yilmagan) qaramay pensiya yoshidagi shaxslarni ta'minlashda eng keng qamrovni (79%) ushlab turishga imkoniyat yaratdi.

Uzoq muddatli istiqbolda pensionerlarning turmush darajasini amaldagi model doirasida ta'minlash yanada mushkulroq bo'ladi. Bu quyidagi omillar ko'rinishida kuzatiladi:

1. Pensiya jamg'armasining moliyaviy imkoniyatlaridan yuqori bo'lgan "talab"ning oshib ketishi natijasida davlat pensiya ta'minoti moliyaviy barqarorligining pasayishi. U bir paytning o'zida ham pensionerlarni qo'llab-quvvatlash, ham pensiya ta'minoti tizimiga aloqasi bo'lmagan aholi guruhi qashshoqligiga qarshi kurash instituti hisoblanadi. Bu ko'rinishdagi siyosat natijasida ko'plab muddatdan oldin (imtiyozli) pensiya xarajatlarining o'sishi yuzaga keladi. Ularning Pensiya jamg'armasi fondi xarajatlar tarkibidagi ulushi 2013-yilda 48,5 foizni tashkil etdi (2005-yilda ko'rsatkich 29,7 foiz edi). Shu bilan birga Pensiya jamg'armasi daromadi sezilarli hajmda norasmiy band-

lik sababidan pasayib ketadi. Daromad o'sishiga qaramay, band aholining faqatgina 38 foiz qismi pensiya badalini to'lamoqdalar. Bunga sabab pensiya hajmining to'langan pensiya badali hajmiga bog'liqligi yo'qligidir. Shuning uchun, qay yo'l bilan taqsimlanmasin, ishchi ham, ish beruvchi ham oylik ish haqining rasmiy qismini minimallashtirishga harakat qiladilar. Ayni paytdagi trendni saqlab turish amaliyoti 2018-yilga borib Pensiya jamg'armasida budjet tanqisligiga olib kelishi mumkin, 2020-yilga borib esa bu ko'rsatkich YalMning 3 foizini tashkil etadi.

2. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining past darajadagi samaradorligi. Bunga sabab quyidagilardan iborat: a) daromadlilikning inflatsiya darajasidan pastligi; b) individual jamg'arma pensiya hisob raqamlaridan muddatdan oldin mablag' olish imkoniyati yo'qligi; v) AT "Xalq banki" tomonidan jamg'arma tizimiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ma'muriy xarajatlari darajasining yuqoriligi.

Uzoq muddatli istiqbolda (10–15 yil) pensiya tizimida quyidagi omillar natijasida og'irlikning o'sishi kuzatiladi: a) norasmiy sektorlarda band bo'lgan hamda mehnat migrantlari hisoblangan hozirgi kundagi 40 yoshli ishchilar avlodining ommaviy pensiyaga chiqishi. Ushbu kategoriyalar pensiya badalini to'lamayotgan bo'lsalarda, belgilangan pensiya yoshiga yetganlaridan so'ng (kichik miqdorda bo'lsa ham) pensiya olishga da'vo qiladilar; b) 2050-yilga borib mehnatga layoqatli yoshdan yuqori aholi qismining asta-sekin 12–15 foizgacha ko'payib borishi.

Amaldagi pensiya ta'minoti modeliga taalluqli moliyaviy salohiyatning tushishi sharoitida soni o'sib borayotgan pensionerlar uchun munosib turmush sifatini ta'minlash zarurati pensiya ta'minoti sohasida asosiy uzoq muddatli istiqboldagi undov bo'lib xizmat qiladi.

Tanqislikning oldini olish bu siz ham yuqori bo'lgan pensiya badali miqdorining o'sishi, pensiya ta'minotiga oid imtiyozlarni qisqartirish, yoxud pensiya yoshini ko'tarish kabi an'anaviy chora-tadbirlarni ko'zda tutadi. Sanab o'tilgan barcha omillar salbiy natijalarga olib kelishi mumkin: a) mahsulot tannarxining ko'tarilib ketishi va iqtisodiyotda raqobatbardoshlikning kuchsizlanishi;

b) korxonalarning "panaga" yoki "xufyona iqtisodiyotga" ketishining keskinlashishi; d) aholining pensiya ta'minoti tizimi haqqoniyligiga bo'lgan ishonchsizligining o'sishi.

Jahondagi pensiya ta'minoti sohasidagi tajribalari shuni ko'rsatadiki, aholi daromadining o'sishi bilan bir qatorda, pensiya ta'minoti tizimlari davlat tizimidan individuallashtirish, ya'ni jamg'arma tizimlariga qarab harakatlanmoqda. Bu kabi trend doirasida pensiya ta'minoti tizimlarining uzoq muddatli istiqbolda moliyaviy bardavomiyligini takomillashtirish 3 darajali model[1] yaratish orqali tavsiya qilinadi. Bunday yo'l bilan yondashish quyidagi chora-tadbirlarni ko'zda tutadi:

– inflatsiya sur'atlaridan yuqori turuvchi past risk va daromadga ega bo'lgan hamda pensiya mablag'larini investitsiya qilish imkoniyatini beruvchi diversifikatsiyalashgan moliya bozorlari va aktivlarning mavjud bo'lishi;

– aholining to'la band bo'lishi.

Bu ikki omil hozircha O'zbekiston sharoitida, tarkibiy islohotlar jarayonining tugallanmaganligi sababli mavjud emas. Shu bilan bir paytda yaqin kelajakdagi 10–15 yil ichida pensiya ta'minotini talab qiluvchi maksimal darajadagi oqim yuzaga keladi.

Pensiya ta'minotini shakllantirishda sug'urta prinsiplarisiz pensiya ta'minoti tizimining uzoq muddat barqaror ishlashini ta'minlash borasidagi muhokamalar hech qanday naf bermaydi. Sug'urta tamoyili asosida yotgan badallar va pensiya ta'minoti miqdori o'rtasidagi o'zaro aktuar bog'liqlik, davlatning hech bir ishtirokisiz, pensiya ta'minoti tizimini bozor taraqqiyotining davriy xarakteriga tatbiq qilish imkoniyatiga egadir. Ta'kidlash joizki, aktuar hisob-kitoblarning uslubiy asosi – bu ekvivalentlik tamoyiliga amal qilish, ya'ni sug'urta to'lovlari va ajratmalari (nafaqalar) o'rtasida o'zaro muvozanatni ta'minlash. Aktuar hisob-kitoblar – matematik va statistik uslublar tizimi hisobla-

[1] U o'z ichiga quyidagilarni oladi: 1) davlat tomonidan kafolatlangan eng kam pensiya miqdori (ish staji va oylik ish haqidan qat'i nazar barcha fuqarolar oladi); 2) majburiy jamg'arma sxemasi (markazlashtirilgan yoki xususiy boshqaruv ostida). Pensiya to'lovi miqdori pensionerlarning individual hisob-raqamlarida jamg'arib borgan mablag'lari hamda turli xil aktivlarga qilgan sarmoyalari natijasida olingan daromadlarga bog'liq; 3) moliyaviy institutlarda ixtiyoriy ravishdagi jamg'arma tizimi (xususiy sug'urta).

nib, uning yordamida sug‘urta tariflari miqdori, hajmi, har bir sug‘urtalanuvchining sug‘urta fondini tashkil etishdagi hissasi, moliyaviy barqarorlik va sug‘urta operatsiyalarining rentabelligi aniqlanadi.

Ijtimoiy sohadagi o‘zgarishlarga nisbatan yuqori ta’sirchanlikni hisobga olgan holda, pensiya ta’minotining sug‘urta prinsiplariga o‘tkazish ikki bosqichda amalga oshirilishi zarur:

Birinchi bosqichda (maksimal davr 10 yil) amalga oshiriladigan chora-tadbirlar quyidagilarga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim:

1. Pensiya jamg‘armasining o‘z xarajatlarini o‘zi qoplash darajasiga erishishi: umumiy “badal oqimi”dan pensiyalarni moliyalashtirish prinsipidan sug‘urta prinsipiga o‘tish. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin:

– pensiya oluvchilarni qayta ko‘rib chiqish orqali birgalikdagi faoliyat va sug‘urta qismlarini taqsimlash: qaysi toifadagilar Pensiya jamg‘armasidan to‘lov olish imkoniyatiga ega (pensiya badalini to‘laganlar uchun), qaysilari boshqa ijtimoiy dasturlar doirasida umumiy soliq tushumlaridan to‘lov olishlari mumkin;

– pensiya badalini to‘lamayotgan hamda o‘z kuchini yo‘qotgan imtiyozlarga ega to‘lov oluvchilar sonini qisqartirish;

– badal to‘lashning maxsus sxemalarini ishlab chiqish orqali, ya’ni sug‘urta badalini to‘lash davriga nisbatan ancha past talablar va sug‘urta yilining davomiyligini ko‘zda tutgan holda, norasmiy sektor (erkin faoliyat) ishchilari uchun pensiya badalini joriy qilish;

– pensiya badallari to‘lovchilari (Civilregistry) uchun amaldagi jamg‘arma tizimi asosida shaxsiylashtirilgan hisobot tizimini yaratish. Bu amaliyot quyidagi chora-tadbirlar bilan birgalikda bajariladi: a) to‘laqonli aktuar hisob-kitoblarni qilish imkoniyatini beruvchi ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirish; b) axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida boshqa bazalar bilan uyg‘unlashtirish (Soliq qo‘mitasi, banklar va hokazo).

2. Amaldagi majburiy pensiya tizimi jozibadorligini oshirish. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin:

– uy-joy sotib olish; ta’lim uchun to‘lov kabi holatlarda individual jamg‘arma hisob-raqamlardan muddatidan oldin mablag‘larni yechishga ruxsat berish;

– pensiya ta'minotining korporativ tizimini ishlab chiqish, masalan, katta xo'jalik uyushmalari va korxonalar ("O'zbekiston temir yo'llari" AJ, Navoiy kon metallurgiya kombinati va boshqalar) ixtiyoridagi pensiya jamg'armalari.

Ikkinchi bosqichdagi (5–7 yil) chora-tadbirlar quyidagilarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Jumladan, keksalik yoshida pensiya to'lovi bilan ta'minlash tizimining kompleks sug'urta tizimiga o'tishi:

– Pensiya jamg'armasining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, uning maqomini o'zgartirish (mustaqil o'zini-o'zi boshqaruvchi moliyaviy institut);

– pensiya to'lovlarini o'z ichiga oluvchi ikki darajali tizimni joriy qilish. Boshlang'ich pensiya miqdori kafolatlangan bo'lib, eng kam va noto'liq pensiya miqdorining o'rnini egallashi zarur. Eng kam pensiya miqdori barcha pensionerlar uchun bir xil bo'lishi lozim;

– aktuar hisob-kitoblarga asoslangan holda pensiya formulalarini ishlab chiqish, ya'ni yaqin kelajakdagi 10–20 yil ichida pensiyaga chiquvchilar hamda keyinroq pensiyaga chiquvchilar uchun alohida hisob-kitoblar. Birinchi qayd etilgan toifa uchun pensiya to'lovi formulasini tanlash huquqini berish lozim, ikkinchi toifa uchun pensiya formulasi majburiy hisoblanadi;

– korporativ pensiya sug'urtasi tizimini joriy qilish;

– pensiya to'lovini tayinlash uchun zarur bo'lgan aktuar hisob-kitoblar va pensiya stajiga nisbatan talablarning o'sishidan kelib chiqib, erkak va ayollarning pensiya yoshini bosqichma-bosqich tenglashtirish.

Istiqbolda davlat pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

1. Aholini pensiya tizimiga jalb etish qamrovini kengaytirish zarur va bu hol fuqarolarning sug'urta badallarini Pensiya jamg'armasiga to'lash hisobiga uning moliyaviy imkoniyatlarini yanada oshirib, fuqarolarning mehnat layoqatini yo'qotganda davlat pensiyasi bilan to'liq ta'minlanish imkonini beradi;

2. Bugungi kunda butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham aholining o'rtacha umr ko'rish yoshining uzayishi kabi demografik omillar o'zgarishlarining istiqboldagi proznozlarini tahlil

qilgan holda, pensiyalarni tayinlash mexanizmini mazkur o‘zgarishlarga muvofiqlashtirib borish lozim;

3. Aholini pensiya tizimiga oid huquqiy bilimlarini yanada oshirish va bu yo‘nalishda ommaviy axborot vositalari va matbuotda keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish zarur;

4. Pensiya ta’minoti tizimining tashkiliy (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, makroiqtisodiy va institutsional) jihatlarini takomillashtirish zarur[112]. *Siyosiy jihatlari:* pensiya ta’minoti tizimi dunyoning demokratik rivojlangan davlatlarida jamiyatning ko‘pchilik qismining manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammo bo‘lib, hokimlik uchun kurash jarayonida siyosiy platformalar shakllanishida bevosita siyosiy partiyalarning hal qiluvchi vositasi hisoblanadi. *Iqtisodiy jihatlari:* mamlakatlarning iqtisodiy muammolari, avvalo, davlat pensiya ta’minoti tizimining ijtimoiy siyosatdagi muayyan o‘rni va vazifalari bilan bog‘liqdir. Pensiya ta’minoti tizimining samaradorligi milliy iqtisodiyotning sog‘lomligi va istiqbolli ekanligiga bog‘liq. Pensiya ta’minoti tizimi davlatning barcha iqtisodiy jarayonlariga har bir fuqaro, oila va mahalla miqiyosida o‘z ta’sirini o‘tkazadi. *Ijtimoiy jihatlari:* pensiya ta’minotining muhim vazifalaridan biri – bu uning ijtimoiy yo‘naltirilgani – jamiyatning manfaatlariga qanchalik maqsadli va samarali erishgani bilan baholanadi. Pensiya ta’minotining asosiy vazifasi ushbu manfaatlarga erishish maqsadida keksa aholi qatlamlarining real daromad miqdorlarini saqlab qolish, pensionerlarning hayot darajasi va sifatini, ularning ehtiyojlari va manfaatlarini oshirib borishga qaratilgan. *Makroiqtisodiy jihatlari:* pensiya ta’minotining kapital jamg‘arilishi jarayoniga, moliya, sug‘urta va mehnat bozoriga ta’sirchanligi hisoblanadi. *Institutsional jihatlari:* bu pensiya ta’minotining boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Bosh maqsad – pensiya tizimini boshqarishning optimal, samarali va iqtisodiy o‘zini-o‘zi oqlaydigan tizimini aholining keksa qatlamlariga munosib hayot darajasini dav-

[112] Умурзаков Б. Социальные и демографические особенности совершенствования пенсионного обеспечения Узбекистана. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezislar to‘plami. 2017-yil 14-mart. – T.: “IQTISOD MOLIYA”, 2017. – B. 5-9.

latning iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatidan kelib chiqib takomillashib boruvchi iqtisodiy mexanizmni barpo etish.

5. Pensiya ta'minotiga ta'sir qiluvchi quyidagi asosiy ijtimoiy va demografik omillar ta'sirini tahlil qilish va natijalarini aniqlash lozim: mehnat bozorida ish kuchining miqdorining oshib borishi; milliy iqtisodiyotimizdagi norasmiy sektorining norasmiy faoliyat sabablarining ta'siri; davlat ijtimoiy sug'urta va davlat pensiya ta'minoti tizimlarining mehnatga layoqatli fuqarolar bilan bevosita va rasmiy majburiyatlarni amalga oshirish imkonlari yo'qligi; noqonuniy mehnat migratsiyasi muammolari; "Yashirin ishsizlik"lar muammosi; majburiy ijtimoiy to'lovlar bo'yicha surunkali qarzdorlar muammosi.

6. O'zbekiston pensiya tizimiga xos bo'lgan quyidagi og'riqli yoki muammoli nuqtalarni aniqlash va ularni bartaraf etish zarur: mehnat resurslari orasida yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar hissasining nisbatan pastligi; pensiya to'lovlarining tenglashtiruvchi xarakterga egaligi; mavjud jamg'ariladigan elementning pensiya hisob-raqamlariga qo'yilgan qo'yilmalar bo'yicha qabul qilinishi mumkin bo'lgan daromadlar bilan ta'minlashga qodir emasligi.

7. Pensiya islohotlarini amalga oshirish yoki uni chuqurlashtirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarida: pensiyalarning miqdorining Pensiya jamg'armasiga qo'yiladigan qo'yilmalar miqdori bilan bog'lanishini kuchaytirish maqsadida pensiyalarni tayinlash tizimini isloh qilish; individual pensiya hisob-raqamlarida qo'yilgan mablag'lar uchun: a) inflyatsiyani qoplaydigan; b) tijorat banklaridagi muddatli omonatlarning daromadlari bilan taqqoslanadigan darajadagi daromadlarni olishga imkon beruvchi jamg'ariladigan tizimning ishlash mexanizmini yaratish; xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va iqtisodiyotning norasmiy sektorini legallashtirishning zaruriy sharti sifatida biznesni yuritishning soliqli va soliqsiz xarajatlarini optimallashtirish; pensiya jamg'arilmalarini samarali joylashtirish va aholining jamg'arilmalarini jalb qiladigan hamda joylashtiradigan moliyaviy institutlar o'rtasida raqobatni vujudga keltirish uchun sharoitlarni yaratishning sharti sifatida moliyaviy bozorlarni rivojlantirish lozim.

8. O'zbekistonda o'rta muddatli istiqbolda pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini quyidagi yo'nalishlarda ta'minlash: pensiya

tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; ko'p darajali kombinatsiyalashgan pensiya tizimini shakllantirish; "Nodavlat pensiya fondlari", "Davlatning ijtimoiy sug'urtalash", "Majburiy xususiy pensiya ta'minoti" kabi pensiya tizimini yaratish va rivojlantirishning huquqiy asosini tashkil etuvchi qonunlarni qabul qilish; O'zbekistonda pensiyani mehnat stajiga qarab to'lashdan sug'urta stajiga asosan to'lashga bosqichma-bosqich o'tish; "Birdamlik" pensiya tizimidan bosqichma-bosqich "Jamg'ariladigan" pensiya tizimiga o'tish siyosatini izchillik bilan amalga oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi milliy pensiya ta'minoti tizimida yangi sahifa ochdi. Boshqa sohalardagi kabi pensiya ta'minoti tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilib, sifat o'zgarishlariga erishildi. Natijada, milliy pensiya tizimi takomillashib, bu holat pensionerlar va nafaqa oluvchilarning turmush farovonligini oshirish hamda pensiya ta'minoti moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkonini bermoqda.

### Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

- Jahonda amaliyotida pensiya ta'minoti sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?
- Yevropa mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimini tartibga solish va rivojlantirish bo'yicha qanday qonun hujjatlari qabul qilingan?
- Taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy himoyaning turli institutlarini qamrab oluvchi pensiya tizimining qanday modellarini bilasiz?
- Buyuk Britaniya pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlarini izohlab bering.
- Germaniya pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlarini izohlab bering.
- Fransiya pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlarini izohlab bering.
- Shvetsiyada pensiyalar necha qismdan iborat?
- Finlyandiya pensiya tizimida qaysi pensiya tizimi muhim o'rin egallaydi?

- Norvegiyada pensiya tizimida davlat ishtirokini ifodalab bering.
- AQSHda amal qiluvchi pensiya tizimlariga izoh bering.
- Chili pensiya modeli boshqa pensiya modellaridan nimasi bilan farqlanadi?
- Yaponiya pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlarini izohlab bering.
- Pensiya majburiyatlari o'sishini boshqarish deganda nimani tushunasiz?
- Pensiya aktivlari o'sishini boshqarish deganda nimani tushunasiz?
- Sizning fikringizcha, istiqbolda davlat pensiya tizimlarini boshqarishda qanday murakkab vazifalar yuzaga kelishi mumkin?
- Pensiya majburiyatlarining uzoq davrdagi o'sishiga sabab bo'luvchi omillarni sanab bering.
- Ijtimoiy sohadagi o'zgarishlarga nisbatan yuqori ta'sirchanlikni hisobga olgan holda pensiya ta'minotining sug'urta prinsiplariga o'tkazish necha bosqichda amalga oshirilishi zarur?
- Istiqbolda davlat pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qanday tavsiyalarni bera olasiz?

# GLOSSARIY

## A

**Aholi** – Yer yuzida yoki uning muayyan hududi, qit'a, mamlakat, tuman, shaharida istiqomat qiluvchi odam (inson) lar majmui. Aholini tadqiq etish bilan maxsus fan – demografiya shug'ullanadi.

**Aktiv** – (lot. *activus* – faol, ta'sirchan, ishchan) – 1) buxgalteriya balansining chap qismi, korxonaning muayyan sanada va pul ifodasida barcha vositalarini, ularning tarkibi va joylashuvini (asosiy fondlar, aylanma vositalar, pul vositalari, kapital sarflar, qarzdorlik talabnomalari va b.) aks ettiradi; 2) korxona yoki tashkilotning mulki yoki resurslari (bino, mashina, naqd pul, qimmatli qog'ozlar va b.). Pulga tez sotilishi (aylanishi) mumkin bo'lgan, bozori chaqqon aktivlar (vekselllar, qimmatli qog'ozlar, oltin, naqd pul va b.) likvid aktivlar deyiladi.

**Aktuar hisob-kitoblarning uslubiy asosi** – bu ekvivalentlik tamoyiliga amal qilish, ya'ni sug'urta to'lovlari va ajratmalari (nafaqalar) o'rtasida o'zaro muvozanatni ta'minlash.

**Aktuar hisob-kitoblar** – matematik va statistik uslublar tizimi hisoblanib, uning yordamida sug'urta tariflari miqdori, hajmi, har bir sug'urtalanuvchining sug'urta fondini tashkil etishdagi hissasi, moliyaviy barqarorlik va sug'urta operatsiyalarining rentabelligi aniqlanadi.

## B

**Bandlik** – aholini ish bilan ta'minlash, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi.

**Birja** – qimmatli qog'ozlar, valyuta, tovar, ish kuchi va xomashyo sotiladigan va xarid qilinadigan muassasa.

**Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi** – Pensiya jamg'armasi mablag'i hisobidan har oyda beriladigan to'lovlardan iborat bo'lib, uning miqdori vafot etgan boquvchining ish haqiga, uning qaramog'ida bo'lib kelgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari soniga bog'liq. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda farzandlarga va qonunda belgilangan shaxslarga pensiya ular boquvchining qaramog'ida turgan-turmaganidan qat'i nazar tayinlanadi.

**Boshqarish (iqtisodiyotda)** – xo'jalik obyektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga solish va yo'naltirish jarayoni; subyektlar, idoralar tomonidan kishilar va iqtisodiy obyektlarga ongli maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishni bildiradi, ularning faoliyatini yo'naltirish va ko'zlangan natijalarga erishish maqsadlarida amalga oshiriladi.

**Budjet** – (ingl. *budget* – hamyon, mablag') – belgilangan muddat uchun ishlab chiqilgan, me'yorlashtirilgan hamda qonuniy ravishda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar yig'indisi.

**Budjet tashkiloti** – davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, Davlat budjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot.

**Budjet tizimi** – barcha darajadagi budjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari, budjet tizimi budjetlarini tuzish va tashkil etish prinsiplari, ular o'rtasida budjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar yig'indisi.

**Budjet jarayoni** – budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, budjet tizimi budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni.

**Budjet tizimi budjetlari** – O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari.

**Budjet tasnifi** – budjet tizimi budjetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek Davlat budjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruhlashdan iborat bo'lib, budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish va ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalaniladi.

**Budjetlararo transfertlar** – O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga, davlat maqsadli jamg'armalariga hamda buning aksicha o'tkaziladigan, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar

budjetidan tumanlar va shaharlar budjetlariga hamda buning aksicha o'tkaziladigan mablag'lar.

**Budjetdan moliyalash** – davlat budjetdan davlat buyurtmalarini amalga oshirish, davlat dasturlarini bajarish, davlat tashkilotlarini saqlash (ta'minlash) bilan bog'liq xarajatlarga pul mablag'lari ajratish.
**Budjetdan tashqari jamg'armalar** – davlatning davlat budjetiga kiritmaydigan va aniq maqsadlarga mo'ljallangan pul mablag'lari.

**Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari** – jamg'arma daromadlari yagona ijtimoiy to'lovning belgilangan miqdordagi tushumlari, fuqarolarning sug'urta badallari, korxona va tashkilotlarning majburiy ajratmalari va boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

**Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining xarajatlari** – jamg'armaning mablag'laridan ishlayotgan va ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash, pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash, davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan keksa va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga, dafn etish marosimi uchun nafaqalar, belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar uchun foydalaniladi.

**Budjet ssudasi** – yuqori budjetdan quyi budjetga yoxud respublika budjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

## V

**Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri** – ish davrida boshlangan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri davomiyligi ushbu ish joyi bo'yicha beriladigan ma'lumotnomalar bo'yicha belgilanadi.

## G

**Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz** – jahonning deyarli barcha mamlakatlarida moliyaviy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi mutanosiblik va nisbatlarning keskin izdan chiqishi natijasidagi beqarorlik va chuqur tanglik holatlarining vujudga kelishi.

## D

**Davlat budjeti** – davlatning muayyan vaqt (odatda, bir yil) uchun mo'ljallangan pul daromadlari va xarajatlari majmui. Davlat budjeti davlat ixtiyoridagi pul fondlarining taqsimlanishini bildirib, u dav-

lat moliyasining bosh bo‘g‘ini hisoblanadi. Davlat budjeti tarkiban umumdavlat budjeti va mahalliy budjetga bo‘linadi.

**Davlat zayomlari** – budjetga pul to‘plash maqsadida davlat nomidan sotish uchun chiqariladigan, davlatning qarzdorligini tasdiqlovchi qimmatli qog‘oz.

**Davlat budjeti profitsiti** – muayyan davrda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti daromadlarining uning xarajatlaridan oshib ketishi.

**Davlat budjeti taqchilligi** – muayyan davrda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi.

**Davlat moliyaviy nazorati** – budjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida moliyaviy nazorat obyektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarini o‘rganish hamda taqqoslash.

**Davlat qarzi** – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi mablag‘larni jalb qilish natijasida vujudga kelgan majburiyatlari.

**Davlat qimmatli qog‘ozlari** – budjet kamomadlarini qoplash maqsadlarida hukumat yoki mahalliy hokimiyat idoralari nomidan chiqarilgan va albatta, hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog‘ozlar.

**Daromad** – keng ma’noda kirim bo‘lgan har qanday pul mablag‘lari yoki pul qiymatiga ega bo‘lgan moddiy boyliklarni olish, iqtisodiy subyekt o‘z faoliyati natijasiga ko‘ra oladigan pul va tovar – moddiy tushum. Daromad pul va moddiy shaklga ega bo‘lib, ularning yig‘indisi jami daromadni hosil qiladi.

**Deontologiya** – shifokor zimmasida har bir bemorni davolashdek ulkan mas’uliyat bor. Xastahol kishining sog‘ayishida shifokorning munosabati ham muhim rol o‘ynaydi. Bunday munosabat tibbiyotda “deontologiya” deyilib, bu atama birinchi bor ingliz olimi Bentam tomonidan kiritilgan. Deontologiya vrachning har bir harakati, yuz ifodasining o‘zgarishi, gapirish ohangi, kiyinishi, xushmuomalaligi, ziyrakligi, sergakligi, donoligi, qobiliyati, oliyjanobliligi, qat’iyatliligi, odobi va madaniyati, hozirjavobligi singari insoniy fazilatlari majmuasidan iborat;

**Diversifikatsiya** – (lot. *diversificatio* – o'zgarish, xilma-xil taraqqiyot) – korxonalarning faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi. Diversifikatsiya ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy foyda olish, bankrotlikka barham berish va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi.
**Dividend** – (lot. *dividendum* – taqsimlanadigan narsa) – aksiyadorlar jamiyati foydasidan aksiya egasiga har yili beriladigan va uning daromadiga aylangan qismi. Dividendning miqdori aksiyadorlar jamiyatining sof foydasi, aktsiyalar soni va qiymatiga bog'liq.

**Yo**

**Yoshga doir pensiya** – bu fuqaroning avvalgi davrlardagi mehnat faoliyati uchun yoshi va mehnat staji hisobga olingan holda umrbod moddiy ta'minlash uchun Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan qaytarib olmasliklari sharti bilan muntazam ravishda to'lab turiladigan to'lovlardir.

**Yoshga doir pensiya olish huquqi** – yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

**J**

**Jamg'arma** – aholi, korxona va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to'planib borishi. Jamg'armalar – 1) xarajatlardan, chiqimlardan orttirib, tejab to'plangan pul; 2) kelgusidagi ehtiyojlar uchun daromadning bir qismini ajratib qo'yish; 3) doimiy badallar va reinvestitsiya yo'li bilan kapital qo'yilmalarni pul ko'rinishida jamlash; 4) pul va moddiy vositalarni ma'lum bir maqsad yo'lida foydalanish uchun jalb etish (masalalan, pensiya jamg'armasi, investitsiya jamg'armasi); 5) ma'lum bir faoliyat turiga, kishilarning muayyan ijtimoiy guruhiga ko'maklashish maqsadida tuzilgan tashkilot; 6) aksiyalar nazorat paketini qo'lga kiritish maqsadida, narxiga ta'sir etmagan holda ularni doimiy ravishda sotib olish.

**Jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari** – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga ixtiyoriylik asosida kiritiladigan pul mablag'lari.

**Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari** – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga majburiy tartibda kiritiladigan pul mablag'lari.

**Jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi (badal kirituvchi)** – jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining foydasiga badallar kiritayotgan jismoniy shaxs yoki ish beruvchi yuridik shaxs (bundan buyon matnda ish beruvchi deb yuritiladi).

**Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti** – fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlash.

**Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti bo'yicha davlat kafolatlari** – davlat jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob-raqamlarida jamg'arilgan mablag'lari saqlanishi hamda to'lanishini kafolatlaydi.

**Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi** – jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasida hisobga olingan sana, fuqaroning shaxsiga oid ma'lumotlar, shu jumladan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ining tartib raqami, shuningdek boshqa zarur ma'lumotlar ko'rsatiladi va uni berish tartibi, daftarcha shakli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqi** – jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolar pensiya to'lovlari oluvchi sifatida jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini qonun hujjatlariga muvofiq davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda olish huquqiga ega.

I

**Imtiyozli pensiya ta'minoti** – tegishli asoslar mavjud bo'lganda fuqarolarni odatdagidan qulayroq shartlarda (belgilanganidan oldinroq yoki kamroq mehnat staji talab etilgani holda va h.k.z.) pensiya bilan ta'minlashga oid qonunchilik tizimi.

**Investitsiya** (lot. *investio* – o'rash) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish). Pulning vaqtga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir.

**Ish bilan band bo'lgan shaxsning ish staji** – O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida Pensiya jamg'armasi bo'limining sug'urta badallari to'langanligini tasdiqlaydigan ma'lumotnomasi bo'yicha belgilanadi.

**Ish haqi** – shaxsning pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish haqi.

**Ish staji** – mehnat daftarchasi va ish joyidan, xizmatdan, o'qishdan yoki arxivdan berilgan boshqa hujjatlar bo'yicha aniqlangan, ishdagi tanaffuslardan qat'i nazar, qonun hujjatlariga muvofiq pensiya ta'minoti huquqini beradigan mehnat faoliyati va boshqa faoliyatning umumiy davomiylig.

**Ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiya** – pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

**Ish staji uchun pensiyalarning oshirilishi** – pensiya tayinlashda talab etiladiganidan ortiqcha ish stajining har bir to'liq yili uchun pensiyalarning tayanch miqdorlari yoshga doir pensiyalar-pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida.

**Ish staji uchun I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalarning oshirilishi** – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari oilaning mehnatga qobiliyatsiz har bir a'zosi uchun-boquvchining o'rtacha oylik ish haqining 0,5 foizi miqdorida oshiriladi.

**Ish haqining yakka tartibdagi koeffitsiyenti** – tegishli oy uchun pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan haqiqiy ish haqining aynan shu oy uchun eng kam oylik ish haqi nisbati sifatida aniqlanadigan miqdor;

**Imtiyoz** – ma'lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman (yoki to'liq) ozod etish, ma'lum bir qulayliklarga ega bo'lish.

**Innovatsiya** (ingl. *innovations* – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni

tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi.

**Inflatsiya** – (lot. *inflatio* – shishish, bo'rtish, ko'tarilish), pulning qadrsizlanishi – tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xo'jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog'oz pullar miqdorining ko'payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi.

**Iqtisodiy faol aholi** – milliy xo'jalikda band bo'lgan barcha kishilar bilan bir qatorda ish qidirayotgan mehnatga layoqatli aholi. Ular iqtisodiy jihatdan faol va tegishli faoliyatda qatnashishi mumkin, biroq, daromad oladigan manbalari kam yoki mablag'lari yo'qligi tufayli bu faoliyatni amalga oshira olmaydilar.

**Ijtimoiy ta'minot** – keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo'lgan va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi. Ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'i.

**Ijtimoiy himoya** – keng ma'noda – mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; tor ma'noda – davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rligi.

**Ijtimoiy yordam** – davlat va jamiyatning qariligi, sog'lig'i, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik uchun vositalar bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga muhtoj fuqarolar to'g'risida g'amxo'rligi. Ijtimoiy yordam pensiyalar, nafaqalar to'lash, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish, 16 yoshgacha farzandi bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga oylik nafaqa to'lash, bemorlar va keksalarga xizmat ko'rsatish, bolalarga g'amxo'rlik qilish ko'rinishida amalga oshiriladi.

**Ijtimoiy sug'urta** – davlat tomonidan joriy etiladigan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan keksalar, mehnatga layoqatsizlarni ta'minlash, yordam ko'rsatish tizimi. Mehnatga layoqatsizlarni moddiy ta'minlashning qat'iy kafolatli tizimi ijtimoiy sug'urtani bildiradi.

**Ijtimoiy nafaqa** – muayyan sabablarga ko'ra, mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan va doimiy ravishda yordamga muhtoj fuqarolarga davlat tomonidan beriladigan nafaqa.

**K**

**Kapital bozori** – bo'sh turgan pul mablag'larini to'plash, ularni ssuda kapitaliga aylantirish, so'ngra uni ishlab chiqarish jarayonlari ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash munosabatlari; fond bozorida qimmatli qog'ozlar, korxonalarning aksiyalari hamda davlat obligatsiyalari bilan oldi-sotdi operatsiyalari olib boriladi.

**M**

**Maxsus ish staji** – xalq xo'jaligining muayyan tarmoqlarida, kasblar va lavozimlarda qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beradigan mehnat faoliyatining davomiyligi.

**Maxsus ish stajining tasdiqlanishi** – teatrlar va boshqa teatr-tomosha korxonalari va jamoalarining artistlari ayrim toifalarining imtiyozli pensiya ta'minoti olish huquqini beradigan maxsus ish staji mehnat daftarchasi bilan tasdiqlanadi.

**Mehnat daftarchasida zarur ma'lumotlar mavjud bo'lmagan hollarda maxsus ish staji** – kasb (lavozim)ning nomi, bajariladigan ishning janrga mansubligi, xususiyati yoki ish kechgan tashkilotning maqomi to'g'risida mehnat daftarchasida zarur ma'lumotlar mavjud bo'lmagan hollarda maxsus ish staji ushbu shaxsga nisbatan ma'lumotlar mavjud bo'lgan ish joyidan berilgan ma'lumotnoma bilan tasdiqlanadi.

**Mehnat daftarchasi** – ish stajini tasdiqlaydigan asosiy hujjat hisoblanadi.

**Majburiyat** (huquqda) – fuqarolik huquqiy munosabati. Unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirish (mol-mulkni topshirish, ishni bajarish va h.k.)ga yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatini bajarishni talab qilish huquqiga ega.

**Modernizatsiya**, modernizatsiyalash, modernizatsiya qilish (frants. *moderne* – eng yangi, zamonaviy) – biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Modernizatsiya

qilishda mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi.

**Monitoring** – (ingl. *monitoring* – kuzatish, nazorat qilish) – ma'lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, hisobga olish, baholash va istiqbolini belgilash. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish sohasida qo'llaniladigan monitoring berilgan ssuda (qarz)ni qoplash va unga foiz to'lash jarayonining borishi ustidan nazorat qilishda namoyon bo'ladi.

## N

**Nafaqa** – muhtoj odamlarga davlat, korxona, muassasa va ayrim shaxslar tomonidan beriladigan yordam puli. O'zbekiston Respublikasida mehnat stajiga ko'ra beriladigan pensiyadan farqli holda nafaqa davlat tomonidan, asosan, bolalikdan nogironligi bo'lgan, yolg'iz qariya va yolg'iz nogironlarga, mehnatga vaqtinchalik qobiliyatsizlarga, homilador va tuqqan ayollarga, 3 yoshgacha bo'lgan bolalari tarbiyasi bilan band bo'lgan ayollarga, ishsizlarga, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga beriladi.

**Nogironlik**, invalidlik – kasallik, shikastlanish, mayib-majruhlik, baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma'lum muddat mehnat qobiliyatini yo'qotish. Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi sababli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxs nogiron hisoblanadi.

**Nogironlik pensiyasi** – mehnat qobiliyatini amalda uzoq muddatga yoki butunlay yo'qotish munosabati bilan tayinlanadi.

## P

**Penya** (lot. *poena* – jazolash) – majburiyatlarning o'z vaqtida bajarmaganligi uchun to'lanadigan pul jarimasi. Kechiktirib yuborilgan majburiyat summasidan foizlarda belgilanadi va kechikkan muddatning har bir kuni uchun undiriladi.

**Pensiya** (lot. *pension* – to'lov) – fuqarolarga davlat yoki boshqa subyektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va, odatda, umrbod to'lanadigan to'lovlar. Ijtimoiy ta'minot shakli hisoblanadi.

**Pensiya miqdori** – ish stajining muddatiga bog'liq bo'lib, pensiyaning tayanch miqdoridan, ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan, pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan tarkib topadi.

**Pensiyaga oid hujjatlar yig'majildi** – ular asosida pensiya so'rab murojaat qilgan shaxsga pensiya tayinlangan hujjatlarning tikilgan turkumi.

**Pensiyaga oid hujjatlar yig'majildi turadigan joy** – pensiya olish joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi.

**Pensiya tayinlashni so'rab murojaat etish** – pensiya tayinlash, pensiya miqdorini qayta hisoblab chiqish, pensiyaning bir turidan boshqa turiga o'tkazish, shuningdek ilgari to'xtatib qo'yilgan (to'xtatilgan) pensiya to'lashni belgilangan tartibda tiklash (qayta tiklash) to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limiga ariza berish.

**Pensiya jamg'armasi** – aholini davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy bazani yaratish, pensiya va nafaqalarni qonunda belgilangan miqdorlarda to'lashni mablag' bilan ta'minlashni amalga oshiradigan jamg'arma.

**Preferensiya** – 1) investitsiya va innovatsiya xarajatlarini moliyalashtirish uchun investitsion soliq krediti va maqsadli soliq imtiyozi ko'rinishida belgilangan imtiyoz, yengillik; 2) iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

## S

**Sug'urta** – 1) tabiiy ofatlar, har xil baxtsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamalari to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi; 2) yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish.

## T

**Taktika** – belgilangan maqsadga erishish uchun ishlatiladigan vosita va usullar majmuasi.

**Tartibga solish** (iqtisodiy) – bu iqtisodiy jarayonlar rivojlanishining yo'nalishlarini aniqlash, yo'lga qo'yish va ma'lum tizimga solishga qaratilgan maqsadli yo'naltirilgan harakat.

**Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari** (TMEK) – hayot faoliyati cheklanganligini ekspertizadan o'tkazish, nogironlik guruhini, sabablari, boshlangan vaqti va muddatlarini aniqlash bo'yicha tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari.

U

**Uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlarning ayrim toifalariga imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beradigan maxsus ish staji** – uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar uchun – tegishli tashkilot tomonidan berilgan uchilgan soatlarni tasdiqlaydigan ma'lumotnoma bilan tasdiqlanadi. Uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiradigan ayrim xodimlarning sinov texnikasini sinashda bandligi tashkilotlar tomonidan berilgan ma'lumotnomalar bilan tasdiqlanadi.

F

**Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar**, apatridlar – muayyan mamlakatning fuqarosi hisoblanmaydigan va biron chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lmagan shaxslar. Shaxs o'z fuqaroligini yo'qotgan va yangidan fuqarolik huquqini olmagan vaqtda fuqarosizlik kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasida yashab turgan, lekin, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'xtatilgan, boshqa davlat fuqarosi bo'lmagan shaxslarga ichki ishlar idorasi tomonidan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga mo'ljallangan istiqomat guvohnomasi beriladi.

X

**Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti** – harbiy xizmatchilarni, ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslarni hamda ularning oila a'zolarini pensiya bilan ta'minlash shartlari, normalari va tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanib, bunda harbiy xizmatchilar, shuningdek ichki ishlar organlari boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar pul ta'minotining barcha turlari fuqaro shaxslarning ish haqi singari bir xilda hisobga olinadi.

**Xalqaro konvensiya** – xalqaro shartnoma turlaridan biri; davlatlarning, odatda, biron-bir ixtisoslashgan sohada o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

**Xarajatlar**, sarf-xarajatlar, chiqimlar – tovarlarni ishlab chiqarish va muomala jarayonida turli resurslar (xomashyo, materiallar, mehnat, xizmatlar, mablag'lar) sarflari bilan bog'liq chiqimlarning pul shaklidagi ifodasi. Asosan, ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga bo'linadi.

**Xususiy sektor** – iqtisodiyotning xususiy mulkchilik va xo'jalik yuritishning erkin bozor usullariga, iqtisodiy alohidalashuviga asoslangan sohasi. Bozor iqtisodiyoti davlat va nodavlat sektorlaridan iborat. O'z navbatida, nodavlat sektori xususiy va jamoa sektorlariga bo'linadi.

**Ch**

**Chet elda ishlash davrlari bo'yicha ish staji** – O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan sug'urta badallari to'langan bo'lsa, qo'shib hisoblanadi.

**Sh**

**Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i** – fuqaroning Xalq bankidagi egasi yozilgan shaxsiy hisobvarag'i bo'lib, badal kirituvchilarning jamg'arib boriladigan pensiya badallari va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi mablag'larga hisoblab qo'shilgan foizlar ana shu hisobvaraqqa kelib tushadi hamda unda hisobga olinadi.

**Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish** – jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinayotganda fuqarolarga Xalq banki umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamli shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari fuqaroning pasporti asosida ochadi.

**Shaxsning yakka tartibdagi ish haqi koeffitsiyenti** – ishdagi mavjud tanaffuslaridan qat'i nazar, (pensiya tayinlash uchun murojaat qilgan shaxsning tanlashiga ko'ra), mehnat faoliyatining oxirgi o'n yili mobaynidagi istalgan ketma-ket oltmish oyidan har bir oyi uchun aniqlanadi, bunda shaxsning pensiyani hisoblash uchun qa-

bul qilinadigan haqiqiy ish haqi tegishli oydagi eng kam oylik ish haqi miqdoriga bo'linadi.

**Ya**

**Yalpi ichki mahsulot** (YaIM) – mamlakat iqtisodiy faoliyatining muayyan davr davomidagi umumiy natijalarini tavsiflaydigan ko'rsatkich. Mamlakat hududida joylashgan barcha korxonalar (chet el va qo'shma korxonalari ham shu hisobga kiradi) jami ishlab chiqarish omillari bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning bozor qiymatlaridagi ifodasi bo'lib, uning miqdori milliy hisoblar tizimi asosida hisoblab chiqiladi.

**Yalpi milliy mahsulot** (YaMM) – mamlakatning ma'lum muddat ichida umumiy iqtisodiy faoliyatini tavsiflovchi yakuniy makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri. YaMM davlatning bozor narxlarida ifodalangan barcha birlamchi daromadlari (ularning mamlakat hududida yoki uning tashqarisida ishlab chiqarish omillari tufayli yuzaga kelishidan qat'i nazar) jami yig'indisini ko'rsatadi. YaMM milliy hisoblar tizimi asosida hisoblanadi.

**Yangi nikohdan o'tilganida pensiyani saqlab qolish** – er (xotin) ning vafot etganligi sababli tayinlangan pensiya pensioner yangi nikohdan o'tganida ham saqlanib qoladi.

**Yashash joyi** – turar joy, kvartira, xizmat turar joyi, ixtisoslashtirilgan uylar (yotoqxona, pansionat, yolg'iz keksalar uchun maxsus uy, nogironlar, faxriylar uchun internat uy va boshqalar), shuningdek, pensiya uchun murojaat qilgan jismoniy shaxs ijaraga olish shartnomasi (ikkilamchi ijara), ijara shartnomasi yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha mulkdor sifatida doimiy yashaydigan (doimiy ro'yxatdan o'tgan) boshqa turar joy, doimiy yashash joyi mavjud bo'lmagan (doimiy ro'yxatdan o'tmagan) taqdirda – vaqtincha yashash (vaqtincha ro'yxatdan o'tish) joyi.

**O'**

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi** – respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O'zbekiston Respublikasining moliyaviy, narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi,

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari boshqarmalari va bo'limlari, davlat sug'urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tasdiqlaydigan Vazir boshchilik qiladi. Moliya vazirligi yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekistonning Davlat gerbi tasvirlangan va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi.

**O'zbekiston Respublikasi Xalq banki** – O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 1995-yil 4-oktabrdagi Qaroriga asosan "O'zjamg'armabank" Davlat-tijorat Xalq banki etib qayta tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-sonli Farmoniga asosan bank nomi "Aksiyadorlik tijorat Xalq banki" nomiga o'zgartirildi. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuniga asosan fuqarolarning davlat pensiya ta'minotiga qo'shimcha tariqasida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi yo'lga qo'yilgan. Xalq banki yagona, o'z filiallarini bir-biri bilan bog'lovchi va yetarlicha himoyalovchi elektron baza yaratish uchun ko'p ishlarni amalga oshirdi.

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi** – idoraviy jihatdan O'zbekis-ton Respublikasi Moliya vazirligiga qarashli hamda o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari – Moliya vaziriga, Jamg'armaning Kuzatuv kengashi raisiga hisob beradi. Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlarini va boshqa to'lovlarni tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to'lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo'yicha asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini belgilaydi.

**O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga chet eldagi ish staji** – O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasidagi ishga to‘g‘ri keladigan stajning uchdan biridan ortiq bo‘lmagan doirada kiritiladi.

**O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining yollanish (kontrakt) bo‘yicha chet eldagi ish staji** – O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan mehnat daftarchalariga kiritiladigan yozuvlar bo‘yicha aniqlanadi.

## Q

**Qoramol yetishtirish, shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo‘lgan shaxslarga mehnat staji** – agar mazkur shaxs ushbu kalendar yilning kamida 9 oyi mobaynida badallar to‘lagan bo‘lsa pensiya tayinlash uchun ish stajiga to‘liq kalendar yil qo‘shib hisoblanadi;

**Qimmatli qog‘ozlar** – 1) o‘z egasiga mulkka egalik huquqini va daromad ko‘rinishida muayyan pul summasini olish huquqini beradigan pul yoki tovar hujjatlari (aksiya, obligatsiya, akkreditiv, veksel, chek va b.); 2) o‘zining egasiga dividend va foiz ko‘rinishida daromad olish huquqini beruvchi mulk tituli. Ularning tarkibiga aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar kiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 2013-yil 26-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2007-yil 25-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 1995-yil 21-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrdagi “Fuqorolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-avgust-dagi “Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-4822-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-4161-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 17-sentabrdagi “Pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3921-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017-yil 13-martdagi “Pensiya va nafaqalarni to‘lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2826-sonli Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2699-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1251-sonli Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabr-

dagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1252-son Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 13-fevraldagi "Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yagona ijtimoiy to'lovni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida"gi 26-sonli Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-sonli Qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-sonli Qarori.

20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktabrdagi 490-sonli "Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori.

21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 444-sonli Qarori.

22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 4-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ijtimoiy sug'urta jamg'armasining tashkil etish to'g'risida"gi 391-sonli Qarori.

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish masalalari" nomli 328-sonli Qarori.

24. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: "O'zbekiston", 1995, 119 b.

25. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016, 56 b.

26. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017, 104 b.

27. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017, 48 b.

28. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017, 488 b.

29. Allayarov Sh., Toshmuxamedova D. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015, 232 b.

30. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К⁰», 2009, 576 с.

31. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. –T.: "Noshir", 2012, 712 b.

32. Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. Darslik. – Toshkent: "infoCom.UZ" MChJ nashriyoti, 2010, 367 b.

33. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008), 288 p.

34. Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2013, 476 b.

35. Lebedova L.F. US Pension System in XXI Century' Financial-Economic Destability Risks. USA * Canada, 2014, – № 3, p. 22–30.

36. Zokirova M.Sh., Abdug'afforov A.A. Iqtisodiy modellashtirish amaliyoti. – T.: "O'zbekiston", 1999.

37. Nuritdinova V.Sh.Sharapova M.A. Moliyaviy nazorat (o'quv qo'llanma). – T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2013.

38. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. – T.: "O'ME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 2-tom, 185–186 b.

39. World Bank Population Estimates and Projections (2014).

40 Social Security Administration. Annual Statistical Supplement to the Social Security bulletin. Retrieved from.

41. Pension Reforms in Japan. Kenichiro Kashiwase, Masahiro Nozaki, and Kiichi Tokuoka. IMF Working Paper.

42. Pensions at a Glance. 2015. OECD AND G20 INDICATORS. – P. 218, 251, 256, 284, 289, 325, 343, 362.

43. OECD Global Pension Statistics and Annual Survey of Public Pension Reserve Funds. http://dx.doi.org/10.1787/888933301280.

44. National officials, OECD calculation and Turner, 2016. – P. 231.

45. The 2007 Annual Report of the Board of Trustees of the Federal OASDI.

46. Umurzakov B.X. Pensiya badali soliq to'lovlaridan nima bilan farqlanadi?. – Toshkent: "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 1-son, 2011. 5-b.

47. E.Philip Davis. Pension Funds: Retirement-Income Security and Capital Markets: An International Perspective. Print ISBN-13: 9780198293040. Published to Oxford Scholarship Online: March 2012. – P. 2–3.

48. IMF Working Paper. International Capital Markets. Pension Funds and Emerging Markets. Prepared by Jorge A. Chan-Lau. 2004. International Monetary Fund.

49. Pan-European Pensions Guide. Requirements for the operation of cross-border pension arrangements. A Ius Laboris publication. Produced by the Pensions International Practice Group. 2nd Edition.

Printed: July 2011.

50. Pensions at a Glance 2015. OECD and G20 indicators. OECD (2015), Pensions at a Glance 2015: OECD and G20 indicators, OECD Publishing, Paris.

51. Begalov B.A. Pensiya tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'llari. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "IQTISOD MOLIYA", 2017, 3-b.

52. Умурзаков Б.Х. Социальные и демографические особенности совершенствования пенсионного обеспечения Узбекистана. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "IQTISOD MOLIYA", 2017. 5–9-b.

53. Vaxabov A.V. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod moliya", 2017, 11–16-b.

54. Ziyadullayev M.J. Pensiya ta'minotidagi islohotlar va yaratilgan interaktiv xizmatlar. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "IQTISOD MOLIYA", 2017, 19–21-b.

55. Mamatov B.S. Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "IQTISOD MOLIYA", 2017. 72–74-b.

56. Internet saytlari:

- http://pfru.uz;
- http://uza.uz.;
- https://www.cia.gov.;
- http://ec.europa.eu/finance/pensions/iorp/index_en.htm.

# ILOVALAR

*1-ilova*

## Pensiya taraqqiyotining 4 bosqichli tarixi

**BIRINCHI BOSQICH**

**(1918-1956-yillar)**

Bu davrida mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo'lganlarga, qariyalarga va ko'p yillik xizmatlari uchun kabi pensiya turlari joriy etildi. Ayollar va erkaklarga yoshiga qarab pensiya belgilash ham o'sha davrda qaror topdi. Sho'ro hokimiyati davrida, asosan faqarolar urushida nogiron bo'lganlar va boquvchisini yo'qotgan oilalar uchun pensiya tayinlangan. 1928-yildan keksalik va ko'p yillik xizmatlari uchun pensiyalar, dastlab sanoatning alohida ishchilari, keyinchalik esa barcha ishchilarga berila boshladi. 1937-yilga kelib, bu pensiya xizmatchilar uchun ham joriy etildi. Pensiya ta'minotida yagona tartib yo'q bo'lib, pensiya tarmoqlar tamoyili bo'yicha tayinlangan.

**IKKINCHI BOSQICH**

**(1956-1990-yillar)**

Bu davrida davlat pensiya ta'minoti to'g'risida ilk bor yagona qonun ("Davlat pensiyalari to'g'risida") qabul qilindi (1956-yil). Bu qonunga asosan barcha tarmoq ishchi-xizmatchilari uchun (kolxozchilardan tashqari) yagona pensiya tartibi belgilandi. 1964-yilda "Kolxoz a'zolariga pensiya tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom qabul qilingach, barcha kolxozchilar uchun yagona pensiya ta'minoti joriy bo'ldi. Mehnatga vaqtincha qobiliyatsizligi uchun nafaqalar, ayollarga homiladorlik va tug'ish uchun beriladigan nafaqalarning miqdori ko'paytirildi. 1965-yilga kelib, aholining barcha qatlamlari pensiya ta'minoti bilan qamrab olindi.

**UCHINCHI BOSQICH**

**(1990-1993-yillar)**

Mamlakat iqtisodiyoti bozor munosabatlari tartibiga o'ta boshlagach, pensiya ta'minotida ham islohotlar o'tkazilishi bilan boshlandi. Bu bosqichda ilk bor pensiya jamg'armasi, ijtimoiy pensiya, daromadlarni indeksatsiyalash tushunchalari paydo bo'ldi. 1990-yilda o'sha davrdagi pensiya ta'minotining huquqiy asosini sobiq Ittifoq fuqarolarining pensiya ta'minoti to'g'risidagi Qonun tashkil qildi. Qonunga ko'ra yoshga doir pensiyalarning tayanch qismi o'rtacha ish haqining 50% dan 55% ga ko'tarildi; yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab qilinadigan mehnat stajidan ortiq bo'lgan har bir to'liq ish yili uchun pensiyaning o'rtacha miqdorini 1% ga oshirish; ish stajiga oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qish muddatlari, sug'urta badallari to'langanda yakka tartibdagi mehnat faoliyati, onalarning bolalarni go'daklik yoshida parvarishlash davrlari (har bir bola 3 yoshga to'lguncha – jami 6 yil doirasida) va boshqa ish stajiga qo'shiladigan bo'ldi.

O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 14-yanvardagi 9-sonli Qaroriga asosan Pensiya fondining O'zbekiston jumhuriyat bo'limi tashkil etilgan. Ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda ijtimoiy sug'urta mablag'larining to'g'ri va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashining 1993-yil 4-avgustdagi 391-sonli Qaroriga muvofiq, sobiq Ittifoq Pensiya fondining O'zbekiston Respublika bo'limi negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etilgan. Unga O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi tizimidan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha, farzand tug'ilganda, dafn etishga beriladigan nafaqalarni to'lashga yo'naltiriladigan davlat ijtimoiy sug'urta mablag'lari berilgan.

**TO'RTINCHI BOSQICH**

**(1994-2017-yillar)**

1993-yil 3-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, 1994-yildan amalda joriy etildi. Ushbu qonunga ko'ra pensiyalar miqdori mehnat staji va o'rtacha ish haqiga yanada uzviy bog'landi. Pensiya miqdori: pensiyaning tayanch miqdori; mehnat staji uchun pensiyaning oshirilgan qismi; pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan tashkil topadi. Pensiyalarning 3 turi mavjud: yoshga doir pensiya; nogironlik pensiyasi; boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi. Yoshga doir pensiya o'z navbatida 2 xil bo'ladi: umumiy asoslarda tayinlanadigan va imtiyozli asoslarda tayinlanadigan pensiya. Umumiy asoslarda tayinlanadigan yoshga doir pensiya – erkaklar 60 yoshga to'lganda va kamida 25 yil mehnat stajiga ega bo'lganda, ayollar 55 yoshga to'lganda va kamida 20 yillik mehnat stajiga ega bo'lganda tayinlanadi. Bolalarni tarbiyalash uchun shart-sharoit yaratish hamda ayollarning o'z mehnatidan manfaatdorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi (1999-yil 14-aprel) Qonuniga asosan, kamida 20 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan ayollar 54 yoshda pensiyaga chiqib, to'liq pensiya olishlari mumkin. Bu Qonun 1999-yil 1-iyuldan kuchga kirgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-maydagi 250-sonli "Imtiyozli sharoitlarda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 1-, 2- va 3-ro'yxatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli asoslarda tayinlanadigan yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Masalan, ayrim toifa fuqarolar yoshidan qat'i nazar, yoshga doir pensiyaga chiqish yoshi 10 yilga, boshqalari uchun pensiya yoshi, talab etiladigan mehnat staji 5 yilga qisqartirilgan, ba'zi guruh shaxslarga yanada imtiyozliroq shartlar belgilangan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi. 2017-yil fevral oyidan boshlab barcha turdagi pensiyalarni to'lash hech qanday cheklovlarsiz to'liq hajmda naqd shaklda amalga oshirilishi belgilandi.

## Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi[113]

*2-ilova*




## Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilishi[114]

*3-ilova*




---

[113] Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . – T.: "Iqtisodiyot", 2013, 350.

[114] http://pfru.uz/uz/articles/5/ sayti ma'lumotlari.

## Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi apparati tuzilmasi[115]

*4-ilova*




---

[115] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1252-sonli Qarori, 2-ilova.

MUNDARIJA

KIRISH ..... 5

1-BOB. "PENSIYA JAMG'ARMASI FAOLIYATI" FANIGA KIRISH
1.1.Fanning maqsadi va vazifalari, pensiyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari ..... 9
1.2.Pensiya jamg'armasining shakllanish tarixi va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimidagi o'rni ..... 13
1.3.Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilishi, asosiy vazifalari va funksiyalari ..... 22
1.4.Pensiya jamg'armasining konsolidatsiyalashgan budjet tarkibida tutgan o'rni ..... 29
Bahs-munozara va nazorat uchun savolla ..... 32

2-BOB. PENSIYA JAMG'ARMASI FAOLIYATINING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI
2.1.Pensiya jamg'armasi faoliyatining huquqiy asoslari ..... 33
2.2."Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning mazmuni, tarkibi va ijtimoiy ta'minot munosabatlarini tartibga solishdagi ahamiyati ..... 38
2.3.Pensiyalarni tayinlash va to'lash munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar ..... 52
Bahs-munozara va nazorat uchun savollar ..... 56

3-BOB. PENSIYA JAMG'ARMASI FAOLIYATINI BOSHQARISH
3.1.Pensiya jamg'armasini boshqarish to'g'risida tushuncha: boshqarish subyektlari, asosiy vazifalari ..... 59
3.2.Pensiya jamg'armasining Kuzatuv kengashi – Pensiya jamg'armasini boshqarishning yuqori organi sifatida ..... 65
3.3.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Pensiya jamg'armasini boshqarishdagi ishtiroki, vakolatlari ..... 67
3.4. . Pensiya jamg'armasi faoliyatini tartibga solish va boshqarishda davlat siyosatining o'ziga xos xususiyatlari ..... 70
3.5.Xorijiy mamlakatlarda pensiya tizimini boshqarish va tartibga solish. 74
Bahs-munozara va nazorat uchun savollar ..... 84

4-BOB. PENSIYA JAMG'ARMASI BUDJETINI TUZISH, TASDIQLASH VA IJRO ETISH
4.1.Pensiya jamg'armasi: budjeti loyihasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi; daromadlari prognozlarini ishlab chiqish va xarajatlarini rejalashtirish, ularning ijrosi. ..... 86
4.2.Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari budjeti va uni shakllantirish, pensiya rejalarini moliyalashtirish xususiyatlari ..... 93
Bahs-munozara va nazorat uchun savollar ..... 107

5-BOB. PENSIYA JAMG'ARMASI DAROMADLARI
5.1. Pensiya jamg'armasi daromadlari: mazmuni, manbalari, tarkibi va tuzilishi ..... 108

5.2.Yagona ijtimoiy to'lov, sug'urta badali, majburiy ajratmalar va boshqa daromadlar ..... 111
5.3.Pensiya jamg'armasi daromadlari barqarorligini ta'minlash va daromad bazasini mustahkamlashning bugungi kundagi muammolari ..... 126
5.4.Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari daromadlarining shakllanish manbalari va investitsiya faoliyatidan shakllantiriladigan daromadlari ..... 135
Bahs-munozara va nazorat uchun savollar ..... 144

6-BOB PENSIYA JAMG'ARMASI MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH
6.1.Pensiya jamg'armasi xarajatlarining mazmuni, tarkibi va tuzilishi ..... 146
6.2.Pensiya jamg'armasi xarajatlarining guruhlanishi ..... 150
6.3.Davlat pensiyalarini hisoblash, tayinlash va to'lash tartib ..... 156
6.4. .Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta'minlash ..... 174
6.5.Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari mablag'laridan foydalanish masalalari ..... 183
Bahs-munozara va nazorat uchun savollar ..... 192

7-BOB. PENSIYA JAMG'ARMASI FAOLIYATI NAZORATI
7.1. .Pensiya jamg'armasi faoliyati nazoratining mazmuni, vazifalari va ahamiyati ..... 194
7.2.Pensiya jamg'armasi faoliyati nazoratida dastlabki, joriy va so'nggi nazorat ..... 201
Bahs-munozara va nazorat uchun savollar ..... 207

8-BOB. PENSIYA JAMG'ARMASI FAOLIYATIDA AXBOROT TA'MINOTI
8.1. ..Pensiya jamg'armasi faoliyatida axborot ta'minotining o'rni va ahamiyati ..... 209
8.2.Pensiya jamg'armasi faoliyatida avtomatlashtirilgan PK "Pensiya" dasturi, uning mazmuni, maqsadi, vazifalari va ishlash mexanizmi ..... 213
8.3.Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining "SMS-Pensiya" interaktiv xizmati ..... 216
Bahs-munozara va nazorat uchun savollar ..... 219

9-BOB. PENSIYA JAMG'ARMASI: KELAJAKKA NAZAR
9.1.Pensiya ta'minotining xorij tajribalari va xususiyatlari ..... 221
9.2.Pensiya majburiyatlari va pensiya aktivlari o'sishini boshqarish ..... 231
9.3.O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining uzoq muddatli istiqbolda barqaror amalga oshirilishini ta'minlash ..... 242
Bahs-munozara va nazorat uchun savollar ..... 250
GLOSSARIY ..... 252
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI ..... 268
ILOVALAR ..... 273

**B. S. MAMATOV**

# PENSIYA JAMG‘ARMASI FAOLIYATI

O‘quv qo‘llanma.

Toshkent – «Barkamol fayz media» – 2017

Muharrir: M.Hayitova
Tex.muharrir: F.Tishaboyev
Musahhih: N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi: A.Kuchkarov

Barkamolfayz@mail.ru Nashr.lits. AI№284, 12.02.2016. Bosishga ruxsat etildi: 20.12.2017. Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Sharti bosma tabog‘i 17,5. Nashriyot bosma tabog‘i 17,75. Tiraji 300. Buyurtma № 6.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi. 100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi 171-uy.

ISBN 978-9943-5142-8-7

